TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

SARCHASHMA

82



TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

SARCHASHMA





"O'ZBEKISTON"
TOSHKENT — 2022

UO'K 821.512.154-3
KBK 84(5Qir)
S 32

Tahrir hay'ati:

Xayriddin Sulton – hay'at raisi,
Ibrohim G'afurov, Sirojiddin Sayyid, Asadjon Xodjayev,
Behzod Yo'ldoshev, Minhojiddin Mirzo, Muhammad Ali,
Ahmadjon Meliboyev, Kengesboy Karimov, Isajon Sulton

Ishchi guruh:

Ikrom Bo'riboyev, G'afur Eshmurodov, G'ayrat Bozorov,
G'ayrat Majid, Zuhriddin Isomiddinov, Rustam Musurmon,
Risolat Haydarova, Umid Hayitov

To'plovchi va nashrga tayyorlovchi:

Zuhriddin Isomiddinov

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 15-oktabr kuni Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida bo'lib o'tgan Turkiy davlatlar hamkorlik kengashining yettinchi sammitida tashkilotga a'zo davlatlar adabiyotining eng sara namunalaridan iborat "Turkiy adabiyot durdonalari" deb nomlangan 100 jildlik kitoblar turkumini har bir mamlakatning ona tilida nashr etish g'oyasini ilgari surgan edi.

Ushbu ezgu tashabbus asosida birinchi bo'lib O'zbekistonda mana shu muhtasham adabiy majmua yaratildi.

Mazkur keng ko'lamli, zalvarli badiiy silsilaga umumturkiy adabiyotning eng yetuk namunalari, O'zbekiston, Turkiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Ozarbayjon, Turkmaniston va Vengriya davlatlarining atoqli shoir, adib va mutafakkirlarining asarlari kiritildi.

Turkiy tilli davlatlar orasida ilk bor ro'yobga chiqarilgan ushbu yirik loyiha ona yurtimizda madaniyat va san'atga ko'rsatilayotgan ulkan g'amxo'rlikning, xalqimizning qardosh xalqlar va ularning so'z san'atiga nisbatan yuksak hurmat-ehtiromining ramzidir.

ISBN 978-9943-8570-9-4

©"O'zbekiston" nashriyoti, 2022

SO‘ZBOSHI

Qirg‘iz badiiy so‘zi to XX asrning boshiga qadar asosan og‘zaki tarzda rivojlangan. Shuning uchun ham ulkan dostonlar, mif va afsonalardan tortib, maqol va matallarga qadar — turkiy xalq og‘zaki ijodchiligining qariyb barcha janrlaridagi minglab asarlar qirg‘iz folklori xazinasida mavjud. Qahramonlik eposlari bilan birga, aholining o‘troqlasha borishi davomida inson hayotining ma’nosi va mazmuni, ezgulik va yovuzlik, eng yaxshi oliyjanob xislatlar, turmush hikmatlari bayon qilingan oqinlik poeziyasi ham taraqqiy etganki, qo‘lingizdagi qirg‘iz so‘z san’ati namunalarining o‘zbek tilidagi ushbu to‘qqiz jildlik jamlanmasining ikkinchi jildida (yuz jildlik turkiy xalqlar adabiyoti majmuasining — jildida) ulardan namunalar taqdim etiladi.

Albatta, davrlar osha qirg‘iz so‘z san’atiga qo‘shni ellarning adabiyoti, madaniy va maishiy turmushi ham ta’sir eta borgan. Chunonchi, XX asr boshlarida yashab ijod qilgan qirg‘iz oqinlari va yozma adabiyotning dastlabki vakillari ularning ovullariga borib yashagan va bolalarga saboq bergan fidoyi ma’rifatparvarlar — tatar va o‘zbek mullalaridan bilim olganlar, shu bois, ularning asarlarida davrlar osha arabiy va forsiy kalimalarning salmog‘i osha borib, bu orqali ham milliy leksikon yanada boyib, bugungi qirg‘iz adabiy tili shakllangan. Masalan, bizga ma’lum eng ulug‘ manaschi oqin, badiiy jihatdan eng mukammal variantning mualli-fi Sog‘imboy O‘rozbay o‘g‘li o‘z tug‘ilib o‘sgan ovulida to‘qqiz yoshigacha o‘zbek maktabdor ulamosidan ta’lim olgan. Bu esa ayni variantda turkiy so‘zlar bilan birga, arabiy va forsiy leksikonning ham keng qo‘llanib, asarning evfonik jihatdan behad jozibador bo‘lishiga olib kelgan.

XX asrning birinchi choragini qirg‘iz (va umuman barcha turkiy xalqlar) madaniy hayotining shiddat bilan taraqqiy topgan, yangi adabiyoti tug‘ilgan bir davri bo‘ldi, deyish mumkin.

Aslida, XIX asr oxiri va XX asrning boshlari — ijtimoiy va iqtisodiy turmush sharoiti eng og'ir, bunga vobasta ravishda tushkunlik avj olgan, haqsizlik o'ta kuchaygan bir zamon edi. Binobarin, butun umri davomida haqiqat va adolatni tarannum etgan, o'nlab badihago'y oqinlarga ustozlik qilgan To'qtag'ul asosan satira va hayotiy o'gitlar bilan ziynatlangan o'lmas asarlar yaratdi. To'qtag'ul zamonida yashab ijod qilgan, o'sha vaqtdagi masjidlar qoshida faoliyat yuritgan maktablarning ilk talabalari orasidan chiqqan Nurmo'lda, Mo'lda Qilich singari oqinlar yaratgan asarlarda esa eski an'analarga vobasta bo'lgan yangi ijod turi — yozma adabiyot namunalari ham bo'y ko'rsata boshlagan. Ularning dastlabki yozma asarlari Qozon, Ufa va boshqa shaharlarda chop etilgan. Mo'lda Niyoz, Jengijo'q, To'qtag'ul, Moldo Qilich, Barpi, To'g'aloq Mo'lda, Nurmo'lda, Qalig'ul, Aristanbek, Mo'lda Bag'ish, Qaliq Akiyev, Qo'rg'o'l Do'suyev kabi oqinlar ijodi o'tmish so'z san'ati va hozirgi qirg'iz adabiyoti o'rtasida oltin ko'prik bo'ldi.

Bu oqin-adiblarning ismi avvaliga ko'p hollarda "Mo'lda" (mulla) so'zining qo'shilishi bejiz emas, ularning aksari ibtidoiy diniy maktablarda o'qib savod chiqarishgan, Sharq adabiyotining mashhur shoirlari asarlarini xatm qilib, ularga ergashishgan.

Birinchi qirg'iz gazetasi hisoblangan "Erkin too" (Ozod tog') esa 1934-yilning kech kuzida Markaziy Osiyoning madaniy poytaxti bo'lgan Toshkent shahrida chop etilgan. Ushbu gazetaning birinchi sonida XX asr qirg'iz yozma so'z san'atining boshlovchilaridan biri, keyinchalik qahramon shoir, akademik darajasiga yetishgan, o'sha paytda esa SAKU talabasi bo'lgan Aali To'qamboyevning zamonani tarannum etuvchi ilk she'ri ham bosilib chiqqan. Ya'ni, aytish mumkinki, zamonaviy qirg'iz adabiyoti qirg'iz matbuoti bilan birga, bir vaqtda tug'ildi.

O'tgan asrning yigirmanchi yillari va o'ttizinchi yillari boshida qirg'iz ziyolilarining butun bir avlodi — u paytda butun Markaziy Osiyo bir ijtimoiy hudud hisoblanar edi — Toshkentda o'qib, bilim olgan. Shu bilan birga, bu avlod ijodkorlari badiiy ijod bilan shug'ullanishdan tashqari, ma'rifatchi bo'lishgan: maktab darsliklarini tayyorlashgan, dars berishgan, til, imlo va adabiyot

masalalari bo'yicha ilmiy faoliyat bilan ham shug'ullanishgan, yangi urf bo'lgan teatr san'atini rivojlantirish uchun dramatik asarlar ham yozishgan. Qasim Tinistanov, Qosimali Boyalinov, Muqay Elebayev, Joomart Bo'ko'nbayevlar ana shular jumlasidan.

Ular bilan zamondosh bo'lgan Aliqul O'smonov qisqa, ammo samarali ijodiy faoliyati davomida qirg'iz she'riyatini juda baland martabalarga ko'tara oldi. Uning samimiy, hassos she'rlari, mana, bir necha o'n yillardirki, qirg'iz yoshlarining yangi-yangi avlodlarini zavqqa oshno qilib, badiiy didini o'stirib kelayotir. Biz ayrimlarini tilga olib o'tgan adiblarning asarlari qirg'iz so'z san'ati namunalari uchun ajratilgan to'qqiz jildlikning uchinchi jildidan o'rin olgan.

Bu avlod vakili sanalgan adiblarning deyarli barchasi zamona taqozosiga ko'ra ham she'riy, ham nasriy yo'lda ijod qilgan va bu jihatdan ham G'afur G'ulom, Oybek va boshqa o'zbek qalamkashlarini esga soladi. Ikkinchidan, ularning barchasi, istisnosiz ravishda, "qatag'on tegirmoni"ga tushgan. Bir qismi o'shanda, yoinki II Jahon urushi janggohlarida nobud bo'lgan, bir amallab qutulib chiqqan boshqa qism adiblar esa umrining oxirigacha partiyani, Leninni, sotsializm zamonini "tarannum" etib asarlar yozishga majbur bo'lishgan.

Qariyb o'sha davrga mansub ijodkorlardan yana biri, eng yirik qirg'iz romannavisi Tugalboy Sidiqbekov asarlari ham, umuman olganda, ana shunday "kuylash"lardan xoli emas. Biroq o'tgan asrning yetmishinchi yillari oxiriga kelib, o'nga yaqin katta-katta romanlari chop etilib elga tanilgan bu yozuvchi boshidan o'tgan issiq-sovuq kunlarni, og'ir voqealarni xotirlab, "men ming yil yashadim", deb kitob yozdi, milliy hayotga xos udum-tutumlarni, tarix ruhini hammadan yaxshiroq bilgani sababli, avlodlarga xotira bo'lib qolishi uchun umrining oxirgi pallasida "Ko'k yalov" degan katta bir roman bitdi; uning asosiy pafosi va qiymati qirg'izlarning bundan bir yarim ming yillar avval Oltoy hamda Sibirda — turkiy xalqlarning bobo yurtidagi hayoti keng epik panorama tarzida tasvirlanishidadir. Bu asarida yozuvchi, bizning shoir Mirtemir kabi, "shu chog'gacha o'zni men cheklab bo'ldim" (ya'ni, endi erkin qalam tebrataman), deya ilhom bilan qadim o'tmish zamonlarini,

o‘sha paytga xos milliy turmush tarzini batafsil, miridan sirigacha ko‘rsatishga harakat qilgan. Biz Tugalboy Sidiqbekovning bundan avval ona tilimizda mavjud bo‘lgan, kitob bo‘lib bosilib chiqqan tayyor romanlarini qayta chop etmay, aynan “Ko‘k yalov” romanini tarjima etib, shu to‘plamga kiritishga qaror qilganimiz boisi shundaki, uni o‘qigan kitobxon do‘stlarimiz shoyad shu asar bahona bo‘lib, o‘z ona tariximiz ruhi haqida tafakkur qilsalar, yozuvchilarimiz esa shu asar turtkisi bilan o‘zbek elining ming-ikki ming yil avvalgi ro‘zg‘orini badiiy gavdalantirib berishga ham jahd qilsalar...

Undan keyingi jild — Chingiz Aytmatov asarlaridan iborat. XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asr boshlari jahon so‘z san’ati xazinasini beqiyos asarlari bilan boyitgan, barcha turkiy xalqlar so‘z san’atining faxri-obro‘si bo‘lgan Chingiz Aytmatov avvalo qirg‘iz adabiyoti vakilidir.

Uning ham badiiy jihatdan, ham g‘oyaviy mazmuniga ko‘ra g‘oyat jozibador asarlari hozirdanoq dunyo adabiyotining mumtoz namunalari qatoriga o‘tgan. Bilasiz, Qirg‘iziston hududining to‘rtdan uch qismi — tog‘. Ammo Chingiz og‘aning har bir qissasini, romanini bu tog‘lar silsilasida paydo bo‘lgan yangi ulug‘vor cho‘qqiga mengzash mumkin.

Biroq tom ishonch bilan aytish kerakki, o‘zbek adabiyotini yanada yuksaltirishga ham Chingiz Aytmatov asarlarining ta’siri bizdagi eng taniqli yozuvchilarimizning ta’siridan kam emas. Bu turkumda zalvarli so‘z ustasi Chingiz og‘aning eng mashhur asarlari sizga peshkash tutilyapti.

O‘zbek kitobxoni yaxshi biladi, bundan ellik yilcha avval qirg‘iz adabiyotida yana bir asar katta voqea o‘laroq paydo bo‘ldi. Bu — To‘lagan Qosimbekovning “Singan qilich” romanidir. Unda Qo‘qon xonligining tanazzuli boshlangan davr — Sheralixon, uning o‘g‘li Xudoyorxonlar yuritgan siyosat, o‘lkaga chor Rossiyasining bosqini tasvirlangan. Garchi, bu mavzu yuz yilcha avval Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar”, “Mehrobdan chayon” romanlarida birmuncha yoritilgan bo‘lsa-da, o‘shandan keyin qatag‘on siyosatidan yurak oldirgan o‘zbek yozuvchilari uchun Qo‘qon xonligi davrini yoritish — taqiqlangan bir mavzu bo‘lib

qolgan edi. Qariyb yarim asrlik "tanaffus"dan so'ng qirg'iz adibining bu asari orqali o'zbek o'quvchilari ham eldan yashirib kelingan tarixiy o'tmish bilan yana bir bor yuzma-yuz keldilar. "Singan qilich" tarjimasi qo'lma-qo'l qilib o'qildi. Zotan, bu holning o'zi ham adabiyot siyosatida yangi bir davr boshlanib kelayotganidan darak berar edi.

"Turkiy adabiyot xazinasidan" sirasidagi ushbu yuz jildlikning keyingi jildi XX asr adabiyoti uchun "o'rta avlod" sanaladigan o'nlab yozuvchilar, shoirlarning asarlari bilan to'ldirilgan. Va nihoyat, so'nggi ikki jild bugungi qirg'iz nasri va she'riyati namunalaridan tashkil topgan.

Endi, ushbu jildga kiritilgan asarlar to'g'risida bevosita so'z yuritadigan bo'lsak, XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlari qirg'iz so'z san'ati juda chuqur o'zgarish va yangilanishlar davri adabiyoti bo'lib tarixda qolganini aytish lozim. Zero iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan chuqur tanazzulga qaramay, XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlari qirg'iz so'z san'ati uchun alohida davr bo'lib qoldi.

Avvalo, aynan shu paytda Rossiya Markaziy Osiyoni zabt etdi va buning oqibatida Yevropa madaniyatiga xos bo'lgan har turli unsurlar (samovar, pech, bosmaxona, izvosh...) Osiyo atalmish ko'hna qit'aga ozdir-ko'pdir kirib kela boshladi. Ikkinchidan, bu mahalda dunyo bo'ylab alohida toifa kishilarni emas, balki butun xalqni savodli qilish, eskicha ta'lim tizimini tubdan isloh etib, yangi yo'lga qo'yish harakatlari boshlandi. Bu harakat turkiy dunyoda ayniqsa keng yoyildi.

Ana shu ulkan ijtimoiy harakat natijasida asrlar davomida iqtisod va ilm-fan, dunyoviy taraqqiyot sohasida bir qadar orqada qolgan Turkiston o'lkasining tog'li va dashtli puchmoqlaridagi el ham tez sur'atlarda dunyo darajasiga yetib olishga chog'landi. O'troq yashagani va shu bois uzoq asrlik ma'rifiy an'analar sohibi bo'lgan tatar hamda o'zbek xalqining ayrim fidoyi ziyolilari qirg'iz ovullariga ko'chib borib yashay boshladilar — ular islom dinini keng yoyish barobarida maktablar ochib, kambag'al xalq farzandlarini ham o'qitishga kirishdilar. Ko'p vaqt o'tmay, bu nihollar nishona berdi — ilgari faqat og'zaki tarzda rivojlanib kel-

gan qirg‘iz so‘z san’atida yozma adabiyotning dastlabki namunalari paydo bo‘ldi, birinchi qirg‘iz yozg‘ich oqinlari bitgan asarlar bu xalq so‘z san’atida yangi davr boshlanganining daragi edi.

Albatta, bu hali faqat kurtak holida edi — to XX asrning o‘ttizinchi yillariga qadar — qirg‘iz adabiyotida og‘zaki an’analar yetakchilik qilib keldi; oqinlik she’riyati hamon barq urib davom etdi. Qirqinchi va elliginchi yillarga kelib qirg‘iz she’riyati keskin yangilandi — anaforik alliteratsiya va uch bo‘g‘inli (asosan fe’l o‘zakli) klauzula negiziga qurilgan she’r tuzilishi o‘z o‘rnini zamonaviy poeziyaga bo‘shatishga kirishdi, she’riyat yangi mavzular, yangi g‘oyalar va yangi shakllarni o‘zlashtirish yo‘lida odimlay boshladi.

O‘ttizinchi yillarda kurtak holida namoyon bo‘lgan nasr ham yillar osha taraqqiy etib, tez orada romanlar, ko‘plab qissa va hikoyalar maydonga keldi.

Bunda, deyarli har bir qirg‘iz shoiri o‘z ijodining asosan keyingi yillarida nasr bilan ham shug‘ullanganidan tashqari, Tugalboy Sidiqbekov, Chingiz Aytmatov, To‘lagan Qosimbekov kabi “professional” nosirlar qirg‘iz prozasining taraqqiy etishiga katta hissa qo‘shganini aytish kerak.

Qirg‘iz nasrining bu qadar yuksalishida, bizning nazarimizda, yana bir muhim omil bor. Gap shundaki, asrlar davomida ko‘chmanchi turmush kechirgan, yozma adabiy an’analari yo‘q xalqlarda folklor kuchli taraqqiy etibgina qolmay, balki umuman so‘z aytish, so‘zamollik ham juda rivojlangan bo‘ladi. Og‘zaki hikoyalarni, naql va rivoyatlarni, turmush voqealarini, o‘z boshidan o‘tgan hangomalarni ta’sirli qilib aytadigan odamlar ko‘p bo‘ladi. Bu esa shakllanib kelayotgan qirg‘iz nasri uchun mo‘l-ko‘l manba bo‘lib xizmat qilgani shubhasiz; hikoyachilik xalqning mentalitetiga aylangan.

Ushbu jild, asosan, oqinlik she’riyati vakillarining asarlaridan iborat. “Dunyo”, “Umr”, “Suv” kabi an’anaviy mavzularda yangi gap topib aytish, axloqiy-falsafiy yo‘sinda nasihat she’rlari aytish, va albatta, ijodiy musobaqa tarzidagi “Aytishuv”lar og‘zaki lirik she’riyatning o‘zak mavzularini tashkil qilgan. Qo‘lingizdagi jildga, dastlabki qirg‘iz yozg‘ich shoirlari asarlaridan tashqari, yangi

zamon voqeligi taqozosi bilan yuzaga kelgan qirg‘iz ma’rifatchiligi vakillarining asarlari ham kiritildi, ularda bundan yuz yil avval — o‘tgan asrning yigirmanchi yillarida o‘lkada yuz bergan o‘zgarishlar qalamga olinadi. Shuningdek, qirg‘iz nasrining birinchi namunalari tarjimalari ham o‘rin olgan.

O‘tmishdagi va bugungi qirg‘iz adabiyoti, u she’riy shaklda bo‘ladimi, yo nasriy, bundan qat’i nazar, turkiy xalqlar badiiy ijodchiligi maydonida alohida o‘rni va salmog‘iga ega bo‘lgan, yetarlicha e’tirof etilgan, o‘z xalqining dilidagini tilga chiqargan, o‘qib-o‘rgansa arziydigan milliy so‘z san’atidir.

Zuhriddin Isomiddinov,
filologiya fanlari nomzodi

QALIG‘UL

(1785–1855)

Qalig‘ul Boy o‘g‘li — issiqko‘llik. Qirg‘iz elida Qalig‘ul mutafakkir, donishmand shoir sanaladi. Turmushi, hayot yo‘li to‘g‘risida ma’lumotlar oz, ehtimol shuning uchundir, bu shoir haqida turli naql va rivoyatlar ko‘p to‘qilgan. Qirg‘iz biylari orasida e’tiborli zot sanalgan va mahalliy hokimiyatdagi o‘zgarishlarga katta ta’sir qilgan.

NASIHAT SHE’R

Shatirlatib yog‘sa yomg‘ir,
Yerga yoqar derdilar.
Yaxshi chiqqan azamat
Elga yoqar derdilar.
O‘sha odam o‘ylasang,
Kimdan chiqar deb aytgan
O‘sha taralgan xaloyiq,
Eldan chiqar deb aytgan.
Oltin-kumush asillar
Yerdan chiqar deb aytgan.
Tekis yerda tegirmon,
Yurib turar deb aytgan.
Aylanib barchasin,
Bilib turar deb aytgan.
Qizil, qizil qoyalar,
Qirg‘iy tolga uyalar.
Do‘ppisin qo‘lga olib,
Qiz yigitni quvalar.
Yashil ola qoyalar,
Lochinlar tolga uyalar.

Yaxshi zamon kelganda,
Yoshlar bizni quvalar.
Rangi sariq, ko‘zi ko‘k
O‘ris chiqar deb aytgan.
Ming tutunga bir kishi,
Boshchi chiqar deb aytgan.
Buyruq bilan ko‘ndirgan
Qo‘shni chiqar deb aytgan.
Uzun o‘tning barisin
O‘rib chiqar deb aytgan.
Qisqa o‘tning barisin
Ko‘rib chiqar deb aytgan.

Erkak unli ayolning
Uyati yo‘q,
Xotin unli erkakning
Quvvati yo‘q.
Ho‘kiz shoxli sigirning
Suti bo‘lmas.
Inak shoxli ho‘kizning
Kuchi bo‘lmas.
Otaning gapin bola olmas,
Undan ortiq bila olmas.

Qiyqirgan tovushi bel oshmay
Un qisqargan bir zamon.
Qilsa yumushi bitmagan,
Kun qisqargan bir zamon.
Xo‘ja-mulla yo‘qolib,
Din qisqargan bir zamon.
Ro‘za tutmay, namoz o‘qimay,
Din qisqargan bir zamon.
O‘sha yaxshi, biz yomon.
O‘tib borar bir zamon,
Biz yurgan yer tor zamon,
Keyin kelar zar zamon.
Qayg‘usiz kishi qarimas,

Yolg‘onchi kishi shod bo‘lmas.
Besh birga bo‘lmasdan, yoz bo‘lmas,
Fe’li tor kishi boy bo‘lmas.
Yulduz to‘planib oy bo‘lmas,
Ko‘ngli tor odam boy bo‘lmas.

Yomon ishga kirishma
Aqli yo‘q, bo‘z bola.
Halol ishdan qolishma
Aqlliga do‘st bola.
Aqlsizga yo‘liqma,
Sirpanib yana yiqilma,
Xudoga yana yolvorma.

Yomon ishdan qochib ket —
Yaxshilikka yetasan.
Xudo urib yomonga
Yo‘liqmagin nodonga,
Armonda yurib o‘tasan,
Omonat jondan kechasan.
Yaxshi gapga shoshmagin,
Sabr qilib yetvolgin.
Xullas yakuni o‘shandan
Yaxshilikni toparsan.
Etagi yo‘q, yengi yo‘q kiyim chiqar,
Eng oxirgi bolasi qiyin chiqar.
Aqcha qog‘oz pul bo‘lib tiyin chiqar,
Eng oxirgi bolasi o‘tkir chiqar.
Kunda kengash bir yaxshi yig‘in chiqar,
Bunday yaxshi bir zamon keyin chiqar.
Etak yengi kesilib chopon chiqar,
Eng keyingi bolasi topon chiqar,
Ikki uchin qaqqaytib qayiq chiqar,
“Erimni o‘zim bilaman” deb xotin chiqar.
Mehnat ketmas tanbaldan,
So‘z qutulmas chechandan.

Terakning tagi tut bo‘lar,
Yomon odam qirt bo‘lar.
Yomonning bari tortinchoq,
Har bir ishga iymanchoq.

Aqli bor azamat,
Har bir so‘zga saman ot.
Olg‘ir bo‘lsa it tozing
Oltindan, bo‘yinbog‘ taq.
Ololmasa undayni
Aylansin oshdan, boshqa taq.
Chopqir bo‘lsa it tozing
Kumushdan, bo‘yinbog‘ taq.
Quyib ketsang yomonga,
Quyib yurmay, boshqa top.

Oltin tamg‘a, oy munchoq
Odamga qaydan keladi?
Xotining yomon bo‘lgan so‘ng,
Obro‘ying qaydan keladi?
Er odamning yomoni
Yurishidan qul bo‘lari
Urg‘ochining yomoni
Fikri bilan tul bo‘lar.
Donishmandning aytgani,
Avaylasang pul bo‘lar.

Tom bir yili ko‘payar
Daraxt bir joyda ko‘karar.

Qarqara qatori bilan yurar,
Qadrini bilgan kishi bilar.

Gapirgandan gapirmagan yaxshiroq,
Gapirganning boshiga tegar tayoq.
Aql-maqol bir bo‘lib kelar,
Ul ikkisin aytgani tegar.
Bilmagan nodonlarning ichi kuyar,
Bilgan odam o‘shani fahmiga yetar.

Yuragiga o‘ylanib solib qo‘yar.
Bilmaganlar o‘shani kulgi qilar.

Yigirma bilan o‘ttiz yosh —
O‘tsa qaytib kelmaydi.
Yelib umr o‘tgan so‘ng,
Yigit bo‘lmas chol qayta.
Arg‘umoq oting qarisa,
Chopmog‘i qiyin dam qaytib.
Chinorni kessang tubidan,
Chiqsa kelmas jon qaytib.
Ketsa davlat qo‘lingdan,
Kelmog‘i qiyin mol qaytib.
Yigitlarga qiz yaxshi,
Lochinbozga qush yaxshi.
Gap uqmagan yomonga
Yaxshi so‘zdan musht yaxshi.
Bul yolg‘ondan nur yaxshi,
Bulbullarga gul yaxshi.
G‘amning hasratin yozishga,
Bulbul sifat til yaxshi.
Olis safarga yo‘l olsang,
Hashamli yo‘rg‘a ot yaxshi.
O‘qisang ilm o‘rganib,
Aqlni yozgan xat yaxshi.
Xasislarning mingidan
Bir bo‘lsa ham mard yaxshi.
Foydasi yo‘q yaqindan,
Muomalali sart yaxshi.
Madori yo‘q yaqindan,
Bordi-keldi yot yaxshi.
Gapi yomon xotindan,
Kasal qilgan dard yaxshi.
Mevasi yo‘q daraxtdan,
Yovvoyi o‘sgan tol yaxshi.
Odamning uchar qanoti —

Oz bo‘lsa ham mol yaxshi.
G‘oz-o‘rdakka ko‘l yaxshi,
Xotinlarga er yaxshi.
Bermasa ham yordamli,
Barakali el yaxshi.
Chor tarafga mol o‘tlab,
Chorva molga tog‘ yaxshi.
Qochsa ketib qutulib,
Kiyiklarga qir yaxshi.
Yaxshi bo‘lsang yerday bo‘l,
Hammani chidab ko‘targan.
Toza bo‘lsang suvday bo‘l,
Barini yuvib ketkizgan.

Rizq oldi inoqlik,
Totuvliging yo‘q bo‘lsa,
Oldindan tayyor oltin taq.

Ori yo‘q — kulguchi,
Sanog‘i yo‘q — uyquchi.

Basavlat kishi botir bo‘lar.
Beo‘t joying taqir bo‘lar,
O‘shal zamon yaqin bo‘lar.

Oyog‘ing tosh bo‘lar,
Quling bosh bo‘lar.
Yaqining kas bo‘lar.
Qo‘rang bo‘sh bo‘lar.
Minganing yog‘och ot bo‘lar.
Ichganing qasam-ont bo‘lar.

Be’maniga jon berib,
Imonidan yot bo‘lar.

Baxtliga agar qarasang,
Muz ustiga o‘t yoqar.
Bog‘i yo‘qqa qarasang,
Quruq tomdan suv tomar.

MO‘LDA NIYOZ ERNAZAR O‘G‘LI

(1823–1886)

Qirg‘iz so‘z san’ati tarixidagi eng murakkab ijodkorlardan biri. Arab, tojik, uyg‘ur va o‘zbek tillarini yaxshi bilgan, Qashqar madrasasida ta’lim olgan. O‘z qo‘li bilan yozib qoldirgan o‘nga yaqin kitobi bo‘lgan.

EGAM BILAR HISOBIN

Bismillahir rohmanir rohiym

Yiroq qilib shahridan,
Benasib qildi Xudoyim
Yaxshilarning bahridan.

Yaratdi bizni qir yerga,
Jamoat namoz o‘qimay,
Yoshimiz yetdi bir yerga.

Uzatsa yetib har yerga,
Uzun qilib Xudoyim
Ba’zilarning qo‘lini.
Xayr-u saxo qilolmay,
Qay yerga yetdi yoshimiz.
Qandoq topib ketamiz
Oxiratning yo‘lini?

Safaring yetib qiroqqa,
Bul yolg‘onchi dunyodan
O‘lib borsang bir kuni
Farishta kirar so‘roqqa.

Javobini bermasang,
Joning solar faloqqa.
Jon egam qo‘ygan muakkil
Yalinsang qo‘ymas bu yoqqa.

Jon-jigardan judo bo‘p,
Joylanasan shu yoqqa.
Bularni tashlab qaytmoq yo‘q
Bog‘lanasan o‘shoqqa.

Burungi so‘zdan aytmoq yo‘q,
Bozorda mol sotmoq yo‘q,
Bundagiday mulking yo‘q,
Rohat, o‘yin-kulking yo‘q.

Otga minib yelmak yo‘q,
Uyingga qaytib kelmak yo‘q,
Har xil so‘zni demak yo‘q,
Ichib, kiyib, yemak yo‘q.
Quvonib to‘n kiymak yo‘q,
Xotin, bola suymak yo‘q.

Qadrli aziz bu boshing
Qora yerga qo‘yilar.
Eting-tering so‘yilar,
Ikki ko‘zing o‘yilar,
Bo‘g‘in-banding so‘kilar,
Turpoq to‘lar ko‘zingga,
Turfa kun tushar o‘zingga,
Qarindosh kelmas qoshingga,
Qattiq kun tushar boshingga.

Ikki yelkang past qilar,
Etlaring qurtga osh qilar.
Yelkangdan boshing uzilib,
Yer tagida tosh qilar.

Joning tandan uzilsa,
Joylanmay joning qiynalsa,
Odamzod, holing ne kechar?

Ahvolingdan men aytsam,
Jon egam o‘zi yaratgan
O‘n sakkiz ming olamni
Arshi kursi, lavh qalamni.

Xalloq egam yaratdi:
Avval Odam Atoni,
Sabab bo‘lib Azozil
Bilib turib o‘limni,
Bandasi qilar xatoni.
Umid qilar bandasi
Xudoyimning bir oti
G‘affor qilar atoni.

Bandaning ishi xatarlik,
Haqiqat shoh Xudoyim
Qilarmikan sattorlik?
Ozdir-ko‘pdir gunohing,
Azob qilar Xudoyim.

Poytaxtda o‘tirgan
Poshshoni olar bir kuni.
Hukmi ketib qo‘lidan,
Boshidagi bo‘rkini.

Podshohlar poshshosi
Jon Egamning bir oti
Jabbor, deb umid qilamiz.
Gunohkor banda ayb qilsa,
G‘affor, deb umid qilamiz.

Chindan maraz — kasalga
Tabib, deb umid qilamiz.

O‘z nuridan yaratgan
Habib, deb umid qilamiz.

Mas’ala bilgan mullalar
Makruh deydi gumonni.
Yozuqli banda gunohkor,
Jon egam bersin imonni.

Bo‘z qilar kosib tandani,
Shayton yo‘ldan ozdirar
Xom sut ichgan bandani.

Payg‘ambarim ummat deb
Osiy, jofiy, gumrohni
Qiyomatdan xavfi kam
Imon yo‘ldosh hamrohni.

Kosib to‘qir parchani,
Kofir bezar archani,
Boyonlar g‘amlar aqchani,
Otga solar sholchani.
Yavmuljazo — qattiq kun
Jannati qilsin joyini.
Jamolini ko‘rsatib,
Yarlaqasin barchani.

Azobi qattiq do‘zaxdan
Omon asrasin Yazdon...

ARSTANBEK BUYLASH O‘G‘LI

(1824–1878)

Arstanbek Buylash o‘g‘li Issiqko‘l viloyatining Sirti degan yerida tug‘ilgan, bolaligidan chorva bilan shug‘ullangan. Ulg‘aygach, ijod va ijro mahoratida yetuk ustoz bo‘lib tanilgan. Mutafakkir va shoir, usta qo‘mizchi bo‘lganini naql qiladilar. “Zamona” mavzusida ijod qiladigan oqinlarning eng yirik vakillaridan biri sanaladi. Uning she’riy ijodi, davr taqozosiga ko‘ra, asosan, pand-nasihat mavzusidagi asarlardan iborat.

TOR ZAMON

Qarilardan gap uqdik,
Mish-mishlardan so‘z uqdik.
O‘shanda o‘ris chiqadi deyishardi,
Ming uyliga bosh bo‘lib,
Bo‘lis chiqar deyishardi.
Buyruq bilan qo‘ndirgan
Qo‘shni chiqar deyishardi.

O‘sha zamon tor zamon,
Oziqliga bor zamon.
Bechoraga zor zamon.
Zamoning keldi ta’qiblab,
Tozi itday quvalab.

Katta suvning barisi
Girdobli bo‘lar deyishardi.
Kichik otaning bolalari
Ulug‘ bo‘lar deyishardi.

Yog‘in-sochin ozayib,
Shamol bo‘lar deyishardi.
Odamzodning bilgani
Amal bo‘lar deyishardi.
Qish ko‘payib, yigitlar,
Yoz ozayar deyishardi.
Qorindagi yig‘ilgan
Moy ozayar deyishardi.
Qo‘radagi qamalgan
Qo‘y ozayar deyishardi.
O‘yin-kulgi tugallab,
To‘y ozayar deyishardi.

Ko‘ch oldi bo‘lar o‘rising
Sariq xalq bo‘lar qo‘shining
Yaylov turmoq, to‘r qayda,
Ochib kirar go‘r qayda?

Qozoq, qirg‘iz yig‘ilib
Duo qilib olsakmi?
Qashqardagi baqdavlat
Ota qilib olsakmi?

Oldingidan farq ketdi,
Odatlardan fayz ketdi.
Kambag‘aldan farq ketdi,
Rasm-rusum, narx ketdi.
Yasovullar kelar sharaqlab,
Bechoraning bitta otini ko‘zlab.
Yasovullar mensimay mindi ayg‘irni.
Yaxshilarning barisi:
“Chin gapim shunday bo‘ldim”, — deb,
Yotib olib qayg‘urdi.
Oltin, kumush yo‘q bo‘lib,
Qizil qog‘oz pul bo‘ldi.
Qur’on turib, o‘zicha

Xat yozilar deyishardi.
O‘sha xatni ko‘tarib,
Ot chopishar deyishardi.
O‘zi sariq, ko‘zi ko‘k
O‘ris chiqar deyishardi.
O‘sha o‘ris chiqqanda,
“Bir, ikki”, deb sanagan,
Pishiq chiqar deyishardi.
Otasining bolasi
O‘tkir chiqar deyishardi.
O‘sha o‘ris chiqqanda,
Ikki uchi qaqqaygan,
Qayiq chiqar deyishardi.
Mayli qadrim ortar deb,
Elechagin silkitib,
Xotin chiqar deyishardi.
O‘sha o‘ris chiqqanda,
Qora yo‘l qilar ko‘lingni,
Hisobga olar yeringni.
Alanglab senda chama yo‘q
Oshganday chopar belingni.
Ey, yurtim, ko‘rarsan
Arava bilan chanani,
Boqib ko‘r buzoq bilan dalani.
Boqmasang buzoq bilan dalani,
Soldatlikka berarsan,
Ichingdan chiqqan bolani.

Qarag‘ayning uchida
Chinni bo‘lar deyishardi,
Chinniga mahkam bog‘langan,
Simi bo‘lar deyishardi.
Uzun quyruq, qo‘ng‘ir ot
O‘risdan chiqar deyishardi,
O‘n quloqli mis qozon

Qo‘ladan chiqar deyishardi.
Shumliklarning barisi
Boladan chiqar deyishardi.

Aqcha, tanga tuganib,
Tiyin chiqar deyishardi.
Otasining bolasi
Uddaburon deyishardi.
Qal’a, qo‘rg‘on ko‘payib,
Kent tuganar deyishardi.
Tegaragin urdirgan
Qo‘rg‘on chiqar deyishardi.
Qog‘oz bilan ish bitib,
Surgan chiqar deyishardi.
Keyingilarning barisi,
Oyoq-qo‘lin yashirmay,
O‘tkir chiqar deyishardi.
Olmaotadan otlanib,
O‘ris kelayotiray.
Kalta o‘tning barisin
Ko‘rib kelayotiray.
Uzun o‘tning barisin
O‘rib kelayotiray.
Bu o‘risni qarasang,
Ayg‘oqchi solib, yer oldi,
Biyadan tug‘ilgan to‘riq oldi.
Qorni osilgan boyni oldi,
Qochadirgon joyni oldi.
Qochganing qayga qutuldi,
To‘g‘ridan soldi tuzoqni.
Ushlab oldi Kuljadan
Balboy bilan Shohruxni!
Suvga chiqqan ko‘gaday,
O‘ris kelsa siylaysan
Oq soqolli akangday.

O‘zimizning qari qoldi
Suvga tushgan takaday.
Bu o‘risni qarasang,
Suvga soldi bekatti.
Bo‘lislarni qarasang,
Xotinlarday nozlandi.
Olti oylik yo‘llarda
Olti kunda so‘zlashgan
Bu kofirning siri bo‘lar deyishardi.
Ustaraning tig‘iday,
Ag‘darilgan duniyo.
Yasovullarning kiygani
Qator-qator duriyo.
Yasovullar mińdi yaxshi otni,
Kambag‘alning barin qaqshatdi.
Yasovullar mindi uchqur otni,
Elga soldi nizoni.
Shunday zamon bo‘lganda,
Musulmon ko‘rar janjalni.

Oxir zamon bo‘lganda,
Qo‘y ozayar deyishardi,
Elda ayol ko‘payib,
Er ozayar deyishardi.
Bo‘yga yetgan qizlarning
Oldingiday ko‘rki yo‘q,
To‘y ozayar deyishardi.
Qiz o‘n beshga chiqqanda,
Onasiga bosh bermay,
Bo‘yinsunmas deyishardi.
Endigi azamatlarning barisin
Xotini boshqarar deyishardi.
Elachagin silkitib,
Ayol chiqib yig‘inga,
Chechan bo‘lar deyishardi.
Kelajakda barisi,

Kamharakat bo‘lar deyishardi.
Shum yolg‘onning belgisi —
Qarag‘ayning tongida
Elik bo‘ldi elimiz.
Qoplangan tuzni ko‘targan
Yuk hayvon bo‘ldi elimiz,
Boshga ursa, churq etmas,
O‘lik bo‘ldi elimiz.

NURMO‘LDA

(1838–1920)

To‘kma oqin, ma’rifatparvar ijodkor Nurmo‘lda Jalolobod viloyatining Olabuqa tumanida tug‘ilgan. Qishloq maktabida savod chiqarib, so‘ng Namangan madrasasini xatm qilgan va o‘zi o‘qigan madrasada mudarrislik qilgan, atrof qishloqlarda masjid qurdirgan va bolalarni o‘qitgan. “Zamona”, Mullaqirg‘iz madrasasidagi ir (she’r)” degan ikki kitobi nashr etilgan. Nurmo‘lda oqin qirg‘iz yozma adabiyotining asoschilari Qalig‘ul, Mo‘lda Niyoz, Mo‘lda Qilich, Usmonli Mo‘ldalarning biridir.

Xo‘sh, ma’rifatparvar oqin Nurmo‘ldaning she’riyatida qanday ilg‘or fikrlar olg‘a surilgan? Umuman komil inson sifatida uning dunyoqarashi qanday bo‘lgan? Bu savollarga javob topish uchun zamondoshlari tomonidan baxshiga berilgan ta’riflar bilan tanishib chiqsak. Masalan, Nurmo‘lda haqida To‘qtag‘ul shunday degan:

Ko‘zlarida o‘qi bor,
Qo‘llarida cho‘g‘i bor.
Ustozimdir Nurmo‘lda,
Ulamoda yo‘g‘i bor.

Nurmo‘lda nomdor oqingina emas, ko‘zi pishgan tabib va yetuk ulamo ham bo‘lgan.

Bu to‘g‘rida zamonasining ardoqli shoiri Eshmambet quyidagicha yozgan:

Vodiyning zo‘r oqini,
Oppoq salla o‘ragan.
Tabiblikda tengi yo‘q,
El ahvolin so‘ragan...

Xususan, savodsiz kishilarni o'qitish, bilim o'rgatish borasida ham Nurmo'lda ibrat ko'rsatganligini zamondoshlari tan olishgan.

Qirg'iz adabiyotining asoschilaridan biri, talantli oqin Barpi Nurmo'ldaga bag'ishlovini ushbu misralar bilan yakunlaydi:

Lol-u hayron odamlar,
Ko'hiqofda bo'lganday.
Bilim-ilim ulashar
O'n madrasa ko'rganday...

Nurmo'lda ham zamondoshlarining sifatlariga xolis baho berib, Sog'inboy O'rozboq o'g'liga o'xshagan ulug' manaschilardan, Mo'lda Qilich, Mo'lda Niyoz, Qolig'ul singari betakror oqin va olimlardan ibrat olishga chorlaydi.

Iqtidorli oqinning idroki, dunyoqarashi, atrofda yuz berayotgan voqea-hodisalarga munosabati, ayniqsa, tengdoshlari bilan bo'lgan uchrashuvlarda, adabiy musobaqa atalmish — aytishuvlarda ochiq-oydin namoyon bo'ladi.

Masalan shoirning Nurboy bilan aytishuvi xarakterlidir:

Payhon qilib yeringni,
Xor qilsa ham elingni,
Taraf olib bo'lisga,
Bo'lishasan o'risga.
Aynib kelayotirsan,
O'zing aniq kofirsan.
Sen tarafin olguday,
O'ris qondosh tog'angmi?
Bosh kesar bosqinchilar
Yo tug'ishgan og'angmi?..

Nurboyning ta'na-dashnomlariga Nurmo'lda og'ir-bosiqlik bilan shunday javob qaytaradi:

Qarg‘ishlaring yuqmaydi,
To‘pig‘imga chiqmaydi.
Kofir desang yuqmaydi,
Qaptolimga chiqmaydi.

Payhon qilgan yerimni,
Bosqinchining tishidir.
Birligi yo‘q azaldan
Turk qavmining ishidir.

Boyligidan cho‘chishib,
Boyvachchasi sotilgan.
Quyon yurak erlarin,
Tog‘ tayantib qochirgan.

Kulday, qumday birikmay,
Qirchin yoshda qirqilgan.
Arqog‘i bo‘sh alahday,
Qaychi tegmay yirtilgan.

Payhon bo‘ldi to‘g‘risi,
Yurtning bog‘-u chorbog‘i.
Yodingdan chiqib ketdimi,
Madali Eshon sabog‘i?..

O‘shanda ham Madalini,
Qo‘llamadik yaxshiroq.
Yigitlarni g‘azavotga
Yo‘llamadik yaxshiroq,

Nurboy do‘stim, ta’na bilan,
Yo‘q narsani bor qilma.
O‘rislardan ilm-u fanni,
O‘rganishni or bilma...

Kaftdaygina elatmiz,
G‘iybating tegar o‘q bo‘lib.

Ko‘pni yengib bo‘lmaydi,
Yashar ko‘ngli to‘q bo‘lib.

Do‘stim, bo‘lar-bo‘lmasga,
Past-u baland so‘kinma.
Qilich chiqqach qinidan
So‘ng “attang” deb o‘kinma...

Bu aytishuvda Nurmo‘ldaning dunyoqarashi, mulohazalari ochiq-oydin, bo‘rtib turibdi. Shoir “burgaga o‘chakishib ko‘rpaga o‘t qo‘ymaslikni”, “bitta qumaloq chelakdagi sutni bulg‘ashini” nozik qochirmalar bilan beradi. Olis safardan qaytgan Xidirali baxshi bilan Nurmo‘ldaning aytishuvida ham oqinning mulohaza va mushohadalari xolis. U, eng avvalo, ilm egallashga, turk qavmiga mansub elat va ellarni hamjihatlikka chaqiradi.

ZAMONDOSHLARI NURMO‘LDA HAQIDA

TO‘QTAG‘UL:
Ko‘zlarida o‘qi bor,
Qo‘llarida cho‘g‘i bor.
Ustozimdir Nurmo‘lda,
Ulamoda yo‘g‘i bor.

ESHMAMBET:
Vodiyning zo‘r oqini,
Oppoq salla o‘ragan
Tabiblikda tengi yo‘q,
El ahvolin so‘ragan.

MANASCHI QODIRALI:
Payg‘ambar uni qo‘llagan,
Savob ishga yo‘llagan.
O‘tkir qalam o‘ng qo‘lda,
Asli nabiy Nurmo‘lda.

QURMON BAXSHI:
Yozganlari bir boshqa,
Aytganlari bir boshqa,
Bu zot asli ardoqli,
Yosh, qariga, qurdoshga.

QO‘RG‘OL:
Olov bo‘lgan yoshidan,
O‘tday yongan boshidan.
Ta’rifiga so‘z yetmas,
Kashmiri qalam qoshidan.
Hojini kuylab olti kun,
To‘lqinlangan — toshigan.

BARPI:
Shifo topar bemorlar,
Dardni tushda ko‘rganday.
Lol-u hayron odamlar
Ko‘hiqofda bo‘lganday.
Bilim-ilim ulashar,
O‘nta masjid ko‘rganday.

BEKNAZAR:
Oralab yurib Kosonni,
Nurmo‘lda degan eshonmi.
Davoladi bir zumda,
Hushidan ketgan kasalni.

MUDARRIS SHOIR:
Olovday parpiragan, yarqiragan,
Yashinmi,
olmos tig‘li chaqinmisan?
Ko‘rganlar hayron qolib, yoqa ushlar,
Ajabo, avliyoga yaqinmisan?

USTA YO‘LDOSH O‘LANCHI:
Nurlanib, nur to‘kilib ko‘zlaridan,
Farosati aniq-taniq so‘zlaridan.
Qoyil qolib Nurmo‘ldaning afsuniga.
So‘rashardi ul ustozning o‘zlaridan.

ZAMONDOSHLARI HAQIDA NURMO‘LDA:

BALIQOG‘IZ:
Mullaqirg‘iz madrasasi —
Nabiylarning go‘shasi.
Baliqog‘iz she’r o‘qisa,
Siz hamohang jo‘shasiz.
Davralarga bosh bo‘lib,
Fayz, baraka qo‘shasiz.

SORTBOY:
Kim tanimas Sortboyni,
Ta’rifi ketgan Turonga.
Orol, O‘rol yod bilar,
Buyog‘i esa Eronga.
Teng kelmaydi oqinlar,
Sortboy kabi qironga.

QOLIG‘UL:
Tug‘ma baxshi Qolig‘ul,
El-elatga aniqdir.
Bashoratda tengi yo‘q,
Fikri chaqmoq — yoniqdir.
Qo‘sh kiftida farishta
Payg‘ambar yoshga boribdir.
Termalari xalq ichida
Ibrat bo‘lib qolibdir.

MO‘LDA QILICH:
Mo‘lda Qilich g‘azali
Mashhur bo‘lgan azali.
Kitobi chiqib Qozondan
Elning tushgan nazari.
Turkiyada ommabop
Qizib ketgan bozori.

SOG‘INBOY:
Sog‘inboy ulkan manaschi,
Turk qavmiga yarashdi.
Dostonni tinglab zavq bilan
Shavqqa to‘lib qarashdi.
Sog‘in aśli sondug‘och —
Bulbul deya atashdi.
Kezgan chog‘da Alashti,
No‘g‘aylar qol, deb talashdi.

ARSLONBEK:
Buylash o‘g‘li Arslonbek
Baxshilikda “arslon” deb,
Mulla Qirg‘iz masjidida,
Mudarrislar aytgan gap.
Xonga yetgan maqtovi,
Payg‘ambar yo‘lin bosgan deb.

QUYURCHUQ:
Quyurchuq yeri Bog‘ishan,
Adir bilan tog‘i shan,
So‘z ustasi Quyurchuq
Kulganda chorbog‘i shan.

JAMBUL:
Kelesda ko‘rdim Jambulni,
So‘zga chechan dong‘ilni.

Qirq baxshi bilan aytishib,
Odamlarni lol qildi.
Ba'zi nochor oqinlarning
Qaddi-bastin dol qildi.

MULLA TO'YCHI:
Masjiddagi sirdoshim,
Mulla To'ychi qurdoshim.
Turk qavmining hofizi
Gul vodiylik yurtdoshim.

JUMAN QALANDAR:
Yangiqo'rg'on qal'asidan,
Bilimdonlar sarasidan.
Suhbatlari rohati jon
Chiqqan dehqon orasidan.

HASANBOY:
Uchqo'rg'onda tug'ilgan,
Kavsar ila yuvilgan.
Xohishi bilan Hasanboy
Chust shahriga "quvilgan".

NIYOZALI:
Niyozali qo'bizchi,
O'z mashqini sozlagan.
Amur Temur maqtovin,
Ohangda e'zozlagan.

USTA YO'LDOSH:
Ko'zlagandan qaytmagan,
Behuda gap aytmagan,
Usta Yo'ldosh o'lanchi,
Ulug'lardan so'rang-chi!
Termasi selday qoplagan,
Xudoyorxonni boplagan.

JENGIJO‘Q:
Bilimdonlar ichida,
Qiyosi yo‘q, tengi yo‘q.
Oqinlarning sarasi
Ismingni qo‘ydim Jengijo‘q.
Maqtovi yetgan Makkaga,
Chinakam baxshi — irchi bo‘l.
Qo‘shay bobong singari,
O‘zgadan o‘tar sinchi bo‘l.

MO‘LDA NIYOZ:
Yozganlaring qanoting,
Jaranglasin bayoting.
Azal mashhur.— “Digaring”.
Omon bo‘lgin, jigarim.

ZAMONA HAQIDA

Vaqti kelsa, azizlar,
Yurtni qullar boshqarar.
Ulamolar surilib,
Davron surar boshqalar.

Yaxshilarga kun bermay,
Yomonlarni yaxshi deb,
“Alif-lomdan” bexabarni,
Valiyne’mat — baxshi deb.

Baxillarni axiy deb,
Ziqnalarni saxiy deb,
Yerdan baraka ketar,
Mollarga qiron yetar.

Atrof-muhit buzilar,
Boylik esa sizilar.

Odamlardan ilm qochar,
Savodsizlar og‘u sochar.

Birning kasofati mingga,
Mingniki tumanga o‘tar.
Imon osmonga qochib,
Bezorilar bosh kesar.

Azizlar-u yaxshilar,
Oqillar-u baxshilar,
Bu illatdan saqlanaylik,
Poklanaylik, poklanaylik!

Xolis niyat vatandoshlar,
Yaktan bo‘lib, saflanaylik.
Maqsad sari bir yo‘lda
Mehnat qil, der Nurmo‘lda.

BO‘LMASA

Nima yaxshi, ne yomon,
Egam, elim sinasin.
Qo‘lma-qo‘lman, ming shukur
Qo‘llar meni Haq, Rasul.

Olam bo‘lgay munavvar,
Ukani aka qo‘llasa.
Yugani yo‘q ot kabi,
Odamlar bebosh bo‘lmasa.

Elim qolgay savobga,
Buzilgan ishni o‘nglasa,
Yaxshilarga yondoshgin
Inson ruhi so‘nmasa.

Sindirguvchi bo‘lmasa
Gulning atri burqirar.
Tomirlari so‘lmasa,
Chinor bo‘lar shoxchalar.

Qobig‘in birov yo‘nmasa,
Koringga yarar bir kuni
Eshak g‘ajib qo‘ymasa.
Uzoq yashar odamlar,
Oxiratin o‘ylasa.

Erinmay javob qidirib,
Xayrli ishga yo‘llasa.
Bilim olib, xat tanib,
O‘z ongini — zo‘rlasa.

Topganlaring sochilgay,
Aqling-boshing bo‘lmasa.
Obro‘laring ochilgay,
Usti-boshing bo‘lmasa.

Sig‘inmog‘ing bir Alloh,
Tiyilaring Payg‘ambar.
Temirchi piri — Dovud,
Yilqichiga — Al-Qambar.

O‘YLAB KO‘R

Navro‘zi olam sabab,
Yer ko‘karar, o‘ylab ko‘r.
Elim azal chevardir.
El ko‘karar, o‘ylab ko‘r.
Ko‘ngil gulday nozikdir,
Cho‘kmog‘ini o‘ylab ko‘r.

Tog‘lar yuksak, cho‘llar past,
So‘qmog‘ini o‘ylab ko‘r.
Daraxt qurib, bog‘ so‘lib
Bo‘zarishin o‘ylab ko‘r.
Don bo‘lmasa odamzod,
To‘zarishin o‘ylab ko‘r.
Yalqov odam shamdayin
So‘nishini o‘ylab ko‘r.
To‘rt faslda to‘rt xil rang
Bo‘lishini o‘ylab ko‘r.
Suv manbayi — tomchidan
Boshlanarin o‘ylab ko‘r.
Bir erkakka, bir urg‘ochi
Boshqalarin o‘ylab ko‘r.
Tegirmonga tomchi tegib,
Tosh yorishin o‘ylab ko‘r.
Tili uzun kimsalar
Bosh yorishin o‘ylab ko‘r.
Yomonlar ba’zan ko‘nglingga
Dog‘ solarin o‘ylab ko‘r.
Bu olamni bir Tangrim
Boshqararin o‘ylab ko‘r.

NURBOY BILAN NURMO‘LDANING AYTISHUVI

NURBOY:
Kelar edik bir yo‘lda,
So‘zi keskir Nurmo‘lda,
Zamonani maqtaysan,
Zor qaqshatgan kunlarda.
Zo‘r berib doim yoqlaysan,
Kunduz emas qora tun
Nimang bilan sharhlaysan?

Isboting bormi, qoq manglay?
Zamon oxir, yer taqir,
Bo‘lib bora yotmasmi?
Qay tarafi mustahkam,
Odamni odam sotmasmi
Bosh-olomon mahalda?
“Yaxshi” deb yozib xatlarni,
Bosqinchilar ko‘paydi,
Mo‘ljal qilib otmasmi?
Gaplarimning mag‘zin chaq,
Cho‘ng, amaldor ko‘paydi.
O‘z nafsini ko‘zlagan,
Bardor-bardor ko‘paydi.
Yolg‘ondakam so‘zlagan
Oqin xalqi el-yurtning
Tashvishidan koisin.
Bandalarning aybi ne?
Aytib bergin boyisin?
Bu falakning gardishi,
O‘yin bo‘ldi zamona.
Nimtalab so‘yib yeguday
Qo‘ying bo‘ldi zamona.
Zor qaqshatgan bu zamon,
Zo‘ring ushbu emasmi?
Moli borni xor qilgan,
Sho‘ring ushbu emasmi?
Qaltiratgan bezgakday
Bo‘ring ushbu emasmi?
Baxshi bo‘lsang javob ber,
Sho‘ring ushbu emasmi?

NURMO‘LDA:
Ezgu ishi odamning.
Farqin sezmoq olamning
Turqin ko‘rib bandaning
Tomirin ushlar zamonning.

Borar yeri aniqlar
Odam borgan qadamning.
Ko‘rib farqin aytadi
Yaxshi bilan yomonning.
“Mish-mishlarin” uqqanda,
Donolar bosh chayqaydi.
Maqsad nima ekanin,
So‘z boshlanmay payqayli.
“Fol ochganning” barisi
Baxshi bo‘lar deydilar.
Yaxshilarning ichida
Naqshi bo‘lar deydilar.
Nurboy oqin uqib ol,
Naqdin aytay o‘zingga.
Aslo qo‘shib-chatmasdan
Javob beray so‘zingga.
Xohlasang so‘yib yeguday
Qovun emas zamona.
Ust-boshingni yuvguday,
Sovun emas zamona.
Bir chetidan buzguday
Zov emasdir zamona.
Tangrimizning qavmiga
Yov emasdir zamona,
Almashtirib kiyguday
To‘ning emas zamona.
Ayqi-tayqi yurguday
Yo‘ling emas zamona.
Xotinlar boshga yopguday,
Ro‘mol emas zamona.
Belga bog‘lab olguday
Belbog‘ emas zamona.
Dunyo-yu dun bir kamdir,
To‘liq emas zamona.
Xalfanaga so‘yguday
Sovliq emas zamona.

Nayza, qilich o‘qtalgan
Zo‘rlik emas zamona,
Sho‘rlik emas zamona.

O‘ta ko‘rkam suluvday
Nozik bo‘lgay zamona.
Yo‘lin bilgan odamga
Oziq bo‘lgay zamona.

Qoidasi, qonuni
Yozuq bo‘lgay zamona.
Yuragingga qoqilgan
Qoziq bo‘lgay zamona.

Ko‘pchilikka qo‘shilsang,
Baxshing bo‘lgay zamona.
Ishda omad, hayotda
Taxting bo‘lgay zamona.

Epin topib boshqarsang,
Sodiq bo‘lgay zamona.
Yaxshilarga yondashsang,
Oziq bo‘lgay zamona.

Siyosatga qo‘shilsang,
Nozik bo‘lgay zamona.
Tushinmasang tiliga,
Nozlik bo‘lgay zamona.

Gar teskari ish tutsang,
Qayg‘ung bo‘lgay zamona.
Yo‘rig‘iga yurmasang,
Aybing bo‘lgay zamona.

Qulfga mos kalitday
G‘oyibing bo‘lgay zamona.

Yelib xizmat qilguvchi,
Noyibing bo‘lgay zamona.

Og‘ir paytda boshpana
Ovul bo‘lgay zamona.
Yomonlikni ko‘zlasang.
Dovul bo‘lgay zamona.
O‘ylamay-netmay kurashsang,
Tuning bo‘lgay zamona.

Halol ersang, quyoshing —
Kuning bo‘lgay zamona.
Pardalarin topolsang,
Kuying bo‘lgay zamona.

Mashqin olib kuylasang,
Ovozing bo‘lgay zamona.
Xizmatingni o‘taguvchi,
Quling bo‘lgay zamona.

Savdolashib ish qilsang,
Puling bo‘lgay zamona.
Mehnat qilsang oppoq non,
Uning bo‘lgay zamona.

Tarbiyangga yarasha,
O‘g‘ling bo‘lgay zamona.
O‘ylab-netmay qasdlashsang,
Zolim bo‘lgay zamona.

To‘fon turib atrofda,
O‘lib bo‘lgay zamona.
Donishmandlar bosh turib,
Xonlar tuzgan zamona.

Xushomadgo‘y, laganbardor
Jonlar tuzgan zamona.

El dardini o‘ylashib
Xolis tuzgan zamona.

Kin, adovat, g‘ayirlikdan,
Olis tuzgan zamona.
Sen-u menga mo‘ljallab,
Tanish tuzgan zamona.

Ba’zi nopok aralashib,
Qayta buzgan zamona.
Sarhadlarni mo‘ljallab,
Sardor tuzgan zamona.

Nurin ko‘rib payqamagan
Nurboy bo‘lgan zamona.
Do‘stim, zamon bu shunday,
Qo‘lingdagi qushingday.
Toblaganga yarasha,
Qut-baraka qo‘shilgay.

Azro‘y-azal aqlli,
Ota zoti naqlli.
Bobosi qilgan yumushday
Sof oltinday, kumushday
Angladingmi sen, Nurboy?
Yaxshilarga yomon so‘z
Jamladingmi sen, Nurboy?

Sog‘ bo‘lsa ham ko‘rmagan
Ikki ko‘zi ko‘r, Nurboy.
Hushyor bo‘lsang bularni,
Bilar eding er Nurboy.
Zamonani tushunsang,
Atalarding sher Nurboy!..

NURBOY:
Payhon qilib yeringni,
Xor qilsa ham elingni,
Taraf olib bo‘lisga,
Bo‘lishasan o‘risga.

Olmasi pishib go‘ng bo‘lgan,
Yong‘og‘i tushib do‘ng bo‘lgan.
Tangrim bergan barxitim,
Qo‘ldan ketgan Arqitim.

Tortib olsa boyligingni,
Ichib qo‘ysa choyligingni,
O‘z qavmiga bo‘lishsa,
Taraf olding o‘risga.

Kofirlar do‘st-u yor deysan,
Mardikorlikka bor deysan,
Aynib kelayotirsan,
O‘zing aniq kofirsan!

Tariqatni o‘ylaysan,
Kimning gapin so‘ylaysan,
Oldingdan oqqan suvni,
Parvo, pisand qilmaysan.

Musulmonning kofirga
Ko‘z qarashin bilmaysan!
Yomonlasam o‘risni,
Meni so‘kib — tillaysan.
So‘zing boshqa mullasan,
Tamom o‘zga yo‘ldasan.

Bunday bo‘lsang birodar,
Kim ham seni qo‘llaydi?
Qayishmasang elingga,
Qay musulmon yo‘laydi?

Yuragi yo‘q eshonsan,
Eldan chiqqan kasalsan.
“Aytganin qilib mullaning,
Qilganini qilma”, deganlar.
Senga o‘xshash insonlar
O‘z g‘amini yeganlar.

Avliyo tutib o‘zingni,
Hovliqqanim kechaydi.
Adashibman, eh attang,
Sening yuzing nechaydi?

Aytganing ham yaramas,
Tortganing ham yaramas.
Bu so‘zingni eshitganlar
Qayrilib ortga qaramas.
Kimligingni aytmasam,
Xumorim hech tarqamas.

Seni uqqan yolchimas,
Ortingdan odam erchimas.
Oq eshonim, oq eshon,
Avval bo‘lgin pok, eshon.

Yoqlab chiqib o‘risni,
Kofir bo‘lding, Nurmo‘lda.
Afsunlaring g‘irt yolg‘on,
Zohir bo‘ldi, Nurmo‘lda.

Borgan chog‘ing oralab,
Boy qildimi poralar?
Ot mindirib o‘rislar,
To‘n yopdimi bo‘lislar?
Kumush berib o‘rislar,
So‘m yopdimi bo‘lislar?

Uyingga to‘gri qaytasan
Ozitqi, yakkash netasan?
Yov bo‘lding ortga ketasan.
Sen tarafin olguday,
O‘ris qondosh tog‘angmi?
Bosh kesar bosqinchilar,
Yo tug‘ishgan og‘angmi?

Xo‘mrayib menga qaraysan.
Dangalin aytsam yomonmi?
Bo‘lgan gapni oshkora,
Qotirib aytsam yomonmi?

Qobirg‘angdan o‘tkazib,
Botirib aytsam yomonmi?
Yoki beg‘am, beparvo
Qaramay qo‘ysam osonmi?

Cho‘chimaysan chekchayib,
Chertib qo‘ysin dedingmi?
Cho‘rt kesib so‘zlashingdan
Cho‘chqaning go‘shtin yedingmi?

Qilgan gunoh ishingni,
Xalq yashirar dedingmi?
Bemalol yayrab yuribsan,
Qobonning go‘shtin yedingmi?

Do‘q urishing o‘zgacha,
To‘ng‘izning go‘shtin yedingmi?
Qobonning moyin yeb olib,
Kofir bo‘lgan edingmi?

Cho‘qqi soqol eshonim,
Cho‘zilib kelayotirsan.
Churq etmay turishingdan,
Cho‘chqani yegan kofirsan.

Bu bosqinchi o‘rislar
Bosib olgan yerimni.
Bahslashgani arzimas
Boshini kesgan elimni.
Rostin aytsam, birodar,
Sotqin asli bo‘lislar.
Yoki senga jiyanmi,
Tentib kelgan o‘rislar?

NURMO‘LDA:
Endi so‘zni elayin,
Qoldirmasdan terayin.
Kaminaga osilib,
Haddan oshding, ne deyin?

Qarog‘ingga qadalmay,
Sal insofga kelayin.
Yormachiga yorilmay,
To‘g‘ri javob berayin.

Maydasini elaklab,
Yirikrog‘in terayin.
Bu so‘zlaring yuqmaydi,
To‘pig‘imga chiqmaydi.

Qarg‘ishlaring yuqmaydi,
Qo‘ltig‘imga chiqmaydi.
Achitganing yuqmaydi,
Oshig‘imga chiqmaydi.
Kofir deding yuqmaydi,
Qaptolimga chiqmaydi.

Eshonligim el bilar,
Mullaligim mo‘l bilar.
Farosatsiz Nurboy ko‘r,
Meni o‘ng-u so‘l bilar.

Betuz gapga qayrilmayman,
Ko‘pchilikdan ayrilmayman.
Gapim keskir po‘latdayman,
Mo‘rt fikrni yo‘latmayman.

Savollarga kelayin,
Asosli javob berayin.
Payhon qilgan yerimni,
Bosqinchining tishidir.
Birligi yo‘q qadimdan,
Turk qavmining ishidir.

To‘ng‘iz misol otilsa,
Demak menda ne chora?
Bu taqdirning yozmishi,
Odam degan bechora.
Kuni bitgan kunda o‘lar,
Ajali yetgan tunda o‘lar.
Birovning o‘limi o‘qdan,
O‘zganing ajali o‘tdan.

Birov suvdan, sharobdan,
Xudo shunday yaratgan.
Shahid bo‘lgan bandasi,
Joyin topar jannatdan.

Behuda-bekor hech zotning,
O‘lgisi kelmas aslida.
Ahillik bilan birlik yo‘q
Turk qavmida, naslida.

Shafqat kutgan tangridan,
Erkin-ma’mur yashagay.
O‘zgalarga yukunmay,
Nasibasin oshagay.

Olmasi otning boshinday,
Yong‘oyi soyning toshinday,
Yurtin yovdan saqlolmay,
Yigiti uyda yashingan.

Boyligidan cho‘chishib,
Boyvachchasi sotilgan.
Tug‘ishganin Alash biy
Yotsiratib osilgan.

Chopilgani — chopilgan,
Quyonyurak erlarin.
Tog‘ tayantib qochirgan.
Qulday, qumday birikmay,
Qirchin yoshda qirqilgan.
Arqog‘i bo‘sh alakday,
Qaychi tegmay yirtilgan.

Maqtanganda bosh yorgan,
Oriyat, nomus elniki.
Risq-ro‘zimiz, og‘ayni,
Ona tuproq — yerniki.

Payhon bo‘ldi to‘g‘risi
Yurtning bog‘i-chorbog‘i.
Yodingdan chiqib ketdimi,
Madali eshon sabog‘i?

O‘rislarni talvasaga
Solgan edi ul Eshon.
Bosqinchidan alamini,
Olgan edi ul Eshon.

Unutgan bo‘lsang magar,
Eslatayin men senga.
Kelgindiga sichqonning —
Ini bo‘lgan ming tanga.

O‘shanda ham Madalini,
Qo‘llamadik yaxshiroq.
Yigitlarni g‘azavotga
Yo‘llamadik yaxshiroq.

Iloj qancha Andijonni,
O‘rab oldi o‘rislar.
Kosonsoyni, Karavonni
So‘rab oldi o‘rislar.

Kelgindida qurol, yaroq
Xo‘p yurishdi omadi.
Mingtepada, birodar,
Erkak, xotin qolmadi.

Chor hukumat dastidan,
Shahar, qishloq xor bo‘ldi.
Terak, tollar aslida,
Bizlar uchun dor bo‘ldi.

Sirdoshim Nurboy, sen tugul,
Qurdoshim Nurboy, sen tugul,
Yurt boshqargan, pahlavon,
Zollarga aytdim bu gapni.

Xon tangriday kerilgan,
Xonlarga aytdim bu gapni.
Dalada oltin undirgan,
Jonlarga aytdim bu gapni.

Akobir, sardor qoziga,
Bo‘lisga aytdim bu gapni.
Davra qurib o‘tirgan,
Ulusga aytdim bu gapni.

Davlati oshib-toshgan,
Dodhohga aytdim bu gapni.

Chalasavod qo‘yboqar,
Gumrohga aytdim bu gapni.

Qisqasi tanish, jo‘raga,
Oshnaga aytdim bu gapni.
Yangilikka o‘ch bo‘lgan,
Tashnaga aytdim bu gapni.

Bari yoppa qo‘lladi,
Savob ishga yo‘lladi.
Jo‘ybal endi qidirib,
Eshakni chapga soldirma.
Aqsillik yurtdoshlarni
Yo‘q baloga qoldirma?..

Qo‘shterakni sindirib,
Tuhmatga ko‘ngling qonarmi?
El-yurtni qilma masxara,
Unutganmisan onangni?

Javob ber, Nurboy tasqara.
Bo‘taboyday bo‘tqasan,
Baysalboyday cho‘chqasan.
Ko‘rqoriday gojroqsan,
O‘ta sulloh — ochroqsan.

O‘rozmatdan o‘zmaysan,
Husanboyday to‘zmaysan.
Xolbo‘tadan qolmaysan,
Kavsh qaytarmay yamlaysan.
Senga qolsa bu davrani,
Sha’nin bulg‘ab — loylaysan.

Tengi-to‘shsan Umarga,
Dam yemaysan Temirdan.
Alif chiqmas chavaqlasa,
Cho‘chqa misol semirgan.

Bo‘lgan ishni takrorlab,
Boshimizni qotirma.
Eshonlarni g‘iybat qilib,
Gunohingni oshirma.

Forig‘ bo‘lgin Nurboyim,
Dilingga cho‘kkan g‘ubordan.
Alloh axir bizlarni,
Sinamoqqa yuborgan.

Buni bilmay mo‘minlar,
Ayrilar do‘stdan, jigardan.
Har maqomga yo‘rg‘alamay,
Harom ishni tashlaylik.
Dahanaki jang qilmay,
Savob yumush boshlaylik.

O‘ris bilan o‘chashib
Qozoq xonlar ne bo‘ldi?
Buyog‘in aytsam, azizlar,
Xon-u monlar ne bo‘ldi?

Qurol-yarog‘, zambarak,
O‘q-dorilar o‘risda.
Ne bo‘lardi musulmon
Bir-biriga bo‘lishsa?..

Nurboy do‘stim, ta’na bilan
Yo‘q narsani bor qilma.
O‘rislardan ilm-u fanni,
O‘rganishni or bilma.

Hamjihat, hamkor bo‘lib,
Farang, ruslar zo‘r bo‘ldi.
Dushman bilan yovlashgan,
Salovot, O‘rmon xo‘r bo‘ldi.

Kaftdaygina elatmiz,
G‘iybating tegar o‘q, bo‘lib.
Qoplab kelsa seldayin,
Yitamiz parday yo‘q bo‘lib.

Ko‘pni yengib bo‘lmaydi,
Yashar ko‘ngli to‘q bo‘lib.
Ishlaganga ne yetsin,
Olov bo‘lib, cho‘g‘ bo‘lib.
Yurt qirilsa yaxshimi?
Farqla nodon, baxshini.

O‘smon, Bayoz, O‘rozlar,
O‘ris bilan do‘stlashdi.
Madamin mingboshi ham
Yaxshilikni ko‘zlashdi.

Oqil, odil odamlar
Diyonatni ko‘zlaydi.
Senga o‘xshash nodonlar
Tirnoqdan kir izlaydi.

Komil inson sholidagi
Kurmakni tez ilg‘aydi.
Chelakdagi oppoq sutni,
Bir qumaloq bo‘lg‘aydi.

Shermat, Omon, Nosirxon,
Mardikorga bor, dedi.
O‘rislarning yarog‘ini
Tez egallab ol, dedi.

Ruslar topgan beshotar,
Mo‘ljaliga esh otar.
Sen piltani tutatguncha,
Shapka kiygan besh otar.

Nurboy xash-pash deguncha,
Cho‘ng momosin tanitar.

Bas kelish qiyin odamga,
Teskari bo‘lish yomon-da,
O‘ng kelmagin odamga.
O‘ray bo‘lish yomon-da.
Eling omon-omonda,
Axlatni kavlash yomonda.
Ayt-chi, Nurboy og‘ayni,
Istaysan qanday zamonni?

Do‘stim, bo‘lar-bo‘lmasga,
Past-u baland so‘kinma.
Qilich chiqqach qinidan,
So‘ng “attang”, deb o‘kinma.

Hech ish kelmas qo‘lingdan,
Insof tila, shukur qil!
Yetti o‘lchab, bir kesib
Aql yurit, fikr qil!
O‘qib besh vaqt namozni,
Tilovat qil, zikr qil!..

ULAMOLAR DAVRASIDA NURMO‘LDA BILAN OLIS SAFARDAN QAYTGAN OQIN QIDIRALINING AYTISHUVI

QIDIRALI:
Mulla Qirg‘iz atalgan,
Makonim — madrasamni.
Bir umrga arziydi,
Ilm koni desammi...

Ulamo qilgan bu go‘sha,
Son-sanoqsiz chechanni.
Oltin qoziq Axsikent,
Poytaxtim esonmi?
Yor-birodar, do‘stlarim,
Jonajonlar esonmi?
Farg‘onadan, Qo‘qondan,
Namangan boy desammi?
Tez kunda bo‘lgan mudarris
Boytuman oshnam esonmi?
Cho‘yanni suvday eritgan
Chilangarlar esonmi?
Bu yerning dong‘in oshirgan
Hunarmandlar.desammi?
Zargari zirak yasagan
Zo‘r ustalar esonmi?
Chit, batistin olganlar,
Lol-u hayron desammi?
Yog‘ochga jon kiritgan
Duradgorlar esonmi?
Namanganga ko‘rk bergan
Bog‘i-rog‘i omonmi?
Qizlari ko‘zni o‘ynatgan,
Shamchirog‘im omonmi?
Atlasning koni bo‘lgan,
Beqasam, joni bo‘lgan,
Insof-imoni bo‘lgan
Qutlug‘ shahrim omonmi?
Farishtali, aziz joyim,
Ishonganim bir Xudoyim.
O‘zga elda qadring o‘tdi
Fayzli, ko‘rkam Kosonsoyim.
Dono, burro xalifasi
Xo‘ja Nosir omonmi?
Yangi kitob yozgan emish,
Yodlab o‘tgan zamonni.

Ilmi bilan zabt qilgan
Yangiqo‘rg‘on tomonni.
Talay shogird chiqargan
Qalandar Juman omonmi?
Marifatli Uchqo‘rg‘on,
To‘ralar o‘tgan Chust bo‘lgan,
Askiya qilsa Hasanboy,
Ko‘plar pildir-pis bo‘lgan.
Bag‘ri keng Boyish ulamo
Ko‘pga es-u xush bo‘lgan.
Bahovuddin avliyo
Nuraliga xesh bo‘lgan.
So‘zi bilan xizmati
Doyim peshma-pesh bo‘lgan.
Ahli donish quraman,
Popda Murot ulama
Qadrdonlar omonmi?
Jonajonlar omonmi?
Yettining biri xizrmi?
Endi majlis qizirmi?
Temirchi-yu kosiblar,
Har kasbga munosiblar,
Do‘ppido‘zlar, chevarlar,
O‘z hunarin sevarlar
Tegirmonchi, o‘roqchi,
Qozi kalon, so‘roqchi.
Bukchaygan kampir, chollar,
Atlas kiygan go‘zallar,
Tili shirin asallar,
Qiz qiliqli xotinlar,
Chorsuvdagi dallollar,
Yugurdaklar hammollar,
Bari eson-omonmi?
Yo‘qlash yaxshi-yomonni
Musulmonlik odatdir.
Bu bizga saodatdir...

NURMO‘LDA:
Ayt-ayt desa salomni ayt,
Odamzodning sir-asrorin,
Bitgan dovot-qalamni ayt.
Go‘rkovday ochko‘z bo‘lgan,
Yalmog‘iz zamonni ayt.
Ola-bula qilmasdan
Chor tarafin ochib ayt.
Qo‘shib-chatmay uqqanni,
Yashirmasdan ochiq ayt.
Yaxshi bilan yomonni ayt,
Doni bilan somonni ayt.
Qo‘yib zer-u zabarin,
Paykon bilan kamonni ayt.
Donolarning dostoni,
Talay yurtni oralar.
Xalq dardiga esh bo‘lib,
Zolimlarni qoralar.
Yoronlarning yozmishi
To‘qdan puchni saralar.
Hasadgo‘ylik, sotqinlik,
Yurak bag‘ring yaralar.
Tuhmat toshi zum o‘tmay
Ovul bo‘ylab taralar.
Ming yoshdagi Luqmon bobo
Asr osha sirlashar.
Bobolarning ruhlari
Olam kezib birlashar.
To‘liboy sinchi o‘tmishdan,
Hikoyatlar so‘zlaydi.
Ota meros tariximiz
Eskirmaydi, to‘zmaydi.
Oqil bo‘lsa xon agar,
To‘rt ulusni so‘raydi.
Shoh Boburday tadbirkor,
Yurtni yurtga ulaydi.

Urug‘larni birlashtirib,
Eli uchun kurashgan,
Donishmandlar bisyordir,
Damashqqacha so‘rashgan.
Nizomiy, Jomiy, Navoiy
She’r ilmini ulashgan.
Ulug‘ ustoz Forobiyga
Olam aytar sharaf-shon.
Firdavsiyning “Shohnomasi”
O‘ziga xos haykaldir.
Navoiyning ”Xamsa”si
Zo‘r kashfiyot — sayqaldir.
Bizlarga yod qadimdan
Bobo Mashrab g‘azali.
Vodiy xalqi nuktadon
O‘ta komil azali.

QIDIRALI:
To‘g‘ri aytding, Nurmo‘lda,
Ahillikka ne yetsin.
Hamjihat-u va hamkor
Saxiylikka ne yetsin.
O‘ylab-netib o‘tirmay,
Chopib yurib ne bo‘ldik?
Birimizni birimiz,
Qopib yurib ne bo‘ldik?
Farg‘ona to‘la el edi,
Otib yurib ne bo‘ldik?
Og‘a-ini o‘z sirini
Sotib yurib ne bo‘ldik?
Yashiringan yeridan
Topib borib ne bo‘ldik?
Taxt-u davlat talashib,
Qashang otday tolibmiz.
Yoy, kamonga zo‘r berib,
Bir qism el qolibmiz.

Amur Temur qurgan davlat
Shunday ulkan saltanat.
Jahon bo‘ylab turkning kuchin
Qilgan edi tantana.
Ammo uning vorislari
O‘z qavmiga o‘q otdi.
Mol-u dunyo talashib,
Ulkan yurtni yo‘qotdi.
Musulmonga madad bergan,
Nomus ekan, or ekan.
Ahil, inoq bo‘lish shart,
Chin-mochinlar bor ekan.
Peshanaga yozgan ekan,
Ko‘p elni kezib keldim.
O‘zgadan farqimiz ne,
O‘rganib, sezib keldim.
Faranglardan tortib to,
Bu yog‘i Uch Turfonni.
Puxtaroq bilmoq shartdir,
Ilm bilan irfonni.
Yurakni keng qilaylik,
Tirnoqlarni kovlashmay.
Inoq-ahil yashaylik,
Dushman bilan yovlashmay.
Nurmo‘ldaning so‘zida,
Ma’no bordir jon bordir.
Ona Yerga sadoqat,
E’tiqod, imon bordir.

O‘LANCHILARNING LOF AYTISHUVI

NURMO‘LDA:
El aytsa ham men aytmasman o‘tirikni,
Sel olmabdi qamg‘oq cho‘pli ko‘pirikni.

Qora tog‘ning boshiga chiqib borsam,
Yo‘lbarsni sichqon chaynab o‘tiribdi.

QIDIRALI:
G‘ashimga tekkanida opalarim,
“Yerga kir” deb qarg‘agan yangalarim,
Bahona qilib shuni, tunov kuni
Suyunchiga yetmagach tangalarim,
Chigirtkani ot qilib minib olgach,
Cheki yo‘q bu olamni anglab oldim,
Chag‘ir toshni tepasidan o‘yib tashlab,
Yechindim-u yerga tushib uxlab qoldim.

ORZIQUL:
Qiyadagi qizil qumdan arqon eshib,
Taramushni cho‘zg‘iladim toshni teshib.
Ikki tog‘ning boshini biriktirib
Maza qilib tebratdim bo‘ldi beshik.

USENBAY:
Hoy yaxshilar, mo‘jizamni elim uqsin,
Qayindan olam uzra qo‘ydim ustun.
Osmon bilan Yer orasin tirab turib,
Bir tomchi ham qoldirmay qo‘lni yutdim.

ESENBOY:
Alaxsidi demasdan gap uqsangiz,
“Ixtiyori ba shumo” — chap uqsangiz.
Silovsinday zuvillab ko‘kka uchdim,
Yog‘ochdan yasab olib Qora qushni.
Yolg‘on aytsam, bosgan izim ortda qolsin,
O‘z boshimdan o‘tkazdim talay ishni.

USTA YO‘LDOSH:
Alang-jalang bo‘lib birdan shoshib-izg‘ib,
Parvoz qilib, kun boshida uch kun mizg‘ib,

Yotganimda xotiningga baqirib sen,
Oromimni buzding, oshna, chaqirib sen.
Yolg‘on aytsam yelkamning chuqurin ko‘ray,
Ko‘p sarguzasht kechirdim qurbon bo‘lay.

TILLABOY:
Ko‘l ustiga qamishdan ko‘prik solgach,
Qumursqani qo‘shga bog‘lab yetakladim.
Uxlab tursam qovunlarim xo‘p pishibdi,
Erinmasdan pushtasiga yetakladim.
Har kun yuzta qovun yedim, yolg‘oni yo‘q,
Afsuski, qornim to‘yib qolgani yo‘q.

QIDIRALI:
Qo‘sh ho‘kiz ona Yerni ko‘tarsin deb,
Tangrimiz buyruq qilgan qutlug‘ joyda.
Xizmatin o‘tayotgan sayg‘oq chaqir,
Birini kunga quvdi, birin oyga.
Har ikkisin shoxiga arqon bog‘lab,
Hayinchalak uchdim men ko‘nglim chog‘lab.

ORZIQUL:
Qarasam, chopib borar qizil tulki,
O‘yladim, kaminaning o‘lja-mulki.
Ortidan quvalasam qushday uchdi,
Zum o‘tmayin o‘sha qush qo‘lga tushdi.
Quyrug‘idan ushlasam bir tepuvdi,
Yig‘olmasdan qolibman es-u hushni.

USENBOY:
Bir go‘zal qiz yuruvdi olov qalab,
Ortidan chopa ketdim men quvalab.
Yetganimda yer yorilib ketdi qarang,
Quchoqlashib tikka tushdik, ishlar varang...
Men podshoh, ul go‘zal xonzodadur,
Taxt-u baxtni kim ham tortib oladur...

O‘LANCHILARNING TO‘YDAGI AYTISHUVLARI

NURMO‘LDA:
Assalomu alaykum toshkanliklar,
To‘y bobida bir-biridan oshganliklar.
Olib keldim Axsikentdan salomimni,
Qabul aylang, ta’zim-u kalomimni.

To‘yinglar qutlug‘ bo‘lsin O‘sgan, Xumor
Sizga baxt-u saodat bo‘lsin tumor.
Sog‘inganman Usanboyni, To‘laningni,
Qadri o‘tdi bo‘kaliklar o‘laningni.

O‘SGANBOY:
Vaalaykum assalom, xush kelibsiz,
Marhamat, do‘st-u yorga duch kelibsiz.
Atayin chaqirgandik ko‘raylik deb,
Sog‘lig‘in, hol-ahvolin so‘raylik deb.
Dardlashib, diydorlashib, o‘lan aytib,
To‘y bahona xushnud-shod bo‘laylik deb.

NURMO‘LDA:
Bu dunyodan manman degan shohlar ketar,
Yolgiz Alloh oldida banda netar?
Ming bor qulluq tasadduq bo‘lsin sizga,
Xizmat qilmoq uchun keldik tizingizga.

Tillari shakarlardan va bollardan,
Bu yog‘i Arqit, Bo‘zbu, Chotqollardan,
Yondosh-u jondosh bo‘lgan qarindoshga
Olqish-u ming tasanno qari-yoshga.

USENBOY:
Demakkim, fotihaga qo‘l ochinglar,
Sozandalar, xonandalar boshlang alyor.

Nur og‘amning tilagi vojib bo‘lsin,
Davramizda baxshilar bor, oqinlar bor.

QIDIRALI:
Havas bilan qaraydi elning bari,
O‘lan aytib keladi qizning yori.
Avvalboshdan shundaydir, ayo do‘stlar,
Qo‘rg‘oshinday erir yigit badanlari.

NURMO‘LDA:
O‘lanning avval boshin Manas solgan,
To‘yda uloq tortishmoq shundan qolgan.
Yigitning Xonikeyday yori bo‘lsa,
Otni bog‘lash ilinjida tizgin olgan.

TILLABOY:
Avvalboshi o‘lanning shosi menda,
Qimizdayin yetilgan yoshi menda.
Besh yil bo‘ldi bezgak, bodday qaqshatar,
So‘zga amal qilmoqlik bormi senda?

ESONBOY:
Takror kelib hol-ahvoling payqayin,
Muhabbatim ortib borar kun sayin.
Insof bersin, azizim, iloj bo‘lsa,
Yaratganga arz-u holim aytayin.

USENBOY:
Tabib ko‘rsa, dardingga darmon topar,
Chavandozlar yo‘rg‘asin maqtab chopar.
Yaxshi bilan erta-kech o‘ynab-kulgan,
Bu olamning zavqini ming bor tortar.

ORZIQUL:
Hay-hay Sanam, hay Sanam, soz qayda bor?
Osmon uzra aylangan to‘rg‘ayda bor.

Bir yaxshiga bir yomon har joyda bor,
Ikki yaxshi topishgan kun qayda bor?

USTA YO‘LDOSH:
Bu dunyoda bormikan qizdan ayyor?
Va’dasidan, so‘zidan tonib turar.
Bahorning havosiday turlanuvchan,
Goh tumtayib, gohida yonib turar.

NURMO‘LDA:
Bu dunyoda bormikan qizday botir?
Qo‘sh anorin qo‘ltiqlab yolg‘iz yotur.
Qalampirmunchoq isi uxlatarmi?
Xabar bermas yangasi, ekan kofir...

QIDIRALI:
Men bir o‘lan aytayin davraga ep,
Qizning beli miltiqning qo‘ndog‘i deb.
Ishq siriga Mashrab ham yetolmagan,
Muhabbatdan poyiga solinglar sep.

TILLABOY:
Bo‘z chumchuqning jazosin qirg‘iy bersa,
Bedananing jazosi shu — irg‘iy bersa.
Niyating menga tegish bo‘lsa agar,
Yur, qochamiz, katta buving mizg‘iy bersa.

NIYOZALI:
Objuvozning jazosin gurunch bersin,
Moyjuvozga jazoni chigit bersin.
Va’dasini unutib, gapdan tongan,
Suluv qizning jazosin yigit bersin.

USENBOY:
O‘lan sari deganda, o‘lan sari,
O‘lan aytsang ochilar dilning qa’ri.

Hayot gulin o‘ziga oshiq qilgan,
Qora ko‘z, shirinsuxan kimning yori?

ORZIQUL:
To‘y boshida bakovul qirg‘iz xalqi,
Tog‘da molin qaytargan qirg‘iz alpi.
Senday go‘zal qizlarning qadrin bilar,
Manas kabi o‘g‘lonning suvoy-salti.

USTA YO‘LDOSH:
Qirg‘iz qizi deganim qirg‘iz qizi,
Totli ekan shu qizning bergan tuzi.
Yuragimni yondirib-kuydirmoqda,
Yoqali ko‘ylak kiygan Arqit qizi.

Ovulimning qizlari norday-norday,
Xalqumining oqligi oppoq qorday.
Chorbog‘ining mevasi xo‘p yetilgan,
Ko‘zlarimni o‘ynatar qo‘sh anorday.

ESENBOY:
O‘lan tinglab, otimni nuxtalayin,
O‘zim ko‘rgan ishlarni puxtalayin.
Bu ovulning qizlari ajabtovur,
Quyrug‘i yo‘g‘on-yo‘lpi, buqamo‘yin.

TILLABOY:
Kambag‘aldan qaytibsan, nari bormay,
Bu go‘shaning parilari oq maralday.
Qishloqdoshing qizlari epi yo‘qdir,
Yurar kiygan kamzulin yamayolmay...

ESENBOY:
Bizning ovul qizlari nurli tongday,
Tangrimiz ato qilgan yorqin manglay.
Sening esa hamqishloq parilaring,
Erta-yu kech ovora non yopolmay.

TILLABOY:
Do‘stim, meni behuda yurma koyib,
Bizning qizlar “Buxorocha” igna sayib,
To‘n tikadi qavimasi puxta, pishiq,
Go‘ro‘g‘liday yigitlarga kelar loyiq.

ESONBOY:
Qarangizlar bu guldor ro‘molchani,
Ta’rifiga so‘z yetmas ko‘ring qani.
Qishlog‘ingni qizlari no‘noqligin,
Belbog‘ingni kashtasidan olgin tanib.

NURMO‘LDA:
Tumshug‘idan sal narini ko‘rolmagan,
Dunyoga xolis baho berolmagan.
Birovning turmush tarzi senga yoqmas,
Shundayin odamlar bor go‘r olmagan.

TILLABOY:
Ko‘rsat-chi yaqiningni, inog‘ingni,
Kun chiqqancha qaradim chirog‘ingni.
Quyosh kutgan takaday kuydirding-ku,
Qachongacha ko‘targum firog‘ingni?

USTA YO‘LDOSH:
Yaxshimisiz, omon bo‘lgur to‘ydagilar,
Amalga oshsa qani o‘ydagilar.
“Oq cho‘lmak”ni quvalab olis ketib,
O‘yinning zavq-shavqiga to‘ymagurlar.

ESONBOY:
Esonmisiz enagali to‘ydagilar,
Shodlikka, kulgularga to‘ymagurlar.
Qo‘ltig‘ining ostidan qo‘l o‘tkazib,
“Taqiya yashirmoq”ni o‘ynagurlar.

ESONBOY:
O‘ynaylik “Oq terakmi, ko‘k terakmi?”
O‘ylanib “Bizdan Sizga kim kerakmi”.
Sen choponni, men esa qo‘lni qo‘yib,
Ko‘rsatsak nari-beri “yetalash”ni.

NIYOZALI:
To‘y-to‘rkinda yosh-yalangni ko‘ngli iydi,
Birovi va’da berdi, o‘zga suydi,
Muhabbatning dardida sarkash bo‘lib,
Qani, keling, o‘ynaymiz “Bo‘ri tiydi”.

USTA YO‘LDOSH:
Bir yostiqqa bosh qo‘ygali qildik lafz,
Men uchun har bir aytgan so‘zing aziz.
Sen mendan aslo gumon qilma, jonim,
Va’damdan tonsam ko‘zim bo‘lsin ojiz.

ORZIQUL:
Qora niyat olg‘irlarga iloj qancha?
Nobakor sarson qilar seni ancha.
Sutdayin gard qo‘nmagan niyatingni,
Harom-xarish maqsadga foydalansa?..

TILLABOY:
Yuqoridan kelaman yurgan bo‘lib,
Yo‘lda birov yotibdi o‘lgan bo‘lib,
Shunchaki chiviq bilan turtib qo‘ysam,
Quchoqlading bo‘ynimdan kulgan bo‘lib.

NURMO‘LDA:
To‘y-to‘kinda jo‘ralar, o‘lan bo‘lsin,
O‘lan aytgan xonadon nurga to‘lsin.
Qo‘sh o‘g‘ilni qo‘ltiqlab to‘qsonda ham,
Nabirasi toy minib, o‘ynab kulsin.
Omon-omon bo‘laylik, omon-omon,
Oqinlar ham yashasin dorulamon.

TUYOQ ERNAZAR O‘G‘LI

(1856–1912)

Tuyoq Ernazar o‘g‘li hozirgi Botken viloyati, Qadamjoy tumanida tug‘ilgan. U qirg‘iz adabiyotining o‘tmishdagi Mo‘lda Niyoz, Mo‘lda Qilich, Jengijo‘q, To‘qtag‘ul, Barpi kabi buyuk shoirlaridan biridir. Afsuski, o‘z davrida dovrug‘i Qo‘qon xonligi o‘rdasiga ham yetib borgan ulug‘ shoir merosining bir hovuchi yetib kelgan, xolos. O‘z zamonida avliyo, bashoratgo‘y oqin bo‘lib tanilgan Tuyoq oqin bugungi hayotimizning salbiy tomonlarini bir asr ilgari “Oxirzamon” kabi she’rlarida bayon qilib ketgan.

OXIRZAMON

Oxirzamon kelganda
O‘g‘ling ketar Urumga[1],
Qizing ketar Qrimga.
Minganing temir ot bo‘lar,
O‘qiganing xat bo‘lar.
Mehr ketib dilingdan,
Og‘a-ini yot bo‘lar.

Qashshoqchilik jilovdor,
Qotgan noning qand bo‘lar.
Ipin uzgan xotinlar
O‘z eriga pand bo‘lar.
Imoni yo‘q qari-yosh
Bir-biriga yot bo‘lar.

Oxirzamon kelganda
Bashoratgo‘y ko‘p chiqar.

[1] **Urum** — Shinjondagi Urumchi shahri.

Yerdan qaynab o‘rt chiqar,
Yer yuzidan ko‘rk ketib,
Yolg‘onchilar ko‘p chiqar.

Qizing tug‘ar uyingda,
Valadi zino — kasofat.
Boshga uyar baloni
Araq degan falokat.
G‘arq bo‘lishar og‘uga
Araqxo‘rlar — ochofat.
Otasiga bolasi
Ko‘rsatmaydi sadoqat.

Oxirzamon kelganda
Temirni sochday o‘rasan,
Xo‘p ajoyib sayyohsan -
Olamni uyda ko‘rasan.
Ya’juj-ma’juj deganga
Og‘a-ini bo‘lasan,
Hay-huy degan xojang yo‘q,
O‘zingga o‘zing to‘rasan.

Harom-xarish luqmaning
Omixtasin sezmaysan.
Odamiylik begona,
Qotib qolgan bezdaysan.
Chayqovchi, daydi xotining
Qay puchmoqdan izlaysan?

Oxirzamon kelganda
Erkak ojiz, notavon.
Jilov ayol qo‘lida,
G‘ildiragi turmushning
Yo‘naladi jar tomon.
Er olmagan qizlaring
Boshga balo begumon.

Bir dinni muqim tutmaysan,
Bir-biringni uqmaysan.
Bir-birini chalishga
Yetaklaydi badbinlik.
Faqat o‘zin o‘ylashga
Undar doim xudbinlik.

Shariat yo‘lga sololmay
Musulmonning zotini,
Sayoq bo‘lar xotini,
Ombu[1]ga borar topay deb
Ro‘zg‘orning ovqatini.
Harom — “oshi haloling”,
Mog‘or bosar botining,
Yolg‘onni rostday so‘ylaysan,
Savob ishga ko‘nmaysan,
Qashshoq topsa qazosin,
Janozaga kirmaysan.

Oxirzamon kishisi
Tarozi, toshdan aldaydi.
Bedavo dard bandaga -
Bir-birini qarg‘aydi.
Bu illatlar oxiri
Jahannamga joylaydi.

BIR OLLOH

Qadimgidan qolgan gap
G‘alvirga solib elanar.
Eskilardan qolgan gap
Elakka solib elanar.

[1] Omsk shahri.

Jon-jonivor bariga
Joyni bergan bir Olloh.
Barchasiga rizq-u ro‘z,
Jonni bergan bir Olloh.

Osmondagi kun bilan
Oyni bergan bir Olloh.
Bu o‘tkinchi dunyoda
Shodligidan ziyodroq
Qayg‘u bergan bir Olloh.

Gurkiragan o‘zanday
Hayot bergan bir Olloh.
Yashagin deb munosib,
Sabot bergan bir Olloh.

Muruvvati aslida
Tekis bo‘lgan bir Olloh.
Koinot-u zaminga
Negiz bo‘lgan bir Olloh.

Taqdiringda sen bilan
Egiz bo‘lgan bir Olloh.
Bizga vahiy O‘zidan
Kelib turgan bir Olloh.

Mehr nuri manglayga
Tegib turgan bir Olloh.
Bandasiga hamisha
Iyib turgan bir Olloh.

Shom-u sahar bizlarga
Savob bo‘lsin koring deb,
Aytib turgan bir Olloh.
Gunoh qilsak kechirib,
Sho‘rishlarga solishdan
Qaytib turgan bir Olloh.

Dilingdagi niyatni
Tuyib turgan bir Olloh.
Tomiringga hayot-qon
Quyib turgan bir Olloh.

Qarog‘ingga mo‘jiza
Nurni bergan bir Olloh.
Beshikdan tobutgacha
Jumbog‘i hech yechilmas —
Sirni bergan bir Olloh.

Og‘zi “tarnov” irchiga
Irni bergan bir Olloh.
Nasibang hech tuganmas,
Sabr qilib yursang, deb,
Sabr bergan bir Olloh.
Bardoshi yo‘q bandaga
Jabr bergan bir Olloh.

Kibr bilan kekkaymay,
Hatto xasni xor qilmay,
Ziyrak bo‘l, der bir Olloh.
Bechora-yu sag‘irga
Qashshoqlarga qayishgan
Tirgak bo‘l,
der bir Olloh.

Harom bilan halolni
Aniq qilgan bir Olloh.
Aql degan mash’alni
Yoniq qilgan bir Olloh.
O‘tmishingni tuganmas
Tarix qilgan bir Olloh.

Son-sanoqsiz dunyoni
Sochguvchi ham bir Olloh.

Mehr to‘la qo‘ynini
Ochguvchi ham bir Olloh.
Imonsizdan yuz burib,
Qochguvchi ham bir Olloh.
Tavba qilgan tavfiqli
Bandasin diydoriga
Shoshguvchi ham bir Olloh.

O‘n sakkiz ming olamni
Biylab turgan bir Olloh.
Dil seniki, til — Undan,
So‘ylab turgan bir Olloh.
Tomchi qonni tomirda
Ulab turgan bir Olloh.

Gulda barqi tajalli,
Gullab turgan bir Olloh.
Ochib yerning chiroyin,
Turlab turgan bir Olloh.

Dilingdagi yashirin
O‘yda mavjud bir Olloh.
O‘zi bergan to‘rt mucha,
Bo‘yda mavjud bir Olloh.

Chiqsang olis safarga,
Saqlab balo-qazodan,
Yo‘lab turgan bir Olloh.
Madadkoring har ishda,
Qo‘llab turgan bir Olloh.

Kunning chiqib botishi,
Yulduz to‘la koinot —
Bari Olloh xohishi.
Eng mitti zarragacha
O‘ziga bo‘ysundirgan
Yaratganning qodirligi.

Almisoqdan ham ilgari
Shaffof nurdan sodirligi.

Sanayversang sifatin,
Tugamas hech sanog‘i,
Bizga bergan rizq bilan
O‘lchanmas mehrin adog‘i.

Tiriklikning zanjiri
Mangu bir nihol ko‘klagan.
Bu dunyo bilan u dunyo —
Abadiy shu’la o‘chmagan.
Qudratin ko‘r Egamning,
Arshidan toyib tushmagan.

Qanchalar maqtab kuylamay,
She’rim bir oddiy “buyum”-da.
Umrim o‘tib bormoqda
Dolg‘ali dovul, quyunda.

Men uchun zo‘r fojia
Ortimda izim qolmasa.
Egamdan yolg‘iz tilagim —
Boshimga kulfat solmasa.
Oqining Tuyoq yig‘inda
El uchun kuylab tolmasa.

SEN, DUNYO!

Bosh-oyog‘ing noma’lum,
Qaydan kelding sen, dunyo?
Asli zoting bir zarra
Joydan kelding sen, dunyo.

Yulduz bo‘lib nurafshon,
Kuyib kelding sen, dunyo.
Jonli, jonsiz barchasin
Suyib kelding sen, dunyo.

Qop-qorong‘i o‘pqondan
Qalqib kelding sen, dunyo.
Nurga belab olamni,
Balqib kelding sen, dunyo.

Almisoqdan ham oldin
Yoniq kelding sen, dunyo.
Kimga yolg‘on, kimga chin,
Aniq kelding sen, dunyo.

Odamzodga hayot, nur
Olib kelding sen, dunyo.
Yaratganning amri-la
G‘olib kelding sen, dunyo.
Kim badavlat, kimgadir
G‘arib kelding sen, dunyo.

Olloh irodasidan
Oqib chiqqan daryosan.
Yo‘qlikdan borliq sari
Yorib chiqqan dunyosan.

Odam Ata — “xatboshi”,
Tarix chiqqan dunyosan.
Harom bilan halolni
Tanib chiqqan dunyosan.

Almisoqning qa’ridan
Tomib chiqqan dunyosan.
O‘lishingni bilmasdan,
Unib chiqqan dunyosan.

Kun nuriga ilashib
Kulib chiqqan dunyosan.
Asli zotin taqdirin
Ko‘rib chiqqan dunyosan.
Yaxshi-yomon — ikkiga
Bo‘lib chiqqan dunyosan.

Chashma bo‘lib otilib,
Qaynab chiqqan dunyosan.
Xonish piri — bulbulday
Sayrab chiqqan dunyosan.
Odam Ato sho‘rlikni
Bihishtingning to‘ridan
Haydab chiqqan dunyosan.

Jon baxsh etib sahroga,
Kirib turgan daryosan.
Kurtak otsa bir shoxi,
Bir shoxida janoza,
Chirib turgan dunyosan.

Shamol bo‘lib betinim
Yelib turgan dunyosan.
Miyig‘ida jilmayib
Kulib turgan dunyosan.

Vujudida ne borin
Bilib turgan dunyosan.
Sarob qiyofasiga
Kirib turgan dunyosan.

Uddaburon kimsaga
Iyib turgan dunyosan.
Halovating ortidan
Poyoni yo‘q qayg‘uni
Uyib turgan dunyosan.

Biri silab boshingni,
Ikkinchi qo‘l mushtini
Tugib turgan dunyosan.

Bu dunyoning ishlarin
Ne ekanin bilmaysan.
Bugun ojiz qurt bo‘lsang,
Erta alp fildaysan.

Ozg‘irig‘i ko‘p dunyo,
Kimlargadir bop dunyo,
Kimgadir azob dunyo,
Birovning oyog‘iga
Chalinasan sen, dunyo.
Birovlarga yetolmay
Yalinasan sen, dunyo.

Kimlargadir umrbod
Tilsim bo‘lar bu dunyo.
Qodir egam yor bo‘lsa,
Tuyoqqa ham bir kuni
Taslim bo‘lar bu dunyo.

She’rlaridan saralab
Taqinasan sen, dunyo.
Rizo bo‘lib chaqmoqdek
Chaqinasan sen, dunyo.

Yonar tog‘day otilib
Yorilasan sen, dunyo.
Kuldan choyshab ustingga
Yopinasan sen, dunyo.
O‘shal kuni Tuyoqning
Qo‘ng‘iroqdek unini
Sog‘inasan sen, dunyo...

TO‘G‘ALOQ MO‘LDA

(1860–1942)

Asl oti Boyimbet Abdurahmonov. Nizomiy, Navoiy, Fuzuliy kabi ulug‘ shoirlari ijodidan keng boxabar, din asoslarini yaxshi bilgan mulla odam bo‘lgan. Dumaloqdan kelgan savlati sababli el uni To‘g‘aloq mo‘lda deb atagan. Ijodining ko‘lami juda keng. “Manas” eposini yaxshi bilgan va ko‘p ijro qilgan. “Manas” trilogiyasidan qariyb 100 ming misralik matn yozib qoldirgan. O‘z asarlari esa nihoyatda xalqonaligi bilan ajralib turadi.

TERMA

Daryoning ko‘rki — kemada,
Bolaning ko‘rki — enada.
Nasihating tinglamas,
Ahmoqning ko‘rki — ta’nada.

Pichoqning ko‘rki — qininda,
Yilqining ko‘rki — qulunda.
Azamat bo‘lsang, er yigit,
Ezgu ishlardan surinma.

Soqolning ko‘rki cholda bor,
Suluvning ko‘rki xolda bor.
Suqlanib yurmay har kimga,
Suyganingni tanlab ol.

Tun uxlamay yo‘l bossang,
Tulkilar tushar qopqonga.
Tun ekan, desang, er yigit,
Ne kelar uxlab yotqonga?

Yomon odamning belgisi —
O‘z g‘ami uchun yugurar.
Yaxshi odamning belgisi —
El g‘ami uchun kuyinar.

Ahillik bo‘lsa xalqingda,
Cho‘chib-netma yovingdan.
Haybati bor er yigit,
Yov qaltirar dovingdan.

Epchil yigit san’ati —
Kumush bilan oltinda.
Kuch borida, er yigit,
Nuqra misol yaltilla.

So‘fining ko‘ngli — azonda,
Suq odam ko‘ngli — qozonda.
Bozor kezib, tinmaydi,
Xasisning ko‘ngli — arzonda.

ESHAK BILAN BULBUL

(masal)

Qanotli qushlar,
To‘rt oyoqli jonivorlar
Bir kun majlis qurdi.
Bulbul xonishiga baho berish-chun
Eshak hakam bo‘lib qarab turdi.

Govgum kirib, kun botgan
Tundan boshlab sayradi.
Soat tungi o‘n ikki,
Shundan boshlab sayradi.

Saraton, sarin yelli
Yozdan boshlab sayradi.
Tuman bosgan o‘tloqlar,
Sozdan boshlab sayradi.

Cho‘qqilar uzra uchgan
Ularday bo‘p sayradi.
Ko‘llarda suzgan oppoq
Quvlarday bo‘lib sayradi.

Oqquvni oziq qilgan
Suvburgut bo‘p sayradi.
Yer yuziga yoyilgan
Qush-qurt bo‘lib sayradi.

Qarag‘ay, qayin,
boyterak,
Tolni aytib sayradi.
Bir lahza ham tinmasdan,
Qaytib-qaytib sayradi.

Qizil, yashil gul taqqan
Giyohni so‘zlab sayradi.
Goh shodlikdan churqirab,
Goho bo‘zlab sayradi.

Uqqan quloqqa yoqqan
Gapdan aytib sayradi.
Goho kamtar bo‘lib, goh
Lofdan aytib sayradi.

Yer yuzini yashnatgan
Hamaldan aytib sayradi.
Bahorga salqin bergan
Shamoldan aytib sayradi.

Yaxshilar ichra yurgan
Yomonni qarg‘ab sayradi.
Eplab kunini ko‘rgan
Yaxshini alqab sayradi.

Qizil-yashil boychechak
Guldan aytib sayradi.
Munglining dilin yozgan
Tildan aytib sayradi.
Haybatlining kattasi —
Fildan aytib sayradi.

Uchib yurgan har turli
Qushdan so‘zlab sayradi.
Totli qilgan taomni
Tuzdan aytib sayradi.
Ko‘ngilga shodlik bergan
Qizdan aytib sayradi.

Aqcha uchun uxlamas
Boylardan aytib sayradi.
Qiyomat kun ahvoli
Voylardan aytib sayradi.

Ko‘pga tekkan foydasi
Tabibdan aytib sayradi.
Ko‘ngli ochiq, qo‘l ochiq
Habibdan aytib sayradi.
Jon-jonivor uqmagan ko‘p
Ajibni aytib sayradi.

Osmondan suv yog‘dirgan
Bulutdan aytib sayradi.
Ekin unsa, mo‘l hosil,
Qutdan aytib sayradi.

Qancha yaxshi, qancha ko‘p
Illatdan aytib sayradi.
Har joyda bir o‘zga xalq,
Millatdan aytib sayradi.

Bulbulning sayraganin,
Sayrashdan tolmaganin
Uqqan bu ahli majlis
— Barakalla, — devordi.
— Sening tovshing xo‘p yoqdi,
Quvding dildan xumorni.
— Xo‘sh, qani, ayt-chi, eshak,
Navbat sengadir beshak, —
deb so‘z berishdi unga.
— Ha, bulbul yaxshi sayradi,
Hammamiz ham yayradik.
Rostini aytsam... biroq,
Tovshida shira kamroq.
Xo‘roz tovushiday bo‘lsa, qaniydi, —
deb eshak bulbulni yaniydi.
— So‘zim olib,
shogird tushsa xo‘rozga,
Yanayam zo‘r bo‘lar, kutsak birozga.

Buni tinglab, deyishdi: — Eshak,
Nodonliging aniqdir, beshak.
Aytganing — g‘irt bekor,
Bulbul bo‘lmas xor
Deb, ko‘pchilik la’natlab qoldi,
Eshakni haydab yo‘lga soldi.

JENGIJO‘Q KO‘KO‘ O‘G‘LI

(1860–1918)

Jengijo‘q (o‘z oti *O‘ta), taniqli qirg‘iz oqini. Tolas viloyatida tug‘ilgan. O‘smirligidayoq "Qo‘jo‘jash", "Er To‘shtuk", "Semetey" dostonlarini ijro etgan. Ayrim ma’lumotlarga ko‘ra, u savodli bo‘lgan, biroq yozma ijod bilan shug‘ullanmagan, termalari xalq orasida og‘izdan og‘izga o‘tib saqlanib qolgan. Taxallusi Jengijo‘q (yengi yo‘q) bo‘lishiga sabab, u qirg‘izlar ichida avval ko‘rilmagan bir kiyim — yengi yo‘q kamzul (nimcha) kiyib yurgan.*

Jengijo‘qning "Ko‘ksuluv" dostoni qiziq tarixga ega. U Ko‘ksuluv degan go‘zal qizni ko‘rib qolib, es-hushini butunlay yo‘qotadi. Biroq qizni boshqaga turmushga uzatishgach, Jengijo‘q qishloq oqsoqoli uyiga borib, olti kun "Ko‘ksuluv" dostonini to‘xtamay aytadi. Bunga tan bergan oqsoqol Ko‘ksuluvni olib kelib, oqinga nikohlatib beradi. Qo‘miz chertish, yangi kuylar chiqarishda ham Jengijo‘q tengsiz ijodkor hisoblanadi.

BU DUNYO

(Birinchi ko‘rinish)

Osmon, yulduzga qo‘sha
Taralgansan, bu dunyo.
Zamin titrab to‘xtagach,
Yaralgansan, bu dunyo.
O‘n sakkiz ming olamni
Barpo qilding, bu dunyo.
Kemtigi yo‘q hech yerda
Bino qilding, bu dunyo.
Ayol bilan erkakni
Juftlik qilib yaratding.

Ikkisini bir yostiq,
Bir qozonga qaratding.

Jon-jonivor, giyohni
But yaratding, bu dunyo.
Barchasidan rizq-u ro‘z,
Qut yaratding, bu dunyo.
Arxar, kiyik — tog‘ ko‘rki,
Kuyga chechan bulbuli,
Quvsa yetmay qo‘ymaydi,
Azozilning dulduli.
Barini bir-biridan
Boshqa qilding, bu dunyo.

Ikki yuzning ol rangli
Nurin olding, bu dunyo.
Otasidan bolasin
Burun olding, bu dunyo.

Kashtalik qalpoq kiygandan,
Hayiqmay yovga kirgandan
Hisobi yo‘q er o‘tgan.
Alplarining sarasi,
Olamni buzib na’rasi,
Otamiz Manas sher o‘tgan.

Qiyada yo‘lni qara-chi,
Quluni bilan biya o‘tgan.
Shohona gilam yopdirib,
Qora arqon ayili,
Ko‘rkamligin orttirib,
Viqor bilan tuya o‘tgan.

Qayrilma qalpoq kiyganlar,
Qochirib yovni surganlar,
Ko‘kcha bilan Almambet,

Qo‘sho‘y, Sirg‘oq, Chuboqday
Hisobi yo‘q er o‘tgan.

Ekin bilan yer o‘tgan,
Mehnat bilan ter o‘tgan.
Yerni bosgan sel o‘tgan,
Almashgan qancha el o‘tgan!..

Tin olmasdan bir nafas,
O‘tmishin ko‘r dunyoning.
Ortidan yov quvganday
Ko‘chishin ko‘r dunyoning.
Unda kuysa, bu yerda
O‘chishin ko‘r dunyoning.

Bahordagi toshqinday
Oqqanin ko‘r dunyoning.
Yerdan berib rizq-u ro‘z,
Boqqanin ko‘r dunyoning.

Chek bilmagan fursatdan
Oshganin ko‘r dunyoning.
To‘yga chorlayotganday
Shoshganin ko‘r dunyoning.

Tushmasin deb Oy, yulduz,
Pishiq qilgan bu dunyo.
Lol qoldirib odamni,
Qiziq qilgan bu dunyo.
O‘lim bilan qo‘rqitib,
Chiziq qilgan bu dunyo!

Poyoniga uchqur o‘y
Uchib yetmas bu dunyo.
Ming sho‘ng‘ib ko‘r, yetmassan,
Tubi cheksiz bu dunyo.

Mo‘jizasi umrbod
Esdan ketmas bu dunyo.

Parpiragan Quyoshday
Kuyib turgan bu dunyo.
Bolasiday erkalab,
Suyib turgan bu dunyo.
Bitdi desang, qayg‘usin
Uyib turgan bu dunyo.

Tafakkurni tamal deb,
Bosh yaratgan bu dunyo.
Og‘iz, burun, ko‘z usti,
Qosh yaratgan bu dunyo.
Qusuri yo‘q qilchalik,
Soz yaratgan bu dunyo.
Oqillarni har elda
Oz yaratgan bu dunyo!

Qidirsin deb olamni,
Shamol qilgan bu dunyo.
Turdan turga o‘tishga
Amal qilgan bu dunyo.

Yorug‘ qilgan olamni
Kuni ajib bu dunyo.
Osmondagi Oy, yulduz,
Tuni ajib bu dunyo.
Bahor kelsa jannatdek
Guli ajib bu dunyo.
Bulbullari sayragan,
Uni ajib bu dunyo.

Chorva moli yoyilgan
To‘ri ajib bu dunyo.

To‘rlarida yashnagan
Cho‘pi ajib bu dunyo.
G‘oz, o‘rdagi qalqigan
Ko‘li ajib bu dunyo.
Aytaversam she’r bilan,
Ko‘pi ajib bu dunyo.

BU DUNYO

(Ikkinchi ko‘rinish)

Kunni Sharqdan G‘arbga
Yurgizganin qara-chi,
Osmonning shamchirog‘in
Kuygizganin qara-chi.
Qudratini Yaratgan
Bilgizganin qara-chi.

Oy aylanib osmonda
Qatnaganin qara-chi,
Bir o‘rinda tinchgina
Yotmaganin qara-chi.
“Somonchining yo‘li” der,
Hisobi yo‘q yulduzlar
Botmaganin qara-chi.
Qanoti yo‘q Oy, Kunni
Qush qilganin qara-chi,
Ikkisin bir-biriga
Esh qilganin qara-chi.
Aytsang bitmas, savobli
Ish qilganin qara-chi.

Ko‘kka yulduz to‘ldirib,
Oy qilganin qara-chi,
Barchasiga osmonni
Joy qilganin qara-chi.

O‘tgan fursat ortiga
Qaytmaganin qara-chi,
Bugun bor-u, erta yo‘q,
Yo‘q bo‘lishin sababin
Aytmaganin qara-chi.

Luqmon Hakimdan boshlab
Obi hayot axtarib,
O‘lim sirin hech biri
Topmaganin qara-chi.
Almashinib to‘rt fasl
Kelganini qara-chi.
Keragini jonzotga
Berganini qara-chi.
Qorong‘ini yorug‘lik
Yengganini qara-chi.

Hayot shunday ekan-da,
Kun tun bilan almashib,
Keta berar ekan-da.
Umr qurg‘ur bilinmay
O‘ta berar ekan-da.

Oqar suvlar qaytmasdan
Oqa berar ekan-da.
Fursat qushi qanotin
Qoqa berar ekan-da.

Asrlarni qaritgan
Qoya bo‘lar ekan-da.
Har bir elda bir udum,
G‘oya bo‘lar ekan-da.

Aqiq, sadaf, gavharing
Toshdan chiqar ekan-da,

Donishlarcha aql, o‘y
Boshdan chiqar ekan-da.
Qaltiratgan quyonni
Qamish bo‘lar ekan-da.
Er yigitni toblagan
Nomus bo‘lar ekan-da.
Qora qilni qirq bo‘lgan
Xolis bo‘lar ekan-da.
Arg‘umoqning quluni
Voris bo‘lar ekan-da.

Odamzodni xor qilmas
Aql bo‘lar ekan-da.
Yomon kunda yor bo‘lgan
Yaqin bo‘lar ekan-da.
So‘z zargari, mohiri
Oqin bo‘lar ekan-da.
Kun yog‘masa, yer beti
Taqir bo‘lar ekan-da.

Hayvonotning eslisi
Tulki bo‘lar ekan-da.
Odamzodni yoshartgan
Kulgi bo‘lar ekan-da.

Ko‘pni ko‘rgan oqsoqol
Qari bo‘lar ekan-da,
Qari so‘zi yoshlarga
Dori bo‘lar ekan-da.

Tarbiyali yigitlar
Silliq bo‘lar ekan-da.
Qiz zotida o‘zgacha
Qiliq bo‘lar ekan-da.

Kim nimaga qiziqsa,
Usta bo‘lar ekan-da.

Oqillarning har so‘zi
Qisqa bo‘lar ekan-da.
Aytganlari turmushdan
Nusxa bo‘lar ekan-da.

Toshni yorib chiqqan suv
Buloq bo‘lar ekan-da.
Har tomchisi zarga teng
“Uvoq” bo‘lar ekan-da.

But olamga yolg‘iz kun
Fonus bo‘lar ekan-da.
Qirq yilda ham qing‘ir ish
Nomus bo‘lar ekan-da.
Poygadagi tulporning
Tobi bo‘lar ekan-da.
Yovga siltar qilichning
Sopi bo‘lar ekan-da.
Eritilgan oltindan
Yombi bo‘lar ekan-da.
El ichida botirning
Dong‘i bo‘lar ekan-da.
So‘z boyligi chechandan
Nishon bo‘lar ekan-da.
El boshini qotirgan
Eshon bo‘lar ekan-da.
Otasiga bolasi
Tirgak bo‘lar ekan-da.
Bolasiga otasi
Yo‘lak bo‘lar ekan-da.
O‘n bir og‘a-inining
Vaqti kelsa uy-joyi
Bo‘lak bo‘lar ekan-da.
O‘lim savil umrga
Zavol bo‘lar ekan-da.

Har kimsada bir boshqa
Xayol bo‘lar ekan-da.
Yaxshi xotin erining
Taxti bo‘lar ekan-da.
Yaxshi erkak xotinning
Baxti bo‘lar ekan-da.
Giyoh ohanrabosi
Guli bo‘lar ekan-da.
Bulbul ohanrabosi
Uni bo‘lar ekan-da.
Arslonlarning ko‘zida
Suri bo‘lar ekan-da.
Yirtqichlarning bir qancha
Turi bo‘lar ekan-da.
Nortuyaning o‘ziday
Yuki bo‘lar ekan-da.

OQAR SUV

Yer qimirlab ketganda,
Ko‘kdan imon tushganda,
Yulduz ko‘kka to‘lganda,
Dunyo bino bo‘lganda,
Osmon oyni tug‘ganda,
Kun qizarib chiqqanda,
Odam Ato, Momo Havo
Og‘zidan chiqqan nafasi,
Xudoga tayin bo‘lganda,
Suv otasi Sulaymon,
Yordam so‘rab Xudodan
Suv bergin deb mung‘ayib,
Qudrati Xudoning,
Quvvat berib tepadan,
O‘rin berdi bu joydan.
O‘shanda o‘n sakkiz ming Olamdan,
Qo‘rqib chiqqan oqar suv.

Yer yuziga chayqalib,
Sochilib chiqqan oqar suv!..
Yetti qavat yer ostin,
Yorib chiqqan oqar suv.
Yer, Olamning barisin,
Boqib chiqqan oqar suv.
Olti qavat yer ostin,
Otib chiqqan oqar suv.
Odam Ato, Havoni,
Boqib chiqqan oqar suv.
Ola tog‘ning bag‘ridan,
Yorib chiqqan oqar suv.
Oltin qanot, jez quyruq,
Baliq chiqqan oqar suv.
Qora tog‘ning bag‘ridan,
Yorib chiqqan oqar suv.
Kumush qanot, jez quyruq,
Baliq chiqqan oqar suv.
Qaro yerning bag‘ridan,
Sizib chiqqan oqar suv.
Jami gunoh qilganni,
Bilib yotgan oqar suv.
Qora toshdan yarqirab,
Tushib yotgan oqar suv.
Jon-jonivor shimirib,
Ichib yotgan oqar suv.
Oq qiyaning bag‘ridan,
Qanoat olgan oqar suv.
Garib, miskin, bechora,
Tahorat olgan oqar suv.
Loy-u, gil-u, balchiqni,
Tozalagan oqar suv.
Oy tekkanda shuladay,
Yorug‘ chiqqan oqar suv.
Olib ketsa yetalab,
Ketavergan oqar suv.

Borar yeriga to‘xtamay,
Yetib kelgan oqar suv.
Tubi yumshoq, usti qattiq,
Botqoqdan chiqqan oqar suv.
Tikilgan bilan ko‘z o‘tmas,
Toshdan chiqqan oqar suv.
Abadiy muzlik qoyani,
Teshib chiqqan oqar suv.
Tosh qoyali ko‘k jarni,
Eshib chiqqan oqar suv.
Qancha yerni oralab,
Kezib chiqqan oqar suv,
Kerakligin odamga,
Jonli bilan jonsizga,
Sezib chiqqan oqar suv!..
Qoyadan sinmay bir yeri,
Qulab tushgan oqar suv.
Oyoq, boshi uzilmay,
Ulanib tushgan oqar suv.
O‘zini o‘zi ko‘paytib,
Qo‘shilib tushgan oqar suv!..
Toshga tegib sachrab,
Barqiragan oqar suv.
Ancha yerga to‘xtamay,
Sharqiragan oqar suv.
Tor yerga kelganda,
Gurkiragan oqar suv.
Yuragingni tushirib,
Un chiqargan oqar suv.
Borgan sayin kuch olib,
Durkuragan oqar suv!..
Yoyiq yerga borganda,
Yarqiragan oqar suv.
Oldi qiya jar kelsa,
Hayqiragan oqar suv.

Qulog‘ingni tom qilib,
Qapchig‘ayni chuv qilib,
Sharqiragan oqar suv!
Qo‘rqoq odam tusidan,
Qaltiragan oqar suv!

So‘rab-so‘rab o‘tirsang,
Qayda bo‘lar oqar suv?
Boshi berk tog‘ darasi,
Soyda bo‘lar oqar suv.
Izlaganda topilmas,
Joyda bo‘lar oqar suv.
Baland qoya, teran soy,
Jarda bo‘lar oqar suv.
Boshi oq tog‘larning,
Qoyasida bo‘lar oqar suv.

Betegasi ko‘kargan,
To‘rda bo‘lar oqar suv.
Yaratilish yaratgan,
Balandda bo‘lar oqar suv.
G‘oz-o‘rdagi suzgan,
Ko‘lda bo‘lar oqar suv.

Bo‘z bo‘lib xo‘rlangan,
Tomchi suvga zor bo‘lgan,
Elga kelgan oqar suv.
Oldin bo‘lib ko‘rmagan,
Yerga kelgan oqar suv.
Yer ustida yashagan,
Elga kelgan oqar suv.
O‘z shaklini yo‘qotmay,
Bir tomchisin kamaytmay,
Ushlab kelgan oqar suv.
Qurbonlikka tanasin,
Atab kelgan oqar suv!

Oyog‘i yo‘q, qo‘li yo‘q,
To‘xtayman degan o‘yi yo‘q,
Yurib kelgan oqar suv.
Boradigan yeriga,
Kiradigan joyiga,
Kulib kelgan oqar suv.
Oldi qiya jar kelsa,
Harqiragan oqar suv.
Qulog‘ingni tom qilib,
Qapchig‘ayni chuv qilib,
Sharqiragan oqar suv!
Qo‘rqoq odam tusidan,
Qaltiragan oqar suv!
Bir yog‘iga o‘stirib,
Tarvuz qilgan oqar suv.
Hech kimni sherik qilmasdan,
Yolg‘iz qilgan oqar suv.
Olabuta, ko‘k beda,
Yalpiz qilar oqar suv,
Ayiq sochi, oq so‘xta,
Andiz o‘stirar oqar suv!

Yurgan yerin ag‘darib,
Qiya qilar oqar suv.
Turli giyoh-u, o‘tloqda,
Achchiqmiya o‘stirar oqar suv.

Tog‘ga chiqqan kampirsoch,
O‘stiribdi oqar suv.
Malham uchun bir cho‘pin,
Dori qilgan oqar suv.
Botqoq o‘ti, sho‘rani,
Botqoq bo‘ta, anzurni,
Aytmasak bo‘lmas o‘shani.

To‘qqiz to‘ba, toshbaqa toli,
Bo‘yimodaron, parpi,

Tuyaquyruq, tikanak,
Tuyatovon, alafi.
Ayiqtovon, qurtena,
Unar piyoz, dalachoy,
Arpa bilan oq bug‘doy,
Shumtoli-yu, shuvog‘i,
Dastorbosh-u, yulg‘uni,
Isirig‘-u, semizo‘t.
Sachratqi-yu, kurmagi,
Kelinlarning o‘rmagi.
Mingdevona, ajiriq,
G‘umay, chalov, mevasi,
O‘shaning barin aytmasak,
Uqqanlar qolar torinib.
Qora qiyoq, qo‘ng‘irbosh,
Qizg‘aldog‘i, ermoni,
Qizil o‘t chiqqan betaga,
Qamish bilan chiy o‘ti,
Tovlanib turgan qo‘noq o‘t,
Gazak o‘t, rovoch, bodiyon,
Kiyik o‘t-u, kapalak,
Aytib beri jildirsam,
U yoqqa oqar oqar suv!..
Ustiga kiyib yurishga,
Kiyim qilar oqar suv.
O‘z hunarin bilmasdan,
Qiyin qilar oqar suv.
Choyga solib ichishga,
Novvot qilar oqar suv.
Borgan yerin yashnatib,
Obod qilar oqar suv.

Aytib hozir o‘tganday:
O‘t yaratar oqar suv
To‘rt oyoqni semirtib,
Et yaratar oqar suv.

Olma, uzum, olmurut,
Olcha qilar oqar suv.
Chetan, shilbi, qarag‘ay,
Archa qilar oqar suv.
Biz bilmagan dunyodan,
Qancha qilar oqar suv,
Ey, jonivor, oqar suv!..

Yer ustida o‘tlagan,
Molga kelgan oqar suv.
Ey, olamda yashagan,
Jonga kelgan oqar suv.
Ariq qazib avaylab,
Olib ketsa yętalab,
Ketavergan oqar suv.
Burgan yerdan to‘xtamay,
Charchaganga o‘xshamay,
Yetib kelgan oqar suv.

Oq yaktakning yengida,
Kir qo‘ymagan oqar suv.
Ko‘nglingni qoldirib,
Hech qo‘ymagan oqar suv!

— Ey, oqar suv, oqar suv,
Ey, olamni boqar suv.
Sirdaryoda ko‘p turib,
Sir tugashga oqqan suv.

Jonzotlarni boqar suv,
Bahorda kirib, toshgan suv.
Tortinmasdan bosgan suv,
Tor ariqdan oshgan suv.
Yalintirmay yoz, qishi,
Jonning barin boqar suv!.

Oqimi kuchli bo‘lgan suv,
Har o‘zanga to‘lgan suv.
Bahor payti kirgan suv,
Jonning bari suygan suv.
Ikki o‘rkachi boladay,
Tuya bo‘b kelgan oqar suv.
Ayiq, qobon, ilvirsi,
Shoqol kelgan oqar suv.
Biz ko‘rmagan jin-pari,
Devi kelgan oqar suv!
Bo‘qon bilan eligi,
Bug‘u, morol, kiyigi,
Birga kelgan oqar suv,
Balli, rahmat oqar suv!..

Oqqush, o‘rdak, churragi,
Unda bo‘lgan tunashi.
Bezg‘aldoq bilan oqcharloq,
Qora qashqa qashqildoq.
Zog‘cha, bo‘ktargi,
Ozgina aytdim ko‘p elga.
Qiziltumshuq ola qarg‘a,
Ketishmay qo‘nar oq jarga.
Bulbul qushning oqini,
To‘rg‘ay jiyan yaqini.
Sariq yomon, kuykasi
Cho‘chib turgan baxili.
Parrandalar jamisi,
Kun ko‘rishgan barisi,
Bular sensiz yashashmas,
Balli, rahmat, oqar suv!..

Qora alaf, ko‘k maydon,
Botqoq bo‘lar oqar suv.
Oqar yeri doimo,
Pastlik bo‘lar oqar suv.

Oy sachratgan to‘lqini,
Hech bilmagan qo‘rquvni,
Dengiz bo‘lgan oqar suv!..
— Ha, jonivor, oqar suv,
Dengizingda yashagan,
Olishganin yasagan,
Arslon boshli burni shish,
Qanoti bor uchishga,
Bu yolg‘onchi dunyoni,
G‘ayrati bor yutishga.
Oltmish quloch, besh boshli
Ajdarhoying bor bunda.
Yorug‘ qilib tuningni,
Qulog‘ining ichida,
Yonib turgan shami bor.
Ko‘p sirlaring qatilgan,
Ko‘k ho‘kizdek balig‘ing,
Ko‘kni ko‘zlab otilgan.
Yarqiratib tun ichin,
Qayta suvga sanchilgan,
Baliqlaring bunda bor!..
Tog‘ning oqar yeridan,
Yaralganda ostidan,
Tiniq bo‘lgan oqar suv.
Tozaligi tomondan,
Qarab tursang baridan,
Ulug‘ bo‘lgan oqar suv.

Kamarining ichiga,
Oltin qanot, jez quyruq,
Baliq to‘lgan oqar suv.
Kerakligi Olamga,
Aniq bo‘lgan oqar suv!..
Oldiga shayton yo‘latmay,
Quvib turgan oqar suv.

Ajali yetib o‘lganni,
Oq kafanlab, ardoqlab,
Yuvib turgan oqar suv!..

Harom bilan halolni,
Ilg‘amaysan, oqar suv.
Bir odamni yomonlab,
Bulg‘amaysan, oqar suv.

Yozi-qishi barobar,
Sog‘in bo‘lgan oqar suv.
Osmondan bulut haydalib,
Yog‘in olgan oqar suv.

Olti oylik yo‘l bo‘lsa,
Orasida uzilmay,
Cho‘zilasan, oqar suv.
Oltmish bo‘lak bosh tomon,
Oxiri kelib bir yerga,
Qo‘shilasan, oqar suv!

Dehqon-u chorvadorni,
But qondirib barini,
Xafa qilmay boqar suv.
Xizmati bilan odamga,
Mana shunday yoqar suv!..

Chelak bilan ko‘tarsa,
Tugayman deb shoshmagan.
Tikilib turib payqasak,
Yuragidan qaynagan,
Qanday mo‘lsan, oqar suv!

Tog‘ bag‘ridan habqirib,
Buloq bo‘lgan oqar suv.
Ayol bilan bolaga,
Inoq bo‘lgan oqar suv.

Javdiragan bo‘tako‘z,
Jonim olgan shirin so‘z,
Kumush tusli kun yuzli,
Jon eritgan bol tilli,
Shivir-shivir gaplashib,
Bir-biriga “yur” deyishib,
Asta qulf “shirq” etib,
Oltindan quloq sirg‘asi,
Qulog‘ida yalt etib.
Buni ko‘rgan yigitning,
Tan yuragi shig‘ etib,
Ikki chelak ko‘tarib,
Yurganda atir bo‘ylangan,
Ko‘rkidan kishi suqlangan.

Kelishgan,
gulday belangan,
Kipriklari o‘qlangan,
Qo‘shalab sochi o‘rilgan,
Qunduz telpak kiygan boshiga,
Qo‘ldagi oqqush misol ko‘ringan,
Qizlar kelgan, oqar suv!..
Oy tomog‘in ko‘rsatib,
Oq ko‘ylagin kiyvolib,
Oq elechak qo‘ndirib,
Oq morolday sirg‘alib,
Asta yurib jo‘nasa,
Osmondan tushgan yel xayf.
Kulgusi kumush tovushli,
So‘zlashdan yigit suqlangan.
Ochilgan qizil guldayin,
Obdan yasanib tuslangan.
“Azizim” deb she’r aytib,
Sekin suvga sir aytib.
Joniqib yurib qiynalib,
Kuniga borib suv olib.

Qariyani ko‘rganda,
Odob saqlab uyalib.
Aksini suvda ko‘rvolib,
To‘tiqushday taranib,
Kelinlar kelgan oqar suv!..

Buloqning boshin mo‘ljallab,
Mung‘ayib kutib, yo‘l to‘sib.
Yoshligi bilan yo‘l tutib,
Jonumon buloq anglashib.
Chilviridan otin ushlashib,
Chin pariday suluvga,
Chin dildan so‘zin bag‘ishlab.
Chaqmoqday uchqur minishib,
Chiybaxmal tanlab kiyishib,
Chimchilashib tegishib,
Davron surgan yoshlikda,
(Ruhlantirgan odamni,
Arag‘i yo‘q mastlikda).
Bir so‘z aytib qolishga,
Roziligin bildirib,
Vaqti kelsa aytishga.
Yangasin solib o‘rtaga,
Yeldirib erta qaytishga.
Yoshlik ishning oyini,
Boshidan sanchib tortishga.
Buloqqa dardin aytishib,
Yigitlar kelgan oqar suv!..

Belidan mahkam bog‘lanib,
Bolalaridan o‘rgilib,
Birin qo‘lga ko‘tarib,
Birin olgan erchitib.
Birin yurgan ovutib.
Sekin bosib chayqalib,
O‘tirganda “belim” deb,
Cho‘chiganda “erim” deb,

Qarilik meni yedi deb,
Yangi kelgan yillarim,
Nozlangan kelin kezim deb.
Qaydagini qo‘zg‘atgan,
Qarilik sening kezing deb.
Kampirlar kelgan oqar suv!.

Oq soqolin yoyiltib,
Asta so‘ylab, naql aytib,
Yo‘lning toshin terishib,
Buloq o‘nglab berishib,
Yigit chog‘in eslashib,
O‘tkan ekan vaqt deb,
Ketgan ekan quvvat deb,
Otangning go‘ri bu dunyo,
O‘zgarilmay turar deb,
Shajara, gapin chuvaltib,
Chollar kelgan oqar suv!..

Bijir-bijir gaplashib,
Bir kunda o‘n besh mahal suv kechib.
Suv bo‘yiga borishib,
Zangpoyadan kesishib,
Suv miltiq yasab olishib,
Birin-biri otishib,
Bir xumordan chiqishib,
Itbaliqni tepishib,
Men yutdim deb bahslashib,
Bolalar kelgan oqar suv!..

Oy tuyoqdan bag‘ishlab,
Oq yosh biya so‘yishib,
Oq qimizga to‘yishib.
Archa ko‘pga chidar deb,
Qoryog‘ochga qo‘yishib.
Qarag‘ay kesib juftlashib,
Qarilar bilan sinashib.

Changak bilan bekitib,
Yechilib sirga kelishib.
Suv kechmay moli o‘tsin deb,
Tez semirib ketsin deb.
El qatnashib unsin deb,
Epini topib yasashga,
Epchil usta bo‘lsin deb.
Eplab qurib ko‘prik,
Ellar kelgan oqar suv!..

— Ha, jonivor, oqar suv,
Tong bo‘zarib otganda,
Bulutli shamol turganda,
Urilib suv kirganda,
Tarozi yulduz bo‘linib,
Tog‘, toshning bari ko‘rinib.
Surilib yulduz qochganda,
Sariq Cho‘lpon yulduz botganda,
O‘zandan oq shamol yurib, hilpirab,
Suvdan, qora bug‘ chiqib burqirab,
Osmonning, yulduzi qochib tirqirab.
To‘qayda gullar gurkirab,
Butoqda bulbul kuy kuylab,
Shuvoqda to‘rg‘ay chuldirab.
Jilg‘adan olti ming buloq shildirab,
Yarashgansan, oqar suv!..

Kun yoyilib qolganda:
Guvullanib kuch olib,
Kumush qo‘biz kuy chalib.
Harqiragan kuch olib,
Oltin qo‘biz kuy chalib.
Kun kelbatin yuziga,
Yarqiratib tushirib.
Chanqab kelgan mol, jonga,
Tortinmasdan ichirib.

Kumushday bo‘lib yaltirab,
Barakasin orttirib,
Iyib ketgan bilqillab!..
Biri qo‘nsa, biri uchib,
Biri ketsa, biri kelib.
Ikki yog‘in qarashib,
Qanotlarin tarashib.
Muqom o‘ynab, sayrashib,
Butog‘iga yarashib.
Uyadagi kutishgan,
Palaponga suv berib.
Chug‘urlashib o‘tirib,
Qo‘rqqanida duv etib,
Qushlar kelgan oqar suv!..

Quyruq yoli bir qarich,
Qulon kelgan oqar suv.
Oyog‘i yo‘q, qo‘li yo‘q,
Ilon kelgan oqar suv!
Chivin bilan chirkayi,
Bu-da kelgan oqar suv.
Bo‘kasi-yu, burgasi,
Juda kelgan oqar suv.
Ninachi-yu, so‘nasi,
U ham kelgan oqar suv.
Shangshiti-yu, sayg‘og‘i,
Bu ham kelgan oqar suv.
Sariq qo‘ng‘iz, saraton,
Sanab aytib boraman,
Yugurib kelgan oqar suv.
Qumursqadan filgacha,
Rosa kelgan oqar suv!

— Ha jonivor, oqar suv,
Tush payti mahalida,

To‘lqinlanib ko‘pirib,
Jo‘shqinlanib so‘zlagan.
Shamol chiqib o‘zidan,
Shabadasi yashnatgan.
Hapqirib toshib oqib,
Tantanavor kuylatgan.
Jonlab borgan mol ichib,
Suvsab borgan jon ichib,
Bag‘ri bilan yopishib,
Oyog‘i bilan bosgan ham,
Havolanib uchgan ham,
Barchasi o‘zingga qaytgan,
Asilingsan, oqar suv!..

Peshin vaqti bo‘lganda,
Biroz qolgan tortilib,
Tan bermagan odamning,
Kayfiyati o‘zgarib.
Boshmaldoq ursa o‘rdagi,
Payqalar baliq ko‘ldagi.
G‘o‘dayib suzsa g‘ozlari,
Qolmay erchib bolalari.

Lochin, ko‘k qush kela olmay,
Shiddat olib tepa olmay,
Ichida qolar armoni,
Ha jonivor, oqar suv,
Ko‘pga tekkan yordami!..
Kechki mahal bo‘lganda,
Garmsel yurib o‘ynagan.
Qora suvchi, kulikqush,
Qiyalab uchib bo‘ylagan.
Qiblaning qizil shamoli,
Qidirib dunyo buzmagan.
Shafaqlab kun botarda,
Hayolni joyga qo‘ymagan.

Quyosh nurin singdirib,
Kulib ko‘rkin buzmagan.
Qaragan bilan qanchalik,
Ko‘rkiga ko‘zing to‘ymagan!..

Tun ichida qarasang:
O‘zanning ichi shovullab,
Ko‘kda yoyilib yulduzi,
Aksin ko‘rib nozlanib.
Ko‘k yulduzin bottirib
Barkashday oyni qalqitib,
Otday oq qorin balig‘i,
Osmonga qarab otilib.
Maydalangan tomchisin,
Hovuchlab jo‘yakka sochdirib.
Sanochdagi qimizday,
Sachratib, shopirib,
Tarovating bir yaxshi,
Ko‘rganning og‘zin ochirib!..

Oqadirsan cho‘zilib,
Allaqayda sayragan,
G‘urrak bilan qumrining,
Sayragani uqilib.
Yalpizning hidi burqirab,
Dimog‘ingni ochdirib.
Kuylagingni keltirar,
Lochin qushday jo‘sh urib!

Bahor kelsa to‘xtamay,
Tog‘dan chiqqan oqar suv.
Qayiq suzib o‘tolmas,
Qora tog‘ning bag‘ridan,
Ko‘ldan chiqqan oqar suv!
Yer ustida miltillab,
Daryo bo‘lgan oqar suv.

Jengijoq to‘kkan she’r bilan,
E’lon bo‘lgan oqar suv.

Yurib o‘tgan yerida,
Yemish o‘sib, bog‘ bo‘lgan,
Kelib ketgan yeriga,
Shahar bitib el to‘lgan.
Fe’li keng, tor emas,
Bir shaklda buzilmay,
Oqib yotgan oqar suv.
Dunyodagi barchaga,
Boldan totli — ship-shirin,
Yoqib yotgan oqar suv!..
Irik bilan chirikni,
Toza qilgan oqar suv.
El yaylovga qo‘nganda,
Ertaroq ichsam degizib,
Ikki og‘ayni odamni,
Ayri qilgan oqar suv.

Yurgan yerin gullatib,
Yumush qilgan oqar suv.
Navbat menga kelmas deb,
Qo‘shni bo‘lgan odamni,
Urishtirgan oqar suv.

Bahor oyi kelganda,
Boychechakday bosh boqib,
Buloq yurib tosh yorib.
Tog‘ boshidan muz erib,
To‘qson ming buloq bir bo‘lib,
Osmondan bulut burkalib
Yomg‘irin to‘ksa — u ko‘rib!

Yakanning boshi hilpirab,
Qamishning uchi qimirlab.

Olam bulutga o‘ralib,
Oyning boshi tugilib.
Chaqilgani chirtillab,
Oy qorong‘i tunida,
Kunduzgiday yarqirab.
Yerning yuzin termiltirib,
Qahrlanib kirganda,
Sel surilib kelganda,
Qapchig‘ayga to‘lganda,
Suvga borgan mol-jonni,
Ajdarday yamlab yutganda.
Olachiqday tosh oqib,
Ayiq, yo‘lbars, silovsin,
Oldidan chiqqan jon oqib.
Bog‘lab qo‘ygan sol oqib,
Bilmay qolgan jon oqib.
Ko‘priklar ham oqib,
Kechib kirgan mol oqib!
Buzib o‘tgan qiyani,
Bu — oqar suvning ziyoni!..

Toshga tekkan yeridan,
Alanga olib, o‘t yonib.
Jarga tekkan yeridan,
Yo‘lida uyday iz qolib!
O‘rtasidan qarasang,
Joyidan qora qon oqib!
Bir tup terak to‘xtamay,
Bir cho‘pga ham o‘xshamay.
Qarag‘ayi, archasi,
Qoraygan to‘qay qanchasi,
To‘xtashga ham yaramay,
Oqib borar dam olib.
Toshga tegsa bir sapchib,
Tirik jonni qochirar.

Xapriqib, shovullab,
Kuchini toshga, ko‘rsatib.
Uyday-uyday toshlarni,
Dumalatib, siljitib.
Uni ko‘rgan bandaning,
Aqli qolar dovdirab.
Qoyaga tegsa yanchilib,
Haybatidan jon chiqib.
Kirib borar oqar suv!..
Bu ham oqar suvning ziyoni!..

Ha, jonivor, oqar suv,
Bahor kelsa guvullab,
Bo‘yin bermay toshgan suv.
Tog‘dan cho‘lga yetguncha,
Talay yo‘lni bosgan suv.
Jon-jonivor barchani,
Jami ushbu dunyoni,
Yarqiratib boqar suv!

Bo‘linib yurtga bo‘lmagan,
Yonida odam bo‘lmasa,
Yaqin ko‘rib cho‘llagan.
Ariq bo‘g‘ib bog‘lasa,
Foydasi bor oqar suv.
Yashab tursa tuganmas,
Yayrashi bor oqar suv.
Jonli bilan jonsizga,
Umr chirog‘in yoqtirgan,
Xosiyatli oqar suv!
To‘lqini baland dunyodan,
Taqdiriday yaralgan.
Turli giyoh, mevaga,
Qoni bo‘lib taralgan,
O‘rgilishib yonidan,
G‘arib, miskin ketmagan,

Qanday mo‘lsan, oqar suv,
Yerning ustin bosgan sen!..

Ha, jonivor, oqar suv,
Oqar suvning belgisi:
Qamchilanmay tez ketgan,
Murodiga u yetgan.
Jirkanmay ichiga,
Qirq oyoqli qurt solgan,
Qamish chiqib qo‘liga,
Qora biya o‘tlagan.
Boldirining ichiga,
Baqa chorlab to‘xtagan.
Kelishgansan, oqar suv!..
Ko‘rib odam ẏayragan,
Bihishtdansan, oqar suv.
Harom, halol demagan,
Asildansan, oqar suv.
O‘z boshingdan gunohni,
Aritgansan, oqar suv.
Kimga bo‘lsa “ma’qul” deb,
Bosh eggansan, oqar suv.
Har tarafga yo‘l olib,
Oqib o‘tding, oqar suv.
Adashmasdan o‘z yo‘ling,
Topib o‘tting, oqar suv.

Hayol surib, qiyshayib
Shovqinlanib, un berib,
Yelib o‘tding, oqar suv.
Qarzlaring odamga,
Berib o‘tding, oqar suv.
Qishin-yozin bir xilda,
Qo‘rg‘oshinday salmoqli,
Tiniq bo‘lib miltillab,
Erib o‘tding, oqar suv.

Kelin bilan qizlarga,
Keragincha olgin deb,
Chelagiga to‘ldirib,
Berib o‘tding, oqar suv!

Umrda sherik odamga,
Bo‘lib o‘tding, oqar suv.
Bu yorug‘ dunyoda,
To‘lib o‘tding, oqar suv.
Qora yerning bag‘riga,
Kirib o‘tding, oqar suv.

Boradigan yeringni,
Bilib o‘tding, oqar suv.
Odam bormas chuqurga,
Kirib o‘tding, oqar suv.

Xosiyatli oqar suv,
Kuz paytida qarasang
Shaddodligi pastlagan,
Quvvatidan ayrilgan.
Muzlari ozayib erigan,
Bulog‘i chiqmay kamigan.
G‘oqillab uchgan g‘oz ketgan,
Kukulab yurgan qush ketgan.
O‘rdak, churrak qolmasdan,
Iliq yoqqa duv ketgan.
Jinin qoqar baxshiday,
Yarim bo‘lib suv ketgan.
Erta bilan kechida,
Burqirab chiqqan bug‘ ketgan.
Qish chillada qarasang,
Ko‘rinishin payqasang,
Ko‘k muz, qorga o‘ranib,
Ko‘ngilning kuyi yo‘qolib,
Jar tubida chuldirab,

Oqib yotar jildirab
Avvalgi holi yo‘q bo‘lib,
Arang jonday to‘xtalib,
Ammo bo‘yin bermasdan,
Ayoz sovuqqa ko‘nmasdan,
Oqaverar oqar suv!..

Ha, jonivor, oqar suv,
Kun-u tun oqsang ham,
Xizmat qilib yotsang ham,
Qadringni bilmaymiz.
Ko‘nglingni kir qilib,
Qayta o‘zingni maqtaymiz.
Yo‘q deganda bir yilda,
Ziyorat qilib bormaymiz.
Suv siylagan zo‘r bo‘lar,
Suv xorlagan xor bo‘lar,
O‘ziga o‘zi yov bo‘lar.
Aqling bilan o‘ylab ko‘r,
Aytmaganman jimgina!..
Ha, jonivor, oqar suv,
Yo‘q deganda bir kunga,
Kelmay qo‘ysang arazlab,
Mensimay seni yurganlar,
Chopishardi, oh urib!
Qadrlamay yurganlar,
Uzoq yerda bo‘lsang ham,
Bir xo‘plab seni olishga,
Borar edi yalinib.
Qo‘lida bor dunyosin,
Berar edi ilinib!..

Biroq sen unday emassan,
Chayqalib yotgan kengdirsan.
Zarur bo‘lgan jonzotning,
Xizmatiga kelgansan.

U tomondan bu yoqqa,
Kerak uchun kelgansan,
Balli, rahmat, oqar suv!
To‘lib, toshib oqaver.
Aylanib yer yuzida,
Hayot o‘tin yoqaver!..
Muzlik bo‘lib dovonda,
Kutib yotgan oqar suv.
Yetti kun, bir tun aytsam ham,
Tugamagan oqar suv.
Oqar, oqar, oqar suv,
Omonat jonga yoqar suv!..

TO‘QTAG‘UL

(1864–1933)

Ulug‘ qirg‘iz shoiri To‘qtag‘ul Sotilg‘an o‘g‘li qirg‘iz og‘zaki ijodining bilimdoni, bastakor va mohir qo‘mizchidir. Turmush uqubatlarini o‘smirligidanoq boshidan kechirgan bo‘lajak oqin yurtdoshlarining dard-u hasratiga hamohang qo‘shiqlar to‘qib, kuy bastalab, el e’tiborini qozondi.

Oqin Andijondagi Dukchi eshon qo‘zg‘olonida ishtirok etgan, degan tuhmat bilan 1898-yili qamalib, yetti yillik surgunga hukm qilinadi. To‘qtag‘ul bu uqubatli muddatni Irkutskdagi qamoqxonalarda o‘tkazgan.

To‘qtag‘ulning adabiy merosi, bastalagan kuylari 30-yillardan nashr qilina boshlanadi. Uning she’riy maktabidan ta’lim olgan Barpi, Eshmambet, Xoliq, Alimqul, Qo‘rg‘ol, Atay kabi oqin-baxshilar qirg‘iz adabiyotini ajoyib durdonalar bilan boyitdi.

Qirg‘izistonda To‘qtag‘ul eng ulug‘ mumtoz shoir sanaladi, unga atab kinofilmlar olingan, sahna asarlari yaratilgan, Davlat mukofoti ta’sis etilgan, o‘nlab haykallari tiklangan, shahar barpo etilgan, GES qurilgan, maktablar, parklar ulug‘ oqin nomida.

YO‘QCHILIK TUFAYLI

Yo‘qchilik sababidan
Malay bo‘lib yollanib,
G‘ariblik tushdi boshima
Qozonbekka orlanib.
Qo‘limga qo‘miz olsam deb,
Yetolmay turdim zorlanib.

Malay bo‘lib, javdirab,
Yurganim Qoboq yer bo‘ldi.
Qora toshi to‘mraygan,
Oshganim asqar bel[1] bo‘ldi.

Qozonbek qachon siyladi?
G‘arib onam yig‘ladi.
Qartayganda jon otam
Qora jonin qiynadi.

Qashshoqda rizq-ro‘z bo‘lmadi,
Kelishga hech vaqti yo‘q,
Xosiyatli Xizr qo‘nmadi.
Qozonbek bizni xo‘rladi....

Tovonim toshda tilindi,
Torlik zamon bilindi.
Tanamdan chiqsa issiq jon,
O‘lganlar qachon tirildi?..

Boyoqish otam holsirab,
Ichim sizar qonsirab,
Jabrini tortmay ne qilay,
Kimga boray mol so‘rab?..

Abdulla asqa, To‘xtabek,
Qozonbekdan ketmas kek.
Qiynalganda o‘ylayman
Qoyadan uchib ketsam deb...

[1] **Asqar bel** — baland dovon.

KULUYPA, KULJAR SHAYDO QIZ

Keraga toshdan el ko‘char,
Keng orol daryo suv kechar.
Kuluypa, Kuljar shaydo qiz,
Kuyinsam, dardim kim chechar?

Uyilgan toshdan el ko‘char,
Uch orol daryo suv kechar.
Kuluypa, Kuljar shaydo qiz,
Uh torsam, dardim kim chechar?..

Oq tepadan el ko‘char,
Olti orol, daryo suv kechar.
Oqmanglay, suluv shaydo qiz,
Og‘riqli dardim kim chechar?

Bo‘tali norni yetaklab,
Bo‘z dalangdan o‘tasan.
Bag‘ritoshlik qilmasdan,
Kuluypa, Kuljar shaydo qiz,
Bo‘zlatib qayga ketasan?..

Zag‘izg‘on uchsa yetmaysiz,
Sari-o‘yga ko‘chib ketibsiz.
Sariq chang o‘rlar, shamol yo‘q,
Kuluypa, Kuljar shaydo qiz,
Sarsonlar qilding, amal yo‘q.

ALIMXON

Ot yopqichi — juldaysan,
Ochilgan qizil guldaysan.
Bir kun bemor, bir kun sog‘,
Alimxon,
Azobing tortsam, bilmaysan.
Yashnab yotgan maydonim,
Fe’li yaxshi jaydarim.
Ko‘lankali maydonim,
Alimxon,
Ko‘ngli yaxshi jaydarim.

Buxoro tog‘i burilish,
Burilib uchar ulug‘ qush.
Burilib bir kelsang-chi,
Alimxon,
Bemorga solmay qiyin ish.

Qashqar tog‘i qayrilish,
Qayrilib uchar ulug‘ qush.
Qayrilib menga kelsang-chi,
Alimxon,
G‘aribga solmay qiyin ish.

Sariq gulli ro‘moling
Sarsonlar qilar visoling.
Ko‘m-ko‘k gulli ro‘moling,
Alimxon,
Ko‘p bemor qilar xayoling.

To‘qtag‘ul chertar “Yosh xayol”
Tinglasang-chi, Alimxon.
Oq shoyi ro‘mol qo‘lga op,
Sayrasang-chi, Alimxon.
Bu to‘rt kunlik umrda
Yayrasang-chi, Alimxon!

ERKA SARI

Erka sarim, elga dorim,
Jon-jahonim, kuydi jonim.
Suyimxonim, suydi jonim.
Yuqori yog‘ing Bozorkon,
Quyi yog‘ing Shahrixon.

Eshiging oldi yakka tut,
Yetolmadim, Suyimxon.
Yetkanlardan bir salom
Aytolmadim, Suyimxon.
Qora toshli qattol yo‘l,
Qaytmoqchiydim, Suyimxon.
Qatnagandan bir salom
Aytmoqchiydim, Suyimxon.
Yuzim qo‘yib yuzingga
Yotmoqchiydim, Suyimxon.

ASILXON

Kimning kimning ko‘chasi?
Asilxonning ko‘chasi.
Bugun oyning nechasi?
Oy qorong‘-u kechasi.
Tol novdaday buralar
Asilxonning muchasi.

Anda holi ne bo‘ldi
Ardoqlagan onasin?
Sir aytishib, birga yurgan
Sumbatli ekan yangasi.
Kun-tun ketmas yodimdan
Asilxon muomalasi.

Oyday yuzing yarqirab,
Kulganmiding, Asilxon?
Siring ochib aytmasdan
Bir so‘zingni, Asilxon?
Tenglashtirmam ming qizga
Bir o‘zingni, Asilxon!

BAXTIQIZ

Qalampirmunchoq taqarsan,
G‘animat jonning borida
Qosh qoqib o‘yna, Baxtiqiz!
G‘animat yoshlik o‘tgan so‘ng,
Qah-qah kulgi, o‘yinni
Qayrilib qaydan toparsan?

Gulli munchoq taqarsan,
Gulgun yoshlik chog‘ingda
Gullab-yashna, Baxtiqiz!
Gulgun yoshlik o‘tgan so‘ng
Gur-gur kulgi, o‘yinni
Guvranib qaydan toparsan?

GULLAB OL

Qora baxmal nimcha kiyib,
Bo‘ylangizlar, qizlar-ay,
Gulday suluv bu damlar
O‘ynangizlar, qizlar-ay.
Qayrilib kelmas bu umring,
O‘ylangizlar, qizlar-ay,
O‘ynay olmay, kula olmay,
O‘ynamoq ne — bila olmay,

Gul yoshlikni qaritib
Qo‘ymangizlar, qizlar-ay!..

Qizil baxmal nimcha kiyib,
Bo‘ylangizlar, qizlar-ay,
Qaynoq ko‘ngil bor chog‘da
O‘ynangizlar, qizlar-ay.
Qaytib kelmas bu umring,
O‘ylangizlar, qizlar-ay,
O‘ynay olmay, kula olmay,
O‘ynamoq ne — bila olmay,
Qiziq bu damni o‘tkazib
Qo‘ymangizlar, qizlar-ay!..

Qizil ipak gulda bor,
Qizil tilim, so‘zlab ol.
Qaytib kelmas hech umring,
Qiz chog‘ingda gullab ol.
Xayollanib qochmagin,
Qizdan qochgan ko‘r ham bor.

Yashil ipak gulda bor
Yangroq tilim, so‘ylab ol.
Yana qaytmas bu umring
Yosh chog‘ingda gullab ol.
Yo pirim, deb qochmagin,
Yosh o‘ynamas ko‘r ham bor.

Go‘zal yoshlik chog‘ida,
Gulday umr bog‘ida.
Gulxayriday gullab ol,
Gulgun yoshlik borida.
Qarilik yetib kelgan so‘ng,
Qiron umr o‘tgan so‘ng,
Qora chim bosib tanangni,
Qolarsan yerning qa’rida...

OQILA, SULUV YOR BO‘LSA...

Yaylovda o‘sgan gulxayri
Yashnagan qiz guloyin.
Bilib ol, hey, yigitlar,
Yonog‘i gulgun qiz joyin.

Aqiqday oppoq halqumi,
Odam kimligin but bilgan
Odamdan ortiq aqli.

Ko‘m-ko‘k qamish — soz bilan,
Ko‘ngil berib so‘ylashsang,
Ko‘rkam suluv qiz bilan.

Oy yorug‘i — tun bilan,
Ayyomlashib so‘ylashsang
Oynakday suluv qiz bilan.

Bulbul, to‘ti — un bilan
Sirlashib sirni yechishsang,
Buralgan suluv qiz bilan.

Yoz salqini — tun bilan,
Qizg‘aldoq — qizil gul bilan.
Yoshlikda qani, umr sursang,
Yarashgan suluv qiz bilan.

Arg‘umoq bo‘lsa minganing
Oqila suluv yor bo‘lsa,
Tavakkal qilib suyganing.

Tulporlar bo‘lsa minganing
To‘tiday suluv yor bo‘lsa,
Tavakkal qilib suyganing.

Arg‘umoq ot bo‘lsaydi
Ostingdagi minganing.
Oy parizod bo‘lsaydi,
Bir umrga suyganing.
O‘zgachadir rohati,
Yo‘qsa — tamom kuyganing...

Guldan cho‘lga qayrilma,
Umring o‘tsin armonsiz,
Suyganingdan ayrilmay...

Atir isi kelar yoz bilan,
Yigitga tole bitsaydi
Oqila, suluv yor bilan.

Oqila bo‘lsa olganing,
O‘lguningcha ko‘rarsan,
Umr lazzatin surarsan.

Tovus kabi sollanib,
Ko‘rklanib tursa yoningda.
Qiziq-qiziq so‘z aytib,
Yarqillasa yoningda.

O‘tgunicha bul umring
Suyganing bilan suyishsang,
So‘lim yoshlikni yodlab
O‘lguncha birga yurishsang...

ARZIMATGA

Bekni ko‘rsang maqtaysan,
Bekorga ichgan osh uchun.
Xushomad qilib begingga,
Bechorani talaysan.

Xonni ko‘rsang maqtaysan,
Qorning to‘ygan har yerda.
Xushomad qilib xoningga,
G‘aribni ko‘rsang talaysan.

Xon Diyqonboy uyida
Yurganingni maqtanding.
Xushomadga qo‘y so‘yib,
Kulganingni maqtanding.
Biy, bo‘lisga bosh egib,
Bilganingni maqtanding.

Qazi bilan qartaga
To‘yganingni maqtanding.
Xon Diyqonning irchisi
Bo‘lganingni maqtanding.
Qora qarg‘a singari
Qar-qar qilgan sen sho‘rlik!..

Manapdan ichgan oshingga
Maqtanib yurgan ekansan.
Maqtanganing tosh yorar,
Meni faqir deb xo‘rlading.
Faqir bo‘lsam ham o‘zim,
Jilov uzgan yo‘rg‘aman.

BESH QOBON

Ahmad, Diyqon — aldamchi,
Otaxon, Mingboy — yolg‘onchi,
Egamberdi, Baxtiyor —
El yeganga yordamchi...

Palaponday piypalab,
Soliq solib, el yeding.

Chirqiratib sho‘rlikni,
Aslo sen kun bermading.
Javdiratib faqirni
Yolg‘iz otin so‘yib yeding...

Yetim-yesir, holsizga
Qaramading, besh qobon.
Yetilsin deb sho‘rlikni
Sanamading, besh qobon.
Yeb-ichgandan boshqani
Xohlamading, besh qobon.

Ko‘rolmaysan qashshoqning
Yaxshi ot topib minganin.
Ahmad, Diyqon, Otaxon,
Razilliging bu sening.

Talab op, sarson qilding
Bo‘ronboyning Sarisin.
Kunda talaysan ayblab,
Kulli yurtning barisin.

Yiqib olding, Otaxon,
To‘yalining novvosin.
To‘xtatdi ul bechora
To‘yga, oshga borishin.

Yetim bilan yesirning
Tinglamaysan arzini.
Tirnog‘ing naq burgutday
Talab yeysan qarzini...

O‘chakishib, Mingboy, Otaxon,
Meni ham yiqib, yoqarsan.
To‘qtag‘ulga qasd qilib,
To‘qsonta ayb taqarsan.

Odatingni qilarsan —
Uy-molimni talarsan.
Qonxo‘rliging avjida,
O‘ldirib qonim yalarsan.

Zahar sochgan besh qonxo‘r,
O‘ldirsang ham yalinmam.
Yana kelmam dunyoga,
O‘lgach, yana topilmam.

ESHON-XALFA

El ichini oralar
Eshon bo‘lar, derdilar.
Elni aldab yemasa,
Kasal bo‘lar, derdilar.
Eshon bilan yonma-yon
Xalfa bo‘lar, derdilar.

Orqasida osilgan
Xalta bo‘lar, derdilar.
Ajalga bermay boylarni
Olib qolar, derdilar.

Oramizda yo‘l buzar
Aldamchi bor, derdilar.
To‘g‘ri so‘zni bilmagan
Yolg‘onchi bor, derdilar.

Qur’on ochib qaragan
Mullosi bor, derdilar.
Imom bo‘lib, pul olgan
To‘ymasi bor, derdilar.

Eshonlarning bihishtga
Ochib qo‘ygan tap-tayyor
Eshigi bor, derdilar.

O‘n molingdan bitta mol
Kesimi bor, derdilar.
Ko‘rib kelgan bihishtni
Yetugi bor, derdilar...

El qidirgan eshonlar,
Ardoqlaysan izzat qip,
Osh-ovqati mo‘l-kengni.
Qaramaysan ko‘z solib,
El ichida gadoni.
Avliyo xush ko‘rarmi,
Moyli tomoq yeganni?

Bo‘lisni izlab kelishgan
Oq sallalik odamlar —
Eshon, baxshi, mullalar,
Ajralmaydi oranglar...

Bo‘lissan, elni biylaysan,
El g‘amini bilmaysan.
Odil bo‘l, deb ir aytsam,
Yoqtirmaysan, tillaysan.

Qilma menga, bo‘lis, jahlingni,
Bilmaysan mening sirimni,
Xo‘ja, mulla, eshonlar —
Yolg‘on so‘zga sig‘indi.

Haddingdan oshgan bo‘lissan,
Qilasan kunda yig‘inni.
Bechora och gadoyga
O‘z o‘yingga kelgancha
Solasan kunda chiqimni.

Xo‘rlangan qashshoq qo‘rqqandan
Sotdi-ku, yolg‘iz sigirin.

Ko‘rsatasan sho‘rlikka
Jonidan o‘tgan jabrni.

Kutib yotgan mehmoning —
Olisdan kelgan oq eshon.
Yulib-talab, qo‘ymaysan
Elni qilib parishon.

Oxiratning holatin
Borib ko‘rib kelganday.
Aldamchining solig‘in
Holsiragan fuqaro
Berar, bo‘lib o‘lganday...

UYCHILIK ESHON

El kezgan eshon ekansan,
Aldamoqni qo‘ymaysan.
Araq ichib to‘ymaysan.
Azobga qolsang-da oxir,
Ahmoqlikdan toymaysan.

Ulamodan gap uqdim,
Mullolardan ko‘p uqdim.
Qo‘llaydigani bo‘lmas,
Qo‘shib yig‘gan eshonlar
Azozilning yonida
Azobga qolg‘on, deb uqdim.
Aqchani aldab oladur,
Aytgani yolg‘on, deb uqdim...

Qo‘l ko‘tarib, duo qip,
Qo‘ydan tanlab olarsan.
Qo‘llaydiganing qolmay,
Eshonim,
Qattiq kunga qolarsan.

Ovul oralab, tentib,
Oqchani yig‘ib olasan.
Azozil bilan yonma-yon
Azoblarga qolasan...

TO‘QTAG‘ULNING JAZO OTRADI OFITSERLARIGA QARAB AYTGANI

Shahardan kelgan ulug‘lar,
Bilasan ishning mo‘ljalin.
Qay xayolda turadir
Sizlarning qilg‘an o‘ylaring?
Qanday ko‘rmas ko‘zingiz
Eshon-xalfa, boy-manap
Elning qonin so‘rganin?..

Ulug‘ bo‘lsang sinab ko‘r,
Ishonmasang o‘zimga,
Boshqalardan so‘rab ko‘r.
Shahardan kelgan gunadir[1],
Quloq solib, uqib tur,
To‘qtag‘ulning she’rlarin.
Odil bo‘lsang, tekshir-chi,
Yo‘qsilni boylar urganin.
Men bu elning ko‘rmadim
Davr-u davron surganin.

Gunadir, kelding ovulga
Kun tegmas tog‘ga yoz fasli.
Ulug‘ bo‘lsang ko‘z sol-chi,
Gunohkor kas kim asli?

[1] **Gunadir** — ruscha “gubernator”.

Oshkora aytgan so‘zimni
Gunadir, uqsin qulog‘ing,
Bekor qolsa, chiqim deb,
Boylab olar biy-bo‘lis
Yo‘qsilning yolg‘iz ulog‘in.

Sen bilmasang, kim bilar
Zorlagan elning ahvolin?
Ko‘ylagi yo‘q gadoyni
Palaponday bosib yeb,
Karimboy ko‘rdi uvolin...

Uyini sutsiz qo‘yib,
Molini tortib olganin.
Sho‘rlik gadoy chor-nochor
Ko‘tarar boyning solganin.

Ulug‘ bo‘lsang, olib ber
Gadoydan boylar olganin.
Ulug‘lik ishin bilmasang,
Boyning so‘zin so‘ylasang,
Sen ham tortib ola ket
Bechoraning qolganin!...

XO‘SH, ONAJON!

Bo‘zlading, ona, bo‘zlading,
Qayg‘umni qayta qo‘zg‘ading.
Toqat qilsang bo‘lardi,
Tirigimda yo‘qlading.

Yig‘lading, ona, yig‘lading,
Yig‘lama, yoshing qurg‘asin.
Uvvos tortib, zor yig‘lab,
O‘g‘lingni mungli qilmagin!

Aylanayin onajon,
Alam-g‘amga botarsan.
Haydaydilar olisga,
Azobim tortib yotarsan.

Quvvating ketar, kuyinma,
Quloq sol, mening tilimga.
Ajalim yetib o‘lmasam,
Qarchig‘ay qushday aylanib,
Qayrilib kelgum elimga!

Aylanayin onajon,
Palaponday boqqansan.
Oq sutingni emizib,
Bag‘ringga bosib yotgansan.
Meningday bir yolg‘izni
Tilab-tilab topgansan...

Boshimga tushdi, ko‘rayin,
Ajalim yetsa o‘layin.
Qayg‘urma, ona, uyga bor,
Netaman, borib kelayin.

Aylanayin onajon,
Uqqin mening so‘zimni.
Qartayganda ko‘p yig‘lab,
Oldirma mungga ko‘zingni.
Oxiri bir kun olarman
Karimboydan o‘chimni.

YO‘QOLAR

Olti soy qo‘shilib, ko‘l bo‘lar,
Olti yurt qo‘shilib, el bo‘lar.
Olti yurtni qo‘shganda,
Asiling To‘qang yo‘q bo‘lar.

Yetti soy qo‘shilib, ko‘l bo‘lar,
Yetti yurt qo‘shilib, el bo‘lar.
Yetti yurtni qo‘shganda,
Yetuging To‘qang yo‘q bo‘lar.

KELARMIKIN KENG ZAMON?

Haydalib ketdim, ishim haq,
Holim — xarob,
kayfim — “chog‘”!
Og‘a-ini, qardoshlar,
Men nohaqmi, o‘ylab boq!

Yayrablar yurgan To‘qtag‘ul,
Zanjir tushdi qo‘limga.
Azob tushdi boshimga,
Haydaldim Shiber[1] yo‘liga.

Kishan tushib butimga,
Haydalib ketib boraman.
Qayrilib kelar kun bormi,
Qalin qirg‘iz yurtimga?

O‘zbek, qirg‘iz — qalin yurt,
O‘sgan elim, omon bo‘l!
Umrimni xo‘p yayratib
O‘tgan elim, omon bo‘l!

Kindik kesib, kir yuvgan
Tug‘gan yerim, omon bo‘l!
Yoshlikdan birga o‘sgan
Tug‘gan elim, omon bo‘l!

[1] **Shiber** — Sibirning mahalliy talaffuzi.

Zolimning tushdim to‘riga,
Haydaldim Shiber cho‘liga.
Emin-erkin kezimda
Eshonlar chiqdi yo‘limga[1].

To‘rg‘ayday sayrab To‘qtag‘ul,
To‘lg‘anib kelar kun bormi?
Haydalib ketgan To‘qtag‘ul
Aylanib kelar kun bormi?

Risqulbekday besh qobon,
Fe’li buzuq besh yomon.
Ketdim Shiber haydalib,
Kelarmikan keng zamon?!

QIYIN ISH TUSHDI BOSHIMGA...

Gunohim yo‘q, so‘ramay,
Haydab ketib boradi.
Arqon solib bo‘ynimga,
Sudrab ketib boradi.

O‘rdak uchib qo‘nolmas
Ko‘lga ketib boraman.
O‘lsang, tovshing uqilmas
Cho‘lga ketib boraman...

Oltmish kishi haydaldi,
Ortimdan kelib boyladi.
Xudodan qo‘rqmas zolimdan
Asragin qirg‘izning arvohin...

[1] Dukchi eshon qo‘zg‘oloni ko‘zda tutiladi. To‘qtag‘ul shu isyonda qatnashishda ayblanib surgun qilingan.

Cho‘qqisi yo‘q bel qoldi,
Orqamda jami el qoldi.
Go‘zallikda tengi yo‘q
Dovonda sarin yel qoldi.

Olganidan ajralib,
Holdan toyib, qaltirab,
Olganim To‘ti yor qoldi.
Qip-qizil tusi bo‘zarib,
Otasidan zor ajrab,
Ortimda To‘pchi ul qoldi.

Chit ko‘ylag-u chit ishton,
Men ko‘rganda shul tusda,
Chopar qamchi, so‘ylar til,
Ortimda inim Eshmamat,
Nettiykin yolg‘iz jigarim?

Oq tuyoq edi minganim,
Oq sut berib emizgan,
Onam qoldi uyimda.
Allalab ovqat yegizgan
Uch mahal sutin emizgan
Onam netib qoldi ekan?
Birovga yomon degizmay...

Oltmish kishi tutilib,
Chora topmay, tang qolib,
Omonlashmay, xo‘shlashmay
Og‘a-inim qoldi sarg‘ayib.
O‘qqa uchgan qulonday
Quyrug‘i chopilgan ilonday
Tug‘ganim qoldi shalpayib.

Tutqun qildik, topdik, deb,
Dushman og‘zin yopdik deb,

Qiymaladik, chopdik deb,
Yovlarim qoldi dag‘dayib.

Qirg‘og‘i tikka jarmisan?
Qarasam, zamon, tormisan?
Qasam urmay, dard chalmay,
Tutqunga ketib boraman,
Biz bechora g‘aribga
Qo‘llovchi Xudoy, yormisan?!

AYLANGAN TOG‘NING BURGUTI

Kun tegmas uyda yotaman,
Kuchsiz, ojiz holsirab.
Oldimda nam, suv o‘tar,
Chorasiz yotgum, qaltirab.
Qo‘zg‘almoqqa darmon yo‘q,
Qo‘l-butda kishan shaldirap.

Tek yotsam ham savashar,
Til bilmas soldat shovdirab.
Ajratarga odam yo‘q,
Ayamay esdan og‘dirar.

Baland tog‘ burgutiydim,
Haq yerdan to‘rga ilindim.
Qo‘mizni kuyga keltirgan
Qo‘limga kishan solindim.

O‘ylasam, tushga kirmagan
Go‘rkovlarga duch keldim.
“Aylanayin, urma” deb,
Choram yo‘q, netay,
yalindim.

Qiynalgandan o‘lsam deb,
Qiymayman qilday jonimni.
Kuy chertib erkin sayragan
Kakkuday edim, nolidim.
Poygalarda zo‘r chiqqan
Tulpor edim, tolidim.

Xor bo‘lmagan oltin bosh
Kuyib yurib, qaridim.
Ko‘z yoshin eslab dil yonar
Suyishib olgan yorimning.

O‘n yashar yolg‘iz bolamni
O‘ylanib kunda sog‘indim.
Zor-zor qilgan bu battol
Zamonaga torindim.

TUTQUN QO‘SHIG‘I

Tug‘ildimmi nasibsiz
Tutilib keldim yoziqsiz[1].
Uloqni olgan tulpor edim,
Qirchang‘i bo‘ldim mingisiz.

Manaplar, senga ne qildim?
Qoqilib, eldan adashdim.
Butimda kishan shaldirab,
Tutqunda yayov yo‘l bosdim.

Yigirma besh yilga kesilib,
Zanjirga butim teshilib,
Yiqilaman yurolmay,
Yalangoyoq, tovon ezilib.

[1] **Yoziq** — ayb, jinoyat.

Omon ketarmikinman
Ozodlik kunga yozilib?

Uqmadim elning xabarin,
Gumondir tirik toparim.
Haydovda yurib ko‘z yumsam,
Ko‘milmay yo‘lda qolarim.

Musofir bilan munglining
Ming-mingi yotar turmada.
Boshdan oxir talanib,
Qontala bilan burgaga.

Otilib o‘lib ketarga
Qo‘lga bermas bitta o‘q.
Qorong‘u uydan sho‘rliklar
Qochayin desa, chora yo‘q.

Yomonligin aytay deb
Yoziqli bo‘ldim manapga.
Yozig‘i yo‘q nechovni
Yozdilar qora ro‘yxatga.

Armonli onam yurgandir
“Oh, bolam”, deb yo‘l qarab.
Javdiraydi ko‘zlarim,
Yotsam-tursam kun sanab.

Tirik bo‘lsam — borganim,
Tugar bo‘lsa armonim.
Toqati toq bo‘ldi-yov
Tirik yesir qolganim...

TUTQUNDAGI ARMON

Tun. Yotaman ostimga
Choponimni to‘shanib,
Choram yo‘q-ku, chidayman,
Yuragim og‘rir quvshanib.
Ikki tishlam non kelar
Har bir kunga o‘lchanib.

Suv beradi, choyi yo‘q,
Ilojim yo‘q, ichaman,
Qo‘shib bergan noni yo‘q.
Ko‘taram bo‘ldim turolmay,
Bulbulingning holi yo‘q...

Esdan chiqmas xo‘rlikni
El oralab ko‘rdim-a.
Haydovdan boshim bo‘shamas,
Chorasizman, ko‘ndim-a.
Azob tortgan esiz jon
Halol yerdan keldim-a...

BO‘SH QO‘Y, BIROZ QO‘LIMNI!

To‘ralik qilsang, bo‘sh qo‘ygin,
Zanjir solmay qo‘limni.
Er o‘ldirib qo‘yganday,
Quritting muncha sho‘rimni?

Men yurtimda ekanda,
Bulbul edim sayragan.
Bog‘langan qo‘lim bo‘sh kuni
Munglilar tinglab yayragan.

Bo‘sh qo‘y biroz qo‘limni,
Chiqaray dildan mungimni.
Sayratayin bulbulni,
Tushunsang qani qurg‘urni.

YO‘LDOSH BO‘LMA YOTLARGA

Yo‘ldosh bo‘lma yotlarga,
Qo‘shmas seni qatorga.
Yolg‘on so‘zlab, chaqimchi
Tayyor turar aytarga...

Xafa bo‘ldim baringdan,
Haq yerdan kelgan Sarig‘a
Qora non yetmay, ich og‘rib,
Turmush ketdi qa’riga.
Kundan kunga but shishib,
Sarg‘aydim zor bo‘p doriga...

O‘layin desam, jon shirin,
Kirayin desam, yer qattiq,
Qornim to‘ymas, netayin
Yeydirgan bo‘lka non sotiq.

Qilmishi yo‘q, qidirib
Talay yerni bosdikmi?
Soqol o‘sib, sarg‘ardi,
O‘tkazdikmi yoshlikni?
Qarshi yurdik zolimga
U yo bizning mastlikmi?

Butimda kishan shaldirar,
Menda qaydan tinch yotish?
Qiynalgandan yaxshi-ku
Miltiq bilan bir otish!..

Unutdim chertgan qo‘mizni,
Ularday[1] chiqqan tovushni.
Umrimda hech ko‘rmagan
Yo‘ldosh qildim o‘risdan.
Boshimga ursa politsay
O‘rislarim yon bosdi.

Tugamadi armonim
Hech qolmadi darmonim.
“Boyoqish, ne bo‘ldi?” deb,
Sog‘ingandir olganim.
Oynaday yuzin ko‘rgummi
To‘pchiboy yolg‘iz bolamning?

Qo‘mizni chertib sayratgan
Quvvatli qo‘lim shol bo‘ldi.
Bo‘lislar bilan janjalim,
Behuda, ishim voy bo‘ldi.

Birga kelgan yo‘ldoshlar
Bo‘z tuproq ostida yo‘qoldi.
Bo‘zlasang ham bo‘shatmas
Bizning ish qanday o‘nglandi?

Qizargan yuzda qizil yo‘q,
Qimirlashga holim yo‘q.
Qiynaldim xo‘p, o‘lish-chun
Kerak bo‘ldi bitta o‘q.
Ozod bo‘larmikinmiz
Oqposhshosi bo‘lib yo‘q?

To‘rani to‘ra demasman,
Tepamda bosib ursa ham,
Arqon solib bo‘ynimga,
Baland dorin qursa ham.

[1] **Ular** — tog‘dagi sayroqi qush.

Bulbul tilim jim turmas,
Poshshoying qarab tursa ham.
Qarshi bo‘lmam chin ishga
Qoplatib daryo bursa ham.

Begingni begim demasman
Peshonamda tursa ham.
Bosh egmayman o‘lguncha
Boshimga qamchi ursa ham...

Bolaginam — armonim,
Juda ketdi darmonim.
Jobirab yurib oltin bosh
Dalada o‘lib qolarman.
Aylanib davr bir kelsa,
Zolimning
Boshiga balo solarman.

QO‘MIZ YO‘Q, CHIDAY OLMADIM

Qozoq, qirg‘iz, o‘zbekdan,
O‘ris bilan no‘g‘aydan,
Qarasam, odam ko‘p ekan
Qayg‘u tortib men kabi
Qamalib kelgan el ekan.
Mahbuslardan boshqasi
Kelmaydigan yer ekan.

Chinin aytsam, ishonmay,
Yolg‘on dedi so‘zimni.
Haydalib yurib chang bosdi
Anorday qizil yuzimni.

Aql-u hushim boy berib,
Bu ahvolda tokay-da.
To‘rg‘ayday To‘qang tinmasdan
To‘nka qazdim to‘qayda.

To‘tiydim elga sayragan,
To‘liqib chertib mungimni.
Sanoqsiz qirg‘iz qalin el
Sog‘ingandir kuyimni...

Qarag‘aydan qo‘mizni
Bolta bilan o‘yganman.
Bulbulman elga sayragan,
Kuysiz kundan to‘yganman.
Taqib olib chertaman
Mandolina simlarin.

Qarag‘aydan boltada
Avvaylab qo‘miz chopdim.
Kunduz qo‘lim ish bilan,
Kechalari vaqt topdim...

Haydab yurgan soldatlar
Kim kimligin ne bilsin?
Qo‘miz chertmay, xor bo‘lib,
To‘qang dunyoda ne qilsin?

Qo‘pol chopgan qo‘mizim
Qopqog‘i qalin qarag‘ay,
“Jonimga ora kirar” deb,
Cherta berdim ayamay.

Haydab yurgan soldatlar
Qo‘shig‘imga o‘rgandi.
”Ajab odam ekan” deb,
Bir-biriga so‘ylandi.

Qo‘mizim — yomon, ting‘i yo‘q,
Bolta bilan chopdim-da.
Qiynab yurgan soldatga
Kuylar chalib yoqdim-da.

Zerikib yurgan necha jon
Ermak topib, quvondi.
Har millatdan kelganlar
Hangomamga kulardi.
Bulbulligin To‘qangning
Musofir bo‘p yursam ham,
Tusimdan tanib, bilardi...

Ishlab yurgan qancha kas
Ochlik o‘tib, jon berar.
Har haftada bir to‘ra
Kelib amr-farmon berar.

Qolgan ekan xabarim
Shu to‘raga uqilib.
Bir kun kelib, xo‘p so‘kdi
Jin tekkanday yulqinib.

Qo‘mizni olib qo‘limdan
Toshga urib sindirdi.
Qamab qorong‘i uyga,
Qora jonim tindirdi.

Qo‘miz chertib kuylasam,
Ovutardim munglini.
Qamoqda yurib qartaydi
Qirg‘izning menday bulbuli.

QOCHGANDAGI QO‘SHIQ

Cho‘qqisiga ko‘z yetmas
Belim olis qolgandi.
Dong‘i doston Farg‘ona —
Yerim olis qolgandi.
Sartlar, bag‘ish, ko‘p sayoq —
Elim olis qolgandi...

O‘zim yolg‘iz, biy dala,
O‘lsam qayda qolaman?
Govgum tushib, kun botsa,
Yo‘lni qaydan topaman?
Qochib olis tutqundan,
Adashib ketib boraman...

Ovulim ko‘zlab yo‘l tortdim,
Oq shunqorday charx urdim,
Olti arxar yulduz botguncha
Olti aylanib, sut bergan
Aylanayin onamning
Oq sutini sog‘indim.

Ketmontepa yerimga
Borib o‘lsam, armon yo‘q,
Karimboydan o‘chimni
Olib o‘lsam, armon yo‘q.

Qarindosh-urug‘, elimni
Ko‘rib o‘lsam, armon yo‘q.
Omonlik so‘rab, qo‘limni
Berib o‘lsam, armon yo‘q.

OG‘AYNI TOPDIM

Haydalib ketib bo‘lisdan,
Og‘ayni topdim o‘risdan.
Tutilib ketib bo‘lisdan,
Tug‘ganim topdim o‘risdan.
Bag‘ri keng el o‘risga
Qo‘miz chertsam o‘rischa,
Joy berishdi qo‘nishga.

Haydalib yurib tutqunda,
Bir tug‘gan topdim o‘risdan.
Soldatlar meni qiynasa,
Xariton, Semyon bo‘lishgan.

Asil To‘qa, qochgin, deb,
Elingni eson topgin, deb,
Ezilib yurgan shunqorsan,
Elingda kuylab qolgin, deb,
Ermagingga borgin, deb.
Aylanayin Semyonim
O‘git berdi bezillab.
Kalitin topmay Xariton,
Bo‘ynimdagi zanjirning,
Semyon burab sindirdi.
Husayin yig‘lab achoqlab,
Xariton o‘pdi ko‘zimdan
Qayta-qayta quchoqlab.

Semyon bilan Xariton
Qo‘mizni berdi qo‘limga,
Azobdan o‘ris bo‘shatib,
Asta soldi yo‘limga...
Aylanayin Semyonim,
Ovulga omon qaytgin, deb,
Ovulga borib aytgin, deb,

Omonat so‘z topshirdi.
Qayiqchiga xat yozib,
“Tez jo‘na!” deb shoshtirdi.

Olti kun yurdim panalab,
Qayiqqa keldim xat olib,
Qayiqchi o‘ris yigit
O‘qib ko‘rdi bot olib.
Keng daryodan o‘tkardi
Qayig‘ida tun qotib.
“Omon-eson yetvol” deb,
Aqcha berdi quvnatib...

QOCHIB KELAYOTGANDA

Tunda ko‘rmay uyquni
Qochib kelayotirman.
Yo‘ldan chiqqan uylardan
So‘rab ichib osh-suvin,
Kirib kelayotirman.
Elga yetib qolganday,
Ko‘tarilib ko‘nglim ham,
Kulib kelayotirman.

Qo‘mizimning qulog‘in
Burab kelayotirman.
Or-nomusni o‘ylamay,
El oralab, xayr-ehson
So‘rab kelayotirman.

Bolta chopib yasagan
Qo‘mizim bor, qarag‘ay.
Shu qarag‘ay qo‘mizim
Ovqatimga yaragay.

Ovul bo‘lsa, kelarim,
Ayamay chertib berarim.
Qiz-kelinlar to‘plansa,
Qiziydi mening hunarim.

Chehra ochib, dil yayrab,
Qah-qahlab To‘qang kularmi?
Ortida qolgan bolasin
Qo‘liga olib suyarmi?

KO‘CHADA O‘LARMIKINMAN?

Shaharni tugal aylandim,
Kiritmas hech kim uyiga.
Qanchalik sayrab tursam ham,
Tushunmas ekan tilimga.
Tug‘ma g‘arib ekanman,
Qayg‘uli kunning tunida.
Bir kunga yotar yer topmay,
Panalab devor tubida...

Bir kunga yotib ketayin
Oyna solgan uyingda.
Savob bo‘lar qo‘ndirsang
Bir chivinday jonimni.

Yo kishi tanimayman,
Yo‘latmas hech kim yoniga.
Men bir yurgan musofir
Ketayotir holim ham.

Ruxsat bersang, bir kunga
Yo‘lagingda yotayin,
Koyish-g‘am tushdi boshimga,
Men kelmadim atayin...

Oralab kezib topmadim,
Bir kunga yotar qo‘rg‘onni.
Azobli kunni men ko‘rdim
Olti oylik Sibir yo‘llarni...

Haydovdan omon qaytgummi?
Ovulimni borib topgummi?
Ko‘rkam bulbulday edim,
Ko‘chada o‘lib qolgummi?
Elga yetay deganda
Aytolmasdan salomni?

JOMALAYNING JO‘MARDLIGI

Qiynalib ketdim ezilib,
Koyinaman, qisilib.
Et ketdi, teri yirtilib,
Azob tortdi sho‘rlik jon
Uzildi poshnam qirqilib.

Govgum kirsa, kun borar,
Elning oldi teng yotar
Tayog‘imni tayanib,
Talar deb itin qaranib,
Yo‘liqdim Jomalay
degan odamga!

Bir chivinday jonimdan
Yomonlikni kutmadi.
Xotini bilan bolasi
Peshonamni tikladi.

Ko‘rinasan musofir,
Kelib ovqat ich, dedi.

Ko‘nglimga qayg‘u to‘ldirib
Qoptoldagi ustolga
Asta-sekin o‘tirib,
Tin oldirdim jonimni.

Toleyimga topilgan
Borganim yaxshi kishi ekan.
Umid qildim jonimdan.
Quvonib terlab o‘tirib,
Qo‘mizimni qo‘lga oldim,
Jaranglatib kuy chaldim.

Avval hech qo‘miz uqmagan
Barcha ovuli to‘p bo‘lib,
Musofir qaysi kishi deb
Tingladi odam ko‘p to‘lib.

Ovulning elin to‘pladi,
Hammasi keldi yig‘ilib,
Ikki so‘mdan, bir so‘mdan
Berdilar ehson qilib.

Uch oy yotdim u yerda,
Tovonning jon og‘ritgan
Yoriqlari bitguncha.
Ketdi ozib-to‘zganim,
Vahm-u qayg‘u tortganim,
O‘yin-kulgi boshladim.

Tikkasidan yorilgan
Tovon darrov bitmadi.
Yorig‘i yo‘q bo‘lguncha
Uydan aslo chiqmadim.

Jomalayning elida
Itga qo‘shgan chanasi
Tortganin ko‘rdim u yerda.
Itlari qo‘yni qaytarib

Borganin ko‘rdim u yerda.
Bug‘uga qo‘shgan chananing
Yurganin ko‘rdim u yerda.

Uch oy-u uch kun bo‘lganda
Narsalarim choshladim,
Ketsammi dey boshladim.
Tuzin totgan yer bilan
Tanishgan bu el bilan
Omonlashib, xo‘shlashib
Qaytsammi dey boshladim.

Jomalay degan odamga
Tongda turib gap aytdim.
Men jo‘nayin, deb aytdim.
Ovulda qozoq bor ekan,
Tilmochlik unga kor ekan.

Chaqirib el-u xalqni,
Shunday er o‘lib qolmasin,
Beringiz, deb o‘tindi.
Tushuntirdi bariga
Yoshi bilan qariga
Mening holi jonimni.

Eplab-seplab berdilar,
Bunda turgan jamoat
Ikki tanga qirq tiyin.
Elimni izlab topa olmay,
Eplab olgan men tayin.
Olti tanga qirq tiyin,
Yo‘lingga quvvat bo‘lsin deb,
To‘plab berdi shul yig‘in.

Qo‘mizim qo‘lga olib,
Quvongandan gap aytdim.

Xo‘sh, Jomalay, deb aytdim.
Jomalay keldi to‘g‘rimga,
Besh-olti non turmaklab,
Solib qo‘ydi to‘rvamga.

Dalada yurgan musofir
Suyundim shunda qadrimga.
Jomalay degan yaxshi odam
Qayrilib qarab gap aytdi.
“Ozig‘ing bor tugamas,
Olti kuncha yo‘l yursang
El topasan”, deb aytdi.

“Old tomonda til uqar
Qora qalpoq, keng cholvor
Mehribon qozoq eli bor.
Qo‘nib, tunab qozoqda,
Xalqingga bor”, deb aytdi.

“Kaftini yoyib osh bergan
Mardlarga bor”, deb aytdi.
O‘lmasang, kuning ko‘rarsan,
Elingga yetib, quvonib,
Bolalaring bilan turarsan...”

QOZOQ YERIDA...

Yigirma to‘rt kun deganda
Nasib ekan, men bordim
Kulli qozoq eliga.
Qisqaga uzun ulandim,
Jon qursin-da, chiqmagan,
Yaxshi odam kim, deb so‘radim.

Salom aytib turaman
Bir tug‘gan qozoq, baringga!

Jonim yetdi xalqumga,
Sog‘insam-da, yeta olmay,
Ardoqli qirg‘iz xalqimga.

Azamat edim elimda,
Arzimni aytib qolayin
Og‘ayni xalqim, sizlarga.

Olatov qirg‘iz elimda
To‘qtag‘ul oqin men edim.
Do‘zaxdan chiqib yo‘l oldim
Do‘zaxi zolim poshshoning
Doridan qochib kelaman.

Sanoqsiz qirg‘iz xalqimga
Sayragan bulbul men edim.
Sanoo tortib yo‘llarda
Safar qilib kelaman.

Qalin qirg‘iz elimda
G‘ayratli bulbul men edim,
Qafasli yo‘lda To‘qtag‘ul
Xayr-ehson tilab kelaman.

Ulug‘ juz qozoq tug‘ishgan,
Uqsangiz mening mungimni.
Ko‘rsam deb qochib boraman
Qarog‘im — yolg‘iz o‘g‘limni.

Bir paytlari o‘zim ham
Qo‘mizni tilga kiritgan
Qo‘rg‘oshinday jon edim.
Buralgan qora tol edim.
Kulli xalqning tili edim.
To‘p-yig‘inning guli edim.

Oqin edim yosh chog‘dan,
Aytar edim har so‘zni
Otilgan o‘qday, toshday.
Aytar so‘zni so‘zlasam,
Olatov muzi erigan
Qasd edi dushman boshidan...

O‘z joyim aytar bo‘lsam,
Tuurda yolg‘iz tuyg‘unman[1]
Butoqda yolg‘iz bulbulman.
Azobga tug‘ilgan qurg‘urman
Adashib yurgan mungliman.

Zolim poshsho Nekalay
So‘rmay ko‘zim yosh qildi.
Shaldiratib kishanin,
Zindonga boylab yotqizdi.
Sibirga haydab zo‘r bilan,
Rohat kunim ketkizdi.

Sibirda to‘ng‘ib o‘lsin deb,
Yalang oyoq, yalang bosh
To‘qayda to‘nka qazdirgan.
Omskdagi turmada
Qamab yotdi o‘ttiz oy.

Otday bilib odamni,
Chanaga qo‘shib torttirdi.
O‘rollik qozoq O‘smonni
O‘ris tilin bilar deb,
Oq to‘ra otib o‘ldirdi.

Arslon edi O‘smonim,
Go‘rin qazib ko‘mganman.

[1] **Tuur** — ovchi qush qo‘ndog‘i. **Tuyg‘un** — shunqor;

Qozoqdan chiqqan jon edi,
Qoplonday mardon edi.
Uyaz bilan tortishib,
Haq bo‘lsa-da, kesilgan,
O‘rischa o‘qib, til bilgan
O‘qimishli jon edi...

O‘n yil yotib turmada,
Qonimning barin so‘rdirdim
Qontala bilan burgaga.
Dalada yotib ushidim,
Ochlik sabab shishidim.

Qaraysan menga tong bo‘lib,
Qozoq xalqim, yor bo‘lib,
Kechagi o‘tgan to‘yingda
Turdim bir chetda xor bo‘lib.
Turmadan kelyapman deb,
Aytarmidim jar solib?

To‘y boshqargan Dovan biy
O‘lan ayt deb qistalang,
Jinni-ku, der qizitaloq.
Xushomadchi jirovlar
Bunday to‘yda bez terar.
Yordam qildi o‘sha kun
Fe’li yaxshi Sulaymon
Yaxshilik ko‘rsin Xudoydan.

Bu mahalda qarasang,
Ovulga kelsam, it hurar.
Tilanchi bo‘lib boryapman.
Ustimda butun kiyim yo‘q.
Yamoqlari shildirar,
Dalada sovuq, qaltirab,
Har kimdan so‘rab xudoyi
Kelar edim zor titrab.

Kiygan chorig‘im teshilgan,
Bosh-oyoq terlab, ezilgan.
Yig‘lagan bu musofir
Yigirma besh yilga kesilgan.

Yashirmasdan aytayin,
Bo‘lgan ishning aslini.
Do‘zaxga tushgan To‘qtag‘ul
Yo‘ldoshi yo‘q, yolg‘izman.
To‘qayli yerni oralab
To‘qqiz oy bo‘ldi, qochganim.

Meni, Jake, so‘rading,
Sarson bo‘p turgan vaqtim bu.
El ekanmiz qadimdan,
Qozoq-qirg‘iz — bir tug‘gan.
Tug‘ishgan elni bo‘rilar
Bir-biriga yov qilgan...

Eshitganman, Sarsenboy,
O‘rmonxon bilan Abilay
El-xalqni qirib o‘tdi deb,
Uqqandirsan, Jaketay,
Kenensari, Navro‘zboy
Talayning qonin to‘kdi deb...

Qo‘llading inim, Sulaymon,
Uch kun yotdim uyingda,
Uxlay olmay tunlari
Har ne kelar o‘yimga.

Omonat yurgan g‘aribman,
Azob, alam yo‘lida.
Ko‘rinmay qochib kelganda
Qayta tushib qolmay deb,
Qonxo‘rlarning qo‘liga.

YERNI KO‘RGANDA

Ko‘rinmas yerga ketgan bandi edim,
Ko‘rgazdi qirg‘iz elimni.
Ko‘karib turgan keng yaylov,
Ko‘nglim senga berildi.
Omonlashib aytoldim,
Ko‘nglimda turgan gapimni.

Baland tog‘lar boshidan
Burgut uchdi peshinda.
Eshonlar qilgan tuhmatdan
Tutqun bo‘lib qamaldim,
Turmada yotdim o‘shanda...

Oxiri baxtim bor ekan,
Og‘a-ini, qalin el,
Aylanib keldim sizlarga.
Tikan chiqdi yo‘limda,
Aybim topmadi, lekin
Kishan soldi qo‘limga.
Rosa o‘n yil o‘tganda,
Qaytib keldim uyimga.

Ovulimga yetsam deb,
Qo‘msab ketib boraman.
Ketmontepa yerimni
Betlab ketib boraman.

Karimboyning qilganin
Keklab ketib boraman.
Yetim-yesir qolganni
Eslab ketib boraman.

Elga borib o‘lsam deb,
Tilab ketib boraman.

Qizil tilim sayratib,
Kuylab ketib boraman
Yur, deb, yur, deb, tanamni,
Sudrab ketib boraman.

Ketmontepa, ulkan soy,
Sog‘ingan yerim ko‘rindi.
To‘xtatolmay o‘pkamni,
Ko‘nglim necha bo‘lindi.
Sog‘ingan yerni ko‘rganda,
Ko‘zimdan yoshim to‘kildi...

SOG‘INGAN ELIM, OMONMI?

Sog‘ingan elim, omonmi?
Iyakdagi soqolim
Ovloqda yurib oqardi.
Bulbuling edim sayragan
Munkayib aytay salomni...

Azobin tortdim, bolamning
Ko‘rmadim oltin jamolin.
Boshqaga tegib ketibdi
Boshida suyib olganim.

Koyinmayman ketganga,
O‘kinmayman o‘tganga.
Men mingdan ming roziman
El-yurtimni ko‘rganga.

Yayrab yurib ajralgan
Elim, omon bormisan?
Yoshlikdan birga o‘sgan
Tengim, omon bormisan?

Men ketganda orqamdan
Chiqqan, omon bormisan?
Quloq solib qo‘shig‘im
Uqqan, omon bormisan?

Malay bo‘lib yollanib,
Yig‘laganlar omonmi?
Parcha nonga jonini
Qiynaganlar omonmi?

Qo‘yin boqib boylarning,
Qul bo‘lganlar omonmi?
Bir yil haqqi — bir ko‘ylak
Pul bo‘lganlar omonmi?

Qarshilik qip, boylanib,
Xalqimdan ketdim haydalib.
Qalin qirg‘iz elimga
Qaytib keldim aylanib.

Qanoti singan shunqorday,
Ucholmadim To‘qtag‘ul.
Qarg‘ish urgur dushmandan
O‘ch olmadim To‘qtag‘ul.

Zolimni tutib, o‘chimni
Ololmadim To‘qtag‘ul.
Bu zamonda xotirjam
Bo‘lolmadim To‘qtag‘ul.

Cho‘qqisi buyuk dovonning
Azobin tortdim zamonning.
Oynaday ko‘zin ko‘rmadim
Orqamda yolg‘iz bolamning...

MUNGLI-MUNGLI KUY CHALDIM

Mungli-mungli kuy chaldim,
Qo‘msagan xalqim uqsin deb.
Haydovdan chiqib kelolgan
Oqinim To‘qam ekan deb...

Gunohi yo‘q hech qanday,
Qanday balo yetdi deb,
Xalfalar qilgan janjalda
Mojaro chiqib ketdi deb,
Qayg‘urgan elim sen eding.
Nasibim ekan, tůz tortib,
Xalqimga kelgan men edim.

Bir boshdan aytsam tuganmas,
Olti son qirg‘iz el eding,
Olishib dushman yengmagan
Keng yoyilgan ko‘l eding.

Men bag‘rida o‘sgan el,
Ko‘ngildan ketmas der edim.
Ovloqqa ketib yo‘q bo‘lgan
Sayroqi til, jez tanglay
Bulbuling To‘qang men edim...

Tutqun bo‘lib tutilib,
Tug‘ganim qayda qolgandi.
Turmadan qo‘li bo‘shanib,
Qoshingga To‘qang kelgandi...

Otamiz qirg‘iz xalqidan,
Atantay, Jo‘mard, To‘radan.
Ayrildik o‘lim zarbidan.
Ajali yetib, kun bitib,

Oxiratga jo‘natdik
Sog‘aymagan dardidan...

Haydovga ketgan qirg‘izning
Yarmi o‘ldi, yarmi bor.
Qirg‘iz el-u yurtini
Bir ko‘rishga intizor.

Qo‘ngan tuur ustidan
Qarchig‘ay bog‘i yechildi.
O‘lmay omon qolgani
Yigirma yilga kesilib,
Turmada qolgan shekilli...

Aql ketdi, hush ketdi,
Men bu yoqqa jo‘narda.
Aqsilik Baymambetni
Qashqir talab yeb ketdi.

Talasning o‘zan suvida
Olis-yaqin tursang-da,
Barchangizga Baymambet
Salom duo deb edi.

Qanday kunda elim deb,
Baringga qayg‘urgan edi...
Qutuldim elning qarzidan,
So‘z uqding mungli jarchidan.

Aytgan so‘zim durustmi?
Do‘st, teng-tushim, qalin el,
Mahkam tutay qo‘lingni!
Qadr bilgan do‘st bo‘lsang,
Bir hidlayin bo‘yningni.
Sanoqsiz qirg‘iz qalin el,
Sayragan To‘qam kuyi deb
Sog‘ingandir o‘yinimni.

ELIMNI TOPIB OLDIM

Nochor qilib zolimlar
Olib ketgan edilar.
Azob kunni boshimga
Solib ketgan edilar.
Uqubat tushib boshiga,
To‘qang...
Qarib ketgan edi-da.

Aylanib kelib shunqorday,
Ovulim, shukur, ko‘rdim.
Oq qalpoqli ko‘p qirg‘iz,
Omonlashib, hol so‘rdim.

Engashib kelib shunqorday,
Elimni, shukur, ko‘rdim.
Eski do‘stlar, qardoshlar
Esonmi, deb hol so‘rdim.

Qarovi yo‘q tulporday
Horib keldim To‘qtag‘ul.
Uzoq Sibir haydovga
Borib keldim To‘qtag‘ul.

Qirchin yoshni boy berib,
Qarib keldim To‘qtag‘ul.
Qiynoqlarning zo‘rini
Ko‘rib keldim To‘qtag‘ul.

Ming bir azob turmushga
Chidab keldim To‘qtag‘ul.
Elim yuzin ko‘rmoqqa
Qichab keldim To‘qtag‘ul.
Qancha shumlik, xo‘rlikni
Tashlab keldim To‘qtag‘ul.

ONAJON,
OMON BORMISAN?

Saksonda onam sen eding,
Surilib ketgan men edim.
Oq sut berib ulg‘aytgan
Oqin daryo, keng eding.

Olti arxar yulduz botguncha
Olti aylanib emizgan.
“Dongdor oqin To‘qtag‘ul
Kimning o‘g‘li?” degizgan.

Yetti arxar yulduz botguncha
Yetti aylanib emizgan.
“Yetuk oqin To‘qtag‘ul
Kimning o‘g‘li?” degizgan.

Ardoqlab meni to‘ragan[1],
Allalab suyib belagan.
Aylanayin onajon,
Haydovdan omon keldim men,
Ardog‘im onam, qanisan?

Esonligim so‘ragan,
Engagimni silagan.
Qadrdonim onajon,
Qayrilib keldim tutqundan
Qarog‘im onam, qanisan?

Bo‘tasi o‘lgan moyaday.
Bo‘shatma, onam, bo‘g‘inimni,
Bu umringning teng yarmin
Mung-qayg‘uga berdingmi?

- tug‘moq.

Ko‘rding, onam, bardam bo‘l,
Ko‘z ko‘rmasga ketgan o‘g‘lingni.

Qariguncha umr bo‘yi
Ko‘z yosh to‘kkan onamsan.
“Qarog‘im tag‘in bir kelsa,
Ko‘rib o‘lsam”, degansan.
Qayg‘u-g‘amim daf bo‘lib,
Qayrilib omon keldim men.

O‘lim bilan surgunning
Ikkoviga chidading.
“O‘ldi”, degan To‘qangni
Qayta tug‘gan bu vaqting.

Oqlay deb oq sut qarzimni,
Aylanib keldim olisdan.
Allalab meni ulg‘aytgan,
Onajon, omon bormisan?

QO‘RG‘O‘L IRCHINING TO‘QTAG‘ULGA O‘G‘LI TO‘PCHIBOY O‘LGANINI AYTISHI

Aytamiz sizga salomni,
Eshonlar qilgan janjalda
Nohaq joyda qamalib,
Haydovga ketdi, dedilar.
Bulbul unli, to‘rg‘ay til,
Oynagim To‘qam, omonmi?

Turmada eding zor bo‘lib,
Sariq kasali zo‘r bo‘lib,
Qayrilib o‘zing kelguncha
Qironday joni xor bo‘lib.

Jafosi achchiq zamona
Diydiratdi odamni.
Sen olisdan kelguncha,
Omonlashib ko‘rguncha,
Har boshda bor bir o‘lim,
To‘qa, kuzatdik yolg‘iz bolangni...

Xalfalar qilgan janjalda
Qoralanib qamalib,
Xalqidan ketdi, dedilar,
Qolganlar qayg‘u yedilar.
Olmos tanglay, qaychi til,
Qanotim, To‘qam, omonmi?
Xalfalar janjali sabab,
Ko‘chirdik yolg‘iz bolangni.
Qayg‘uli o‘lim qasdidan
To‘qa, qochirdik yolg‘iz bolangni.

To‘qa,
Oralading gul bilan,
El-yurtga yoqding til bilan.
Sen haydovdan kelguncha,
O‘zingdan ortiq bo‘lgandi.
Orqangda yolg‘iz To‘pchiboy,
Uzatdik yolg‘izing dunyodan!..

Birovni birov bilmagan,
Bedor yurak zil ketgan.
Bermas ekan qora yer,
Farzanding yolg‘iz To‘pchiboy,
Begona bo‘ldi dunyodan.

Tugun ip o‘tmas ignadan,
O‘g‘ling yolg‘iz To‘pchiboy,
O‘kinma, To‘qam, koyima,
Uchirdik yolg‘on dunyodan...

Burul ot minib terlatgan,
Barqut to‘n kiyib kirlatgan,
Mung‘ayma og‘am,
ko‘ngling bo‘sh,
Bulbuling yolg‘iz To‘pchiboy
Musofir safar yo‘l ketgan.

Kuluk ot minib terlatgan,
Kimxob to‘n kiyib kirlatgan,
Kakkuying yolg‘iz To‘pchiboy
Kun tegmas joyga yo‘l tortgan.

Qorabayirni terlatgan,
Qunduz to‘n kiyib kirlatgan,
“Qaytarmikin oqin?” deb,
Qalin eling zor kutgan.
Qayg‘urma, eling jon tortar,
Qanoting yolg‘iz To‘pchiboy
Qorong‘u joyga yo‘l tortgan...

TO‘QTAG‘ULNING QO‘RG‘O‘LGA JAVOBI

Kuydim, yondim, cho‘g‘ bo‘ldim,
Qayg‘uli kunga duch keldim.
Qoraygan tog‘ning boshidan
“Qarchig‘aying uchdi” deb,
Qayg‘uga solar o‘xshading.

Qaltirab, bo‘g‘inim bo‘shadi,
Qarorim yo‘qqa o‘xshadi,
Qandoq qip aytding shu so‘zni,
Qo‘rg‘o‘l,
Qayoqdan ichding bo‘zani?

Aytaman pandim, o‘gitni,
Meni armonli kunga yaratdi.
Xabarin aytib turasan,
Sindi deb yolg‘iz sadoqni.
Darmonimni quritib,
Qo‘rg‘o‘l,
Qayoqdan ichding araqni?

Yomg‘ir yog‘may ko‘chguday
Oqtuproq kabi yermidi?
Otasi kelsa Sibirdan,
Omonlashib ko‘rishmas,
To‘pchiboy
Azobga tug‘ilgan ermidi?

Tomiriga suv tegmas
Yonbag‘irdagi tolmidi?
O‘likka to‘ymas dunyoda
To‘pchiboy o‘limga bitgan jonmidi?
Jabrini muncha ko‘p berdi,
Menda Xudoning qasdi bormidi?!..

Qarqiroq g‘ozlar ko‘l saqlar,
Qora lochin cho‘l saqlar.
Qarib qolgan bu otang
Qayoqqa borib jon saqlar?!

Kurkurak qushlar ko‘l saqlar,
Kulrang lochin cho‘l saqlar.
Gangirab qolgan bu otang
Kuyinib qayda jon saqlar?!..

Oltin oyday yuzingni
Ko‘rarmanmi deb edim.
Avaxtadan bo‘shalib
Kelarmanmi deb edim.

Oy bolam chiqsa oldimdan
O‘parmanmi deb edim.
Armon qilmay dunyodan
O‘tarmanmi deb edim.

Kulli qirg‘iz elimni
Ko‘rarmanmi deb edim.
Kakku qushim chiqib oldimdan
Kelarmanmi deb edim.
Kuyganlarim unutib,
O‘larmanmi deb edim...

Oltindan chilvir o‘rmadim,
Avaxtadan qo‘l bo‘shab,
Oltinday yurtimga kelmadim.
Omonlashib ko‘rishib,
Yolg‘izim, qiyin o‘lmading...

Bo‘g‘ini bo‘lar yalpizning
Mungi bo‘lar yolg‘izning.
Guli bo‘lar yalpizning,
Kuymog‘i bo‘lar yolg‘izning.
Ajal yetib kun bitsa,
Yig‘lari bo‘lmas yolg‘izning...

Qora ot mindim yel uchun,
Qayrilib keldim el uchun.
Xalqimni ko‘rdim, xayriyat,
Qo‘ldan kelar ish emas,
To‘pchiboy
Qo‘zg‘almas endi men uchun!..

O‘G‘ILGA MARSIYA

Tug‘ilgan yolg‘iz tuyog‘im,
Kuydirar dilni xayoling.
Kuydirib dilimni, duvlagan
Ko‘z yoshim men netib tiyaman?

Yoshingda ketding, chirog‘im,
Yoz mahal quvragan chiviqday.
Jon berar mahalda ahvoling
Jo‘rchi qush olgan chumchuqday.

Yoshliging uvol ketdi-ya,
Yosh bulbulday, netarsan?
Yong‘oqday go‘rning tubida
Yolg‘izim, qanday yotarsan?

Gulgun chog‘da ketibsan,
Kuzda quvragan chiviqday.
Titragansan so‘nggi dam
Turumtoy olgan chumchuqday.
Ko‘zguday ko‘zing yumilib,
Kakkuday tiling bo‘g‘ilib,
Kuyganim, qolding un solmay.

Azobi o‘tkir zolimdan
Haydalib otang gard bo‘lgan.
Qiynab urgan soldatdan
Qochib yurak dard bo‘lgan.
Qiyshayib kelsam, sen yo‘qsan,
Qirg‘iyim uchdi o‘ng qo‘ldan.

BOLAM YO‘Q

Qayta keldim aylanib,
Andijonning shahriga.
Omonlashib kelyapman
Og‘a-ini, tug‘gan — baringga.
Quloq solgin, Eshmambet,
To‘qangning aytgan zoriga.

Qaytib keldim, Namangan,
Qamoqdan chiqib keldim men.
Ko‘rganimning barini
Ko‘nglimga solding sen.

Qoboq yerini o‘rladim,
Qadamlab yurt ko‘rganda
Xafalanib cho‘lladim.
Qoboqda kelayotib,
Uqdim o‘g‘lim o‘lganin.
“Erga tegib ketgan” deb,
Xotinim yot bo‘lganin.

Men ketganda to‘rt yashar
Orqamda qolgan chirog‘im.
Uchib ketgan bulbulning
O‘rnin siypab turaman.

Keltirib aytdim salomni,
Kelib ko‘rdim, Eshmambet,
Ketmontepa qal’amni.
Kelsam tirik ko‘rmadim
Qarog‘im, yolg‘iz bolamni...

“Haydovdan otam keldi” deb,
Omonligim jar solib,
Oldimdan chopib chiqarim,

Nochorlikdan o‘libdi,
Orqamda yolg‘iz chirog‘im.

Yolg‘izimdan ayrilib,
Yomon bir kunda turaman.
Armonda ketgan yolg‘izning
Omonin bilmay so‘rading.

“G‘arib otam keldi” deb,
Qaytganimni bildirib,
Oldimga chopib charx urib,
Qanotin yozib chiqarim.
Qorayibdi, o‘chibdi,
Qaytayin, yolg‘iz chirog‘im!

Hasratim to‘lib-toshib,
Xafali kunda turaman.
Xotin bilan bolaning
Xabarin bilmay so‘rading.

Yolg‘izim bolam o‘libdi,
Yosh-qarilar ko‘mibdi.
Yolg‘izidan ajralib,
Yozganga onam ko‘nibdi.

Qarog‘im yolg‘iz o‘libdi,
Qarindoshlar ko‘mibdi.
Qarog‘imdan ayrilib,
Qayg‘uga onam ko‘nibdi.

Xotinim erga tegibdi,
Qarigan onam kuyibdi.
“Qarog‘im kelarmikan?” deb,
Qayg‘uli kunda yuribdi.

SALOM BERDIM SOG‘INIB

Salom berdim sog‘inib,
Sizlarga aytay botinib,
Sariq kasal bo‘lganday
Sarg‘ayib yurdim to shu kun...

Bekinaman kunduzda.
Yangi kelgan kelinday.
Yarq etib ko‘pga ko‘rindim,
Yozda kelgan turnaday.

Yota bersam bekinib,
Qo‘ymas ekan·el bilmay.
Qalin yurt, senga ko‘rindim,
“Qochib yurar” dedirmay...

Omon-eson bormisan,
Oqqalpoq qirg‘iz qo‘rg‘onim?
Aylanib keldi bu palla
Olis temir to‘rdaging.
Qutulolmay g‘urbatdan,
Hamon qayg‘u-sho‘rdaman...

Kakkusi edim ko‘p elning,
Gunohkor deb sanaldim.
Ko‘rinmay yursam birovga,
Ko‘nglimni keng ochay deb,
Ko‘pchilikka men keldim....

Qalin qirg‘iz elim sen,
Qutqarar deb kishandan.
Xor qilmaydi aslo deb,
Qurg‘uring To‘qang ishongan.
Toshgan suvday ko‘pchilik,
To‘liqsang, tog‘ga kuching teng...

Xazon kabi sarg‘aydim,
Yuzimning ketdi qizili.
Orada sarson To‘qtag‘ul
So‘zimning yo‘q hazili....

JAMBUL VA TO‘QTAG‘ULNING SALOMLASHUVI

Jambul:
Kelding be oq iyig‘im olis jerden,
O‘tipsing biyik asu, asqaq belden.
Olmos pishaq qop tubinde jatpaydi degen,
Xon, to‘re aynalmayma sendey erden...

To‘qtag‘ul:
Qozoqdan Jambul sen eding,
Qalqib yotgan ko‘l eding.
Qo‘shiqlari quyunday,
Toshiqib yotgan sel eding.
Qirg‘izdan chiqqan bovuring,
To‘qtag‘ul degan men edim...

BO‘LARMI?

Yoyilgan yoli bo‘lmasa,
Otning ko‘rki bo‘larmi?
Yaxshi so‘zi bo‘lmasa,
Qartning ko‘rki bo‘larmi?

Buralib giyoh chiqmasa,
Yerning ko‘rki bo‘larmi?
Yoyilib moli to‘lmasa,
Yaylov ko‘rki bo‘larmi?

G‘oz, o‘rdagi bo‘lmasa,
Ko‘lning ko‘rki bo‘larmi?
Chirlamasa chigirtka,
Cho‘lning ko‘rki bo‘larmi?

Qulf urmasa buralib,
Tolning ko‘rki bo‘larmi?
Iyagida soqol yo‘q,
Cholning ko‘rki bo‘larmi?

Buralib ekin chiqmasa,
Yerning ko‘rki bo‘larmi?
Qori, muzi bo‘lmasa,
Belning ko‘rki bo‘larmi?
Ifor hidi esmasa,
Yelning ko‘rki bo‘larmi?

BO‘LASAN SHOIR

O‘qimay, yozmay xat bo‘lmas,
Minmasang, bedov ot bo‘lmas.
Bo‘lmas ishmi, bot bo‘lmas,
Arazlashmay, yot bo‘lmas.

Ko‘z yashnatmay, rang bo‘lmas,
To‘zon bosmay chang bo‘lmas.
Aqlidan adashmasa,
Hech birov garang bo‘lmas.

Tong yorishmay kun bo‘lmas,
Qorong‘usiz tun bo‘lmas.
Xeshlaring xolis bo‘lmasa,
Ko‘ngling hech butun bo‘lmas.

Yo‘rg‘a mingan yo‘lda o‘sar,
Kuluk mingan kunda o‘sar.

Dushmandan xo‘rlik ko‘rib,
Uyqung o‘chib yotganda,
Shoir bo‘lib qolasan
Pand-o‘gitlar aytganda.

NE QIZIQ?

Gurpang-gurpang choptirib,
Tulpor minsang, bir qiziq.
Bo‘y-bastingni yayratib,
Baxmal kiysang, u qiziq.

Adir-u qir o‘tlatib,
Haydab yursang, mol qiziq.
Azamat erga topilsa,
Oynakday suluv yor qiziq.

Yaxshi ot minib yayrasang,
Yaxshi so‘z aytib sayrasang,
Yarashiqli kiyingan,
Oro berib, sollangan,
Ko‘k nimcha, shoyi ko‘ylak
Nozli suluv qiz suysang,
Yoshlik dami bir qiziq.

Emgak qilib yosh chog‘dan,
Elga yoqsang eng qiziq.
Ikki tengdosh hamog‘ush,
Erkalashsang, shul qiziq.

Tong otguncha so‘zlashib,
Xumorlashsang eng qiziq.
El yig‘ilib kelganda,
Tomoshaga men qiziq.

Kelin-qizga yarashgan
Ko‘k nimcha shoyi qiziq.
Kampir-chollarga qandli
Bol pamil choyi qiziq.

O‘n yoshdagi bolaga
O‘ynoqlagan toy qiziq.
Umring borda yayrab yur,
O‘lmaganing shul qiziq.

Olganing yaxshi yor chiqsa,
Oy yuz, ko‘z xumor chiqsa,
Og‘ushida uxlasang,
Oy yorug‘i — tun qiziq.

Uqqan odam qoyildir,
Shunday aytgan ir qiziq.
Ikki dildosh bosh qo‘shib,
Shivirlashsa, sir qiziq.

Qo‘sh ho‘kizli dehqonga
Qo‘ng‘ir-qora yer qiziq.
Ko‘ksi baland juvonga
Xushomadchi er qiziq.

Erinchoqqa har tongda
Uyqudagi tush qiziq.
Mirishkori zo‘r bo‘lsa,
Olg‘ir qiron qush qiziq.
Bo‘ladigan yigitga
Bo‘yga yetgan qiz qiziq.

Mo‘min kishi belgisi —
Haqqin yemas odamning.
Aqling bo‘lsa, bo‘z bola,
Qadriga yet har damning.

Hech birovga xayri yo‘q
El ichida sudxo‘rning.
Ikkov bo‘lsang, uch bo‘lsang,
Ellik bo‘lsang, yuz bo‘lsang,
Yengilmaymiz but bo‘lsak.

Bo‘ladigan er yigit —
Farangi miltiq, bosmaday.
Tengsiz bo‘lar azamat
Tekis tilgan tasmaday.

Umr surar bu yigit
O‘lgunicha g‘am ko‘rmay.
Ochiq bo‘lar yuragi,
Odamni g‘anim ko‘rmay.

Yumshoq bo‘lar, fe’li ham
Ochilgan oq paxtaday.
Bunday yaxshi yigitni
Birov qolmas maqtamay.

Olgan yori yarashar,
Fe’li ochiq, bezdirmas.
Yo‘ldosh bo‘lar eriga,
Yo‘q bo‘lsa ham sezdirmas.
Yigit ko‘ngli xotirjam,
Xavotiri yo‘q, beg‘am.

Yaxshi bo‘lsa olganing,
Orom olar ko‘ngil, jon.
Uy ichini pok tutar,
Hamma yoqni saranjom.

Yomon otni qamchilab
Ursang chopmas, qirchang‘i.
Yetmasang yaxshi dildorga,
Aytganing qilmas, shang‘ir.

Yaxshi bo‘lsa olganing,
Aslo ko‘ngling qoldirmas.
Oltin bilan kumushday
Ko‘z quvnatib yaltillar.
Yomon bo‘lsa olganing,
Yo‘qotmasang, jon tinmas.

Asli nasli past bo‘lsa,
Bir kun chiqar boshingga.
Yo‘qdan janjal chiqarib,
Og‘u tashlar oshingga.
Yig‘gan-tergan davlating
Ketar ichmas, toshingga...

O‘ng‘ay bo‘lmas ro‘zg‘orni,
O‘rniga tiklash qaytib.
Unday yomon xotinning
Tugamas aybin aytib.
Qo‘ling qisqa, jon bolam,
O‘ylab ish qilar payting...

NASIHAT

Taning sog‘da erinmay,
Bekorlikka berilmay,
Shaxdam-shaxdam yumush qil,
“Erinchoq, yalqov” dedirmay.

Erning kuchi so‘m[1] temir,
Eritmoqqa er kerak.
Erta tongdan zo‘r berib,
Ekin haydab, yer kerak.

[1] **So‘m** — yaxlit, quyma.

Er yigitning belgisi —
Epchil, ishni axtarar.
O‘z qo‘lingda bo‘lmasa
O‘ldim desang, kim berar?

Kuching bormi, tinmagin,
Kulib-yayrab, er yigit.
Kun o‘tsin deb o‘ylama,
Mendan senga shul o‘git.

Yaxshi azamat turlanar,
Vaqtin bekor sovurmay.
O‘zin o‘zi asraydi,
O‘g‘irlikka qo‘l urmay.
Nomusin o‘ylar har vaqt,
Mayda gapga berilmay.

Yeng shimarib mehnat qil,
Tishing borda tosh chayna.
Iqbol uchun astoydil
Ishlamasang, osh qayda?

Ekin hayda, pichan o‘r,
Emgagingdan foyda ko‘r.
Azamat bo‘lsang, ishlab,
Aqling o‘sar, obro‘ zo‘r.

Er yigitning belgisi —
G‘ayrati sig‘mas taniga.
O‘z qo‘lingda bo‘lmasa,
Tekin ovqat qaniykan?

Umr bo‘yi xor bo‘lmas,
Fikri tiniq, niyat oq.
Yomonlikka yuz burmas,
Yaxshining bari o‘rtoq.

O‘lmay tirik yursang gar,
Qilma aslo baxillik.
Rozi bo‘l har kuningdan,
Rizqning boshi ahillik.

Qo‘rqsin mendan barcha deb,
Qo‘pollikni kasb qilma.
Ko‘pirmoqni bas qilgin,
Kim ko‘rinsa maqtanma.
Olib qolgin To‘qangdan
Pand-o‘gitin uqqanda.

Qarz olma hech, er yigit,
Ko‘paytirib bermoqqa.
Qadringni yerga urib,
Dovlab kelar olmoqqa.

Undan ko‘ra ekin ek,
Kuching borda tirmashib.
Qochib ketmas rizq degan,
O‘zi kelar chirmashib.

Esing ketsa echki boq,
Echki tug‘ar uch uloq.
Totli sutin mo‘l qilib,
Sog‘ib olasan uch vaqt.

Hech bo‘lmasa ikkita,
Egiz tug‘ar ulog‘in.
Eshigingdan ermon yer,
Eslamay tog‘ o‘tlog‘in.

Bug‘doy eksang, kuzda sep,
Yozda pishar yaltillab.
Xirmon toshib, qop to‘lar,
Bahosi — qizil oltinday.

Yoshlikda qil mehnatni,
Yalqovlanib bo‘shashmay.
Qorni to‘ymas odamning,
G‘ayrat bilan ish qilmay.

Ishdan qochar ko‘p ahmoq
Qora chaqa topolmas.
Qo‘yvoradi xotinni,
Chunki eplab boqolmas.

Ishlab yotsa bir dehqon,
Qah-qah kulib ermaklar.
Bundaylardan el bezor,
Ishyoqmaslar, tentaklar.

Bunday yalqov shumlarga
Hech kimsa qiyo boqmas.
Ishlab turgan azamat
So‘ziga quloq qoqmas.

Qarzdor bo‘lma sudxo‘rga,
Neki boring sud[1] qilar.
Bir yilda ikki tug‘dirib
Yarim so‘min but qilar.

O‘z vaqtida bermasang,
Bekka sudrar tutqilab.
Biy-bo‘lislar yuhoday,
Oriq moling yut qilar.

Xumorin yozar qush solgan,
Ko‘nglin yozar qiz olgan.
Shu qo‘shig‘imda, ayting,
Bormi bironta yolg‘on?

[1] **Sud, sudxo‘rlik** — qarzni foizi bilan undirish.

Kuni-tuni tinchimay,
Oshga-to‘yga ot chopgan.
Barakasi bo‘lmaydi,
Tep-tekindan mol topgan.

Merganlikning belgisi —
Bug‘u, marol, taka otgan.
Esnab uyda yotguncha,
It ergashtir, sol qopqon.

Qo‘l qisqalik kimda yo‘q?
“Qashshoqsan”, deb kesatma.
Yomonlashib, yigitlar,
Bir-biringni o‘ksitma.

To‘rt kun umring borida,
Omonlashib yur doim.
O‘lmaganga ozmi-ko‘p
Rizqin berar Xudoyim.

Dimog‘i shishgan ahmoqning
So‘zi so‘zmas, “gap” bo‘lar.
Ovuliga ham sig‘may,
Oxir o‘zi daf bo‘lar.

Xuddi shunday odamning
Xulqi qolar o‘lguncha.
Bormi-yo‘qmi bilinmas,
Umri tamom bo‘lguncha.

Rizq avvali — ahillik,
Ishla, bo‘lgin serbardosh.
Farosatli er yigit,
Bir-biringga yordamlash.
Bir kun axir ketadi
Yer ostiga oltin bosh...

Bor hunaring ishga qo‘y,
Qorning mehnat qilib boq.
Erning ko‘rki el bilan,
Emgak bilan elga yoq!

HIKMAT

Arg‘umoqni yomonlab,
Bedovni qaydan topasan?
Og‘a-inini yomonlab,
Tug‘ganni qaydan topasan?

Oq somonni yomonlab,
Gulni qaydan topasan?
Oz boylikni yomonlab,
Ko‘pni qaydan topasan?

Sariq alak yomon deb,
Bo‘zni qaydan topasan?
Oqinlarni yomon deb,
So‘zni qaydan topasan?

Oppoq qorda ko‘p yursang,
Ko‘zing bo‘lar shamg‘alat.
Qarindoshdan chet yursang,
Ko‘ngling o‘ksir, xijolat.

Tug‘ganiga sig‘magan
Dushmaniga yalinar.
Yaqiniga yoqmagan
Yot kishiga yalinar.

Keyinini o‘ylamay,
Ne ish qilsang — pushmondir.
Hech kimni do‘st bilmagan
O‘z-o‘ziga dushmandir.

Boyni Xudo urganda,
Davlatiga mast bo‘lar.
Xonni Xudo urganda,
O‘z xalqiga qasd bo‘lar.

Qishni Xudo urganda,
Kunlar isib yoz bo‘lar.
Erni Xudo urganda,
Elliginda yosh bo‘lar.

Bari yulduz bir bo‘lib,
Shu’lasi bir oycha yo‘q.
To‘qqiz uloq sotilsa,
Bahosi bir toycha yo‘q.

Choynak-choynak choy ichsang,
Bir kesim qazi moycha yo‘q.
Bir to‘p bo‘zning sifati
Bir kiyim shoyicha yo‘q.

Pichoq bersang, qinlab ber,
Qinlab bersang, chinlab ber.
Barakasiz boydan qoch,
Bu so‘zni talqinlab ber.

Ne ish qilsang, bugun qil,
Chala emas, butun qil.
O‘g‘irlab birni olarsan,
Ajrab mingdan qolarsan.

Ochilishib sirlashsang,
Ko‘kragingdan mung ketar.
Baring bo‘lsang ittifoq,
Qay dushmaning churq etar?

Bulut ketsa osmondan,
Kun ochilib yilt etar.

Ajaling yetib kun bitsa,
Oltin boshing shilq etar.

Oq miltiqning milini
Otolmasang sunmagin.
Erkak bo‘lsang, dushmandan
Ikki ko‘zing yummagin.
O‘tib ketgan ish uchun
O‘kinib bolang urmagin.

Hovliqqan er ko‘p so‘zlar,
Ishchan yigit ep so‘zlar.
Bilmas odamga hatto
Bir so‘zlashga gap tegmas...

Tentak bilan olishma,
Suv quymagin to‘lmasga.
Behuda achchiqlanma
Har ne bo‘lar-bo‘lmasga.
O‘git aytma behuda
Ma’qul gapga ko‘nmasga.

Oshno bo‘lsang quv bilan,
Umring o‘tar dov bilan.
Yiqmaguncha qochmagin,
Yuzlashganda yov bilan.

Hazil qilsang bilmasga,
Darrov ko‘ngling sindirar.
Yomonlarning odati —
Yolg‘on so‘zni chin qilar.
Ko‘pni ko‘rgan donolar
Ko‘nglingni tindirar.

Bekorchidan bezib qoch,
Yolg‘onchidan sezib qoch!

Qiziqtirib o‘jarni,
Qiyin ishga yuborma.
Soddani chuv tushirib,
Suvsiz holda sug‘orma.
Eshitganing — To‘qangning
Nasihati sizlarga.

Chin dildan ber maslahat
Chin aytganing bilarga.
Qo‘lingdan kelmas ishni
O‘ying bilan bitirma.

Aytilmas har so‘z uchun
Og‘zing bekor ochmagin.
Maqtasalar, mard bo‘lib,
Bor-budingni sochmagin.
Qo‘ldan kelar ish bo‘lsa,
Qo‘rqib bekor qochmagin.
Avval yomon qilmishing
Keyingi yerda tashlagin.

Yo‘ldosh bo‘lma qo‘rqoqqa,
Yuk ortmagin buzoqqa,
Ish aytma maqtanchoqqa.

Tulpor minsang choptirib,
Chor tomonga ko‘z solma.
Ko‘rganlar orasida
Maqtanchoq deb nom olma.

So‘rab ichgan ovqating
Suv ichganga barobar.
“Suq” atalib ovulda,
Sarson bo‘lma, bolalar.

Bedov bilan quvlashma,
Bilimli bilan olishma.

Behuda izza bo‘lib,
Zo‘r kelgum deb solishma.

Ko‘ngil qolar gap aytma
Bemor bilan keksaga.
Seni sotar birovlar
Bir hovuch un — chaksaga.

Buzuq bilan munglashma,
Uyatsiz bilan imlashma.
Bo‘lmas ishga kirishma,
Mo‘minlik yo‘li bir boshqa.

Aqlsizga so‘z aytib,
Ahmoq bilan sirlashma.
Yoringni noma’qul deb,
Yomonlikni gullatma.

O‘GIT QO‘SHIQLARI

O‘rmon ko‘rki — ukkida,
Ulov ko‘rki — lo‘kkida.
O‘git aytsang tinglamas,
Ahmoqning ko‘rki dakkida.

Pichoq ko‘rki qininda,
Yilqi ko‘rki qulunda.
Savob ishdan qochmaslik
Asil yigit qo‘linda.

Yaylov ko‘rki mol bilan,
Yilqi ko‘rki yol bilan.
Yulduzday yonar qaro ko‘z,
Yigitning ko‘rki yor bilan.

Soqolning ko‘rki cholda bor,
Suluvning ko‘rki xolda bor.
Suqlanib yurmay har kimga,
Suyganing boshda tanlab ol...

Yomon odam belgisi —
O‘z g‘ami deb yugurar.
Yaxshi odam belgisi —
El-yurtim deb kuyinar.

Echki ko‘rki to‘l bilan,
Ekin ko‘rki yer bilan.
Soyning ko‘rki sel bilan,
Er yigit ko‘rki el bilan.

Bulbul ko‘rki gulda bor,
Oqin ko‘rki unda bor.
Shunqor uchsa osmonga,
Chorang bo‘lsa, chorlab ol!

Yaylov ko‘rki qimizda,
Qimiz ko‘rki xurushda.
Nomus uchun jang qilgan
Botirning ko‘rki urushda.

Qahraton ko‘rki muzda,
Suvning ko‘rki hovuzda.
Ovqatning ko‘rki tuzda,
Sunbul soch ko‘rki qizda....

Dakang ko‘rki tullakda,
Botir ko‘rki yurakda.
Polvon ko‘rki bilakda,
O‘rdak ko‘rki churrakda...

Idishning ko‘rki chinnida,
Baxshining ko‘rki jinida.

Mungli-mungli sayrasa,
Bulbulning ko‘rki unida.

Tuyoq ko‘rki tulporda,
Qanot ko‘rki shunqorda,
Bulut ko‘rki chaqinda.
Qo‘rg‘on bo‘lib el tursa,
Osh-to‘y ko‘rki oqinda.

Yomon odam hech qo‘ymay
Tortar tekin o‘ljani.
Faqirga minnat qilma
Berganing non, go‘jani.

Suluv ko‘rki qomatda,
Oqil ko‘rki hikmatda.
Qo‘lingdan kelmas ishga
Chog‘lab, o‘zni charchatma.

Ahillik bo‘lsa xalqingda,
Dushmandan hadik olma.
Tozalik bo‘lsin xalqumda,
Harom oshga qo‘l solma.

So‘fining ko‘ngli azonda,
Mechkayning ko‘ngli qozonda.
Har gapida yolg‘onchi
Simira berar qasamni.

Dehqon ko‘rki yer bilan,
Tulpor chopar ter bilan.
Qadrdon bo‘lsa o‘lguncha,
Xotin ko‘rki er bilan.

IBRATLI SHE'RLAR

Azamat er qaytarar
Ahdni buzgan yov shashtin.
G'ayrati, dami qaytarar
Qora niyatli dev shashtin.

Er quvvati so'm temir,
Eritmoqqa er kerak.
Egri ishni tuzatgan
Erga davlat bir kelar.

Ko'ray desang hurmatin,
O'g'il uylab, qiz chiqar.
Moling yutda[1] o'ldirmay,
O'rab-chirmab qish chiqar.

Elik, upa, qarqara
Qiz bolaga yarashar,
Orolanib, sollanib,
Qirq kokilin tarashar.
Bejo bo'lsa onasi
Qizin tinmay urishar.

O'laksani tortqilar
Qarg'a-quzg'unning bari.
Chora bormi talansa,
Bechora-yu sag'iri.
Quzg'unlarning dastidan
Ezildi elning faqiri...

[1] **Yut** — chorvaning qishda och qolishi.

TERMA

Har kim o‘ylar yaxshilik,
Tilagiga yetuvga.
Hazil qilma xira bo‘p,
Eri o‘lgan yesirga.
Uyati bor odamning
Nuri bo‘lar betida.

Chuv tushirsa bir rasvo,
Qaytar uning o‘ziga.
G‘ayrati bor yigitning
O‘ti bo‘lar ko‘zida.
Aytgan gapidan qaytmas,
Tuturug‘i so‘zida.

O‘lanli yerda soz bo‘lar,
O‘lchab ko‘rib daryoga,
O‘rdak bilan g‘oz qo‘nar.
O‘yib-o‘yib gap aytsang,
O‘lguncha kekin unutmas,
O‘z tug‘ganing qasd bo‘lar.
Yolg‘on so‘zlar yigitning
Hurmati bo‘lmas elida.
O‘g‘irlab gapni tashigan
Uyati chiqar betiga.
“Yo‘qol, shumshuk, daf bo‘l” deb,
Yo‘latmas ovul chetiga.

To‘g‘ri so‘zlab, tek yursang,
Qadring elda ortadi.
“Baraka top, bolam”, deb.
Barcha rahmat aytadi.
O‘y-niyating soz bo‘lsa,
Qirg‘iz tugul, qipchoq ham,
Qadringga xo‘p yetadi.

So‘kib so‘zlar behuda,
Ori yo‘q odam ko‘p bo‘lar.
O‘rinsiz yerga ko‘p kirib,
Shuncha yurtga gap bo‘lar.
To‘g‘ri bosmay oyog‘in,
Tug‘ganidan olis, chet bo‘lar.

Qizday hurkak, chaqqon bo‘p,
Yaxshi ot qamchi soldirmas.
Yaxshi odamning belgisi —
Ko‘nglingni hech qoldirmas.

Sirtingdan sizlab gap aytib,
Dushmanga siring oldirmas.
Yaxshi ko‘rgan yo‘ldoshin,
Yomon yo‘lga soldirmas.

Yaxshi xotinning belgisi —
Jon do‘st bo‘lar kishiga.
Yumushni erta bitirar,
Baho yo‘q qilgan ishiga.
Erining fe’li esh bo‘lar,
Har kun kirib tushiga.

Qadring bilmas xotin bor,
Qahraton qishning tuniday,
Har kun uyda bir janjal,
Ho‘l to‘nka o‘tiniday.
Qadrin bilging yaxshining,
Qarag‘at ko‘zing mo‘ltirab,
Qadringni bilmas xotin
Qarg‘ab kunda, o‘ldirar.

Bedov otning belgisi —
Poygadan chiqar zir etmay.
Yaxshi xotinning belgisi —

Yashnab turar zumradday.
Har muchasi kelishgan
Chizib qo‘ygan suratday.

Olganing yomon chiqsa,
Quloq solmas gapingga.
Garang bo‘lgan o‘jarday,
Tik qaragay aftingga.
Bir-bir aytib berayin,
Quloq sol,
so‘zning raftiga.

Azamat bo‘lsang, yigitlar,
Topgin to‘g‘ri yo‘lingni.
Chatoq ishga borguncha
Ortiq ko‘r undan o‘limni.

Fe’li chatoq kishiga
Aslo siring aytmagin.
Olti muchang sog‘ bo‘lsa,
Bekor qarab yotmagin.

Aytgan so‘zing haq bo‘lsa,
Aslo undan qaytmagin.
Bu — pandimni kuy bilan
Terma qilib aytganim.

Yengil o‘ylab, ko‘p so‘ylab,
Har narsaga kulmagin.
Olgan yoring yosh bo‘lsa,
Shoshmay o‘rgat, undagin.

Aqling bo‘lsa, har ishni
Bilib turib so‘ylagin.
Haydalgan bulbul To‘qangday
Haq bo‘p turib kuymagin.

Haydovda soqol oqarib,
Azobin tortdim dunyoning.
Shoir yoshlar o‘rganib,
“Bulbulum To‘qam iri” deb,
Aytib yursin bilganin.

Qariganda javratib,
Aljiratmasin odamni.
Qolma aslo ziyonga,
Yo‘ldosh qilib nodonni.

Harom-xarishga tortib,
So‘rib olar shirangni.
Gazak qilib shishirar,
Bo‘lar-bo‘lmas yarangni.

Keltirmagin yoningga
Kasri tegar chatoqni.
Sezdirmasdan siringni
Olib yurgan shaltoqni.

Bunday rasvo odamlar
Og‘a-inini yot qilib,
Ochib qo‘yar orangni.
Bo‘lib ko‘ngling alag‘da,
Topolmaysan chorangni.
Qarindosh bilan eski
Murosa-madorangni.

So‘z aytsang javob bermas —
Hayvonlikning belgisi.
Qo‘lingda pul yo‘q bo‘lsa,
Nolonlikning belgisi.

El oldiga bormagan —
Yomonlikning belgisi.

Kiyiming tortqilasa,
Nodonlikning belgisi.
Xotining olsa betingdan,
Odamning kelar o‘lgisi.

Bedovi yorib poyga olsa,
Ot egasi suyinar.
Tulporlikning belgisi —
Yer tanlamay yugurar.

Ikki dushman yuzlashsa,
Qo‘rqoq joni tovonda.
Surbet qo‘noq qo‘ndirsang,
Ovuling bari talonda.

Yaylov ko‘rki ochilar
Yoyilib yotgan mol bilan.
Bulbul ko‘rki ochilar
Buralgan ko‘k tol bilan.

Yigit ko‘rki ochilar,
Oynakday suluv yor bilan.
To‘rg‘ay sayrar uxlamay,
Sarin yel, nahor bilan.

Salqin sabo jonga xush,
Javzoda qaynoq choy bilan.
Quvalashib o‘ynasa,
Bolaning ko‘rki toy bilan.

Echki, arxar irg‘ishlar
Tik qoyada sochilib.
Dov-daraxtga burkanib,
Ovul ko‘rki ochilar.

Qish chillasi chilladir
Ko‘k muz, oppoq qor bilan.

Bir-bir bosib kelganda
Karvon ko‘rki — nor bilan.

Daryo ko‘rki ochilar,
Qur-qur o‘rdak, g‘oz bilan.
Bitmas ish yo‘q, o‘ylasang,
Sal-sal, kam-kam, oz bilan.
Garang bo‘lma bosh qo‘shib,
Aqli kam nosoz bilan.

Yo‘rg‘a ot ko‘rki ochilar,
Sovitib chopgan ter bilan.
O‘tib ketsa gul umring,
Aylanib qayta kelmagay.

Yangratib so‘zni aytib,
Jag‘, tilimni sermayman.
Mendan qolsin ibrat bo‘p,
Aytayin, bolalar, termadan.

Oq qog‘ozdan yod olmay,
Oltin jag‘li, jez tanglay,
Oqinlar chiqar bandadan.
Dong‘im uqib, sirtimdan
Ko‘rmagan odam ko‘p ekan
Oqqalpoq qirg‘iz yurtimda.

Qartaysam ham, bolalar,
Tong otib, kun chiqarib,
Boshlay uzoq termadan.
Omon kelar olisdan,
Ajali yetib o‘lmagan.

Og‘a-inisin xor qilar,
Ma’qul gapni olmagan.
Aqli bor er yomonga
Sira quloq solmagan.

Qizil kiyingan qizga,
Nigoh tashlar har odam.
Agar ahil bo‘lmasa,
Yengolmas yovni bir odam.
Qoplagan yov ololmas
Birdam bo‘lsa ming odam.

Zo‘rlik qilma yolg‘izga,
Zo‘r ishlatma sho‘rlikka.
Kattalik qilma yolg‘izga,
Katta so‘ylama sho‘rlikka.

Qo‘ldan kelsa, tortinmay,
Qo‘llab yurgin g‘aribni.
G‘aribning tegar nafi,
Chiqarolsang yorug‘ga.

Aql-esi yo‘q bo‘z bola
O‘g‘rilikka qo‘l urar.
To‘g‘ri yo‘lga kirmasdan,
Harom ishga yugurar.

Tekin oshga qiziqib,
Fe’lidan topib, tutilar.
Hiyla bilan ont ichar,
Bu rasvoning tilagi —
Ne qilsaki, qutular.

Ortidan chiqsa gunohi
Qanday qilib oqlanar?
Tergab yursang, tuzalib,
Qing‘ir ishdan saqlanar.

Qabihlik qilgan yo‘q bo‘lar,
G‘ayratli yigit sho‘x bo‘lar.
Odil odamning so‘zi,
Rasvolar uchun o‘q bo‘lar.

Harom ish qilgan kishining
Oyog‘i ipsiz boylanar.
“Anov o‘g‘ri shu-ku”, deb,
Qoramolday haydalar.

Yaxshi odamning belgisi —
Yashirmay aytar bilganin.
Bor ovqatin ayamas,
Chaqirib olar suyganin.

Ochin-to‘qin yurganday,
Aytmagan uyga kirmagin.
Azamat bo‘l, er yigit,
Yomon holga kulmagin,

Yangroq tanglay, qizil til,
Bulbulday navo so‘ylagin.
Elimga qolsin ortimdan,
Qo‘shiq, qo‘miz kuylarim.

Qirchang‘ini qish kuni
Olis yo‘lga minmagin.
Oydalada ovul yo‘q,
Azob tortib yurmagin.
Yetovga bosmay mang turar,
Ko‘rarsan dunyo azobin...

Harom-xarish buzuqning
Aldoviga uchmagin.
Bu rasvolar ko‘rolmas
Yayrab-yashnab yurganing.

Yotmas yaxshi bo‘z bola
Yosh vaqtida bekorga.
So‘zlar quyilib kelar
Oqin To‘qang dongdorga.

Kuyladim jon kuydirib,
El yig‘ilgan har joyda.
Yoshlar uqsin deb aydim,
Qo‘shilmasin bejoga...

Dushman oldida qo‘rqib,
Tiraqaylab qochmagin.
Qora niyat odamni
Qatoringga qo‘shmagin.

Oq niyatli odamning
Yo‘lin to‘sma qasd etib.
Qadring bilib sir bermay
Turgil, yurma past ketib.

Yo‘lamagin ziyonga,
Sal yutuqqa quvonma.
To‘qang aytgan o‘gitdan
Boshqasiga ishonma.

Yozda mehnat qil terlab,
Qishning g‘amin yer palla.
Aytar so‘zdan qaytmagin,
Shunday qilar eranlar.

Yosh kezingdan, er yigit,
Sulloh bo‘lma, so‘ranma.
Tilanchilik to‘riga
Bir umrga o‘rganma.

Aqcha berma mard bo‘lib,
Fe’li yomon buzuqqa.
Tekin ovqat yeyishga
Odam bo‘lsang, qiziqma.

To‘g‘ri so‘zla tug‘ganga,
Yaqinlashma aqli yo‘q
Orsiz, Xudo urganga.

Nega iching qizimas
Bekor qarab turganga?

Ergasha ber erinmay,
Halol niyat qilganga.
Do‘stlar ko‘nglin qoldirma,
Qo‘rqinchli ko‘zin qadab,
Ajal kelar har jonga.

Ancha-muncha odam bor,
Hazil gapni suymaydi.
Yomonlikka muk tushib,
Yaxshi ishga kulmaydi.
Ko‘ksi buzuq undaylar
Kim kimligin bilmaydi.

Yomon odam hovliqsa,
Yaxshini ko‘zga ilmaydi.
Senga navbat bermasdan,
O‘z bilganin so‘ylaydi.

Yosh kezimda hech tolmay,
Sayrar edim til bilan.
Oqin To‘qang haydalib,
Azob tortdi turmada.

Aldoqchi yalqov qursin,
Elga nafi tegmagan.
Darrov ishing o‘ng bo‘lar,
Yaxshi bo‘lsa olganing.
Necha bolaga, ne xush
Ota bo‘lib qolganing.

Ovulda hatto hamsoyang
Chaqirmasa, bormagin.
Qimorbozga qo‘shilib,

Chatog‘iga qolmagin.
Fe’li buzuq odamdan
Besh tiyin qarz olmagin.

Azamat bo‘l, bolalar,
Ochiq aytib, haq so‘yla.
Haqiqatdan voz kechmay,
Odil so‘zni bot so‘yla.

Birda bor-u, birda yo‘q,
Vafosi yo‘q shum dunyo.
Olmaday bo‘lgan boshingni
Olib tinar quv dunyo.

Tug‘ganingni yomon deb,
Dushmaningga qochmagin.
Yo‘ldoshingni yomon deb,
Obro‘yingni sochmagin.

Haydalib To‘qang Sibirda,
Tortgan ochlik azobin.
Odam bo‘lsang to‘g‘ri yur,
Do‘st tutmagin kazzobni.

Ortimda qolsin bir nusxa
Deb, yoshlar, sizga tashladim.
Aytishib qolgan yeringdan
Aqling bo‘lsa, qochmagin.

Oqqalpoq qirg‘iz xalqima
Oltinday so‘zim sochaman.
Ko‘krakdagi qo‘shig‘im
Kalitin burab ochaman.

El to‘plansa har joyda,
Ermak qilgan dostonim.

El ko‘rsinga ish qilma,
Xufiya bo‘lsin ehsoning.

Ikkovga birov bota olmas,
Otliqqa yayov yeta olmas.
Ko‘ngli toza er yigit
Elidan olis keta olmas.
G‘ayratli er oldidan
Qiron yov o‘ta olmas.

O‘g‘rilar yurar tun qotib,
Mo‘ljallab elsiz dahani.
Bekor molga qiziqib,
Ochilar ishtahasi.

To‘p yig‘inda sayragan
To‘rg‘ay To‘qang sabog‘i.
Qahri yomon odamning
Qarich tushar qovog‘i.

Undaylarga qo‘shmagin,
Oqko‘ngil, pok bolangni.
O‘g‘rilikni kasb qilar
Odamlarning yomoni.
Yaxshiliqqa yuzlansa,
Ildamlar bola qadami.

Kakku-Zaynab chaqirar,
Biri-birin topolmay.
Keklanib yurar ko‘p odam
Dushmandan o‘chin ololmay.
G‘ayratsiz qo‘rqoq bo‘lar,
Yoviga tik borolmay.

Har yon to‘la, ko‘p nodon,
Go‘yo tog‘dagi qobon.

Aqlsiz odam undan ko‘p,
O‘tgan ishga keklagan.
Ortidan g‘iybat gap aytib,
Oxiriga yetmagan.

Yomon chiqsa xotining,
Bulutli kunday surlanib,
Uyib turar qovog‘in.
Har tomonga ko‘z tashlab,
Taraqlatar tovog‘in.

Eplab kutib ololmas
Uyga kelgan odamni.
Aqlini yig‘mas boshiga,
Ko‘rinib turar yomoni.

Osmonda balqib kun chiqsa,
Nurafshon bo‘lar olam.
Ajal kelib, kun bitsa,
Yorug‘ dunyoda qolmas,
Ketar bu bosh, jon bolam.

Tobiga kelgan bedovlar
Suvlug‘ini chaynaydi.
Qora olomon to‘p bo‘lsa,
Qartaygan To‘qang toliqmay,
Qo‘shiq aytib yayraydi.

Jilov uzgan arg‘umoq
Yuganlab minsang, ko‘nikar.
Yeng shimar, ish qil desang,
Tanbal odam erikar.
Tek turmoqqa qiziqma,
Sarg‘ayib, odam zerikar.

Bir-bir bulut bo‘linsa,
Kunning ko‘zi ochilar.

Ko‘kdan yomg‘ir to‘kilsa,
Giyoh guli ochilar.

Dehqon bo‘p, yer haydasang,
Yerning ko‘rki ochilar.
Oqin bo‘lib, kuylasang,
Elning ko‘ngli ochilar.

Ma’qul so‘zni yoqtirmay,
Yomon uyar qovog‘in.
Qo‘noqqa borsang undayga,
Joyim yo‘q, deb yer qarar,
Hech ochilmas dimog‘i.
Fe’lin buzib, mehmondan
Yashirar bor tomog‘in.

Ovchi solar burgutin,
Ayhaylaydi tayg‘anin[1].
Quvib jo‘nar ortidan
Ko‘rayin, deb olg‘anin.
Quvib-chopib sezmaydi
Otining charchab qolg‘anin.

Ovchi olar bilakka
Burgutning bor salmog‘in.
Toblanmagan shunqorni
Tag‘in ovga solmag‘in.

Jahli kelsa qochirar,
Armonda bo‘lib qolmag‘in.
Ot ustida abdirab,
Bemajol bo‘p tolmag‘in.

O‘zdan ketib, maqtanma,
Qiz olgan yorni “yomon” deb,

[1] **Tayg‘an** — tozi itning bir turi.

Aytma, tilga tushov sol.
O‘ng qo‘lingning jahlini
So‘l qo‘ling bilan tutib ol.
Oqqalpoq qirg‘iz elimga
Oltin tilim, so‘ylab qol!

DUNYO

Bu dunyoda bekorsan,
Bir kuni o‘tib ketarsan.
Vafosi yo‘q dunyo bu,
Tubiga qachon yetarsan?

Kelar chog‘da, ey dunyo,
To‘lib chiqqan oydaysan.
Ketar chog‘da, ey dunyo,
Suv yurmagan soydaysan.

Kelar chog‘da, ey dunyo,
Osmondagi kundaysan.
Ketar chog‘da, ey dunyo,
Qop-qorong‘u tundaysan.

Kelar chog‘da, ey dunyo,
Soyda o‘sgan toldaysan.
Ketar chog‘da, ey dunyo
Oyoq-qo‘li sholdaysan.

Kelar chog‘da, ey dunyo,
Atirgul shoxidaysan.
Ketar chog‘da, ey dunyo,
Suv yetmagan qoqdaysan.

Kelar chog‘da, ey dunyo,
Ayri o‘rkach tuyasan.
Ketar chog‘da, ey dunyo,
Tulporing yetmay, kuyasan.

Kelar chog‘da, ey dunyo,
Arg‘umoq minib o‘ynaysan.
Ketar chog‘da, ey dunyo,
Uchib qochgan to‘rg‘aysan.

Kelar chog‘da, ey dunyo,
Adirdan esgan yeldaysan.
Ketar chog‘da, ey dunyo,
Olis dovon, beldaysan.

Kelar chog‘da, ey dunyo,
Oy bilan kunday yorug‘san.
Ketar chog‘da, ey dunyo,
Tovoni tushgan choriqsan.

Kelar chog‘da, ey dunyo,
Qo‘sh tegirmon novdaysan.
Ketar chog‘da, ey dunyo,
Ko‘z yetmas chuqur zovdaysan.

Kelar chog‘da, ey dunyo,
Oltintumshuq qushdaysan.
Ketar chog‘da, ey dunyo,
Qishki chilla — muzdaysan.

Kelar chog‘da, ey dunyo,
Oltin taqa tulporsan.
Ketar chog‘da, ey dunyo,
Ortidan quvsa yetkazmas
Aylanib uchgan shunqorsan.

Kelar chog‘da, ey dunyo,
Uyurda eng zo‘r duldulsan.
Ketar chog‘da, ey dunyo,
Uyasi buzilgan bulbulsan.

Kelar chog‘da, ey dunyo,
Toshqin daryo, seldaysan.
Ketar chog‘da, ey dunyo,
Quturgan bo‘ron, yeldaysan.

Kelar chog‘da, ey dunyo,
O‘tovga oltin ustunsan.
Ketar chog‘da, ey dunyo,
Vayron bo‘lgan, buzg‘unsan.

Kelar chog‘da, ey dunyo,
Yo‘qolmas yigit mulkisan.
Ketar chog‘da, ey dunyo,
Qopqondan qochgan tulkisan.

Kelar chog‘da, ey dunyo,
Poygadan chiqqan otdaysan.
Ketar chog‘da, ey dunyo,
Mevasi tushgan shoxdaysan...

Kelar chog‘da, ey dunyo,
Tog‘da sayragan ularsan.
Ketar chog‘da, ey dunyo,
Chirigan devor — qularsan.

Kelar chog‘da, ey dunyo,
Ko‘k po‘lat shamshir,
xanjarsan.
Ketar chog‘da, ey dunyo,
Uzilib tushgan zanjirsan.

Kelar chog‘da, ey dunyo,
Yovni quvgan erdaysan.
Ketar chog‘da, ey dunyo,
Chorlagan bilan kelmaysan.

Kelar chog‘da, ey dunyo,
Paylari chiqqan o‘mizsan.
Ketar chog‘da, ey dunyo,
Qopqog‘i singan qo‘mizsan.

Kelar chog‘da, ey dunyo,
Surx o‘sgan qalin to‘qaysan.
Ketar chog‘da, ey dunyo,
Yirtilgan eski cho‘qaysan[1].

Kelar chog‘da, ey dunyo,
Oq uyga solgan oynaksan.
Ketar chog‘da, ey dunyo,
Dastasi singan choynaksan.

Kelar chog‘da, ey dunyo,
Ola qor bosgan dovonsan.
Ketar chog‘da, ey dunyo,
Mergandan qochgan qobonsan.

Kelar chog‘da, ey dunyo,
Ko‘kka bo‘y cho‘zgan chinorsan.
Ketar chog‘da, ey dunyo,
Qulab tushgan minorsan...

Kelar chog‘da, ey dunyo,
Yigirma besh yoshdaysan.
Ketar chog‘da, ey dunyo,
To‘kilib ketgan sochdaysan...

Kelar chog‘da, ey dunyo,
Dastasi oltin tug‘daysan.
Ketar chog‘da, ey dunyo,
Suvi yo‘q quduqdaysan.

[1] **Cho‘qay** — choriqning bir turi.

Kelar chog‘da, ey dunyo,
Bulutsiz ochiq kundaysan.
Ketar chog‘da, ey dunyo,
Titilib yotgan jundaysan.

Ketar chog‘da, ey dunyo,
Bulut bosgan tundaysan.
G‘arib bo‘lar ko‘ngling ham
Zindonda tutqundaysan.

Kelar chog‘da, ey dunyo,
Tundagi yorug‘ oydaysan.
Odam ko‘nglin ovutgan
Gulzor, chaman joydaysan.
Ketar chog‘da, ey dunyo,
Qayrilib qarab qo‘ymagan
Xasis, yomon boydaysan.

Kelar chog‘da, ey dunyo,
Chayqalgan yaylov chechaksan.
Yashillanib, tovlanib
Gullab o‘sgan pechaksan.
Ketar chog‘da, ey dunyo
Eshikdan to‘rga o‘tmaysan.
Suyamasga tayantib,
Yaqiningni o‘rtaysan.

Kelar chog‘da, ey dunyo,
Bir tug‘gandan inoqsan.
Qorong‘uda yarq etgan
Gavhar, yoqut chiroqsan.
Ketar chog‘da, ey dunyo,
Dushmandan ham yiroqsan.

Kelar chog‘da, ey dunyo,
Soyda o‘sgan toldaysan.

Ketar chog‘da, ey dunyo,
Laqillatib, aldaysan.

Kelar chog‘da, ey dunyo,
Yashnab o‘sgan teraksan.
Yayratib har ko‘ngilni,
Yosh-qariga keraksan.
Ketar chog‘da, ey dunyo,
Tagi tushgan chelaksan.

Kelar chog‘da, ey dunyo,
Buralgan yashil toldaysan.
Totli bo‘lib, tamshantib,
Shakardaysan, boldaysan.
Ketar chog‘da, ey dunyo,
Jodugarday aldaysan.

Kelar chog‘da, ey dunyo,
Yasatilgan uydaysan.
Ketar chog‘da, ey dunyo,
Yaqiningni suymaysan.

Kelar chog‘da, ey dunyo,
Toshib chiqqan buloqsan.
Ketar chog‘da, ey dunyo,
O‘zi o‘chgan chiroqsan.

Kelar chog‘da, ey dunyo,
Olovsiz toshib qaynaysan.
Ketar chog‘da, ey dunyo,
Dimiqasan, aynaysan.

Dunyo qursin, u — shunday,
Qo‘lingdan uchgan qushingday...

OQAR SUV

Qirq ming yil yer ostida
Yotib chiqqan oqar suv.
To‘lgan oyday yarqirab,
Yorug‘ chiqqan oqar suv.
Nozik quyruq, jez qanot
Baliq chiqqan oqar suv.

Qurt-qumursqa, jonivorni
Boqib chiqqan oqar suv.
Qora yerning tubidan
Yorib chiqqan oqar suv.

Ko‘z yetmagan qirlar-u,
Tovga chiqqan oqar suv.
Qo‘sh tegirmon parrakli
Novga chiqqan oqar suv.
Yetti qat yer ostidan
Zo‘rg‘a chiqqan oqar suv.

Ko‘z yetmagan qirda-yu,
Soyda bo‘lar oqar suv.
Chanqaganga jon berib,
Paydo bo‘lar oqar suv.

Ozgan-to‘zgan joniga
Ora bo‘lar oqar suv.
Ming-ming jo‘yak ichra ming
Pora bo‘lar oqar suv.

Qor erisa jildirab,
Gul yaratgan oqar suv.
Yashil, ko‘m-ko‘k giyohni
Shul yaratgan oqar suv.

Qimmatbaho, bebaho
Mol yaratgan oqar suv.
Barg chiqarib ko‘kargan
Tol yaratgan oqar suv.
G‘ariblarga kuch-quvvat,
Hol yaratgan oqar suv.

Arpa, bug‘doy, loviya,
So‘k yaratgan oqar suv.
Yashil maydon salqinga
Ko‘k yaratgan oqar suv.

To‘lqinlari pishqirib,
Qalqib turgan oqar suv.
Ne tulporlar o‘tolmay,
Qo‘rqib turgan oqar suv...

TO‘QTAG‘UL BILAN QO‘RG‘O‘L

Ikki yig‘in bosh qo‘shsa,
Ergashtirib borarim.
Uyalmasdan ayta ber,
Uqilsin elga xabaring.
Ermagin eshit, tug‘ganlar,
Manov esi chiqqan bolamning.

Andijon yerin oralab,
Hozir kelayotibmiz.
Elning ko‘nglin xushlashga
Ikkimiz ham oqinmiz.

To‘qtag‘ul bilan Qo‘rg‘o‘lmiz,
To‘pdan chiqqan to‘rg‘aymiz.
Xohlagan yerga qo‘namiz,
Xohlasa, ermak bo‘larmiz...

Uch kun bo‘ldi chiqqanga
Andijonning shahrindan.
Ko‘prik izlab topolmay,
Har yerda so‘rab qiynalib,
Arang o‘tdik Norindan.

Qirlar oshib biz keldik
Qizil qumi eshilgan,
Ot tuyog‘i teshilgan
Toshloq belning barindan.

Qosh qoraygan mahallar
“Qaroqchi qaydan chiqar” deb,
Qattiq qo‘rqdi Qo‘rg‘o‘lim.
Qora qapchig‘ay ichra
Umidin uzdi tamom
Bir chivinday jonidan.
Bolam, baxting bor ekan,
Qo‘nib qolgan el topdik
Manov adir yonidan.

Nasib ekan, kep qoldik,
Ovuldan tuz yeb qoldik.
Sen ham chaqqon eding-ku,
Yugurgan yosh chog‘ingdan.
Ibrat olib o‘rganding,
Uzoq ketmay yonimdan.

Qayda, bolam, qo‘mizing,
G‘ilofin ochib, olib kel.
Otang bilan olishib,
Har hunarga solib ko‘r.
Es-aqling tingan chog‘da
El-yurtingni tanib ko‘r!

ESLAB YUR, BOLAM, BU GAPNI

Oqin bo‘lsang, shoir bo‘l,
Og‘zingdan shakar to‘kilgan.
Chaqqon bo‘lgin, mohir bo‘l,
Hayt deganda yulqingan.
Sog‘ingan el ichida
Kuldirib, g‘amin yozsang,
Hech chiqarmas ko‘ngildan...

Ammo yalqov jon bo‘lsang,
El-yurt nechun xohlasin?
Hunaring namoyish qil,
Qilig‘ing elga yarashsin.
“Boyagi irchi yaxshi edi,
Qachon kelar ekan?” deb,
Qadrlab doim sog‘insin.

Kelib qolsang qo‘qqisdan,
“Biznikiga qo‘nar” deb,
Bir-biridan talashsin.
Gulday umring borida
El bilan birga yayrab yur,
Er uyida tong otsin!..

TO‘QTAG‘UL BILAN TO‘G‘ALOQ MO‘LDA[1]

To‘qtag‘ul:
Bayimbet Mo‘lda, bulbulum,
Bahorda ungan sunbulim.
Bola-chaqang omonmi,
Panada yurgan qurg‘urim?

Asling sayoq, tug‘ganim,
Tug‘ganlar ichra yoqqanim.
Boshidan o‘zing bilasan
Meni manaplar surib quvganin.

Risqulbek o‘g‘li besh qobon
Azobga boshim chirmadi.
Fe’li buzuq manaplar
Irkutskka haydab qiynadi.

Bulbul To‘qang Maskovda
Aql-esin shayladi.
Qo‘mizin olib qo‘liga,
Haydalganin kuyladi.

Janjalidan eshonning
Odamning bari kesildi.
“Elimga omon yetsam” deb,
Yurak-bag‘rim ezildi.

O‘lmagan jon, qayrilib,
To‘qang keldi xalqiga.
Jami qirg‘iz bolalari,
Biring emas, yalpingga.

[1] To‘g‘aloq Mo‘lda deb tanilgan oqinning asl ismi Boyimbet (Boymuhammad) bo‘lgan. Pastakkina, dumaloq odam bo‘lgani uchun To‘g‘aloq (Dumaloq) Mo‘lda atalib ketgan. Diniy ilmdan xabardor kishi bo‘lgan.

Yeringga keldim Boyimbet,
Yetar, elim farqimga...

Boyimbet:
Haydalib ketgan Shiberga
Oqin To‘qam, omonmi?
Yalpi yetim-yesirga
Yaqin To‘qam, omonmi?

Manaplar bilan bahslashgan
Botir To‘qam, omonmi?
Qizil tilin sayratib
Yotir To‘qam, omonmi?

Dovon demay yo‘l bosgan
Duldul To‘qam, omonmi?
Bog‘ ichinda un solgan
Bulbul To‘qam, omonmi?

Omonlashuv so‘ngidan
Aytgim kelar o‘ngidan.
Ulug‘ oqin To‘qamning
Uchrab qoldim yo‘lida.

Irchilar bari shaqillab
Kuylab turar qoshingda.
Sa’va misol sayrashar
Bulbul To‘qam boshida.

Qaliqni avval ko‘rganman,
Bola edi, yosh edi.
Ta’bin payqab, yoqtirdim,
Unda ham yuvosh edi.

Chechen bola ko‘rinar —
Ko‘zi yashnab turibdi.

Qora soqol Eshmambet,
Mana, qaynab turibdi.

Qoldirmay ir yo‘rig‘in
Sayrab turgan kezi ekan.
Oqinlar havas qilgan
Oqinning o‘zi ekan.

Jangiboy bilan Qurboning —
Yangrab kuylab turganing.
Jangiboy bo‘lsa — Quljig‘ach,
O‘zimning yaqin tug‘ganim.
Uch kun chopsa charchamas,
Bedoving, ot surganing.

Jo‘lay — yo‘ldan qo‘shilgan,
Qo‘shig‘i ipday eshilgan.
Bu yigit hali bola ekan.
Kuylagan iri chala ekan.
Ding‘ir-ding‘ir qo‘mizi,
Sal xom-xatala ekan.

Irchining bari o‘zingga
Ergashibdi, To‘qtag‘ul.
Oqinlik yo‘lin so‘rab,
Kengashibdi, To‘qtag‘ul.
Yarqirar oltin soqoling,
Baland bo‘lsin iqboling.

“To‘qtag‘uldan o‘rganib,
Irchi bo‘lib olsak” deb,
“Ilg‘ab irning sarasin,
Sinchi bo‘lib qolsak” deb,
Niyat qilib barisi,
Yoshi bilan qarisi
Kelishibdi yoningga.

Qari bo‘lsin, yosh bo‘lsin —
Niyati yo‘ldosh bo‘lsin!
O‘rgat ularga siring,
Qolmasin hech yashirin.

TO‘QTAG‘UL BILAN BARPI

To‘qtag‘ul:
Eshikdan kelding sen mehmon,
Ko‘nglim senga bo‘lindi.
Sezmaydi deb o‘ylama,
Siyog‘ing oqin ko‘rindi.

Qanday inim ekansan,
Uyga kirmay tortingan?
Arang kirib o‘tirding
Bir kishining ortidan.

Sirlashsak, armon bo‘linar
Dahaning yupqa ko‘rinar.
Hunaring bo‘lsa, o‘rga chiq!
Tortinmay, bolam, siringni ayt,
Dilingdagi chiningni ayt.
Chin siringni aytmasang,
Odobing bilan ortga qayt!

Barpi:
Eshmambet aytgan otingni,
Bildim ulug‘ zotingni.
Endi tanib oldim-ku,
So‘zimning yo‘q sepkili.
Odobsizlik qilib men
Kirib keldim shekilli...

Xatolik o‘tsa kechirgin,
Uqqim kelar uningni,

Bulbulday nozik kuyingni.
Aslim bo‘ston elidan,
Bog‘ladim mahkam belimni.

To‘qtag‘ul:
Payqadim sening o‘ngingdan,
So‘rayin oti-jo‘ningdan.
So‘zlaring xo‘p terilgan,
Qo‘shiqqa ko‘ngling berilgan.
Botir bo‘lar yigitning
Manglayidan bilinar.
Kelbatingni qarasam,
Bolam, xiyla chechansan.
To‘qtag‘ulning irlarin
To‘xtatmasdan yecharsan.

Olisdan kelgan bolasan,
Aytimli so‘zga qonasan.
Bilmayman oti-tagingni
Aniqroq ayt-chi yeringni.
Ko‘nglimga yoqar bo‘lsang,
Tarqatayin cheringni.

Yo‘riqsiz yo‘lga tushgan
Biy bolasi bo‘lmagin?
Behudaga maqtangan
Boy bolasi bo‘lmagin?

Qamchi urib, el biylab,
Yeb kelgandan bo‘lmagin?
“Qo‘shiq aytib eritay”,
Deb kelgandan bo‘lmagin?

Oriqlatib ola otni,
Oqsatgandan bo‘lmagin?
Odamlarni kuydirib,
Qaqshatgandan bo‘lmagin?

Beqasam kiyib, turlanib,
Yasangandan bo‘lmagin?
Yolg‘on-rostni aralash
Yasagandan bo‘lmagin?

Eshon bilan mulladan
Duo olgan bo‘lmagin?
Gadoylarga “Qo‘y top!” deb,
Jafo solgan bo‘lmagin?

Qonxo‘rlardan bezillab,
Qora tovoning teshilib,
Yurgan bo‘lsang, buni ayt,
Siring aytgin eshilib.
Qani, endi navbating,
Qaysini kuylar ekansan?
Elga yoqsa aytganing,
Quvonib qaytib ketarsan.

Barpi:
Angladim, og‘a, so‘zingni,
Ochasan mening ko‘zimni.
So‘rading, og‘a, endi men
Tanishtiray o‘zimni:
Yo‘riqsiz yo‘lga tushgan,
Ahmoq bo‘p, qo‘lga tushgan
Biy bolasi emasman.

Yolg‘iz o‘zin maqtagan,
Mingan otin niqtagan
Boy bolasi emasman.
“Qo‘shiq aytib eritay,
Dilda g‘amin sergitay”,
Deb kelgan ham emasman.

Oriqlatib otini
Oqsatgandan emasman.

Olomonni kuydirib,
Qovoqlarin uydirib,
Qaqshatgan ham emasman.

Beqasam kiyib, turlanib,
"Yaxshiman" deb surlanib,
Yasangan ham emasman.
Yomonga qaralashgan,
Yolg'on-rost aralashgan
Vaysagan ham emasman.

Eshon bilan mulladan
Duo olgan emasman.
Xo'ja kelsa, qo'y so'yib,
Oldiga patir non qo'yib,
Siylagan ham emasman.

Qashshoqlarga "Qo'y top" deb,
Yolg'iz molin so'yib yeb,
Ko'zlarini o'yib yeb,
Yurgan quzg'un emasman.
Chin ixlosim bo'lmasa,
Og'a deb izlab kelmasman!

"Zolimni To'qam suymas" deb,
"Manaplar bilan yurmas" deb,
"Eshon bilan mullaning
Aytganiga kirmas" deb,
"G'arib yoning olar"deb,
"Adashgan Barpi sen bo'lsang,
Ravon yo'lga solar", deb,
Aytgan edi Eshmambet....

Tirik yetim qolganman,
Mashaqqat o'tti boshimdan.
Chorasizman, javdirab,
Cho'pon bo'ldim yoshimdan.

Yetmasdan yetti yoshimga
Mung‘ayib yurdim do‘zaxda.
Yigirma yil jilmasdan,
Malay bo‘ldim Suzoqda.

Azob ko‘rdim Suzoqda,
Qutulolmay tuzoqdan.
Og‘a, senga intizor,
Kelolmay yurdim uzoqdan.

Tovonimga tosh botganin
Eshmambet oqin sezib,
“Bor, — dedi, — To‘qa qoshiga,
Sherik qilar oshiga”.
Deb tayinlab aytgan so‘ng,
Kelganim bu shoshilib,
Ichimda sirim ochilib.
Sinading, og‘a, sinading,
Mushkul ishda qiynading.
Oqinlikka yararmi
Deb, tovushim tinglading...

Qo‘mizni kuyga keltirar
Nomsiz, o‘rta barmog‘ing.
Kerak bo‘ldi iningning
Sendan ta’lim olmog‘i.

To‘qtag‘ul:
Yetimni ko‘rsam, xo‘rlanib,
Bo‘g‘inim bo‘shar, tura olmay.
Qattiq so‘zlab qo‘ydimmi
Aslingni so‘rab, sir olmay.
Ko‘zingni ko‘rsam qorasin,
Shamchiroqday yonadi.
Seni ko‘rsam, dilimda
Eski dard uyg‘onadi...

Zorlab qoldim, ko‘rmadim
Ortimda qolgan o‘g‘limni.
Ermagim eldan ayrilib
Ilk azobim bul bo‘ldi.
Tirigimda suyganim
Armonli yesir, tul bo‘ldi.

O‘n yil Sibirda kun ko‘rdim,
Qaytib qalin qirg‘izga
Kelmaydiganga o‘xshadim.
Uyda qolgan zaifam
“Yomonotliq bo‘lmay” deb,
Boshiga qayg‘u tushibdi.
Eng oxiri u sho‘rlik
Bir boyga tegib ketibdi.

Peshonamga yozilgan
Azob qildi xo‘p zo‘rlik.
Olganim ketsa, netayin,
O‘z kunin ko‘rsin u sho‘rlik.

Shunqorim ozib-to‘zibdi,
Oxiri oyoq cho‘zibdi...
Buzilib chin turmushim,
Singan ekan qilichim.
Farzandimdan ayrildim,
Ko‘rgil falakning ishin.

Barpi:
Qurg‘ur boylar qasdlashgan,
Sening qadring qaydan topilar?
Keki bor yovlar pastlashgan,
Sening kelbating qaydan topilar?

Oltinday eding, kirlanding,
Aybing nimaydi — bilmading.
Kumushday eding, kirlanding
Gunohing nimaydi — bilmading.

Omon ko‘rdim ko‘zingni,
Endi mening ishim o‘ng.
Ta’liming olib yursam deb,
Orzu-niyat, umid cho‘ng.

To‘qtag‘ul:
Qo‘mizdan beray sabog‘im,
Ulab ket inim, uyog‘in.
Endi sal bo‘lak kuylayin
Oqinliging sinayin.

Gap tugunin yechmasang,
Chechanliging kim bilar?
Karomating bo‘lmasa,
Eshonliging kim bilar?

Topishmoqni topmasang,
Sirchiliging kim bilar?
Davomin uzmay aytmasang,
Irchiliging kim bilar?

Barpi:
Olqor bilan g‘uljaning
O‘tlar yerin kim bilar?
Topilmagan tulporning
To‘xtar yerin kim bilar?

To‘qtag‘ul:
Ko‘nglida o‘ti bor odam
Bekor qolib yotolmas.
Asli buzuq odamlar
Elga kelib qotilmas.

Gapga usta bo‘lgan er
So‘zlasa tili qotmaydi.
Olib ketar dard kelsa,
Chorasin birov topmaydi.

Ming oshiqsa, halloslab,
Ajalsiz hech kim o‘la olmas.
Yiroqqa uchsa lochin
Tusini birov ko‘ra olmas.
Jonkuyaring ergashib,
Ortingdan yetib bora olmas...

Barpi:
O‘qlamay mergan ota olmas,
Oh chekmay bemor yota olmas.
Ko‘zlamay mergan ota olmas,
Koyinmay bemor yota olmas.

Oshiq bo‘lmay, yor bo‘lmas,
Tilab olgan farzanding
Yetim bo‘lmay, xo‘r bo‘lmas.
Buzuqning ishi o‘ng bo‘lmas,
Dilkash odam to‘ng bo‘lmas.

Bulbul kuyin eshitmay
Buralib gul ochilmas.
Avvaldan azob ko‘p ko‘rsa,
Munglining uni bosilmas...

To‘qtag‘ul:
Qorovulga ilinmay
Qochgan jonivor ottirmas.
Olganing yaxshi chiqsa,
Tug‘ganing sendan yot qilmas.
Yaxshi chiqsa, el seni
Dushmanga berib mot qilmas.

Barpi:
Eski paxta bo‘z bo‘lmas,
Hisoblashgan do‘st bo‘lmas,
Yaxshining so‘zi qo‘rs bo‘lmas.

Yomon yumshoq so‘z aytmas,
Yaxshining fe’li tor bo‘lmas.
To‘qtag‘ul, senday oqinlar
Qay yerda yursa, xor bo‘lmas...

To‘qtag‘ul:
Bu irni, inim, tashlayin,
“Bilan” deb qo‘shiq boshlayin.
Ko‘lning fayzi g‘oz bilan,
Ko‘karib o‘sgan soz bilan.
Suluvlar yuzin o‘ptirar,
Qayrilib turib noz bilan.

Barpi:
Bo‘ktargi yurar ov bilan,
Ko‘kqarg‘a uchar jar bilan.
Zag‘izg‘on ko‘char soy bilan,
Bolasiz kishi zor bilan.

Yigitning ko‘ngli quvonar
O‘ynoqlagan ot bilan.
Yo‘ldosh bo‘lib yurmagin
Ko‘ngli qora yot bilan.

To‘qtag‘ul:
O‘z qadringni o‘zing bil,
Bahslashmagin past bilan.
Xafaligim yozay deb,
Do‘stlashmagin nahs bilan.
Quchoqlashib do‘st bo‘lma
Aqli kalta shaxs bilan.

Yondashsang yaxshi mard bilan,
Savdoning ishi shart bilan.
Bo‘yning qilday ingichka
Bo‘lar og‘ir dard bilan.

Barpi:
Arava yurar yo‘l bilan,
O‘g‘rining ishi so‘l bilan.
Odamning ko‘rki bosh bilan,
Manglayning ko‘rki qosh bilan.

Istara — issiq yuz bilan,
Havo sovir kuz bilan.
O‘z elingdan chet yoqqa
Ketma bir beyuz bilan.

To‘qtag‘ul:
“Bilan”ni, inim, tashlaymiz,
“Emasmi”dan boshlaymiz.
Olqor, g‘ulja yotar joy
Zovda bo‘lar emasmi?
Turli giyoh, mevalar
Tog‘da bo‘lar emasmi?

Barpi:
Yomonning fe’li ma’lum:
Qozoning tepib sindirib,
Zirqiratar emasmi?
Uydagi bola-chaqani
Chirqiratar emasmi?..

To‘qtag‘ul:
Bolam, “emasmi”dan ketaylik,
Endi “yozilar”ga yetaylik.
Aravani ko‘rganda,
Otning cheri yozilar.
Elga ehson berganda,
Mardning cheri yozilar.

Ilvasinni ko‘rganda,
Qushning cheri yozilar.

Norin bilan go‘sht yesang
Tishning cheri yozilar.
Yer betiga qor purkab,
Qishning cheri yozilar.

Barpi:
Daryo to‘lib suv kelsa,
Solning cheri yozilar.
Keng yaylovda o‘tlasa,
Molning cheri yozilar.

Ishdan keyin dam olib,
Jonning cheri yozilar.
Yuzaga qazib chiqarsa,
Konning cheri yozilar...

Asta erib, jilg‘ada
Muzning cheri yozilar.
Totli taom ichida
Tuzning cheri yozilar...

Yangi kuyov kelganda
Chimchilashib kulishib,
Chindan ko‘ngil berishib,
Sariyog‘day erishib,
Qizning cheri yozilar.

To‘qtag‘ul:
Sen ham menday kuylading,
Kuyingdan, inim sinadim.
Adashtirib kuylasam,
Aytganimdan jilmading.
Mening aytgan qo‘shig‘im
Uzuq-yuluq qilmading.

Sayratding qizil tilingni
Oqinliging bilindi.

Men boshlagan qo‘shiqni
Davom etmay qo‘ymading.
Shalviratmay bir yerin,
Mudom aytmay qo‘ymading.
Mohir oqin ekan deb,
Shu gaplarni o‘yladim.

Barpi:
Men uchun, og‘a, chechilding,
Dildan qayg‘uni ko‘chirding.
Aytganimda ayb bo‘lsa,
Og‘alik qilib kechirgin...

Elga tegar foydang ko‘p,
Kimga qolar san’ating?
Ketsang, sayroq til qolmas,
Qolmas shundoq davlating.

Yozdirib, qog‘oz tashlab ket,
Qilgum senga iltijo.
Iningning bu aytganin
Oqil og‘am, qil bajo.
Tilagimni ado qil,
Og‘am, xayr, vido qil.

To‘qtag‘ul:
Endi yo‘q mening armonim,
Bor ekan senday darmonim.
Omon kelding, omon ket,
Bag‘irdoshim, ardog‘im.

Qoraboydan olgan qashqa ot,
Berdirdim seni minsin deb,
Otangday bo‘lgan og‘angman,
Qadr-qiymatim bilsin deb.
Qayga borsa, og‘asin
Yodga olib yursin deb...

Omon bo‘l, omonatim,
Sensan mening qanotim.
Ustoz bo‘lib yo‘l ochsam,
Yanglishmadi qo‘shig‘ing,
Yayrab aytdim qo‘shilib...

TO‘QTAG‘UL BILAN ALIMQUL

To‘qtag‘ul:
Osmonda uchgan olti o‘rdak
Aylanib qo‘nar ko‘l bunda.
Og‘angning so‘zin uqish-chun
Oshiqib turar el bunda.

Haydovda yurib yig‘lagan
Armonli To‘qang men bunda.
Atayin ko‘ray deb kelib,
Olislab qochmay, kel munda!..

Olib qol, bolam, irimni,
Ajalim yetsa, o‘lgum-da.
Oq uyning qochmay sirtiga,
Oldimga yaqin kelgin-da...

Talab qilib kelgan so‘ng,
Tanib qol mening yuzimni.
Tarxin buzmay olib qol,
Totli, shirin so‘zimni.

Asaldan shirin so‘zimni
Olib qol, bolam, bir tugal.
Eshikka qochmay kelsang-chi,
Emassan menga kuyov.
Ergashib yurib o‘rgangil
Bo‘lma buncha bo‘sh-bayov...

Uchrashib ko‘rmay hali,
Uyalib muncha qochasan?
Sizlarga qolsa hunarim,
Bir kuni elga sochasan...

Qaytib eliga ketguncha,
Qolsang-chi ergashib og‘angga.
Qoshima tezroq kel, bir sinay,
Qo‘miz chal, uqayin ohangni...

Oldimga kelib ko‘rishib,
Olsang-chi, bolam, qo‘limni!
O‘rganib olsang bo‘lmasmi
Oqinlik hunar-yo‘limni.

Uyati bo‘lar har yoshning-da,
Uchrashmay, sen nari qochding-da.
Uyalgandan, bolam, foyda yo‘q,
Uzmasdan sen o‘rnim bosgin-da.

Yonimga kel, o‘tir, tiragim,
Yangrat soz, raftorin ko‘rayin.
Yoshim ham anchaga borgandir,
Yoqutday eng qimmat qo‘shig‘im
Yosh bolam, kel, senga berayin.

Aqling bo‘lsa, bilarsan,
Aytganim tugal ilarsan.
“Oqin To‘qam so‘zi” deb,
Aytib kuylab yurarsan.

O‘rgangin, bolam, kuyimni,
Ohangin uqib, olib qol
Ular qushday unimni.
“Qizil tilli To‘qam” deb,
Qadrim yurtga bilindi.

Chertmagiga qil taqqan,
Chechan tilin sayratib,
Jilolangan kuy topgan.
Qo‘riqda chopgan tulporday,
Qo‘mizga qo‘lin yugurtgan.
Talay irchi, oqinga
Ta’lim berib, o‘rgatgan...

Ergashgin, bolam, olib qol,
“Bebaho To‘qam so‘zi” deb,
Elda qolsin taralib,
Kuy bilan irini olib qol,
Ketmasin ichimda qamalib...

Alimqul:
Uqqan edim xabaring,
Uchrab, yuzin ko‘rsam deb.
Ushbu edi talabim.
Uqib tur, bulbul To‘qtag‘ul,
Uchrashganda salomim...

Erta-yu kech o‘yimda,
Eslar edim o‘zingni.
Elning erka bulbuli,
Eson ko‘rdim ko‘zingni.
Ergashib yurib, o‘rgansam
Elni eritgan so‘zingni...

Atirgulga bulbulday
Qo‘ngan To‘qam, omonmi?
Olis chopsa, tolmagan
Yo‘rg‘am To‘qam, omonmi?

Oqqalpoq qirg‘iz ardog‘i
Bo‘lgan To‘qam, omonmi?
Ichiga oltinday so‘z
To‘lgan To‘qam, omonmi?

Ikki enlik tili bulbulday
Sayragan, To‘qam, omonmi?
Ulkan izdahom ichra
Yayragan To‘qam, omonmi?
Endi ko‘rdim nihoyat
Sog‘inib yurgan odamni.

Qo‘mizing qo‘lda qing‘irar,
Tovushi chiqar shing‘irab.
Elda oqin, irchi ko‘p,
Ular ichra sarasin
O‘zingdan boshqa kim bilar?..

Xumor edim dong‘ingga,
Qushday uchib aylanib,
Bir kelibsan xalqimga.
Atog‘ing doim belgili
Oqqalpoq qirg‘iz yalpiga.

Elingga, To‘qam, ketguncha,
Ergashsam, qolmay ortingdan.
Adashmay ola bilgummi
Oqinlik san’atingdan?

Qo‘l o‘ynatib kuy chertsang,
Qo‘mizga, To‘qam, ustasan.
Birga yurib ko‘rsatgin
Oqinlikning nusxasin.
To‘xtamay kuylab yurarman,
To‘qtag‘ul bo‘lsa ustozim...

To‘qtag‘ul:
Quvilib ketdim elimdan,
Quvg‘inda yurib, ayrildim
Qiron yoshlik umrimdan.

Uqib, ko‘nglim quvondi
Uchrashganda gapingdan.
Olib qol bolam, hunarim,
Ketguncha Talas yeringdan.

San’atim qolsa, der edim
O‘zingga o‘xshash yoshlarda.
“Oqin To‘qam so‘zi” deb,
Aytib yur qo‘shiq boshlarda.

Kam ko‘rmayman bolamdan,
Kuyin uqib inimning,
Koyigan cherim taragan.
Ketgunimcha birga yur,
Gapni ol menday og‘angdan.

Ajal yetib, kun bitib,
Ketsam, xalqim, orangdan,
“To‘qamning aytgan so‘zi” deb,
Chiqarma xotirangdan!

MO‘LDA QILICH

(1866–1917)

Mo‘lda Qilich Shamirqon o‘g‘li — badihago‘y oqin, ayni paytda qirg‘iz yozma adabiyotining boshlovchilaridan biri. Arab alifbosida qirg‘iz tilida yozgan. Uning chop etilgan birinchi asari — Ufada 1911-yilda bosilgan “Qissayi zilzila” dostonidir. “Chuy bayoni” dostonida esa Chuy vodiysida yuz bergan o‘zgarishlarni tasvirlagan. O‘ta dindor odam bo‘lgan. 1925 va 1940-yillarda ayrim asarlari bosilgach, keyin uzoq yillar taqiqlab kelingan. Mustaqillik davrida uning ijodiga yana yo‘l ochildi.

Mo‘lda Qilichning o‘zi va ijodi haqida aytgan so‘zlari:

Mo‘lda Qilich — mening otim,
Chek-o‘lchovsiz san’atim.
Chala chiqqan, to‘g‘risi,
Chor kitobdan savodim.
Yoza-yoza, ko‘paydi
Bayt-g‘azalli bayotim.

Po‘lat qalam qo‘limda
Oq ilonning tiliday.
Oq qog‘ozni qoralar
Qaldirg‘och qanotiday.

ZILZILA

(doston)

Avval so‘zim — bismilloh,
Ayta bersak so‘z bunda.
Gap chiqardim yangidan,
Mehmon — o‘rdak, biz — turna.

Kitoblarda bir gap bor:
Qo‘rqinch bo‘lar yuz yilda,
Nur-Muhammad payg‘ambar,
Umidvormiz ko‘p jonlar.

O‘tkan kuning yodga ol,
Oq soqolli qarilar.
Ko‘rib o‘tding ne kunni
Uzoq yoshga borganlar.
Ajib ishlar ko‘paydi
So‘zga quloq solganlar.

Oldingilar bir ozod,
O‘z erkida bo‘lgani.
Zamonga zor so‘yladim,
O‘tganlarning yo‘lini.
Parvardigor, har ishni
O‘zing tuzab o‘nglagin.

Zamon ming bor turlandi,
Ming bor kuydi yuragim.
Yer qo‘zg‘aldi o‘rnidan
Ketgudayin buzilib,
Aylanardi chir osmon
Tushgudayin uzilib.

Xayolda yo‘q ish keldi,
O‘zing saqla, Xudojon.
Jon shirin, tashvish keldi,
Zir titraydi tirik jon.

Yer yorildi, tubsiz jar,
Tog‘lardan tosh qulardi.
Itlar g‘ingshir, bezovta,
Ko‘kka qarab uvlardi.

O‘zing saqla, ey, Xudo,
Qiyomat qo‘pdimikan?
Jon olguvchi kelib, yo,
Bizlarni topdimikan.

Tog‘lardan bir sas keldi,
Otlar kishnar pishqirib.
Sigir, buzoq, qo‘y-qo‘zi,
Har yon qochdi ip uzib.

Xudoyimning hukmi bu,
Bir qahri vahshat keldi.
O‘limni esga soldi,
Qiyomat — dahshat keldi.

Aql yetmas ojizmiz,
Bandaning kuni qursin.
Qudrati ilohiyning
Ishlarin o‘ylab ko‘rsin.

Hamma zir-zir titradi,
Qo‘rqqanday
yomon tushdan,
Kalimasin qaytardi,
Ayrilib es-u hushdan.

Egam, deb yig‘lar bari,
Qo‘ymas, nola xonishni.
Bilmas go‘daklar hayron,
Yig‘lash yo ovunishni.

Bunda har ne bor maxluq,
Cho‘chimay yo‘q iloji,
Aytgin, qanday qo‘rqmasin,
Inson hayot gultoji.

Oldin bo‘lganmi bu hol,
Yorilib yer shunchalar,
Qani, menga aytsin-chi,
Bo‘lsa, ko‘rgan kimsalar.

Bildirib o‘z qudratin,
Yaratgan etar ogoh.
Sezdirib o‘z haybatin,
Yerni silkitar goh-goh.

Oy ham, kun ham ojizdir,
Tutilishar ba’zida.
Dumli yulduz ko‘k yuzin
Butkul to‘sar gohida.

Bu ishlarning barisi
Odamzodning fe’lidan.
Aynib yurtning qarisi,
Goh ayrildi elidan.

Amali yo‘q mullalar,
Dunyoga oshiq bari,
Oqsuyag-u xo‘jalar
Chopqillashsa nafs sari.

Qiyomat kun so‘ragay,
Tangrim har ishdan ogoh.

Bunda qanday yashadik,
Zamin ham bo‘lgay guvoh.

Hadisdan uqqan so‘zim,
Aytib beray qay birin.
Toki insonlar yuvsin,
Ko‘z yosh-la ko‘ngil kirin.

Shunchalar jon omonat,
Insof qilsak netarmiz?
Axir bir kun barimiz
Haq qoshiga yetarmiz.

Iblisga bergaydir qo‘l,
Kim qilmas Haqqa toat,
Qanoatga burgan yo‘l,
Imoni but, salomat.

Chuyning boshi Chong-Kemin,
Men aytayin bilganim,
Aniq bilgan odamlar,
Aytib berdi ko‘rganin.

Uch yuzdan oshiq odam,
Zilzilada o‘lganin.
Qulagan tom ostidan,
Olib eli ko‘mganin.

Aql bovar qilmas hech,
O‘zgarib ketdi zamon.
Bizlar bola chog‘da ham,
Yer silkir edi ahyon.

Ammo unda odamlar
Vahimada kezmasdi.
Hatto yer silkinganin
Ayrim odam sezmasdi.

Tom qulash, yer yorilish,
U paytlari qayda deng.
Ammo bu yilgi sinov
Barchamizga keldi teng.

E, odam kuni qursin,
Boshga balo kelgan on.
Ko‘z oldingga kelarkan,
Eng avvalo, shirin jon.

Ming xavotir hadik-la
Ko‘z uyquga ilinar.
Qanchalar omonatmiz,
Shunday paytda bilinar.

Birdan uylar qarsillab,
G‘alvirdek elanar yer.
Hammamiz jim qaltirab,
Hamma tinmay Xudo, der.

Bir tomonda it hurar,
Ulir, g‘ingshir cho‘zilib.
Ming hadik-la turibmiz,
Ketmasmi yer buzilib.

O‘sha yilgi zilzila,
Juda haybatli turdi.
Bunda borki tirik jon,
Yurak hovuchlab yurdi.

Uyda yotgan odamlar,
Tashqariga yugurgan.
Ba’zilar shir yalang‘och,
Arang qochib ulgurgan.

Xotiniga qaramay,
Bolalarin qoldirib,

Qochganlarni ham ko‘rdik,
Qo‘rquvdan jon oldirib.

E, odam kuni qursin,
Es-hush uchgan parishon.
O‘zing kechirgil bizni,
Qo‘rqitmagin Xudojon!

Qocholmayin nechalar,
Bo‘ldi joyi yer osti.
Xarsang bosib nechani,
Nechalarni tom bosdi.

O‘ylab g‘amga tolasan,
Eslasang barin bir-bir.
Ko‘z oldingdadir bari,
Titraydi yurak zir-zir.

Cho‘ng-Keminda ko‘pchilik
Bo‘ldi hayotdan judo.
O‘zingga ming bor shukur,
Saqlading bizni Xudo.

Oxiri yaxshi bitdi,
Garchand yer bir silkindi.
Hamma o‘limni eslab,
Haq borligi bilindi.

Qozon, tovoq sharaqlab,
Suv to‘kildi qumg‘ondan.
Takrorlab Haq nomini,
Ayrildik, dedik, jondan.

Mo‘minsan, sinov bilgin
Boshga tushgan barini,
Unutmagin sirayam,
Oliy hakam Tangrini.

Chuyning boshi Cho‘ng-Kemin,
Tosh ko‘chib, tog‘ yorilgan,
Kimlar ko‘chkida qolgan,
Kim tuproqqa qorilgan.

Ko‘rdik bir qarag‘ayning
Ildiz-la qulaganin.
Bir ko‘rib ibrat olgin,
Qodir zotning qilganin.

Yaylovlarda qolganlar
Holi nedir kim bilar?
Bari yer bilan yakson,
Tolqon bo‘lḍi tosh uylar.

Dalada ekinlar ham
Payhon bo‘ldi bir zumda.
Saqich yo‘l ham buzildi,
Ko‘milib tosh-u qumda.

Garchi yer yorilsa-yu,
Qulab tushsa ham osmon,
Ajali yo‘q odamlar,
Qolgaylar bunda omon.

Qodir zotning ishi bu,
Fikr qilib ko‘r takror.
Bir to‘shakda ikki jon,
Biri o‘lgan, biri bor.

Kimlarning bitsa kuni,
Topilar sabab, gumon,
Zilzilada bir bola
Qolmish beshikda omon.

Tosh tegib chil sinsa ham,
Uydagi beshik-yog‘och,

Bola uxlar osuda,
Tavba, demay yo‘q iloj.

Bu dahshatli qissadan
So‘zlab dil g‘amga to‘ldi.
Cho‘ng-Kemin kungayida,
Boyso‘rinda ne bo‘ldi?

Bu holni bir ko‘rganlar,
Nola bilan bo‘zlaydi.
Qancha jon qurbon bo‘ldi,
Yurak yutib so‘zlaydi.

Zilziladan el qaqshab,
Aytar, sarson yurganin,
Qancha yerlar yorilib,
Issiqko‘lga kirganin.

Ishonmasang bu holga,
Borgin-da, ko‘rgin o‘zing.
Bu qiyomat belgisi,
Ey, banda ochgin ko‘zing.

Kitoblarda aytilgan,
Chin ekan bari so‘zlar,
Yer yorilib bir kuni,
Chiqar Yajuj-Ma’jujlar.

Mo‘jizalar ko‘rsatar,
Qudratin etar ayon.
Yozmishi bo‘lur bari,
Qochib borursan qayon.

Ko‘rsa hamki anglamas,
So‘qirdir kim qalb ko‘zi.
Yanayam barchamizga,
Rizqni yetkazur O‘zi.

Dahshat solib odamga,
Goho titrar qaro yer.
Beshikdayin tebranar,
Parvardigor ishin ko‘r.

Ko‘kka, yerga ne tirgak,
Tinmay aylanar olam.
Bari borligi haq rost,
Arsh-u kursi, lavh, qalam.

Bu so‘zlarni bilarsiz,
Ma’nolarin so‘rasang,
So‘z bo‘lmaydi jo‘yasiz.
Ushbu turgan yer, osmon,
Quyoshimiz chiroqdan,
Oyni yorug‘ yaratdi,
Yuzi yorug‘ va ravshan.

Aytib berar mullalar
Yaxshi anglab so‘rasang.
Tog‘da o‘sgan archalar
Pastga tushmish surilib.
Ibrat bilan boq, turgay
Mo‘jizalar ko‘rinib.

Tuxumda jon binodir,
Qudratini bilsang-chi.
Farosating yurgizib,
Biroz fikr qilsang-chi.

To‘g‘ri yo‘ldan toysa kim,
Yo‘liqqani g‘avg‘olar,
Odam fe’li buzilsa,
Boshga kelur balolar.

Bejiz emas barisi,
Tutilsa kun bilan oy.

O‘zingga tavba qildik,
Qudratingdan aylanay.

O‘pirilib qora yer,
Ko‘chki ko‘chgani mahal,
Qo‘limizdan ne kelar,
Bir O‘zingga tavakkal.

Vatanimdir keng Qo‘chqor,
Etagida Semiz-Bel,
U tomonni qarasang —
Mavjlanadi Issiqko‘l.
Zilziladan vayrondir,
Boyso‘rinni borib ko‘r.

Hamma uyquda mahal
Yer tebrandi kechasi.
Qo‘rquvdan dag‘-dag‘ titrab,
Jon berdilar nechasi.

Asli, hukm o‘zingdan,
Biz tayyormiz har mahal.
Nima foyda qo‘rquvdan,
Bir o‘zingga tavakkal.

Cho‘ng-Keminda yorilgan,
Tog‘-u toshda qancha yer.
El-u yurtga, Xudoyim,
O‘zing xotirjamlik ber.

Oxirzamon belgisin,
Senga bir-bir bildiray.
Kitoblarda bitilgan,
Inonmasang, keltiray.

Zamon bunday bo‘lmog‘i,
Yerga fasod to‘lmog‘i.

Turli balolar kelur —
Shudir buning javobi.

Halollikni o‘ylamay,
Sutga qilar savdoni.
Isrof qilib topganin,
Yurtda qilar g‘avg‘oni.

Zir titradi qaro yer,
Asov otdek hurkidi,
Ko‘p sinovlar keltirdi,
Bandalarning shumligi.

Musaffodir bu osmon,
Sanoqsiz million yulduz.
Quyosh oyga ergashar,
Tun ketsa,
kelar kunduz.

Aytib o‘tdim talay so‘z,
Oxir zamon haqida.
Silkinadi qaro yer,
Cho‘chiganday uyquda.

Bo‘ldi, bas qil so‘zingni,
Ko‘p so‘z aytib netarsan?
Mulla Qilich bechora,
Bir kun sen ham ketarsan.

Nasihating qo‘y bunda,
Avval o‘zingga boqqin.
O‘zingni taftish qilgin,
Keyin nog‘ora qoqqin.

O‘tganlarning nechasin
Qabrga keldik joylab.

Ibrat ol, ko‘zingni och,
Imon kamarin bog‘lab.

Qancha g‘azal-bayt bitding,
Shuhrat ortidan chopib.
Qayga ketib borasan
Ne yo‘qotib, ne topib.

O‘sdim Qo‘chqor bag‘rida,
Qirg‘iz zuvalasiman.
Temir Po‘lat otimdir,
Bishkekning bolasiman.

El-u yurtim cherikchi,
Shu yerda so‘zim bitsin.
To‘rakeldi bobomni
Xudoyim rahmat etsin!

BARPI ALIQULOV

(1884–1949)

Barpi (Farfi) Aliqulov Suzoq tumanida tug'ilgan. Kichkinaligidan boylarga malaylikka berilib, ularning molini boqib kun o'tkazadi.

Barpining oqin bo'lishida otasining o'rni katta. Oqinning eslashicha, "Zolim xonlar zulmi" she'rini otasidan o'rgangan. Uning "Oqqan suv", "Mirzayim", "Dilbarim", "Buzuqi", "Aldoqchi eshon", "Madali hojiga" kabi ijod namunalari xalq orasida mashhur. O'ttiz oltiga kirganda bolaligida boshiga tushgan azoblar tufayli oqinning ko'zi ko'rmay qoladi. Shunday bo'lsa-da, Barpi umrining oxirigacha kuylashdan to'xtamadi.

DO'NDIQCHAM

Yuzning ko'rki nur bilan,
Belbog'ning ko'rki er bilan.
Suyukli do'ndiq ta'rifi
Olamga ketgay she'r bilan.

Dilga armon bo'ldi bu
Qashshoqlikning jafosi,
Dardga darmon bo'ldi lek
Oshiqlikning havosi.
Shoyad she'r-la ushalsa
Oshiqning muddaosi.

Majnuningman, Do'ndiqcham,
Qo'rqmaysanmi uvoldan?
Kuylamasa madhingni
Barpi chiqmas xumordan.

Ikki labing atirgul
G‘unchasiday, Do‘ndiqcham.
Kuygan yurak do‘zaxning
Tanchasiday, Do‘ndiqcham.

Qora zulfing, Do‘ndig‘im,
Marg‘ilonning ipagi,
Bir o‘pichdan ushalib
Men tashnaning tilagi,
Gulzor bo‘lsin oshiqning
Sahrodagi yuragi.

O‘timlisan O‘zganning
Guruchiday, Do‘ndiqcham.
Sadaf tishing zargarning
Kulishiday, Do‘ndiqcham.
Mayinliging yo‘rg‘aning
Yurishiday, Do‘ndiqcham.

O‘ttiz tishing batartib
Mohir usta terganday,
Quchog‘imga kirsang-chi,
Begona deb seskanmay.
Nozik sirim aytishga
Armondaman kez kelmay.

Mushkul ekan olamdan
Sendayni boshqa topmog‘im.
Hamisha senda xayolim,
Azobga solding, oppog‘im.

Yoshlikning ishq-qo‘rini
O‘tkinchi hisga sochmagin.
Jonim sadqa mehringga,
Gadoy deb mendan qochmagin.

Chinnidagi bol — senga,
Tushib qolgan pashshaman.
O‘zing shafqat qilmasang,
Ajalim shunda, yashamam.
O‘ttiz ikki muchamni
Bo‘yningga bir bor taqqani
Marjon qilib ter desam,
Bo‘z o‘g‘lonlar armoni.
Egizak, nozik olmangning
Birini menga ber desam.
Tinglab zora zorimni,
Qiyo boqib, ey pari,
Savobga qol bir bora,
Go‘zallarning qaysari.
Ishqing olov, men unda
Tokaygacha yonaman?
Muruvvatingga tashna
Bo‘zlab yurgan bolaman.
Oy nurida balqqanday
Sadaf to‘la tomog‘ing,
Ketmas o‘ng-u tushimdan
Harir ko‘ylak ko‘targan
Bedana tumshuq “momog‘ing”.
Aytsam ado bo‘lmaydi
Ta’rifingga “ertagim”.
Xushtorlaring zavoli
Kaptartumshuq qo‘sh siynang.
Ko‘knoriman — xayoldan
Dushvor bo‘ldi ketmaging.
Suruv-suruv qo‘y bermay,
Dovrug‘i zo‘r to‘y bermay,
Tortiq qilsam o‘zimni,
Olarmisan, Do‘ndiqcham?
Ishq dardiga bir davo
Toparmisan, Do‘ndiqcham?

Yoki gadoyvachcha deb,
Tonarmisan, Do‘ndiqcham?

Beray desam molim yo‘q,
Mol topishga holim yo‘q,
Faqirlikning dastidan
Sirtim yalin, ichim cho‘g‘.
Taqdir azal shulmikin?
Bilolmadim ko‘p o‘ylab.
Azobingga qoyilman,
Bulutni yorgan oy misol
Qiyo boqsang bir bo‘ylab.

Bir men emas, qanchalar
Bilsang shaydo o‘zingga.
Indallosin aytayin,
Quloq solsang so‘zimga.
Oshiqlaring turfa rang —
Kibri baland boyi bor.
Sadoqatli yupunning
Qashshoq degan “loyi” bor.
Qashshog‘ida pok yurak,
Noshudda ham pok tilak.
Zari bordan zo‘rlik kut,
Vafo emas, xo‘rlik kut.
Yetti o‘lchab, bir kesib,
Munosibing peshin tut.

SUVGA MADHIYA

Yer ustiga choyshab — qum,
Qumdan qaynab chiqqan suv
Bobodehqon hamkori.
Ona zamin tuhfasi
Yer qa’ridan yaltillab
Yayrab chiqqan oqqan suv.

Buloq bo‘lib tog‘lardan
Qaynab chiqqan oqqan suv.
Jon bag‘ishlab tuproqqa,
Sizib chiqqan oqqan suv.
Mashaqqat-la yer bag‘rin
Buzib chiqqan oqqan suv.
Qirdan pastga chopganda
Shovullagan oqqan suv.
Ko‘zni olib jilvasi,
“Lovullagan” oqqan suv.
Metinday kesakni ham
Mayda qilgan oqqan suv.
Odamzodning bariga
Foyda qilgan oqqan suv.
Dala-tuzni oralab,
Birday ketgan oqqan suv.
Horiganin, tolganin
Bilmay ketgan oqqan suv.
Yaralganda to bu kun
To‘kilmagan ohori.

Ming chaqirim yo‘l bossa,
Qurimaydi madori.
Suvdan olur hayotni
Barcha giyoh, ziroat.
Jami jonzotga birday
Bag‘ishlaydi u rohat.
Tashna qonib bir ichsa,
Maza qilgan oqqan suv.
Makruh bo‘lsa qay muchang,
Toza qilgan oqqan suv.
Simob bilan egizday
Silliqliging,
oqqan suv.
Bosar ko‘zgu o‘rnini
Tiniqliging, oqqan suv.

Chorva ichib to‘rt fasl,
Semiz bo‘lgan oqqan suv.
Tomchilardan yig‘ilib,
Dengiz bo‘lgan oqqan suv.
Mavjudotga benazir
Sendan foyda, oqqan suv.
Serxosiyat, mo‘jiza
Senday qayda, oqqan suv?

DILBARIM

Andijon bilan Marg‘ilon
Shoshilib ko‘p bor qatnadim.
Shaydoligim cheki yo‘q,
Dilbarim, seni maqtadim.
Tortavergach dil senga,
Hech chorasin topmadim.

Razm solib o‘ylasam,
Kimga o‘xshaysan, Dilbarim?
Nurin sochgan olamga
Kunga o‘xshaysan, Dilbarim.
Ko‘rki bo‘lgan bahorning
Gulga o‘xshaysan, Dilbarim.

Badaning oq, dog‘i yo‘q,
Qorga o‘xshaysan, Dilbarim.
So‘zing ta’mi bo‘lakcha,
Bolga o‘xshaysan, Dilbarim.
Tunni kunday yoritgan
Oyga o‘xshaysan, Dilbarim.
Qora soching qulf urib,
Tug‘ga o‘xshaysan, Dilbarim.
Qoyadan tushgan tip-tiniq
Suvga o‘xshaysan, Dilbarim.

Oq yuzingdan nur tomgan
Senday bo‘lsin olganim.
Sendayga duch kelmasam,
Dilda ketar armonim.

Gavhar munchoq misoli
Ko‘zingni aytsam yarashar.
Bir orombaxsh alladek
So‘zingni aytsam yarashar.

Mashinada chok tikkan
Qo‘lingni aytsam yarashar.
Sarvqomat, xipcha bel
Bo‘yingni aytsam yarashar.

Shuning uchun yigitlar,
Dilbarjon, seni talashar.
O‘tib qolsang ko‘chadan,
Ko‘z uzolmay qarashar.

Salqin yaylov, keng o‘tloq,
Kelarmisan, Dilbarim?
Egizday bo‘lib men bilan
Yurarmisan, Dilbarim.

Salqin yaylov Saribel,
Kel, yayraylik, Dilbarim.
Ahdni buzmay yashashga
Bel boylaylik, Dilbarim.

Qurbon Sattor tarjimalari

AHILLIK

Ahilligi bor elning
Tole-baxti ochilar.
Ahilligi yo‘q elning
Topgani yelga sochilar.

Ahilligi bor elning
Yurtida gul ochadi.
Ahilligi yo‘q elning
Eli har yon qochadi.

Ahilligi bor elda
Yosh-qarisi inoqdir.
Ahilligi yo‘q elda
Turmush azob, qiynoqdir.

Ahilligi bor elning
Bug‘doy noni ko‘p bo‘lar.
Ahilligi yo‘q elning
Yov, dushmoni ko‘p bo‘lar.

Ahilligi bor elning
Durkun o‘sar bolasi.
Ahilligi yo‘q elning
Oshib-toshar balosi.

Ahilligi bor elning
Odil bo‘lar ulug‘i.
Ahilligi yo‘q elning
Ichidan chiqar buzug‘i.

Ahilligi bor elning
O‘git berar qarisi.
Ahilligi yo‘q elning
To‘zib qochar barisi.

Ahilligi bor elda
Terib so‘z aytar chechasi.
Ahilligi yo‘q elda
Baloga qolar nechasi.

Ahilligi bor elning
Yuzi issiq istara.

Ahilligi yo‘q elning
Og‘zi qiyshiq, masxara.

Ahilligi bor elda
Pazanda bo‘lar ayoli.
Ahilligi yo‘q elda
Qiz topmaysan hayoli.

Ahil-inoq el mudom,
Dushmanga tekkan o‘q bo‘lar.
Ahilligi yo‘q el-chi,
Tirqirab qochib yo‘q bo‘lar.

Ahil el doim birikar,
Ahil elning baxti bor.
Noahil el yo‘q bo‘lar,
Bir-biridan farqi bor...

* * *

Yer ko‘karmas beyomg‘ir,
Kun oltin nur sochmasa,
Go‘zallik qaydan zohir?..

O‘rmon kessang — suv bo‘lmas,
Suvsiz ko‘lda — quv bo‘lmas,
Peshonada yo‘q axir,
Badfe’l kas totuv bo‘lmas.

Boshqarib turgan xoni bor,
Xonning xon siyog‘i bor.
Ahil-inoq el tuzdi,
O‘rgansa bo‘lar yog‘i bor.

Manov qaysi desangiz,
Bu qumursqa jonivor!..
To‘p-g‘uj bo‘lib yashaydi,
Shuginaning tili bor,

Tegsang nogoh iniga
To‘planib quvar fe’li bor!..

Endi aytay, bilib ol,
Ari degan balodir:
Bunga hamma guvohdir —
Birin o‘ldirsang bormi,
Galalashib quvodir!..

Dunyo sirin kashf etib
Bergan kitob Qur’ondir.
O‘n sakkiz ming olamni
Yaratgan haq Yazdondir.

Muhit ichra to‘lqinning
Qudratiga poyon yo‘q.
Yaxshilikka yetmagay,
Qay bandada imon yo‘q!..

Odamizod tanasi
Gil — tuproqdan yaralgan,
Sekin-asta ko‘payib,
Har tarafga taralgan.

So‘yilgan mol halol bo‘p,
So‘ymasa — harom bo‘lgay.
Yaxshi ish yoddan chiqar,
Chiqmasa yomon bo‘lgay.

Tole, taqdir degan bor,
Peshonadan ko‘rarsan.
Neki yozsa — chora yo‘q,
Yig‘lab-yig‘lab ko‘narsan.

Joning og‘risa agar,
Senga xo‘rlik bo‘lmay, ne?
Qoraniyat kimsaning
Ishi zo‘rlik bo‘lmay, ne?

Yuz o‘n to‘rt ming payg‘ambar
Bari o‘tdi dunyodan.
Kim qoldi tirik, illo?
Barin yutib, yo‘q etgan —
Bu dunyoyi bevafo!..

Kun bilan Tun almashib,
O‘tib kelgan emasmi?
Karvon kabi bu umr
Ko‘chib kelgan emasmi?

Emgak qilib odamlar,
Epin topqon emasmi?
Og‘zin ochib tanballar,
Quruq chopqon emasmi?
Yer yuziga yolg‘iz Kun
Nurin sochqon emasmi?..

Do‘zax belgisin aytay —
Muzlatib sovuq qish keldi,
Do‘zaxdan shu bir belgi!..
Jannatning belgisi ne?
Yozda yashil gul berdi,
Jannatdan bu bir belgi!..

Men ojizning arzi bor,
Aytib beray, chirog‘im,
Dinning qancha farzi bor:
So‘rab olgin, jon bolam,
O‘rgangulik tarzing bor.

Til chopag‘on, o‘y — duldul,
Uqib tur, qo‘yib ko‘ngil.
Qirqtadir farzning bari,
O‘rgangil aztahidil:

Besh farz bordir islomda,
Shunday bitmish kalomda.
Eng avvali imondir,
Ya'niki, begumondir.

Ikkinchisi namozdir —
Haq egamga dil rozdir.
Shaytonga yo'l bermasdan,
Tugal o'qisang, sozdir!..

Uchinchisi — bil, zakot,
Qo'lga kelsin barakot.
Desang agar molingning
Qirqdan birin ber isqot.

To'rtinchi — ramazonda
Har tong turib azonda,
Bir oy sabring chiniqtir,
Fikr-o'ying tiniqtir.

Beshinchisi — hojilik,
Tavof qilgil Ka'bani,
Topsang yo'lga xarjilik.

Imonda bor yetti farz:
Avvalgisi — benishon
Olloh birdir, deb ishon!

Ikkinchisi — farishta
(Yordamchi bo'lar har ishda),
Uchinchi galda kitob —
Qur'on va boshqa suhof.

Rasullar, nabilar haq,
Taqdir, haq qiyomat haq,
Bunga dildan inonsang,
Imoning salomat, haq.

Qatoridan hech buzma,
O‘n ikki farz namozda.
Avval farzi ilmda,
Berilgin chin dilingdan.

Amri ma’ruf ham bir farz,
Bajarmasang bularni,
Bo‘yningdan uzilmas qarz.

Taomda ikki farz bor,
Bilmasang — taarriz bor,
Halol bilan haromni
Yaxshi farqlab tanish bor!

Kelib yetdik g‘usulg‘a,
Uchta farz bordir bunda.

Tanib ol, deb aytarmiz —
Tayammumda to‘rt farz.

Qirqta farz bo‘ldi tamom,
Bilib olsin xos-u om!..

Zuhriddin Isomiddinov tarjimalari

GUL QIZLAR

Opa-singil — gul qizlar,
Eslasam yurak xo‘p ezilar.
Elimda ikki bola bor,
Ekib qo‘ygan terakday,
Ikkovin bo‘yi baravar.
Xalqimda ikki bola bor,
Yonimda o‘sgan qayinday,
Ozg‘in bo‘yi baravar.
Biring — tog‘ning havosi
Biring — qizlar oyimi.
Biring — qizning nurlisi,
Biring — qizning suluvi.
Biring — qizning kattasi,
Biring — qizning tinig‘i.
Biring — dutor, biring — qil[1].
Biringga aytsam, biring bil.
Biring — yoqut, biring — la’l,
Biring — chinor, biring — bog‘,
Qo‘biz chertsam, ixcham kel.
Biring — bulbul, biring — shoh.
Biring — novvot, biring — qand,
Ikkovingdan kuydim naqd.
Biring — g‘uncha, biring — gul,
Biring — dunyo, biring — dur.
Biring — chilim, biring — nay,
Biring — yulduz, biring — oy,
Ikkovingga ko‘nglim joy.
Biring — o‘rdak, biring — g‘oz,
Biring — o‘lan, biring — soz,

[1] **Qil**[1] — tor ma’nosida.

Kel bo‘laylik bo‘yin bog‘,
Buncha qilding menga noz?
Biring — qizning shoiri,
Biring — qizning boyiri.
Biring — usta uzugi,
Biring — qizning tuzigi.
Opa-singil, ikki qiz,
Sog‘intirasiz buncha siz?
Elingda kuyib yurgan — biz.
Opa-singil ergashib,
Birin-biri yelpishib,
To‘yga kelding, gul qizlar,
Erta ketib, kech kelguchi
Yo‘lga yurding, gul qizlar.
Opa-singil o‘xshashib,
Kuyladim ko‘ngil bo‘shashib.
Juft kelishgan o‘zinglar,
Barpiga dori so‘zinglar.
Kuylab o‘tsam, eslashib,
Tikilgan cho‘lpon ko‘zinglar.

YAXSHI QIZ

Sayragan yozgi bulbul —
Gulning ko‘rki.
Yayrab yashnagan qiz —
Uyning ko‘rki.
Yozda chayqalgan o‘t —
Do‘ngning ko‘rki.
Suluv qiz suqlantirgan —
To‘rning ko‘rki.
Doliga chirmalashgan
Qora sochi.
Manglayiga yarashiqli,
Qalam qoshi.

Yaxshi qiz — yoz tongiday,
Uyning quti.
Anqigan guldastaday —
Qizning hidi.
Zumradday yaltiragan
Qator tishi.
O‘xshatib igna tikish —
Uning ishi.
Rahmat aytib ketar
Ko‘rgan kishi.
Oq yuziga yarashiqli
Qo‘sha xoli.
Ko‘z uqalar ko‘rib qolgan
Jonning bari:
Bo‘ladi deb, nasib qilsa
Kimning yori?
O‘ymoqday[1] og‘zin qara
Mayin kulgan,
Cho‘lponday ko‘zin qara
Tongda yongan.
Bir kulsa, suyunchiga
Berar edim,
Ketsa-da umr bo‘yi
Topgan dunyom.
Yaxshi qiz ota-onaning
Rizq-ro‘zisi,
Hayotining tiniq, toza
Uyutqisi!
Uqqanlar yolg‘on demas
She’rimni shu.

[1] **O‘ymoq** — angishvona.

OLATOV KO‘RKAM BO‘LMAS, EL BO‘LMASA

Oqqan suv to‘g‘ri oqmas, soy bo‘lmasa,
Qorong‘i yorug‘ bo‘lmas, oy bo‘lmasa.
Chiroqda pilik yonmas, moy bo‘lmasa,
Dalaning ko‘rki qayda, gul bo‘lmasa?
Quvvat olib gul ochilmas, kun bo‘lmasa,
Oqinlar kuylay olmas, til bo‘lmasa?
Dushmaning dushmanmi, sur bo‘lmasa?
Imorat chiroy ochmas, sir bo‘lmasa.
Qo‘bizdan ovoz chiqmas, tor bo‘lmasa,
El ichida sevgi bo‘lmas, kuy bo‘lmasa.
Ayolning ko‘rki qayda, soch bo‘lmasa,
Tog‘ning haybati oz, tosh bo‘lmasa.
Uzoqqa xabar yetmas, xat bo‘lmasa,
Yigitning nomi chiqmas, mard bo‘lmasa.
Oq bet qizil bo‘lmas, nur bo‘lmasa,
Savdoning ishi yurmas, pul bo‘lmasa.
Chorvaning ko‘rki qayda, qo‘y bo‘lmasa,
Odamning sini qayda, bo‘y bo‘lmasa.
Uchar qush qo‘lga tushmas, to‘r bo‘lmasa,
Har kim ham adashadi, yo‘l bo‘lmasa.
Tuyalarga yuk yuklanmas, do‘ng bo‘lmasa,
Yalang‘och yura olmassan, to‘n bo‘lmasa.
Ipaklar nedan bo‘lar, tut bo‘lmasa,
Qurut, moy nedan bo‘lar, sut bo‘lmasa?
Ovqatga ta’m kirmas, tuz bo‘lmasa,
Mehnatkash tinim bilmas, ish bo‘lmasa.
Non chaynab yutolmassan, tish bo‘lmasa,
Polvonni dong‘i chiqmas, kuch bo‘lmasa.
Ko‘zlagan maqsadga yetolmassan,
Qo‘lingda barcha yarog‘ but bo‘lmasa.
Ariqning ko‘rki bo‘lmas, tol bo‘lmasa,
Chorvaning ko‘rki bo‘lmas, mol bo‘lmasa,
Suluvning ko‘rki bo‘lmas, xol bo‘lmasa.

O‘rdak, g‘oz qayga qo‘nar, ko‘l bo‘lmasa?
Mevali daraxt bo‘lmas, cho‘l bo‘lmasa.
Archaning soyasi yo‘q, shox bo‘lmasa,
Bulbul qayda sayrar, bog‘ bo‘lmasa?
Daryolar to‘lib,
toshmas, sel bo‘lmasa,
Arg‘umoq ot horimas, bel bo‘lmasa.
Dehqonga hosil qayda, yer bo‘lmasa,
Ola tov ko‘rkam bo‘lmas, el bo‘lmasa.

QORA KO‘Z

Kamaring qora qunduzdan,
Urug‘ing Bo‘o‘bek Munduzdan,
Ko‘zing tiniq, Qora ko‘z,
Osmonda cho‘lpon yulduzdan.
O‘zing tiniq, Qora ko‘z,
Suv olasan hovuzdan,
So‘zing shirin mayizdan.
Suv olgan yering Toshbuloq,
Toza bo‘ying gurkirab.
Gurkiragan bo‘y sizniki,
Kuygan yurak bizniki.
Gurkirashing qunduzning
Bolasiday Qora ko‘z.
Xurmo, o‘rikning ichida
Donasiday, Qora ko‘z.
Ochilishing qizg‘aldoq
Lolasiday, Qora ko‘z.
Yuzing yorug‘ chiroqdan,
Bezillab kuylayman yiroqdan.
Sirg‘alaring tilladan,
Dog‘ingda kuyar xiyla odam.
Suluv juvon ekansan,
Nozlanib qo‘yarmikansan?

Yaxshi juvon ekansan,
Jonlatib qo‘yarmikansan?
Kuylatib yurib kishini
Qaqshatib qo‘yarmikansan?
Suluvning hipcha beli bor,
Suqlanib qo‘yar yeri bor.
Yaxshining xipcha beli bor,
Javdiratar yeri bor.
Jaydari kelin, Qora ko‘z,
Har kimning sizda o‘yi bor.
Yigitning ichin yondirgan
Oq kiyikday bo‘yi bor.
Nozlanib yurib, sollanib,
Ermak eding, Qora ko‘z.
Va’dangga kechikmay,
Kelar eding, Qora ko‘z,
Va’dangga sodiq qolib,
Turasanmi, Qora ko‘z?
Yo o‘ynatib bo‘yningni
Burasanmi, Qora ko‘z?

OQAR SUV

Bilq etmas dunyo chin kema,
Hammamizga yer ona.
Yer ona teran, kim bo‘lgan?
Yerdan chiqqan kon bo‘lgan.
Yer yuziga bitgan qum,
Qumdan o‘ynab chiqqan suv.
Barakali dehqon suv —
Tug‘ilgan yerning bolasi.
Tarovatin qara-chi.
Yaltirab yerning qo‘ynidan,
Yoyilib chiqqan oqar suv.
Buloq bo‘lib tog‘lardan,
Qaynab chiqqan oqar suv.

Tuproqni namlatib,
Suzib chiqqan oqar suv.
Yer ostidan ag‘darib,
Buzib chiqqan oqar suv.
Qiyadan turib, past yoqqa
Sharqiragan oqar suv.
Oqib tursa oltinday,
Yarqiragan oqar suv,
Jilg‘adan tushsa, qo‘shig‘i
Gul burkagan oqar suv.
Kesak yotsa eritib,
Mayda qilgan oqar suv.
Turli elga belgili
Foyda qilgan oqar suv.
Bosh-oyog‘in bilmaysan,
Birday ketgan oqar suv.
Charchaganin, tolganin
Bilmaydigan oqar suv.
Eski bo‘lib bir yeri
Suzilmagan oqar suv.
Yuz yo‘l yursa bir yeri,
Uzilmagan oqar suv.
Nam yetgan yerdan giyoh o‘sib,
Durkuratgan oqar suv.
Havoni surib, yoz kirib,
Gurkiratgan oqar suv.
Oqar suv elga joriya
Yig‘ilsa bo‘lgan dariyo.
El sug‘orib ko‘klatgan,
Ziroatni oqar suv.
Yer ustidagi jonlarning
Bu rohati oqar suv.
Har kim ichsa quvonib,
Maza qilgan oqar suv.
Makruh bo‘lsa bir yering.
Toza qilgan oqar suv.

Simob bilan o‘xshashsan,
Silliqliging, oqar suv.
Odamning yuzi ko‘ringan
Tiniqliging, oqar suv.
Yetgan yering guliston —
Shahar bo‘lgan, oqar suv.
Kimga kerak shu onda
Tayyor bo‘lgan, oqar suv.
Yurgan yering obodda
Shirinliging, oqar suv.
Ixtiyorin, ko‘nglini,
Yerga bergan oqar suv.
Xosiyatin ko‘rsatib,
Elga bergan oqar suv,
Yozi-qishi mol ichib,
Semiz bo‘lgan oqar suv.
Borgan sayin ko‘payib,
Dengiz bo‘lgan oqar suv.
Jiyagida zakanlar
O‘ynab yurgan oqar suv.
O‘rdak, churrak qushlari
Suzib yurgan oqar suv.
Barchamizga foyda deb,
O‘ylab yurgan oqar suv.
Yozda kerak, qish kerak
Sendan foyda, oqar suv.
Xosiyati boshqacha,
Sendayi qayda, oqar suv?
Bug‘ingdan bulut ichgan-u,
Yomg‘ir bo‘lgan, oqar suv.
Bu xizmati el uchun
Manzur bo‘lgan, oqar suv.
Har shohida meva solgan
Anjir bitgan oqar suv.
Xursand bo‘lib el yegan
Xurmo bitgan oqar suv.

Yer onadan ko‘payib,
Shunda bitgan oqar suv.
Yumshoq bitib, ezilgan
Uzum bitgan oqar suv.
Aniq meva tozasi
Anor bitgan oqar suv.
Turli-tuman mevadan
Talay bitgan oqar suv.
O‘zanli soyning bo‘yida
O‘rik bitgan oqar suv.
Oqar suv, senda sharofat:
Oq olma bilan nok bitgan,
Ko‘karib-o‘sib bog‘ bitgan.
Ko‘p foydangdan, oqar suv,
Ko‘kargan daraxt g‘aynoli,
Yarashgan bog‘ning maydoni.
Oq paxta bitgan jaydari.
Bo‘zargan cho‘lda ko‘karib,
Asil guruch ko‘payib,
Sholi bitgan oqar suv.
Tarvuz, qovun palakli
Yana bitgan oqar suv.
Arpa, bug‘doy to‘plagan,
Dehqonlar hosil yig‘ishgan,
Ichganning bari yayragan,
Rahmat senga, oqar suv.
Yer onadan tarqalib,
Bo‘ldi rohat, oqar suv.
So‘zlashganing kim bilan?
O‘rtoqliging kun bilan?
Kun o‘rtog‘ing eritar,
Kun tegmas yerning muzini.
Oy o‘rtog‘ing boqadi,
Oqar suv, sening yuzingga.
Ko‘rganning ko‘nglin ko‘tarish,
Sening ko‘rking, oqar suv.

O‘zing bilan bir yurgan
Sening erking, oqar suv.
Maxluqotning hammasin
Qoni sensan, oqar suv.
Hayvonot-u qushlarning
Joni sensan, oqar suv.
Yer ustida mevani
Sug‘organ sen, oqar suv.
Miroblar ariq ulagan,
Dehqonlar kelib so‘ragan,
Teng sug‘organ oqar suv.
Qiya tog‘ning erki yo‘q,
El bo‘lmasang, oqar suv.
Hech kim kunin ko‘rolmas,
Sen bo‘lmasang, oqar suv.
Sensiz daraxt ko‘karmas,
Sensiz meva ko‘paymas.
Yer ustida giyoh-cho‘p,
Tomir olib mavjlanar,
Sening bilan, oqar suv.
Sen bo‘lmasang bir kunda
Qurib ketar, oqar suv.
Burgut uchmas olisga
Qaqshab o‘lar, oqar suv.
Jo‘yakda daraxt ko‘kargan,
Sen yaralding, oqar suv.
Qimirlagan jonlarga
Bir yaralding, oqar suv.
Mo‘ltirab oqar bo‘lakcha,
Tushmay o‘tgan odam yo‘q.
Har kuni sendan bir qultum
Ichmay o‘tgan kishi yo‘q,
Eng foydali oqar suv.
Yaratilmish joni — sen
Yaratilgan qoni — sen.

Bu dunyoda tuganmas,
Umring seni, oqar suv.
Osmon, yerga belgili
Shu davroning, oqar suv.
Dunyoda eng zarur,
To‘rt tarovat, oqar suv.
To‘rtalangda barobar
Bor oqibat, oqar suv.
Burum-burum yer bo‘lsa,
Burilib oqar oqar suv.
Qo‘l-oyog‘i bo‘lmasdan
Jilib oqar oqar suv.
Gurkirab oqar oqar suv,
Guldirab oqar to‘lqindan,
Suvchilar o‘tar, suzdirib,
Oqar suvning ma’nosin,
Yozib bordim tiziltib.
Labingdan qizlar suv olgan,
(Orqaga sochi tashlangan.)
To‘lqiningga quvongan.
Tushunsam senday bo‘lmagan,
Turli yoshlar mudom bor
Oqimingda yurar o‘ynagan.
Aqilimni ishlatsam,
Har kishi obdan o‘ylagan.
Oqar yering ariqdan
Burum-burum, oqar suv.
Yer yuzida yaralgan,
Elburutdan, oqar suv.
Elga rohat ko‘rsatgan
Sening nuring, oqar suv.
Ado bo‘lmas oqar suv,
Har qancha kuylab, men aytsam.
Chanqog‘imni bosasan,
Uzoqdan suvsab kelayotsam.

Tabiat seni yaratgan,
"Dunyoga kerak suvsan" deb.
"Dunyo turguncha tursin,
Uzoq yashab yursin" deb,
Tobiga keltirib maqtadim,
Yoyilib kuylab yotganim.
Shirinliging ta'riflab,
Ezilib kuylab yotganim.

BOLALARGA NASIHAT

Rizqingizni bekorga
To'kmangizlar, bolalar,
Haqorat qilib birovni
So'kmangizlar, bolalar.

Burunni baland ko'tarib,
Gerdaymanglar, bolalar.
Aql yurgizib bir ishni
Anglangizlar, bolalar.

Ko'ngli toza teng-tushning
Yonida bo'ling, bolalar.
Birovning bo'lsa, buyumin
Olmangizlar, bolalar.

Yomon otli bo'lib, la'natga
Qolmangizlar, bolalar.
Minib turgan otingni
Chopmangizlar, bolalar.

Bilmasdan so'ylab qo'yganni,
Qopmangizlar, bolalar.
Uyni tashlab, dalada
Yotmangizlar, bolalar.

Yolg‘on so‘zni “rost” — deb,
Aytmangizlar, bolalar.
Birovning “to‘ni yaxshi” deb,
Kiymangizlar, bolalar.

Birovning “oti semiz” — deb,
Minmangizlar, bolalar.
Odobingiz foydasin
O‘ylangizlar, bolalar.

Gap bermas, mahmadona
Bo‘lmangizlar, bolalar.
Ot minsangiz, bir tekis
To‘xtatinglar, bolalar.

Ilm-bilim olishga,
O‘qingizlar, bolalar.
Yosh bulbulday un berib,
Sayrangizlar, bolalar.

Keng zamonda,
teng yayrab,
O‘ynangizlar, bolalar.
Totuvlik, tenglik bo‘lganin
O‘ylangizlar, bolalar.

Birovning yo‘lin odobsiz
To‘smangizlar, bolalar.
Jaladay yog‘ib o‘q tushsa,
Qo‘rqmangizlar, bolalar.

Tog‘dan ko‘chgan tosh misol
Guldirangiz, bolalar.
Kundan kunga toblanib
Yetilinglar, bolalar.

Dushmaningga sir bermay,
Mahkam bo‘ling, bolalar.
Otadigan miltiqda
Mashq qilinglar, bolalar.

Dushmanni yerga kirgizib,
Tosh qilinglar, bolalar.
O‘tganlarni har doim,
Yod olinglar, bolalar.

Bajarmasdan ishingizni,
Ketmangizlar, bolalar.
Kurashganga qo‘l bermay,
Qo‘ysam denglar, bolalar.

Qora ko‘ngil dushmanni
Solsam denglar, bolalar.
Ota-ona so‘zidan
Chiqmas bo‘ling, bolalar.
Ko‘pchilikka yaxshilik
Ancha qiling, bolalar.

ATAY O‘G‘O‘NBAYEV

(1900–1949)

Atay O‘g‘o‘nbayev Tolasda tug‘ilgan. Qirg‘iz madaniyatida asosan mohir sozanda va bastakor sifatida nom qoldirgan. Lirik she’rlar ham mashq qilgan. O‘zi to‘qigan she’rlarni turli obraz-larga kirib ijro etgan. “Sadoq (kamon ipi) nolasi” kabi bir necha dramatik asarlar muallifi. Qirg‘iziston xalq artisti. Toshkenda bir necha bor bo‘lib, konsertlar bergan.

KUYDIM CHO‘G‘

Kuydimgina, kuydim, kuydim cho‘g‘,
Kuydimgina desam tutun yo‘q.
Yuragimning boshida,
Kuydim, ey, jo‘xoriday butun yo‘q.

Qon-yaylovgina degan baland bel, ey,
O‘shanga qor yog‘sa, esar muzday yel.
Qayirma yoqa, qora ko‘z,
Kuydim, aa, qadrimni bilsang o‘zing kel.

Qo‘sh terakdaygina sollana,
Yurasan sen,
Oq ro‘mol solib, turlanib.
Yo‘lingni topib yeta olmay,
Kuydim, aa,
Bo‘zlagan toyday o‘nglanib.

QOSIM TINISTANOV

(1901–1938)

Adib, tilshunos olim, shoir, dramaturg, jamoat arbobi, professor Qosim Tinistanov Issiqko'l bo'yidagi Chirpiqti qishlog'ida tug'ilgan. Dastlab musulmon maktabida, so'ng rus-tuzem maktabida ta'lim olgan. 1916-yilda qo'zg'olon ko'targan el bilan birga Xitoyda qochoqlikda yashagan. 1919–1920-yillarda Toshkentda maorif institutida o'qigan. Talaba chog'ida qirg'iz tilining birinchi darsligi — arab alifbosidagi "O'quv kitobi"ni yozgan.

Ilk qirg'iz gazetasi — Toshkentda chop etilgan "Erkin too" (Ozod tog')ning birinchi muharriri bo'lgan, o'ttizinchi yillar avvalida chop ettirgan o'nga yaqin ilmiy kitoblari bilan hozirgi qirg'iz tilshunosligiga asos solgan, "Manas" eposini ilmiy o'rganishni boshlab bergan.

"Burjua millatchisi" deya qoralanib, 1938-yilda otib tashlangan. Issiqko'l davlat universiteti va boshqa madaniy muassasalar uning nomida.

TONG

Yarqirab ufq tomondan oqardi tong,
Uyg'ondi uyqusidan ming turfa jon.
Qora tun zulmatidan qutulgan-chun,
Suyunib jon-jonivor qiladi shon.

Oqardi kun chiqishdan erkning tongi,
Kelmoqda mehnatkashning unar oni.
Oqarib otgan tongga salom berib,
Ta'zimda tabiatning ming bir joni.

Oppoq tong chor-atrofni nurga ko'mdi,
Qurigan o't-o'lanlar qayta undi.

Olamga kulib-chaqnab, baxt ulashib,
Oftobim quvib soldi qora tunni.

Olqishla, elim mening, tong shafag‘in,
Nurlarin ko‘zingga surt, yotma tag‘in.
Erkinlik madhiyasin kuylar bulbul,
Avayla sen ham endi hurlik chog‘in.

JANG‘IL MIRZA

(doston)

1

Qadim-qadim o‘tgan zamon, olis zamon,
Bir kun kechgan, bir kunki, hur, dorulamon.

Ul kun haqda qariyalar aytgani on,
O‘g‘lonlarning yuraklari bo‘lardi qon.

Qo‘mizining uch torini tortib tarang,
Aytganida ko‘z yosh soqol yuvmish, qarang.

Ezilmasmi ko‘ngil, agar yosh bo‘lsa ham?!
Erimasmi bag‘ir, agar tosh bo‘lsa ham?!

Biroq buni anglaguvchi kimsa bormi?!
Dardli-dardli nolasiga birov zormi?

Beshta barmoq uchta torni tirnar shoshib,
Sel bo‘lmasmi ko‘zlaridan yoshlar toshib,

Bu bir kuykim, nechuk dilni o‘tda yoqmas?!
Qay toshyurak tinglaganda erib oqmas?!

Kim ham bilar o‘shal kunning qandayligin!
Uning qadri totli shirin jondayligin!

Yo ketdimi oddiy kunday unutilib?
Yo yosh-yalang yuribdimi g‘o‘rlik qilib?

Nega unda chollar ko‘zdan yoshin to‘kar?
Nega unda qo‘miz yurak chokin so‘kar?

O‘tgan kunin kim unutsa qanday yonar?!
Sulton qachon suyagidan kechar, tonar?!

O‘tmishini kim o‘qidi, kimlar uqdi,
Uqmaganlar qilmishidan qora yuqdi.

O‘tmishini uqqan boshqa, ko‘rgan boshqa,
Dog‘ tekkizmay asrab-alqab yurgan boshqa.

Qolganini aytsin, mana, qo‘miz ohi,
Sog‘indim deb, sarg‘aydim deb ingrar gohi.

Ul kun o‘tdi boshqa kunlar kabi shoshib,
Ul kun o‘tdi g‘urub sari ufq oshib.

Qush uchirib bo‘zlab qolgan bir ovchiman,
Taskin izlab, ko‘kka boqib kuylovchiman.

Yozing o‘tib, soya solsa kuzing mahzun,
Qizil gullar sarg‘ayadi, bag‘ring — dilxun.

Qilichini qayrab kelar ayoz asta,
Qishning uzun tunlaridek ko‘ngil xasta.

Xayollaring mahzun-mahzun bo‘lgan kuni,
Eshitilar qulog‘ingga qo‘miz uni.

Qaydan kelar bu nola, deb izlarmiding,
Ergashib mung kuylar tomon bo‘zlarmiding.

Bir kuy yangrab, seni ming bir ko‘yga solar,
Ergashar-u, qayda bo‘lsang topib olar.

Ul kuy shunday ko‘ksing teshar misli bigiz,
O‘tmishingga oyna tutar qurg‘ur qo‘miz.

Tun yarimlar, yuraklarda yo‘q halovat,
O‘tmish tinmay ko‘ngling o‘rtar, yo‘qdir toqat.

Chuvalashib borar boshim uzra o‘ylar,
Qayerdadir mungli-mungli qo‘miz kuylar.

Tashqariga otilaman, yo‘q chorasi,
Osmon xira tortib qolgan oy orasi.

Olachalpoq bulut uzra suzarkan moh,
Ko‘kdan turib xavotirli tashlar nigoh.

Qor-qirovdan oppoq edi tog‘lar boshi,
Kiygandayin kumush chopon soyning toshi.

Ayqash-uyqash izi tulki, bo‘ri bari,
Go‘yo o‘xshash bitilganday taqdirlari.

Qo‘miz sasi meni yo‘lga solgan edi,
Kuydan sarxush edim aqlim olgan edi.

Yuraverdim, yuraverdim yayrab dilim,
Oxir borib bozor bo‘ldi manzillarim.

U kuy chalar boshlarini quyi solib,
O‘zi yig‘lar, yuraklarning dardin olib.

To‘rvasi-yu dastro‘moli, chaqmoq toshi,
O‘tmishidan meros edi chin yo‘ldoshi.

Bir bozorki, har yon chopar olomon ko‘p,
Oldi-sotti, aldov, maqtov qizigan xo‘p.

Tepalikda bir qariya o‘ltirar jim,
Men angladim shu chol edi izlaganim.

Qariyaning aft-angori edi ajib,
Lol qolgancha boqar edim botaajjub.

Chorsisi yo‘q, hech kimsadan tilanmasdi,
O‘tgan-ketgan odamlarga elanmasdi.

Qo‘njidan bir otim nosvoy oldi, otdi,
Qo‘miz chertib, kuylar chaldi, o‘yga botdi.

Goh-gohida nolasiga munglar qo‘shib,
Chalar edi yig‘lab-yig‘lab, jo‘shib-jo‘shib:

“Azal-azal yolg‘onchidir asli bozor,
Kelganlarni avrab olar xo‘p beozor.

Har tarafda teng emasdir bu tarozi,
Kim norozi, kimdir yutib, bo‘ldi rozi”.

Shunday kuylab chol o‘rnidan turdi, ketdi,
Qo‘mizini ting‘irlatib qayga yetdi.

Men ham turdim boqmayin hech o‘ng-u so‘lga,
Qariyaga ergashgancha tushdim yo‘lga.

Chol bozordan chiqdi, yana ancha yurdi.
Tepalikda maysa uzra davra qurdi.

So‘rab-so‘rab kimman qaydan, bilib olib,
Uzun suhbat boshladi so‘ng kuyga solib.

2

O, Olatov, kimlar madhing bayon etgan,
Bu bag‘ringga kimlar kelib, kimlar ketgan.

Kim bu yerda emin-erkin rizqin tergan,
Kimlar etak, yengin yoyib, ko‘krak kergan.

Kim qayishgan, tarqoq elni kim qo‘llagan,
Boshini bir qilib yo‘lga kim yo‘llagan.

Bo‘lsa uning yeri suvdor, eli puldor,
Unda nega tog‘ning oppoq sallasi bor?

Olatovning quchog‘ida yel o‘ynagan,
Yel bilan bir qirg‘iz degan el o‘ynagan.

Rizqin terib boy-boyvuchcha yayrab-yashnab,
Etagi-yu yengin yoyib yurgan yashab.

Ahil-inoq, barakali ushbu elni,
Boshqargandi bir bek mahkam bog‘lab belni.

O, Olatov, o‘tmishlarning cho‘ng sirdoshi,
Qancha bekni ko‘rmadi-ya oppoq boshi.

Bu el tilga olar bo‘lsa bekdan birin,
Eng avvalo, eslaydilar Tog‘ay biyin.

Tog‘ay biyin zamonini aytib ba’zan,
Yengillashar ko‘nglidagi dardlaridan.

Uzoqlardan boshlaganda gapni rosa,
Bo‘libdi, der, jigarbandi aqli raso.

Tog‘aybiyning bolalari ochiq ko‘ngil,
Tulki bilan Uchuka, so‘z so‘ngi — Jang‘il.

Tulki bilan Uchukani har-har zamon
Eslaydilar nelargadir mengzab hamon.

Ular shunday tengsiz edi, yovqur, bebosh,
Ozod, asov qulonlarga edi yo‘ldosh,

Aytsam agar o‘sha mardlar tilaklarin,
Ko‘z-ko‘z qilib kuchga to‘lgan bilaklarin.

Maydon sari chorlar edi shotirlarni,
Manmansirab kelib qolgan botirlarni.

Aytsam o‘shal ikki mardni, sheryurakni,
Eslaydilar yer ko‘rgan ne kift-kurakni.

Metin edi yovga temir bilaklari,
Halollig-u mardlik edi tilaklari.

Lekin bunda o‘z yo‘liga ekan tilak,
Bu dunyoda taqdir bo‘lak, orzu bo‘lak.

Birov dovrug‘ solar bo‘lsa ko‘krak urib,
Qo‘yar ekan bir mard nomin chetga surib.

Ko‘klam kelib mayin-mayin esganda yel,
Yaylovidan ko‘char bo‘ldi ko‘chmanchi el.

Tulki ovda, kelinchagi uyda edi,
Yuk tayyorlab, ko‘chni ortish o‘yda edi.

Kelin sho‘rlik unutdi yo qildi atay:
Etar ekan bolasini safarga shay,

Kelinchaklik izzatini tindirmadi,
Otga avval qaynonasin mindirmadi.

Kelinlikning talabi shul — hushyor bo‘lish,
Kattalarning xizmatiga tayyor bo‘lish.

Qaynona-yu qaynotaga mehri toshar
Bo‘lsa bundan kuyovning ham qadri oshar.

Agar o‘g‘il tug‘gan bo‘lsa kelin bunda,
Obro‘si ham oshar edi kundan kunga.

Ulug‘larni ulug‘lagan ulg‘ayadir,
Ulug‘ ichi qora bo‘lsa, shumg‘iyadir.

Sarbon borar karvonini tog‘ga boshlab,
Karvon borar qizil-alvon shu’la tashlab.

Oldi, orti rangi go‘zal jimir-jimir,
Ortda qolib borar edi adir va qir.

Olis yo‘lni ko‘zlab borar karvon-ku-ya,
Bo‘talog‘in izlab mungli ingrar tuya.

Ko‘z qamashar go‘zallikdan, bu qanday sir,
Qimiz to‘la bog‘langan mesh shildir-shildir.

Peshin Tulki yetoldi o‘z karvoniga
Va bosh egib bordi onasin yoniga.

Ona dedi: “Dilim ranjitdi-ku yomon,
Bolasin ol, xotiningni hayda shu on”.

Tulki hayron, ne ham derdi onasiga,
Xotin ketar chog‘i o‘z uy — xonasiga.

Bosh ko‘tarib sababin ham so‘ramadi,
Hatto bir bor ortiga ham qaramadi.

Shunday qilib yetim qoldi sho‘rlik Tinay,
Ulg‘ayardi yig‘lab-yig‘lab ko‘krak emmay.

Hech kim uloq topmas taqdir uzig‘iga,
Ko‘nmay netsin peshonaning chizig‘iga.

Yolg‘izlikni yor ayladi Tulki bunda,
Firoqida yonar edi yorin kunda.

Uylanmadi kuyib, yonib aza tutdi,
Shu asnoda yilni quvib yillar o‘tdi.

Qanday yaxshi gul ochilar bahor chog‘i,
Adir to‘la lolalarning yo‘q adog‘i.

Ammo kuzda bari xazon va payhondir,
Yashillikning yuzi so‘lg‘in za’farondir.

O‘ylab ko‘rsang aqling yetmas, qolarsan lol,
Bunda jumboq, javobsizdir bari savol.

Egasidek inson hayot toji, guli,
Ammo ojiz u Tangrining banda, quli.

Ikki yilki Tulki kuni motamsaro,
Boshi egik, oralamas u el aro.

Dedi, olsam to‘ldirarmi bu ko‘ngilni
Dong‘i ketgan xonlik qurgan qiz — Jang‘ilni.

Rozi bo‘lsa, sovchi qo‘ysam, ko‘nsa Jang‘il,
To‘y qilardim, bari ko‘char edi yengil.

Garchi uni olar bo‘lsam qudalashmay,
Iloji yo‘q maydon ichra or talashmay.

Mag‘lub bo‘lsam ikki qo‘lim ko‘tarardim,
Tan berardim, Jang‘il qizga baxt tilardim.

Mag‘lub bo‘lsam maydon ichra manguga, yo‘q,
Qazo qilgum o‘ng chakkamga tekkancha o‘q.

Chabak bilan Uchuka-yu Otaqo‘zi
Yig‘ilganda Tulki ko‘ngil yordi o‘zi.

Maslahatga sinchi-folbin Shirdoqbek ham
Yetib keldi qatoridan bo‘lmayin kam.

Ikki yillik ayriliqning zahmi yomon,
Deya dardin doston qildi Tulki chunon.

To‘rtov alpdan keksa folbin olgach so‘zni,
Gapirdi u tush ko‘rgandek ochmay ko‘zni:

"Jang'il qizni yengmoq uchun kim ham qodir,
Toki unga teng kelolmas biror botir.

Jang'il qizga teng keladi bunda oxir,
Bu yurt ichra ulg'ayyotgan bir bahodir".

Bu so'zlarki Tulki dilin xo'p o'rtadi,
Qisir moldan og'iz sutin kim kutadi?

3

Botirlar-chi, boramiz deb shaylandilar,
Yaroq sozlab jangchilarga aylandilar.

Ergashdilar Tulkibiyga uch bahodir:
Uchuka-yu Otaqo'zi, Chabaq botir.

O, dastidan qarg'a uchmas cho'l, qir, adir
Titrar edi, ot qo'yganda Jang'il abjir.

Jang'il qiz bu — erning eri, sherning sheri,
Huzurida necha alpning singan beli.

Kir-chir yuvgan, kindik kesgan, shilgan teri,
Tog'-u dasht ham titrar ko'rsa shundan beri.

Qayg'usi yo'q, uchib-qo'nib, yayrab dili,
Tashvishi yo'q chorva boqqan O'yg'ut eli.

O'yg'utning jon-qoni edi Jang'il o'zi,
Dirkillab xo'p oy misoli to'lgan kezi.

Jang'il qizda xonlik bor-u taxt yo'q edi,
Erkin elda jang-jadalga vaqt yo'q edi.

Hech kimsaga o'xshamasdi tabiati,
Tantiligi, qahri, mehri va shafqati.

Yigitlardek kiyinardi soch turmaklab,
Chorlashardi uni "mirza" deb ermaklab.

Odat edi ovda burgut, tozi yo'llash,
Yoy otish-u kurash tushish, to'yda to'ylash.

Jang'il qizni olaman deb aytgan qancha,
Tamasidan kechib ortga qaytgan qancha.

Ko'plari-chi, qo'shmozor bo'p qo'sh armonga,
Qiz yoyidan o'q yedilar savil jonga.

Aslida-chi, qiz istagi hurlik edi,
Tobe bo'lmoq Jang'il uchun xo'rlik edi.

Tog'-u toshlar, tiniq soylar jonga rohat,
Ov qilishdan o'zgasiga qilmas toqat.

Gar ko'ngilning ro'yob bo'lsa istagi chin,
Ehtimolki, to'rt tomoning qiblamikin!

Alplarimiz manziliga yetgan joyda,
Xabari yo'q yurgan edi Jang'il qayda?

Odatiga ko'ra Jang'il qirda edi,
Ov qilardi tozi bilan birga edi.

El ichida bo'lar edi onda-sonda,
Tog'dan tushib kelar edi har zamonda.

Alplar yo'lni tog'ga tomon to'g'irlashdi,
Yo'l-yo'lakay uyurlarni o'g'irlashdi.

Qo'noq qildi so'ng bir qirni shomga qadar,
Yov keldi, deb Jang'ilga ham yetdi xabar.

Oqshom cho'kdi, ko'kda yulduz, Jang'il yo'lda,
Asov otda uchib borar kamon qo'lda.

Bilmas, alplar shum ajali kelayotir,
Yovqur botir qiz o‘qdayin yelayotir.

Bir shumlikni sezgandayin qattiq hurib,
It bezovta edi o‘zin har yon urib.

Qo‘li tolib tizgin bo‘shab qolgan mahal,
Jang‘il ko‘rdi jar oldida yonar mash’al.

Jang‘il, sekin bir chekkaga otin bog‘lab,
Kuzatardi o‘zin panaroqqa chog‘lab:

Yonboshlashib yotar edi to‘rt bahodir,
Qora qozon qaynar edi biqir-biqir.

Jang‘il sezdi shum niyatin bu zotlarning,
Pishqirig‘in tuydi qamalgan otlarning.

Nafrat, alam olovlandi-ku ko‘ksida,
Alplarni jim kuzatardi jar ustida.

Jang‘il shunday jar ustida turib qoldi,
Har bir alpga alohida nazar soldi.

O‘tkir nigoh tashlar ekan yov alpiga,
Tulki botir kirib bordi qiz qalbiga.

Iti chopdi avval yurgan makoniga,
Hidlab, hidlab bordi otlarning yoniga.

“Bu qanjiqning iti...”, derkan Tulki kulib,
Paykon yog‘di boshi uzra yomg‘ir bo‘lib.

Muhabbat, bu kim yonib, kim yonolmagan,
Kim tongan-u kim o‘zidan tonolmagan.

Muhabbat, bu qirdan qochgan qizil tulki,
Burgutni-da toshga yo‘llab etgan kulgi.

Muhabbat, bu manzili yo‘q esgan shamol,
Unga sirtmoq solmoqlikdir amri mahol.

Muhabbat, bu tuzoq sari eltgan sarob,
Qo‘lin cho‘zgan talabgorlar bo‘lgan xarob.

To‘rt bahodir yotar bunda jon talashib,
Majoli yo‘q bir-biriga jim qarashib.

Bari hayron, go‘yo ular tush ko‘rardi,
Qonga to‘ymas yer kanadek qon so‘rardi.

Jang‘il asta tepalikdan tushib keldi,
Yer tishlagan edi yovlar bari, bildi.

Gajaklari tushib turar ko‘z, qoshiga,
Bir so‘z dedi cho‘kib Tulki yonboshiga:

“Qanjiq”, deding meni, gaping rost, ehtimol,
Kel, o‘zingga beraqolay bitta savol.

Angladingmi tekkanida senga paykon?
Mardi bilan nomardini farqlar maydon.

Ulush olmoq bo‘lgan bitta sen emasding,
Bilsang eding ular holin, sen kelmasding.

Ammo o‘tli nigohingdan o‘rtandi jon,
Endi sensiz qiynaladi tanamda jon.

Jang‘il po‘lat pichog‘in yechib asta,
Tosh ustida o‘ltirardi ko‘ngli xasta,

Oqqan qonni, chiqqan jonni o‘ylar edi,
O‘z-o‘ziga nelarnidir so‘ylar edi.

Tun chodrasin yelkasidan olib tashlab,
Kun chiqardi yana yorug‘ tongni boshlab.

Kimdir sevib yetisholmay jonin berdi.
Buni sabo qo‘shiq qilib aytar erdi.

Hayot shunday mangu davom etaverar,
Bu karvonga kimlar kelib-ketaverar.

Yana quyosh nurin sochdi dasht-u cho‘lga,
Jang‘il qiz ham eli tomon chiqdi yo‘lga.

III

Kunlar kunni quvaverar adog‘i yo‘q,
O‘tgan kunlar ko‘k dengizdek qirg‘og‘i yo‘q.

O, o‘tgan kun xotiralar yo‘qdir sensiz,
Eslaganda entiktirar, go‘zal, tengsiz.

Jar yonidan topib Tulki nayzasini,
El oshirdi qalbidagi g‘ussasini.

Jang‘il qiz, deb alplar tushdi-ku tuzoqqa,
Yel yetkazdi bu xabarni ko‘p uzoqqa...

Xalq-chi, tinmay qo‘zg‘alardi, yuraklar xun,
Alplar o‘chin olmasinmi endi, nechun?!

Vaqt o‘tardi xunchilarning dili pora,
To‘lqinlanar edi qavm topmay chora.

Keng Talasning bo‘ylarida qirg‘iz, qozoq,
Yashar edi Olash ichra ahil-inoq.

Ezar dilni olinmagan alplar xuni,
Uch-to‘rt yilda esladilar yana uni.

Qo‘shin tuzib qozoq, qirg‘iz og‘a-ini,
Ko‘tardilar baland qasos bayrog‘ini.

Shirdoqbek ham er Tavkaxon to‘daboshi,
Yovga qalqon edi metin or-bardoshi.

Yana bir kun esladilar o‘sha xunni,
Yechmoq bo‘lib dillardagi bu tugunni.

Esladilar alplarini ko‘ksi yona,
Jang qilishga xun olishdir zo‘r bahona.

El ichida g‘ala-g‘ovur bo‘ldi paydo,
Hayqirishar, alplarimiz xuni qayda?

Qancha yigit alamzada qaynoq qoni,
Jang qilib tez yechmoq bo‘lar muammoni.

Avvaldan jang nimaligin bilganlar,
Keksalarning so‘zin ko‘zga ilganlar,

Jang‘il qizning abjirligin esga oldi,
Tepalikka baland qilib qo‘rg‘on soldi.

Bu el ichra bir donishmand chol bor edi,
Jangsiz barin hal etmoqqa tayyor edi.

Xalq dengizdir, gar chayqalsa, bo‘lar yomon,
Hech kim uning to‘fonidan qolmas omon.

Tik boqishib keksa sinchi ko‘zlariga,
Oqsoqollar qo‘shildilar so‘zlariga.

Yig‘ilganlar hayqirdilar ko‘tarib qo‘l,
Mayli, bizga donishmand chol ko‘rsatsin yo‘l.

Donishmand chol ko‘p el kezib yurgan edi,
Ko‘p el ichra, ko‘p sinoat ko‘rgan edi.

Bilar edi qayda, qanday bor bahodir,
Qaysi qavm alpi qanday ishga qodir.

El kezardi bu chol tinim bilmas edi,
Qayga borsa hech kim shubha qilmas edi.

Bu tadbirni o‘zlariga zarur bilib,
Yubordilar Jang‘il tomon josus qilib.

Oz kun o‘tdi, donishmand chol ortga qaytdi,
Xun haqda hech gap yo‘qligin elga aytdi.

Bu xabarni tinglagan xalq qalqib qoldi,
Ur-ho solib qo‘llariga qurol oldi.

Oq yo‘rg‘ada borar edi Shirdoqbek bosh,
Bir bolani ayladilar unga yo‘ldosh.

Kelaverdi bunda bo‘lsa kim xun talab,
Talas, Chuy, Ko‘l yonlaridan lashkar to‘plab.

Qo‘shin yurdi guruh-guruh, qator-qator,
Oralari xo‘p zich edi, saflari tor.

Kim kamonchi, kim nayzaboz, bolta chopar,
Bu saflardan har kim izlaganin topar.

Ma’yus kuzak, yaproqlarning yuzi sarg‘ish,
Majoli yo‘q og‘ochlarni bosgan tashvish.

Asov suvlar tinib, tushgandi shashtidan,
Jardan oshmas, qaytgan endi shiddatidan.

Sokin kuzning sokin-sokin kunlarida,
Yulduzi ko‘p, et junjikar tunlarida,

Toshqin suv yo‘q, kechuvlardan o‘tib oson,
Katta qo‘shin kirib keldi-ku nogahon.

Askarlarning qo‘noqlari bo‘ldi tayin,
Hovliqishar yovga yaqin borgan sayin.

Kuzatdilar obdan turib o‘ng-u so‘lni,
Izlardilar jang boshlashga qulay yo‘lni.

Sinchi aytdi: “Lashkar bo‘lsin uch qismda,
Uyurlarni o‘g‘irlasin biri tunda.

Ikkinchisi tashlanmasin o‘lja tomon,
O‘tgunicha bizga otlar eson-omon.

Ikkinchilar yana yovga dov bo‘lsinlar,
Uchinchilar tor daraga g‘ov bo‘lsinlar.

Tor daraga Jang‘il kirsa otin solib,
So‘ng maqsadga yetadurmiz qo‘lga olib.

Bir ovozdan ma’qullandi sinchi so‘zi,
Yo‘l ko‘rsatar barchasiga boshdir o‘zi.

So‘ng qatorga tizilishib turar bo‘ldi,
Ot o‘g‘irilar saf oldida yurar bo‘ldi.

Ikkinchi saf bari sara-sara shotir,
Yovga qalqon bo‘lguvchilar, alp bahodir.

Uchinchi to‘p topib juda tor darani,
Xo‘rak qilib qoldirdilar bir bolani.

Ko‘rishgandi Abil bilan Jang‘il bir bor,
Mana, yana uchrashtirdi taqdir takror.

Jang‘il u payt Abil boshin silab-silab,
Elga bosh bo‘l, degan edi, omad tilab.

Janggoh bo‘ldi, keng sahro-yu, katta maydon,
Osmon uzra ko‘tarildi chang-u to‘zon.

Reja bilan yilqilarni alplar oldi,
Eldan xoli etdi, keyin yo‘lga soldi.

Ikki yondan ikki qo‘shin to‘qnash keldi,
Kim xun uchun, kim jon uchun xo‘p jang qildi.

Yov tomonga Jang‘il uchar misli qoplon,
Kamondan o‘q yog‘dirardi go‘yo osmon.

Chekinganday yov orqaga yo‘l ochdilar,
Yo‘lni burib, dara tomonga qochdilar.

Jang‘il Mirza yovni quvib bordi uzoq,
Bilmas edi uni kutib turar tuzoq.

Jang‘il hayron, qay tomondan zarba tushdi,
Yiqildi-yu otdan, boshdan hushi uchdi.

So‘ng Abilni ko‘rdi, tanib, topgach darak,
Attang, dedi boshin qilib sarak-sarak.

Jang‘il yoyi yerga tushdi asta qo‘ldan,
O‘tolmadi yov tuzoqlar qo‘ygan yo‘ldan.

Jang‘il qavmi buni ko‘rib o‘kindilar,
Iloj topmay ortga sekin chekindilar.

Dovruq solgan tog‘-u tosh-u dasht-u cho‘lga,
Bu o‘lkaning qiz qoploni tushdi qo‘lga.

Jazo bormi Jang‘il uchun bundan ortiq,
Bir qariga ayladilar uni tortiq.

Qasos, yana o‘ljalardan mamnun bo‘lib,
Ortlariga qaytardi el ko‘ngli to‘lib.

Bu jang vasfin qo‘shiq qilib sharh etmoqqa,
Roviy shamol chopar edi tog‘dan tog‘ga.

Umrning har oni o‘tar yilday bo‘lib,
Jang‘il bo‘zlar qo‘mizdayin dardga to‘lib.

O‘kirmasmi qoplon yo‘lin taqdir to‘sgan,
Chorlab tursa tog‘, to‘qayi unib-o‘sgan.

Qachon yodga tushsa sarxush bo‘lar Jang‘il,
Tulki alpga qilganini izhori dil.

Ulandilar kunlarga kun, oylarga oy,
Daryolarga shoshdi daryo, soylarga — soy.

Kim qafasda xor-zorlikda o‘tkazar kun,
Kimdir baxtdan masrur yashab, yashnar gulgun.

To‘g‘ri emas tarozisi bu dunyoning,
O‘tkinchidir, arzimaydi tiksang joning.

Yosh-u qari qimiz ichib mast edilar,
Abilbekni chorladilar va dedilar:

“Xo‘p zerikdik, yozaylik-da biz ham ko‘ngil,
Bor hunarin ko‘rsatsin, ayt, bizga Jang‘il”.

Elning so‘zin Abil kelib etdi bayon:
— Sizga elning ishi tushmish, ey yangajon.

Istaydilar maydon ichra ot solsangiz,
Yosh-yalangga mardlikda o‘rnak bo‘lsangiz.

“Hech kimsaga qilmadim men boshimni xam,
Men mard bo‘lib olishganman, bo‘lmadim kam.

Hiyla bilan tuzoq qo‘yding, men ilojsiz,
Ayadim men qolmasin, deb eling boshsiz.

Elingga ayt, ular bunday istamasin,
Bo‘lmas ishni mendan aslo qistamasin.

Qafasdagi erk istagan tutqunman xor,
Otga minsam, yeldek qochib ketishim bor.

Jangga kirsam uvol sendek alplar joni,
Maydonlarda oqmasin-da qizil qoni.

Undan ko‘ra ishq kuyidan dilim qonsin,
Qo‘y, qafasda Jang‘il joni kuyib yonsin”.

Mard qo‘lida mard jon berar azal-azal,
U o‘lmaydi uyida jim kutib ajal.

Alpligi-ku, mayli, husni buzilmagan,
Nogoh tushgan chin er ko‘zi uzilmagan.

“Keltirib qo‘y Shirdoqbekning tulporini,
Yoyim bilan kiyimlarimning borini.

Ochiqlaymiz, shundan keyin ko‘p oldida,
Qanday ekan Jang‘il degan shu holida”.

Bu xabarni yoyib shamol yelaverdi,
Hovliqqanlar maydon tomon kelaverdi.

Jang‘il qizning hunarini ko‘rmoq bo‘lib,
Qiziqqanlar yig‘ildilar maydon to‘lib.

El ichida gap oralab allaqachon,
Jang‘il qochar der edilar topsa imkon.

Pahlavonlar maydon ichra hushyor edi,
Jang uchun shay qurol-yarog‘ tayyor edi.

Toqat qilmay kutar edi el-xaloyiq,
Bu tomosha qancha kutsang edi loyiq.

Tush paytida chavandozday keldi Jang‘il,
Oq yo‘rg‘asi qushday uchib kelar yengil.

Jang‘il dedi: “Qolmadimi ishim sabil,
Qalpog‘ingni ko‘kka otib ko‘r-chi, Abil”.

Qalpog‘ini Abil ko‘kka otgan hamon,
Jang‘il unga o‘n besh bora otdi kamon.

So‘ng qalpoqni yana o‘zi ilib olib,
Egasiga qaytib berdi tuhfa qilib.

Abilni lol qilgan edi Jang‘il ishi,
Qalpog‘idan sog‘ qolgani bir gardishi.

Barakalla, dedi Abil hayron qolib,
Qulluq qildi, so‘ng bo‘yniga chilvir solib.

Jang‘il, endi bizga ruxsat, deya, rosti,
Birdan uchqur tulporiga qamchi bosdi.

Jang‘il bilan bir olishsam, deb o‘zicha,
Tayyor turgan orzumandlar edi qancha.

“Bu bebaxtdan nasl olmay qildik bekor”,
Deguvchilar ham bor edi elda bisyor.

Kim jonidan sevmas ekan tug‘gan elin,
Tillolarga almasharmi qora yerin?

Topsa tug‘gan eli, qaro yer rohatin,
Malham bo‘lib tuzatmasmi jarohatin.

Uchar edi tulpor go‘yo qanot qoqib,
Jang‘il yetib keldi Qoqshol tog‘ni topib.

Qoqshol tog‘da tuman kezar edi sarsar,
Ul baxtiyor kunlardan yo‘q edi asar.

Sanog‘i yo‘q tuman-tuman mol haydagan,
Qimiz-qimron ichib bunda hay-haylagan

U odamlar qani endi baxt munosib,
Allaqachon bu yurtni Chin olmish bosib.

Huvullagan bag‘rida yov, yot ko‘payib,
Cho‘ng tog‘ turar edi o‘zi tek so‘ppayib.

Buncha sovuq o‘zgarishdan boshi qotib,
Dir-dir titrar edi Jang‘il sovuq qotib.

Jang‘il keldi izlab qilgan joyin shikor,
Tanish jarlik tomon yurdi beixtiyor.

To‘rt bahodir yotar bunda ko‘milmagan,
Qoq suyakdir kimliklari bilinmagan.

Qanday yetsin endi Jang‘il qiz bardoshi,
To‘rt tomonda yotsa to‘rtta botir boshi.

Aziz boshlar xordir qarg‘a, quzg‘un tekkan,
Bilinmaydi bunda qay bosh Tulki ekan.

Oftob tig‘i tushib qaqshab yotgan joyda,
Boshchanoqning boshchanoqdan farqi qayda.

Lek ishonib Jang‘il ichki sezgisiga,
Bu tanlovni topshirgandi sevgisiga.

Endi Jang‘il joni o‘zdan kechar, tonar,
Asov yurak erib bitgan shamdek so‘nar.

Tulki boshin quchar umrin so‘nggi chog‘i,
Qo‘llarida yordan yodgor tig‘-pichog‘i.

Buncha mag‘rur bo‘lmasang-a, eh, Jang‘il qiz?!
Ne-ne alplar huzuringda cho‘kmadi tiz.

O, muhabbat seni buncha telba etdi,
Mana, oxir yor oldida kuning bitdi.

To tanidan uzilguncha Jang‘il joni,
Mozor etdi tuproq to‘plab ul makonni.

Shamol uvlab muhabbatni kuylar yomon,
Bu qo‘shiqdan qay tosh yurak qolgay omon.

Jang‘il terdi suyaklarni qo‘nib-uchib,
Tulki boshin avaylardi mahkam quchib.

Jang‘il behol boshdan ne-ne xayol kechar,
Yana qonga tashna qora yer qon ichar.

Sog‘intirgan, orziqtirgan, intilganing,
Qayda sening ohudayin erkin eling?

Qayg‘usi yo‘q, g‘am-anduhsiz qo‘shiq aytgan,
Sarobmidi u kunlaring tushda o‘tkan?

Aytganlarim yolg‘onmi-rost, bir naql-da,
Bir mardona, go‘zal Jang‘il qiz haqida.

Oh, shuning-la shodon kunlar bo‘ldi abas,
Yig‘lar qo‘miz mungli-mungli taratib sas.

QOSIMALI BOYALINOV

(1902–1979)

Qirg'iz yozuvchisi, publitsist, tarjimon, Qirg'iziston xalq yozuvchisi Qosimali Boyalinov Issiqko'l yaqinidagi Qotmaldi degan joyda ko'chmanchi chorvador oilasida tug'ilgan. Erta yetim qolib, qarindoshlari qo'lida tarbiyalangan. 1916-yildagi "Urkun" genotsidi davrida qochoqlar bilan birga Xitoyga borib yashagan, 1918-yilda qaytib kelib, To'qmoq shahrida boylar qo'lida mardikor bo'lib ishlagan.

1919-yilda Qosimali Toshkentga kelib, maktab ta'limini oladi, 1921–25-yillarda Olmaota pedinstitutida o'qiydi, bir muddat Moskvada ta'lim oladi. Shu yerda Sentrizdatning qirg'iz bo'limini boshqaradi. Qirg'izistonga qaytgach, gazeta-jurnal tahririyatlarida mehnat qiladi, Qirg'iziston Yozuvchilar uyushmasiga raislik qiladi, ilmiy ish bilan shug'ullanadi.

Asarlari o'nlab tillarga, jumladan o'zbekchaga tarjima qilingan. 1928-yilda yozgan "Hojar" qissasida o'sha mudhish "Urkun" qatag'onining bir qurboni haqida hikoya qilinadi.

HOJAR

(Qissa)

Quyosh sekin-asta botib borardi. Ketma-ket yoyilgan oq bulutlar, quyoshning botish oldida sochgan nuriga ko'milib — qizg'imtir rangga bo'yalib, dunyoga yangilik kirgizganday. Chegarasiz keng ko'kdagi bu tovlanish butkul borliqni quchog'iga olganday va erkalatganday sezilar edi.

Qalin maysalar orasidan ko'ringan so'qmoq yo'l bilan uch ayol kelmoqda. Birisining ustida shoyi ola choponi bor, ro'moli oyoq-

larigacha chuvalgan, yalangbosh, oyog'ida kavush-mahsi. Yuzlarining ko'rkamligi ketgan va ko'z oldilari ko'kargan: u 15–16 yoshlar chamasidagi Hojar ismli bir qiz edi. Qolgan ikkovi bo'lsa Hojarning o'rtoqlari. Bular bitta-bitta qadam bosib go'ristonlik sari ketmoqda edi. Qator-qator go'rlarni o'tib, bir go'r oldiga kelib to'xtashdi. Bu esa Hojarning onasi marhuma Fotima opaning go'ri edi.

Hojar go'rni ko'rar ekan, bag'ri ezilib chidolmadi va go'rni quchoqlagani holda ho'ngrab yig'lay boshladi.

— Onajon, meni bu kundan boshlab tanimagan bir yurtga yubormoqchilar, xor qilmoqchilar va yanada ezmoqchilar! Sening o'lganingga qayg'urib, qon yutib sabrim tugab yurgan bir paytda, boqib o'stiradi deb topshirib qoldirgan qarindoshing meni bu holga tashladi. Bir begona kishiga sotib xor qildi.

Mayli, peshanamda qachon bo'lsa ham erga tegish bor-ku, yosh bo'lishimga qaramay, tegsam tegib qo'yaqolay, deb ko'nishga majbur bo'ldim. Qarasam, u marhum otamdan ham qari ekan. Unga men qanday qilib ko'nayin? Qanday qilib uni o'zimga umrlik do'st qilayin? Qanday qutulaman? Kimdan maslahat va kimdan yordam so'rayman?

Biroq, sen, onajon, yo'qsan!.. Sen qora yer bag'rida abadiy totli uyquda yotibsan... — deb ho'ngrab-ho'ngrab ko'z yoshlari bilan yuzlarini yuvdi...

* * *

Hojar, 16-yilgi zulmlar davrida[1] Xitoy eliga sotilgan qirg'iz qizlaridan biri bo'lib, otasi Aytquli urushda daydi o'q tegib o'lgan. Onasi Fotima esa Xitoy yerida vafot etgan.

Hojar Aytqulining qariganida ko'rgan arzanda qizi edi. Fotimaning oldingi bolalari to'xtamay hammasi yosh vaqtidayoq o'lgan va Fotimaning bo'yidan tushgan bolalari ham bo'lgan.

[1] 1916-yilda zulmga chidamagan qirg'iz eli qo'zg'olon ko'taradi. Bunga javoban, chor Rossiyasi askarlari ularni otib-chopib, to Xitoy yeriga qadar quvib boradi. Och-yalang'och el bu yerda o'rislardan ham battar talonchilarga duch keladi. 2016-yilda Qirg'izistonda bu fojiali harakat — "Hurkish"ning yuz yilligi nishonlandi.

Aytquli bunga ko'p harakat qildi. Atrofda bo'lgan folbin va eshonlarga Fotimani ko'rsatib bor-yo'g'ini berdi. Qarzdor bo'ldi, Qashqardan kelgan Opoqxo'ja eshonga ham ko'rsatdi. U Fotimaning bo'yniga taqishga tumor va "ezibichki"lar berib bir talay nazr-niyozlar olgan. Tun o'rtasigacha "Ismi A'zam" duolaridan ko'pini qatorasiga o'qib chiqib, bir qancha irim-sirimlarni qilgan. Tushida Fotimani aylantirib yurgan qora chipor ot, ko'k yoli bor yo'lbars bilan ko'rishib va qirq chilton bilan so'zlashib ko'p-ko'p karomatlar ko'rgan emish!

Buning barchasini tumorga yozib "bir oydan so'ng Fotimaning bo'yiga bir o'g'il bola bitib, uning omon-eson tug'ilishiga" Aytquli bilan Fotimani ishontirgan. Biroq bu duosi haqiga qirq chilton topshirig'i deb ularni aldab, bir yilgacha xudoyi berishlarini ta'kidlagan va Aytqulining yolg'iz ko'k otini olib, Opoqxo'ja eshon yo'lga tushgan...

Bundan uch yil o'tgandan so'ng, mullasiz, eshonsiz va "kuf-suf"sizoq Fotimaning bo'yida bo'lib, Hojar tug'ilgan.

Oq podsho O'rta Osiyo xalqlaridan mardikor ola boshladi. Hojarlarning ovulidan ham mardikorlar olina boshlandi. Olingan mardikorlar ro'yxatiga Aytquli ham kirdi.

Aytquli undan qutulmoqchi bo'lib, 12 yashar qizi Hojarni qo'lidan yetaklagan holda, Sog'inboyning oldiga bordi.

— Boy, meni ham yo'lga chiqsin degan ekansiz, biroq men chiqa olaturgan emasman. Uyimda mana bu turgan yolg'iz, mushtdek qizimdan bo'lak kimsa yo'q. Har kim o'zini mudofaa qilib, yov yoqadan olib turgan kezda men xotin-bolamni chirqiratib, kimga tashlayman? Men bora olmayman, meni qo'yingiz. Anavi Alimqulning o'rta qo'lday ikki o'g'li bormay qolibdi-ku? Odillik qilsangiz, o'shalarni yuboring, — dedi Aytquli.

— Chiq eshikka, it! Sen Alimqulga teng kelmoqchi bo'ldingmi? Buni qara-ya, sen kim-u Alimqul kim? Buni bilasanmi? Ertadan qolmay otlanasan! — deb Sog'inboy Aytqulini uyidan quvlab chiqardi.

Alimqul Sog'inboyning yaqini, yana hamfikri... Sog'in faqat Alimqul emas, balki Alimqulga o'xshash ovuldagi barcha boy bolalarini podshoga askarlikka chaqirtirgan emas.

Ro‘yxatga tushganlar faqatgina kambag‘allar va kambag‘al yoshlar bo‘ldi.

— Aytquli, otlan!

Sog‘inboy yuborgan yigitning ertalabki yangragan va gurullagan dahshatli ovozi, Aytqulini uyqusidan uyg‘otdi. Aytquli o‘rnidan shoshib-pishib turdi va kiyindi, belini mahkam qilib bog‘ladi. Beliga kuzda bir qop arpa berayin deb Odilboy ustaga yasatib olgan oyboltani qistirdi. Oldiga Hojarni chaqirib oldi-da, uning yuzlaridan o‘pdi. Hojar muloyim ingichka tovushi bilan yig‘lamsirab:

— Otajon, qayoqqa borasan? — dedi.

— Sadaqasi, yiroqqa boraman-u, kelaman!

Biroq, uning tovushi yuragida bir qo‘rqinch bor ekanligini bildirdi. U shu bo‘yi kelmayturgan, Hojarni erkalatmayturgan va Fotima bilan Hojarni sevib umr kechirmayturganday bo‘lib, yuragi tepishdan to‘xtamadi... Aytquli eshikka chiqib borayotib:

— El ko‘chib qolaturgan bo‘lsa, yukingni ko‘k ho‘kizingga yuklab, ustiga Hojarni mingazib ol. Ko‘chdan qolma. Zamon qanday bo‘ladi — qanday qoladi. Kutmaldiga podshoning soldatlari keldi, degan xabar bor, biz o‘shalarga qarshi yo‘l olib ketayotirmiz. Xayr-xo‘sh, — dedi.

— Zamon qanday bo‘ladi, deb yomon niyat gapirma-chi, — deb Fotima eriga taskin bermoqchi bo‘ldi. Biroq uni ham bir qo‘rquv hayajoni bosgan kabi ko‘rindi.

Fotima eshikka chiqib, erini kuzatish taraddudiga tushdi. Aytquli ko‘l bo‘ylab jo‘namoqda bo‘lgan qalin elga borib qo‘shildi.

Aytqulining ketganiga ikki kun bo‘ldi. Uchinchi kuni erta bilan xalq “g‘ivir-g‘ivir”ga birdaniga kirishib ketdi.

Askarlikka ketgan yigitlar ham qochib kelib ovul-ovuliga tarqalishdi. Aytquli bilan birga ketgan yigitlar ham kelishdi. Biroq Aytquli yo‘q! Aytqulini ko‘rish o‘rniga “Aytquli o‘qqa uchdi!” — degan sovuq so‘z Fotimaning qulog‘iga urildi. Fotima baqirib, yig‘lab yubordi. Hojar ham yig‘ladi.

Ovul yon-berisidigilar kelishib:

— ...Niyati durust kishi edi. Bunday o‘limga yig‘lagan bilan bo‘lmaydi, yig‘lamangiz!..” — deyishib, Fotima bilan Hojarga

ta'ziya bildirgan bo'ldilar, rahmli yumshoq iliq yuzlari bilan ularni qarshi olishib Fotima bilan Hojarni ko'plashib boqib olaturganday bo'lib ko'rindilar.

Fotima bilan Hojarning yoniga qo'shilib ikkinchi ovulda ham yana bir ta'ziyali xonadon paydo bo'ldi. Aytquliga qo'shilib Qobo'g'an otaning yolg'iz o'g'li Jabborqul ham nobud bo'libdi.

Biroq u dushman qo'li bilan bo'lmay, o'z qo'li bilan nobud bo'lgan. Bu haqda so'z eshitmoqchi bo'lishib, Jabborqul bilan birga borgan Quliboyni ovuldagi chol, kampir va xotin, bolalar qurshab olishdi.

— Besh yuzga yaqin kishi edik, — deb so'z boshladi Quliboy. — Biz qo'lga tushib, Qulumboyning bog'iga kelib to'xtadik. Ba'zilarimizda faqat bittagina berdanka, o'n donacha parang miltiq bor, qalqonlilarning qo'lida nayza, qilich, oybolta, so'yil, cho'qmor va boshqalar...

Biz shu yerga to'xtab, har qaysi yerlarga qorovul chiqardik. O'zimiz yotdik. Ikkinchi kuni erta bilan "karako'rus kelib qoldi", degan xabar tarqalib qoldi, biz yoppasiga otga minib ularning yo'lini to'sdik. Biz biroz jo'nay tushganimizda, Bo'zbarmoq talasini qoplab, bizni ko'zlab kelayotgan soldatlar ko'rindi. Ularning soni ikki yuzdan ortiq bo'lib ko'rindi. Biz shoshib qoldik, soldatlar bizni tarsillatib otmoqqa boshladilar. Ikki kishimiz o'qqa uchdi. Bizning merganlar ham otgan bo'lishdi. Biroq uni soldatlar pisand qilmay bizga yaqinlashgandan yaqinlay boshladilar. Qo'ying-chi, yaqinlab kelaverishdi, bizni chulg'ab aylantirib oladigan bo'lishdi. Biz keyin orqaga chekinib burungi bog'imizga keldik.

Ko'targan xonimiz Yoqubbek:

— Shu yerdan olomon qo'yinglar, qochganlar bo'lsa, otib tashlayman, — deb yigitlari bilan xalqni qamchi ostiga olib ketdi. Bir damda soldatlardan qirqta kishi bo'linib, bizning kelgan yo'limizni to'sdi. Xalq qo'zg'alib qoldi. "Olomon qo'y!" deb qichqirgan xonning tovushi gurkiradi.

Birov birovni tanib bo'lmadi, "Olomon!"lab qichqirib soldatlarni qochirib yuboraverdik. Ular ham shoshib qoldi, yana qochdi.

Ey, biz bo‘sh kelmaymiz-ku! Agarda biz tartibli, epli bo‘lsak, biz ularni allaqachon olib qo‘ygan bo‘lar edik. Soldatlarga yaqinlab kirib borganimizda orqamizdan bir-ikki kishimiz qayta qochib yo‘naldi. Uni ko‘rib biz ham qochdik. Oldimizda qochib borayotgan soldatlar qayta burilib, zambaraklarni oldilariga oldilar. Ko‘zing yomonlikni ko‘rmasin, to‘sh-to‘shimizdan, ko‘z oldimizdan o‘q sachrab o‘tib turdi. Otiga o‘q tegib, kishisi piyoda qolgan va otliqlar bilan teng chopishganlar bo‘ldi. Kishisiga o‘q tegib, otning bo‘ynida surgalib yurganlar ham ko‘p bo‘ldi. Qisqasi, biz yomon ahvolga tushib qoldik. Keyin qarasak, yetmish ikki kishimiz o‘lgan ekan. Xalq qochaturgan bo‘ldi.

Xon unamay:

— Yaqin kelsin, yana astoydil hujum qilib ko‘ringlar, — deb gerdayib turib oldi.

— Ularni sen yaqin keltirib so‘yiling bilan urib oladurgan bir bedana deb o‘yladingmi? Ularning qo‘lida biznikiday so‘yil emas, balki miltiqdir. Biz ularga teng kelolmaymiz. Shuncha xalqning uvoliga qolmoqchimisan? — deb Jabborqul, xon bilan urisha ketdi.

Xonning bu chog‘da ko‘ziga qon to‘lib, ishlashga ish, urishishga kishi topolmay turgan payti edi. Jabborqulni qamchi bilan chirqiratib ikki-uch topqir savaladi. Jabborqul ham achchiqlanib, xonni savalab, xonning yuzini yorib yubordi. “Meni yedi, oting!” deb xon buyruq qildi. Miltiq tarsillab ketdi. Birdan qarasam, Jabborqul yerda tipirchilab yotgan ekan. Odamlar to‘planishib qoldi. Men o‘sha zahoti to‘xtab, Jabborqulning boshini uqaladim, yig‘lab yubordim. Kishilar o‘likka uymalashib turgan paytda, soldatlarning xalqqa qaratib otgan miltiqlarining tovushi chiqdi. Oramizdagi kishilarimizdan ikkitasi otdan Jabborqul yoniga gurs etib yiqildi. To‘xtab turmadik va qochmoqqa boshladik...

Shunday qilib, Quliboy so‘zini tamomlar ekan, chol va kampirlardan bir-ikkitasi dodlab-o‘ksib yig‘ladilar...

El to‘s-to‘polon bo‘lib qochib ketdi. Fotima birin-ketin yuklarini Aytquli aytgan ho‘kizga yuklab, Hojarni ustiga mingazib, o‘zi yetaklab ovuldagi kiishilar bilan birga jo‘nadi.

Har bir ovul manaplarining o‘zlariga xos yasalgan jelaklari bo‘lib, Sog‘inboyning jelagi oq edi. Sog‘in ko‘chining oldiga

kelib, o'rnashishga muvofiq joy topib, alomatni o'tov tepasiga mustahkamlab yerdan sanchib o'rnashtirdi. Orqada kelayotgan ko'chmanchilar bu alomat bo'yicha har bir yerga o'rnashib olar va adashgan bolalar bo'lsa, haligi alomat vositasi bilan o'z-o'zlaridan topishib kelishar edilar.

Ko'ch ortib borayotgan Fotimaning ho'kizi munkib ketib, yuki og'ib, ustidan Hojar ag'darilib yiqildi...

Fotima baqirib yubordi-da, borib Hojarni quchoqladi. Uning baxtiga Hojarning tanasigina og'rib, hech bir mayib bo'lgani yo'q edi. Hojar omon-eson o'rnidan qo'zg'alib turishi bilan onasi Fotimada zo'r sevinch hosil bo'ldi.

Fotima ho'kizning burnidan o'tkazilgan arqonni Hojarga ushlatib qo'yib, ag'darilgan yukni ho'kizga ortishga harakat qildi, biroq yolg'izligidan buni uddalay olmadi. Ko'p kuch sarf bo'ldi. U boshqa yayov ko'chlarga qo'shilishib ketdi. Kim-kimga qarasin? Hatto o'sha ko'chdagi odamlar ham qiynalgan Fotimaga qittay bo'lsa-da qaramadilar. Ko'chning orqarog'ida qirchang'i yomon to'riq otga asboblarini ortib kelayotgan va kampiriga yetaklatgan, ammo o'zi esa otni haydab hassa tayangani holda ketib borayotgan cholga duch keldi. Chol va kampir Fotimani ilgaritdan tanir edilar va Aytqulining o'lganini eshitgan edilar. Ulardan biri to'xtab, kampir bilan ikkovlashib Fotimaning yukini ortishib berdi. Fotima chol bilan birga jo'nadi. Bir vaqt osilgan miltiqlari bilan bir to'p otliq kishilar bularning yonidan ketma-ket o'taverishdi. Chol ularning biri oldiga borib:

— O'ldir meni, meni ham o'ldir!.. Manglayimizga bitgan yolg'iz bolamizdan ajratib, bunday qiynoqqa solib qo'yding!.. — deb otning jiloviga osilib oldi. Bu — bizga tanish Jabborqulni o'ldirtirgan Yoqubbek xon edi. Cholni otga bostirib tepkilay desa-da, Burxon (cholning o'g'li) bunga qarshi turdi. Yo'lga uzala tushib yig'lab yotib oldi. Yoqubbek xonning g'azabi keldi. Otidan tushdi-da, cholning qo'lini ikki yigitga ushlatib ayamasdan savaladi. Sho'rlik kampir eriga bo'lishay deb harakat etdi, otini tashlab yugurib qo'lidagi tayanib kelayotgan siniq hassasi bilan xonni savalab yubordi. "Xonga qo'li tegdi", deb yigitlari kampirni tepki ostiga oldilar.

Yoqubbek yigitlari bilan chol va kampirni azoblab urib, ikkalasining qo'lini orqasiga mahkam bog'lab to'xtamasdan yo'l bilan yurib ketaverdi.

Kun kech edi. Ko'ch tarqalishib, qo'nmoqqa boshladi. El orasiga qiy-chuv, dod-voy qanotlanib kirdi. Mol-ko'chlarini yo'qotib izlaganlar ko'payishdi. Lekin Fotima va Hojarni yo'qlaydigan kimsa yo'q. U kuni bo'yi Fotima bilan ovulni topmay, chol bilan birga qo'nib ertasi so'rab-so'rab, alomat orqaligina o'z ovulini zo'rg'a topib oldi.

Besh-olti kun o'tdi. Sog'indan zulm ko'rgan bir to'p kambag'allar undan boshqa bo'linib To'ng bo'lusiga ketmoqchi bo'lishib so'z biriktirishdi. Bularning ichida chol, Fotima yana Aytqulining qarindoshlari — Qozibek ham bor edi. Qozibek bilan yana bir yigitni bir to'p mol bilan kechasilab bir yerga yashirib qorovullashdi. Tong otdi, odamlar yoppasiga mol-mulklarini yig'ib ko'chishlarida davom etishdi. Chollar esa ko'chmadilar. Sog'inning "ko'chsin" deb yuborgan odamiga:

— Kechasi bir to'p molimiz yo'qolib, ikki kishimiz o'shani izlab ketishdi. Ular kelmasdan va molimiz topilmasdan turib ko'cha olmaymiz, — deb javob berishdi.

Bular Sog'inning ko'chi uzoqlagach, kishilarini oldirtirib boshqa yo'l bilan To'ng bo'lushiga qarab jo'nashib qolishadilar. Biroq buni Sog'inxon bilib qolib, bir to'p kishi bilan kelib ularni to'xtatib yuklarini tushirtirib chol va Qozibekni boshliq deb ayblab bir qancha uradi.

Barcha qoramollarni haydab ketib:

— Endi ketadigan yerlaringga jo'nayveringlar! — deb javob berdi.

Moldan ajrab sho'rlik kambag'allar yayov, qayerga va kimga borar edilar? Kechirim so'rab xonning oyog'iga yiqildilar va xonning oldiga Qozibekning peshonasiga bitgan bittagina qashqa (yo'rg'a) otini ko'ndalang qilmoqchi bo'ldilar.

Qashqa ot — yaxshi ot edi. Bunga ilgaridan manap va Sog'inning ko'zi tushib, "kambag'alga bunday otning nima keragi bor, menga bersin", deb Qozibekka necha martalab kishi jo'natib, otni ololmagandan "hap senimi!" deb tishini qayrab

yurar edi. Yo'rg'a ot, o'z oyog'i bilan xonga duch keltirildi. Yalmog'iz xon, otni olib, jahldan tushib ularni qayta ko'chirtirib yuboradi...

Bir qancha kunlar o'tib, el dalalarga yetib keldi va Tiyonshon tog'larining Badal, Bekritti, Ko'k irim, Oqho'kiz degan o'runlariga bo'lunishdi. Fotimaning ovuli Oqho'kizni oshmoqchi bo'ldilar, buni uddalab bo'lgach, kelib o'runlashdilar va bunda qo'nib qolmoqchi bo'ldilar.

Ertasi ko'chning oldi yonbag'irlarga chiqayotgan paytda havo bulutlandi. Tuman tushdi, elab-elab qor yog'di — izg'irin kuchaygandan kuchaydi. Sovuq shamol esdi... Qorlarni shamol uchirib kelib uyma holda yo'llarni qoplab olgan hamda qor aralash tushgan yomg'ir ko'chmanchilar va hayvonlarning yurishi mumkin bo'lmaydigan tiyg'onchiq hosil qilgan edi. Unda-munda yuki ag'darilgan ko'chmanchilar, tiyg'anib halok bo'layozgan ot-ulovlar, qo'y-yilqilar va echkilar-u tuyalar — hammasi og'ir yuk hamda sovuqdan yura olmaslik holga keldilar. Bir yonda esa qo'l-oyog'i kuchli sovuqdan zirillagan kishilar, yosh go'daklar, o'smir bolalar bir shapaloqdek joylardan o'rin olishib-uymalashib qoldilar. Har kim o'zi bilan o'zi ovora.

Qor tinmay yog'ib turar edi, kun kech bo'lib, kishilar turgan o'rinlarlarida namatga, sholcha va ko'rpalarga o'ranishib yotishdi.

Ertasi tong otganda qorga ko'milib mayda ulovlar, ko'rpasiz-issiq kiyimsiz qolgan odamlar, go'daklar, qishning dahshatli sovug'ida o'lim to'shagida yotar edilar... Hatto, sovuq zarbidan ko'rpada yotgan kishilardan ham anchasi qotib qolib nobud bo'lganlar...

Uchinchi kuni kun ochildi: tuman tarqadi, shamol bosildi. Omon qolgan ellar bir iloj qilib tog'ma-tog' oshishdi. Fotima ham omon-eson edi, u qizi Hojar bilan birga jo'nadi.

Tog' beliga chiqaverishda Fotima yuk tortgan otlar bilan birga sovuqda qotib o'lgan ikki odamni ko'rdi. Bular haligi chol bilan kampirning o'ligi...

Yurt Turfonga tushdi: tarqalishib, shahar-shaharlarga keta boshlashdi.

Qozibek bilan Fotima Turponda qolishib, ikkovining ham qo'llarida moldan asar qolmagan. Fotimaning ho'kizi o'lgan, Qozibekning qo'y-echkilari birin-sirin yo'lda yo'qolgan...

Endi nima qilmoq kerak?

Turponlik Sobitoxunning ot kapasini yumush qilib berish sharti bilan Qozibek ijaraga oldi. U derazasiz, eshiksiz, ustidan yorug' tushadigan, teshigi bor, osti jar, ot qoni hidi bilan buruqsagan bir uy edi. Iloji yo'q, eshigiga namat qoplab, yeriga pichanlar solib unga kirib o'tirishdi.

Kun o'tdi, oy o'tdi, qish tushdi: hayot kechirish qiyinlashdi. Yoqishga o'tin, kiyishga kiyim, yemoq uchun ovqat kerak bo'ldi. Biroq ularni qayerdan va kimdan olmoqchilar? Atroflarida o'rnashganlar ham o'zlari kabi kambag'al — beva-bechoralardir. Turponliklardan olmoq uchun biror narsa sotmoq kerak. Busiz ulardan olish qiyin...

* * *

Qishning izg'irinli tuni oqarib, tong belgisini bera boshladi. Ko'p o'tmay uning orqasidan oltin nurlarini yozib quyosh chiqdi.

Dunyoga tirikchilik kirdi. Aholi ovqat g'amlashga harakat qildi. Biroq, kun sovuq, qor qalin, tashqariga odamzod qadam bosib chiqib bo'lmaydi. Qozibekning bolalari — Tolip, Murodlar va bulardan tashqari Hojar ko'rpada yotishardi.

Qozibek esa erta bilan yomon bir o'rog'ini beliga qistirib, o'tin-cho'p terib kelmoqqa jo'nab hali qaytmagan.

Fotima, Qozibekning xotini Oysha bo'lsa qo'llarini yenglariga tiqib, titragan, ko'kargan holda so'zsiz o'tirishardi. O'lim qayg'usi qanotlanganday bo'lar va bir tomondan qishning og'uli xanjari och yurakni tatalar edi...

Bir kezda eshikka qoplangan churuk namat, shamol kuchi orqasida to'rt yoqqa urildi. Orqasida o'tin ko'targan holda Qozibek kirib keldi.

— Ertadan kechgacha sakillab yurib tergan o'tining atigi shumi? — dedi Oysha va eriga achchiqlana boshladi.

— Bo‘lmasa qanday qilay, o‘rog‘imni turponliqlar zo‘rlik bilan tortib oldi. Mana bu o‘tinlarni qo‘lim bilan yulib chiqdim, — deb Qozibek o‘ksigan holda javob berdi.

O‘tinni Qozibek bir kunchalik yerdan — Qumariq daryosi qirg‘oqlaridagi to‘qaylardan olib kelar edi. Bu yerlarni ham turponliqliklar egallab olib, o‘tinzorlarni qo‘riqlashga kirishdilar. Qozibek o‘rog‘ini beliga qistirib, shu yerdagi o‘tinlarni kesib o‘rib kelayotganida o‘rog‘ini turponliqlar tortib olib, o‘zini urib haydab yubordilar. O‘tinsiz yashamoq qiyin. Uy muzday, qorin och, yosh bolalarga sovuq qanday ta’sir qilgan bo‘lsa, qari kishilarga ham shunday ta’sir qilgan edi. Hammalari birday qiynalishar edilar..

— Oyi, sovuq yedim, — deb Hojar onasiga yig‘lamsirab qaradi.

— Sadag‘ang ketay, qanday qilay! — dedi Fotima va to‘nggan sovuq qo‘li bilan uning ko‘rpalarini tuzatib, o‘rab qo‘ygan kabi bo‘ldi. Olib kelingan Qozibekning o‘tinini bir amallab yoqishmoqchi bo‘lishdi. Biroq, eshikka yopilgan namatning teshiklaridan kirgan izg‘irin shamol o‘tni yondirmay uy ichini tutunga to‘ldirdi. Tutunning dami bilan uy tepasidagi qorlar erib, uy ichini ko‘l singari suv bilan qopladi... Och yotib qoldilar.

Ertasi Qozibek yana o‘tin izlab soy tomonga ketdi. Fotima bilan Oysha ham tinch yotmay ovqat izlab turponliqlarni qidirishdi. Kechga yaqin bir yarim so‘m, bir toqa kulcha, bir piyola jo‘xori uni topib qaytishdi. Lekin Qozibek kechikdi. Uydagilar esa “Qozibek o‘tin topib kelsa, isinamiz, ovqat qilamiz!” degan fikrda edilar.

Qo‘l-oyog‘i sovuqqa qotib dirillab kelib kirgan Qozibekni bilmay qolishdi. Qo‘lida hech narsasi yo‘q, so‘zlashga tili bormaydi, qo‘li timdalangan, yorilib qonagan.

— Ha, senga nima bo‘ldi?

— O‘tining bormi?

— O‘tining qursin, — dedi Qozibek yig‘lamsirab, — hech narsa topilmadi. Qordan sal boshlari chiqib turgan o‘tinlarni sug‘urolmaysan. Hatto qimirlamaydi ham. Ularni o‘roqsiz olish juda qiyin, quruq qaytdim.

Fotima, Oysha va bolalarning ishonganlari Qozibek edi. Uning "quruq qaytdim" degan so'zi ularning yuragiga nayzadek qadaldi... "Jo'xori bilan ovqat qilamiz", so'zini eshitgan bolalar, Qozibek kelishi bilan yig'iga boshlagan edilar. Oyshaning kichik bolasi Murot yig'lamsirab:

— Oyi, — deb qichqirib yubordi.

— Aylanay, nima deysan?

— Qornim ochdi!..

— Meniki ham... sovqotdim... ichim sidirilib bormoqda... Oyshaning ikkala bolasi ham ho'ngrab yig'lab yubordi. Arang turgan Hojar ham bunga qo'shildi.

Qozibekning quruq qaytganini ko'rgan zahotiyoq Fotima eshikka chiqib ketgan edi. U bir bog' quruq o'tin ko'tarib kirib keldi, uy ichiga shodlik to'ldi.

— Buni xo'jayinning xotinidan yalinib o'tirib haqiga kir yuvib bermoqchi bo'lib oldim! — dedi Fotima.

Quvrayning yormasini va unni ertaga qoldirishib, jo'xorini qovurib yeyishdi. Murod ko'p yeb qo'yib ichi bo'kib ertasi ichi o'tib kasal bo'lib qoldi. Fotima ham xojasing kirini yuvib beraman, deb bir kun kechgacha ishlab kasal bo'ldi.

Fotimaning kasali kuchaydi. To'shakdan turolmay qoldi. Qizib-yonib yo'talib, tong otguncha gapirib chiqdi. Ikki so'zning birida so'zlagani "Hojar... Hojar!.."

— Yolg'izim... qizim... sen qanday qilasan?.. Kel-chi menga! Hojarni ol-chi.. ol-chi! Sovqotdingmi? Qovurib beraymi! O'qqa uchdi?.. Aytquli hay... Qayerdasan!..

Hojarda harakat yo'q. Go'yo bir narsani sezganday bo'shashadi, onasini quchoqlagisi, yig'lagisi, o'pgisi keldi. Bu yosh yurak onasidan ajralib, boylarning tuzog'ida azob chekajagini bilarmikan?..

Bola aziz onasini quchoqlab, ko'zlarini yosh bilan yuvdi... Biroq bechora Hojarning tilagi bo'lmadi. Onasi Fotima tildan qoldi... Hojar yig'lab onasining boshini quchoqladi:

— Onajonim, uyg'onsang-chi, ko'zingni ochsang-chi. Menga qara, men qanday qilaman! Mening kunim nima bo'ladi, bir og'iz gapirsang-chi?

Fotima ko‘zini ochib, Hojarga boqdi-da, bir narsa demoqchi bo‘lib:

— Ho! Jar!.. — dedi, biroq tili gapirishga kelmadi.... So‘z to‘xtadi... Ko‘kragini ko‘tarib eng so‘nggi nafasini oldi-da, oqarib ketdi...

Hojar “onajon”lab chinqirib yig‘ladi. Uning mungli yoshi aylanadan kelgan “qochqin” qizlarning hammasini yig‘latdi.

Qozibek Oysha bilan Hojarni ergashtirib yana ikki-uch kishi bo‘lib, o‘likni yuqorida aytilgan ko‘p go‘rlarning chetrog‘iga ko‘mib qo‘yishdi.

Endi Hojar chinakam yetim. Unda na ota, na ona bor... Hojar turmush tutquni, boylarning quli..

Mart oyi yaqinlashdi. Bahor kirdi. Ko‘katlar yer ustiga gilam singari yozildilar. “Qochqin” kishilar birin-sirin mollarini yig‘ib buyumlarini sotishib, bir amallab qishdan chiqishdi. Ularning so‘qqa boshlaridan boshqa hech narsalari qolmagan edi. Ovqat izlab har tomonga keta boshladilar.

Qadamlab yurish va kezishga ham, tabiiyki, kiyim-bosh to‘kis hamda qorning to‘q bo‘lishi kerak. Ammo bularda hech narsa yo‘q. Ustilaridagi kiyimlari burungi eski-tuskilar... Go‘yo “yozda tullagan qo‘zi juni” singari titilgandir. Yo‘l bo‘yicha sovuqdan shishib o‘lib yotgan kishilar, ingrab ozg‘in gavdalarini ko‘tarolmay kelayotgan xotin, bolalar, qo‘ldan qo‘lga o‘tib mol singari sotilayotgan qirg‘iz qizlari, bolalari, bahosi — bir qop jo‘xori.

O‘sha chog‘lar, o‘sha mash’um voqealar qaysi qirg‘iz bolasining yodidan ko‘tarilsin?..

Tolipning ham kasali zo‘raydi. Badani oq shish bilan qoplandi. Martning o‘rtalarida u-da o‘ldi... Go‘ristonga ko‘mish mumkin emas, go‘rni sotib olasan, deb turponliq boylar Tolipni ko‘mdirishga (Fotimaning oldiga ko‘mmoqchi edilar) yo‘l bermadilar.

Sotib olishga Qozibekda pul qayoqda? Ichar va yeyarga hech narsasi qolmagan, o‘zlari o‘lim oldida o‘ltirardilar.... Tun qorong‘isi bilan Qozibek dalaning bir chetiga Tolipni ko‘mib keldi...

Elning bir to‘pi azoblanib chinqirib Qoqshol degan joyga ko‘chmoqchi bo‘lishdi. Qozibek ham ketmoqchi bo‘ldi. Biroq

Qozibekni Sobitoxunboy ko'chirtirmadi. Qishdan beri bo'lmagan yolg'on chiqimni aytib, bergan bir ho'plam choyi, yuvindisi, bir ichim go'jalarigacha hisobga olib Qozibekni qarzdorlik kishani bilan bog'ladi. Qozibek boy oyog'iga yiqildi-yolvordi. Haqi bo'lsa ham kechib yuborishni boydan so'radi. Unga Sobitoxun sira ko'nmadi. Hojarni o'ziga so'radi, "bermasang, go'shtlaringni burdalataman!" deb do'q urdi. Qo'rqitdi.

Qozibek qiynaldi, qistaldi, nima qilishini bilmay qoldi.

— Hoy, xotin!

— Nima?

— Qorin ochligi va kasalligimizdan ham boyniki oshib tushdi-ku!

— Nima deysiz, ayting?

— Hojarni Sobitoxunga sotsak qalay bo'ladi? Sot, deb qo'ymayotir.

— Qo'ying-chi?

— Chin.

Oysha cho'chib ketdi... Fotimaning o'lar oldida yolg'iz ko'z qorasi Hojarni, unga ishonib qoldirib ketgani yodiga tushib ketdi. Bir narsa so'zlashga og'iz juftlagandi, eshikdan kelayotgan oyoq tovushi uni to'xtatdi.

— Sekin, eshitmasin, kelyapti! — dedi Qozibek.

Bu Hojarning kelishi edi.

Hojarning chiroyliligiga, yoqimli, oq jamoli, xushchaqchaqligiga Sobitoxun ko'pdan qiziqib yurar edi. Uning butun fikri — ishqilib Hojarni qo'lga olsa!

Sobitoxun bu tilagiga ham erishdi... Hojarni zo'rlab oldi. Hojarni baholab Qozibekka arzimagan pul, bir eshak, bir pud jo'xori uni berdi. Undan boshqasini dovlagan haqqiga chegirib qoldi. Qozibek ko'chini olib Qoqsholga jo'nadi...

Eng avval Hojarning yegan-ichgani osh bo'lmay, uning ustiga ota-onasiga kuyib, qilday ozib ketgan edi. Ammo keyinchalik Sobitoxunning uy ichi bilan tanishib, qayg'ulari yozilay dedi.

Bir yil o'tdi. Hojar to'ldi: o'n oltiga chiqdi. Hojar desa Hojar deganday, ikki yuzi olmaday bo'lib, qora ko'zi kishi yuragiga sevgi beradigan bo'ldi.

Sobitoxunning oshnasi — turponliq chir degan bir boy dungan bor edi. U bir kun atayin Hojarni ko'rmakka keldi. Hojarning tagijoyi bilan tanishdi.

— Bir do'ndiq ekan do'stim. Hojarni menga ber, nima olaman desang, mana men tayyor! — dedi Chir.

— Do'stim, sendan ayab qayerga borar edim. Ishqilib qo'limdan ketgan chiqimlarimni to'lasang bo'lgani! — dedi boy.

Chiqimga kelganda Sobitoxun eshagini ot, unini tilla pul qilib ko'rsatdi. Undan Chir qochmadi. Nihoyat, oltinni sanab berib, Hojarni oldi... Uning o'yi — Hojarga uylanish, uni quchish, umr rohatin ko'rish edi...

* * *

To'y bo'ldi, xalq tarqaldi. Tun kirdi. Hojarga kuchlab nikoh o'qildi. Hojarning yurak ezadigan ovoz bilan ho'ngrab yig'lashiga boy xotinlari ahamiyat bermay, sudrab olib kelishib, qiz bilan kuyovga moslab qurilgan o'tov ichiga kirgazishdi.

— Qanday baxtsizman-ey, nega umr bo'yi azob uchun dunyoga keldim? Men shunga duch kelamanmi-ya?

Ko'z yoshi mo'lt-mo'lt etib yostig'iga tomchilab tushdi.

Tengsiz xayol Hojarni qurshab, yozgi o'simlikday gul ochgan quvnoq chehrasi yosh umri, atir hidli Olatovi, sevikli ota-onasi Hojarning ko'zlari oldidan birma-bir o'tdilar.

Qornini ochirmay, silab o'stirgan Aytquli otasi, ko'krak suti berib boqqan marhuma onasi uning yodidan sira chiqmaydi. Otadan ko'ra qiz bola onaga yaqin-ku! Uning, onasi esiga kelganda ko'z yoshi tiyilmay oqadi.

Bechora ona sevikli Hojarni qo'ldan qo'lga sotilib xor bo'lsin degan umidda o'stirmagan edi...

Eshik g'ichirlasa bechora Hojar "o'shamikan?" deb yuragi jizillab ketar, u bilan qanday bir ko'rpada yotish va umrli hayot kechirish mumkin, degan o'y bilan azoblanar, yuzlarini yosh bilan yuvar edi...

Bir chog' eshik g'ichirlab ochilganday bo'ldi, tashqaridan o'tovga bukchaygan, novcha, ketmonsimon soqoli ko'ksini qoplagan, soqoli orasidan mo'ralagan oppoq qorday sovuq, qarilik

nishonalari jilvalangan, yoshi ellikdan oshgan qo'rqinchli bir gavda ko'rindi... Bu — Hojarni so'litmoqchi bo'lgan garmsel — kuyov....

Hojar cho'chib ketdi, yuragi o'ynab chinqiriq soldi. Uning yurgani, Hojarga yaqinlashgani hamon sezilib turdi... G'o'daygan qo'l ko'rpaga kelib chirmashdi, muzday tana ko'rpaga jilib kirdi. Hojar chirillab, qochmoqchi, baqirmoqchi bo'ldi... Biroq kuchsizlik qildi, tovushi bo'g'ildi, qo'l-oyog'i, nihoyat gavdasi burgut changaliga qimtinib kirdi... U quchoqladi, bag'riga bosdi, "cho'lp" etgan tovush chiqdi.

Olti oy o'tdi...

Chirning sevishlari so'na boshladi... Ilgari Hojarga uzala tushib birga bo'laturgan, erkalatadurgan bo'lsa, endi haftasiga bir marotaba ham o'tovga kelmaydi, buning ustiga Chirning ikki xotini Hojarga har daqiqada siqiq bilan yaxshilik ko'rsatishmadi... Hojarni og'ir ishga solishardi: kul-axlat tashigan, choy qo'ygan, o't yoqqan kim? Hojar! Bu ham ozlik qilganiday, Hojarga boy xotinlari kaltagi tega boshladi. Hojar oriqlab, sarg'aydi.

* * *

May oyining oxirlari, tun... Osmon ochiq. Munchoqday tizilib ko'k dengizida suzib yurgan sonsiz yulduzlar bir-biriga imlashganday jimirlashdi... May oyining tungi salqin havosi va yumshoq shabadasi tabiat qo'ynidagi borliqning hammasini allalab, uxlatgandi.

Biroq janubdan yumshoq shamol esib, o'simliklarning yozgi yosh yaproqlarini silkitib turar, olisdan nimanidir quvlashib, dala qorovullarining "ayt-hayt" degan tovushlari yangrab eshitilmoqda edi.

Sekin yurib Chirning uyidan Hojar chiqdi. Hojar tovushsizgina yo'nalib uzun qora sochi chuvalashib, orqasiga qaramay uydan uzoqlashdi...

Yugurib o'tirib, Hojar onasining go'riga yetib keldi-da, butun ichidagi armonlarini to'kib soldi. Yig'lab-chirqirab, yuqorida aytib o'tilgandek, onasi bilan xayrlashib, yo'lga tushdi.

Hojar Qoqsholga tomon yo'l oldi. Chunki Qoqsholda turgan qirg'izlar bor ekanligini eshitgan va Turpon bir necha kunlik yer ekanligini yaxshi bilar edi. Ishqilib — o'sha qirg'iz eliga borib, boshini yashirib Chirdan qutulmoqchi.

Hojar yugurib o'ltirib tong yorishiga yaqin qolganda qalin bir to'qayga kirib keldi va bekindi. To'qay ichidagi kishi ko'mar qalin o'tlar Hojarni ayaganday, yovdan yashirganday qo'yniga oldi. Zulm panjasi ostida boshi rohatli yostiq ko'rmagan Hojar, charchagan gavdasi-la maysa ustiga cho'zilib yotdi-da, uyquga kirdi...

Quyosh chiqdi, kechasi bilan tildan qolganday tovushsiz yotgan hasharotlar ertangi tongning oltin yog'dulariga ko'milib uyg'ondilar. Biroq Hojar butun badanining juda zirqirab og'rishidan, yuragining hapriqishidan u qadar totli uyquga muyassar bo'lmadi.

U shu yerda kechgacha yashirinib yotdi. Bugina emas, bir tomondan qorni ham ochdi. Lablari gezarindi. Hali ham nochorlana boshladi. Qosh qoraygan kezda o'rnidan siljib yana yo'lga tushdi.

Ko'p vaqt o'tdi, tong yorishib kela boshladi. Hojar Turpon bo'ylab qirg'oqqa chiqib Qoqsholning chetiga keldi. Qoqshol — cho'l. Suvsiz keng dasht! Har qaysi yerda o'sgan bitta-yarimta to'bilg'ini hisobga olmaganda, bu yer mutlaqo giyohsiz keng maydon edi...

Shuning uchun Hojarga burungiday bekinishga yer topilmadi. Izlashga majoli qolmadi. Ilgari yuray desa, qoqilib oyoqlari qumlarga ko'milib och Hojarga mumkinlik bermadi. Yiqilib tusha boshladi.

Kun ko'tarilib qoldi. Qum issiq. Hojar zo'rg'a sudralib borib sariq akas tagiga yiqildi. Tomog'i quridi-suvsadi. Bir qultum suv ko'z oldidan o'tdi. "Eh, bir qultum suv", dedi va "ichib o'lsam armonim yo'q", deb yana so'zini takrorladi. Biroq bunday cho'lda suv qaydan bo'lsin? Yo'q.

Suvga, yana bir kun qo'nsa, shundagina yetar edi. Quyosh ko'tarilib, tush bo'ldi. Kun boyagisidan ham kuchayib isidi. Miya qaynab, Hojarning quvvati ketdi. Isib, terlab, tili og'ziga sig'may qoldi.

Qanday qilsin. Bechora! Ustidagi choponini yechib "soyabon" qildi-da, yurak ezganday yig'lab-yig'lab uyquga ketganini bilmay qoldi.

* * *

Mayning oqshom shamoli esdi, qo'shoq-qo'shoq ko'kda kezgan oq bulutlar, shamolning kuchi bilan uchirilib, Tiyonshonning ko'kni quchgan balandligiga haydalib borayotir. Qoqsholning keng, xalq yashamagan maydoni, bulutlar-la soyalanayotir.

Dala tinch... Bulutlarning ko'lankasi Hojar yotgan cho'lning ustiga tushib qanot qoqqanday bo'ladi. Kuchli shamol uning to'zgan sochlarini ko'tardi-da, so'lg'in yuzlariga yopdi. Go'yo Hojarni qitiqladi, erkalatdi, uyg'otdi.

Hojar yana galdirab yo'liga tushdi. Qosh qorayib tun kirdi... Go'zal oy mung'ayib, oltin nurga bo'yalib ko'ksini ochdi. Nur shu'lasi bilan tunning qorong'ilik masofasini yorib tashladi-da, keng dalani quvontirdi. Yosh boladay jilmayib qo'ynini ochib Hojarga quchog'ini yoyib yo'l berdi.

Hojar biroz yo'l yurib kelaverganida, orqa yog'idan ko'p narsaning shitirlashib kelayotgani sezildi. U Hojarga yaqinlashdi. Hojarning yuragi o'ynab, qo'rquv bosdi...

Bir pasdayoq Hojarning aylanasini bir talay qashqirlar o'rab oldi. Hammasi ham och. Qovurg'alari sanab bo'larlik bu qashqirlar, irillashib, Hojarni burdalab yemoq uchun birdan yopishmoqchi bo'ldi.

Hojar yonini kovladi-da, gugurt topdi. Fikriga "qashqir o'tdan qo'rqadi", degan xalq maqoli keldi. Gugurtni tez yoqib, cho'pga tutdi. Uymalashgan qashqirlar Hojar qo'lida va yerda yonayotgan o'tdan uzoqlarga qo'rqib qochishdi. Hojar gugurti bilan cho'plarga o't qo'ya-qo'ya oxiri gugurti tugadi. Faqat bir donasigina qoldi...

— Chiroqday yongan yosh hayotim — mana shu gugurt! Mana shu o'char ekan, mening hayotim ham o'chajak... O'lim... Qashqirga yem, — dedi yig'lagan holda Hojar.

Hojarning yodiga birov ta'kidlaganday, shop etib shu cho'pzorga ot qo'yish keldi. Gugurtni yoqib cho'pzorga tutdi. Olti oy yozi bilan hech bir maxluq ko'rmay quyosh qizig'i-la quruqshagan bu

cho'pzor olovlanib alanga oldi. Hojarga yorug' berganday hamma yoqni ko'rsatdi.

To'plangan qashqirlar, ketma-ket qochganday bo'lishdi. Hojar esi biroz o'ziga keldi. U o'tdan uzoqlashgisi kelmadi. Butun umidi, tilagi shu o'tda, agar o't o'char ekan, Hojar ham o'chajak.

O't o'cha boshladi. Yana uzoqdan uvullashib qashqirlar yopirildi.

Hojar endi hayotdan umid uzdi. Suyangan o'tdan ajralish, yov qo'liga tushish va yirtqichlarga yem bo'lishini bildi. Ko'ngli qorong'ilashdi. Aql-hushi va esi og'di, ko'ziga shamol, cho'pzor, tosh, dala hammasi yov bo'lib ko'rindi.

Irillashdan tinmay qashqirlar og'iz ochib Hojarga yaqinlashdilar. Bunga Hojar hiyla qilmoqchi bo'lib, qo'li bilan kulning cho'g'larni yon-yoniga sochmoqchi bo'ldi. Lekin, qashqirlar o'chakishganday Hojarga yopirildi.

— Mana endi men sizlarniki, olinglar! — dedi Hojar va boshqa so'z aytishga madori kelmay, yiqilib tushdi... Ustiga qashqirlar yopirilishib ketdi... Burdalay boshlashdi. Irillashdi, u yoqqa-buyoqqa surgashdi... Chirillagan Hojarning so'nggi ayanchli ingrashlarigina eshitildi.

Ko'k yuzida jimirlab turgan sonsiz yulduzlar Hojarni qizg'anishib, unga so'nggi nurlarini berib xayrlashganday soyalandilar...

Ertasi turponliq kambag'allar o'tin terib yurganlarida sachrandi qonlarni uchratdilar. Bunga hayron bo'lib izidan ketdilar. Ko'p yurmasdanoq bechora Hojarning qashqirlar yarmini yeb tashlagan boshini, yulingan qop-qora sochlarini uchratdilar.

Voqeani sezgan turponliqlar Hojarni bu holga solgan o'sha chirkin turmushga va yetakchilari bo'lgan boy, manap va zolimlar ahliga nafratlar o'qidilar.

Atigi bir necha odim narida o't qo'yilgan maysazorda esa Hojarning kavush-mahsisi, burda-burda bo'lgan kiyimlari yotar edi...

AALI TO‘QAMBOYEV

(1904–1988)

Zamonaviy qirg‘iz adabiyotining asoschilaridan biri, yirik shoir va yozuvchi Aali To‘qamboyev Chuy viloyatining hozirgi Kemin tumanida tug‘ilgan. Ularning oilasi ham 1916-yilgi qo‘zg‘olon tufayli Xitoyga qochib borib, yo‘lda qirg‘inga uchrab, yosh Aali g‘irt yetim bo‘lib qoladi.

1922-yilda Toshkentda internat-maktabga o‘qishga kiradi. Oradan ikki yil o‘tib uning ilk she’ri Toshkentda chop etilgan birinchi qirg‘iz gazetasida bosilib chiqadi. Bo‘lajak adib 1927-yilda O‘rta Osiyo davlat universitetini bitiradi. 1938–1939-yillarda millatchilikda ayblanib, qamaladi, 1947-yilda kosmopolitizmga berilganlikda ayblanadi.

Biroq bularga qaramay, tinimsiz ijod bilan band bo‘lib, o‘zidan cho‘ng adabiy meros qoldirdi. Xizmatlari e’tirof etilib, 1945-yilda Qirg‘iziston xalq shoiri unvoniga sazovor bo‘ladi, 1954-yilda Qirg‘iziston fanlar akademiyasiga a’zo qilib saylanadi, 1974-yilda esa Mehnat qahramoni unvoni bilan siylanadi. Aali To‘qamboyev nomi Qirg‘izistonda juda ko‘p obyektlarga qo‘yilgan.

TERAGIM

Qaysi kuni kim yozdi ekan otimni
Yosh terakning oppoq kumush taniga?
Kelinmikan, yigitmikan, shoirmi?
Bu odamning nedir ekan maqsadi?

Yosh terakning kumush to‘ni eskirib,
Yozgan harflar tarvaqaylab boryapti.
Mening ham umrimga kech kirib,
Teragimga nazar solgim kelyapti.

Meni ko‘zlab qancha shoshsa qarilik,
Men mehnatga undan battar shoshaman.
Ul qarilik o‘g‘irlaguncha bekinib,
Toleyimning ancha yo‘lin bosaman.

TOSHKENTIM

Taqdirimda saxovatli kunlar bisyor,
Butun hayotim ularsiz so‘qirday;
Nurga intilgan kapalak monand,
Yetimlik qa’ridan shaharga oshiqqan bola...
Sen mening murabbiyimsan, Toshkent,
Qanot berding menga oqqushday.
Ey mening Toshkentim!
Menga qomat va nutq berding.
Sening mehr nuringni
O‘zimda men saqladim.

Yutoqib ichdim abadiy jilg‘adan,
Dunyo donoligin uqdim kitoblardan,
Ilk bora bulbul hayajonin
Sezdim men yolg‘iz yurakdan.
Ey mening Toshkentim!
Sen — beshigim mening,
Burgut kabi uchish uchun o‘stirding.

Toshkentim, otam mening,
Abadiy sendan qarzdorman,
Yuragimdan joy olding,
Otilib turgan buloqsan.

O‘sha ikki sevgi, ikki sir, ikki ezgulik,
Egasiman ota-onam bergan.
Toshkent berdi qalam aqlini,
Yashnash daqiqasin yozmoq paytini:

Shundan buyon ruhimda gullaydi bahor —
Shoir Alisherdek ilhom betakror.

Toshkent, azizim mening,
Uyim, oilam, do‘stlarim —
Dunyoga ochgan
Bulbul yuragin.

Butun Osiyoning gullagan markazi,
Yasha va bardam bo‘l, mening shahrim, har doim
Ko‘plarning sen yo‘lchi yulduzi,
Yanada gullab yashna, ezgulikka o‘rgat doimo —
Qilinajak ishlarni, saxovatli bog‘larni,
Otalik mehri, nasihat ila.

OY NURIDA QISHKI TUN

Oy nurida qishki tun,
Ayron to‘kib qo‘yganday.
Sado chiqmas to‘qay-yer
Uxlab yotar uyg‘onmay.

Manmansigan qarag‘ay,
Fe’li keng chollarday.
Qor yopingan shox-shabba
Oq to‘n kiygan bolalarday.

ONAJON

O, onajon! Sen bir yorug‘ tongsanki,
Shulang mangu nur sochadi, so‘nmaydi.
O, onajon! Shunday kuchli jonsanki,
Ulug‘lar ham sensiz nochor — o‘ngmaydi!

Onajonim! Borayapsan ulg‘ayib,
Qarilikka bergim kelmas o‘zingni.
Biroq umr — shoshayotgan bir yelkan,
Aytib qoldir bizga qutlug‘ so‘zingni.

Ayt orzuing, aytgil yana, onajon,
Sog‘inganda yodga olay armoning.
Bajarayin, “topshiriq, — deb, — onamdan”,
Ayt onajon, bormi menga farmoning?

Mehribonim, kulib boqsang bolangga,
Oltin beshik bo‘lar menga tog‘mi, tosh.
Mudom menga aylanay, deb aytasan,
Qalb eritar mehring tafti — zo‘r quyosh.

O, onajon! Sen bir yorug‘ tongsanki,
Shu’lang mangu nur sochadi, o‘chmaydi.
O, onajon! Shunday kuchli jonsanki,
Qay vallomat sendan yordam kutmaydi!

AGAR...

Quyosh bo‘lsam ko‘zlarni qamashtirgan,
Nurimga to‘yguningcha qonar eding.
Suv bo‘lsam qoyalardan uchib tushgan,
Ohista ob olishga borar eding.

Darani chaqmoq yanglig‘ yorib o‘tib,
Seni o‘z quchog‘imga olar edim.
Yuqtirmay muhabbatga zarra g‘ubor,
Sevgilim, visolingga qonar edim.

Bo‘lsam gar tiriklikning tilsim suvi,
Hisobsiz uzun umr berar edim.
Gul shoxida sayragan bulbul bo‘lsam,
Kuttirmay tez yoningga kelar edim.

Hijron ichra to‘lg‘anib yotgan bo‘lsang,
Dardingni sayrab-sayrab yengar edim.
Sangtarosh bo‘lsam agar, shoir bo‘lmay,
Toshlarga suratingni chekar edim.

KUYNING SIRI

(Hikoya)

Olis yo'lda bir mo'ysafid bilan hamroh bo'ldik. Uning tekis oqish soqoli o'rta bo'yiga moslab yasab qo'yilgandek. Tashqi ko'rinishiga qarab ellik-ellik besh yoshlarda, deb aytsa bo'ladi. U gapirganda so'zlari qandaydir boshqacha ma'no kasb etib, eshitgan odamni o'ziga ohanraboday tortgani seziladi.

Yo'lovchi nimalarga yo'liqmaydi deysiz. Qattiq yog'gan jalaga duch keldik. Onda-sonda yarqillagan chaqmoqning zuvillab chaqnashi, ko'zni ochib yumganday seziladi. Yurishga imkoniyat yo'q. Bir-birimizga suyanib panaga yashiringandek bo'lamiz.

— E, Xudoyim-ey, shunchalik qo'rqinchli bo'ladimi... Sel kelib qolmasin-da, ishqilib, — deydi yo'lovchilardan biri.

— Tong omon bo'lsin. Selni tong paydo qilgani yo'q. Jalaning oyog'i selga yetmaydi. Bu yomon jala, — deydi birov kulib.

— Bizni oladigan jala yo'q, endi tongning quchog'iga kiramiz, — deb so'zni burdim-da, qorasi ko'rinmay qolgan hamrohlarimizga qaradim. Xuddi shu kez kuchli chaqmoq yarq etganda, poylab turgandek mo'ysafidning nigohlari bilan nigohim to'qnasha ketdi.

— Oqsoqol, — dedim, — sizning magnitday ko'zingiz mening ko'zimni o'ziga tortib olsa kerak... Chaqmoq "yarq!" etganda, ko'zingiz yalt etib ketdi-ya. Hamon ko'zlaringiz meni sehrlayotgandir? Lekin o'zingiz menga ko'rinmaysiz. Shundaymi? Ko'ra olmay qolganingizda, so'zingiz bilan sehrlang, — dedim.

Hamrohlarimning biri:

— Olis yo'lda, qiziqarli hangoma qo'rqinchni yengadi, — dedi.

— Sizlarni gapiringlar desam, choponni yoqasidan kiyadi deysizlar-a? Bo'pti. Men o'z navbatimni o'tkazaveray. Sizlar ham navbatingiz kelishini unutmang, — deb tomog'ini qirib oldi-da:

— Unda quloq soling! — dedi mo'ysafid.

Jala duvullab yog'ardi. Mo'ysafid hikoyasini shunday boshladi:

— Umr tezlik bilan yarq etgan chaqmoqqa o'xshab olamga bir ko'rinib, yalt etib o'chish uchun shoshadi. Men o'shanda yigirma yoshlarda bo'lsam kerak.

... Yaylovning ajoyib payti. Men yo'lovchiman. Quyuq, o'siq maysa otchan kishining uzangisini chalib, boshini erksiz chayqab qolaveradi. O'zim ham charchab-horib qolganman, yotib qolay desam, qornim och. Nima bo'lsa ham qirdan oshib olay-chi, qishloq yo'q bo'lsa, umidimni uzib birato'la yotaman deb, qirlikka chopib chiqdim. Keng yalanglikdagi qishloqlar xuddi dengiz ustiga o'rnashganday bo'lib, yangi joy olgan uylar maysalarga burkanib qolibdi.

Chopar emasman-ku, otimni astaroq haydab, do'nglikdagi yig'ilgan odamlarga salom berdim. Ularning chetrog'ida o'tirgan qizil belbog'li yigit yugurib kelib otimni yetaklab nari ketdi.

— Kel, bolam! Kel, — deb odamlarning o'rtasida o'tirgan yo'g'on sariq kishi o'ng tomoniga ishora qildi.

U kishining qarashlaridan qachondir shuhrat qozongan qahramon bo'lganday ko'rinardi. Ko'zlarining atrofi quduqday chuqur. Qorachiqlari zo'r-bazo'r yiltiraydi. Burni burgutning tumshug'iday bo'lib, tishi yo'q og'zi tomonga xiyol himarilib turibdi.

Uning hadsiz katta, semiz yuziga qaraganda yoshi o'ta qari deyishga bo'lmaydi-yov. Lekin qonsiz, eti qochgan shalpaygan qulog'i, qo'nqaygan oriq burni qariligidan dalolat berib turganday.

Qo'lidagi o'rikdan yasalgan qo'miz oqsoqol bilan ilgaritdan hamrohdek, chiniqqani ko'zga yaqqol tashlanadi. Qo'mizning quloqlari esa baquvvat, archadan yasalgani va ko'p ish bergani aniq.

— Bolam, yo'l bo'lsin? — deb qariya so'rab qo'ydi-da, mungli kuyni asta cherta boshladi. Mening so'zimni eshitdimi-yo'qmi, bilish qiyin. Sababi, u oldiga qarab bir nuqtaga tikilgancha o'tiribdi. Hech narsani eshitmayotgandek. Bu odam yo o'ta takabbur — birovni mensimagan, yo aynib qolganmi, deyman o'zimga o'zim. Lekin unday bo'lib chiqmadi.

— Bolam, durustgina bola ekansan. O'zi yo'lovchi odamni dastavval qornini to'yg'izib turib, keyin gaplashish kerak. Qimiz

olib kelinglar-chi! — deb qo'mizining qulog'ini ko'tarib qo'ydi-da, haligi mungli kuyni yana chala boshladi.

— Bolam, uzoq yo'ldan kelayotgan ekansan, nos chekasanmi? — dedi kuy chalishdan to'xtab.

— Chekar edim, oqsoqol, — deb jim bo'ldim. Sababi, yonimda nosim yo'q edi. Quruq nosdonni uzatish noqulay. U mendan nosdon kutmapti.

Naqshli keng etigi qo'njidan kattagina shoxdan yasalgan nosdonni sug'urib olib:

— Chek bolam, chek, — dedi. Lekin nosdonning boshidagi mis qopqog'ini sharaqlatib ochib, nosni o'z kaftiga solgach, otmay turib, nosdonni mening oldimga tashladi. Men nos chekkunimcha, boshini osmonga ko'tardi-yu, kaftini og'ziga qoqib yuborib, haligi kuyni yana chaldi.

Qimizni ichib, uyga kirguncha, o'sha bitta kuyni qariya o'n marotaba qaytarib chaldi-yov.

O'tirganlarga kuyning qizig'i yo'qmi, yo tushunishmaydimi? Bu to'g'risida hech kim hech narsa demasdi. Kuyni oxirigacha chalib bo'lgandagina:

— Ii, bolam! El-yurt omonmi? I, bolam! Bug'i otishga tayyorlanyapsizlarmi? Ii, bolam! Sening qanday hunaring bor? — deb qo'yadi-da, haligi kuyni boshidan boshlaydi. Xuddi qariyaning niyati shu kuy atrofida turgandek.

Qosh qoraygandagina:

— Ii, bolam! Uyga kiraylik, — dedi qariya.

Qo'y so'yilib qozonga tushguncha, qariya o'sha yolg'iz kuyini bir necha marotaba chalaverdi.

— Mo'ysafidning bu kuyi nima deb ataladi? — deb so'radim yonimdagi qorasoqol kishidan.

— Bilmadim. Buni hech kim bilmaydi, — dedi u.

— Siz shu qishloqdanmisiz? Nega bilmaysiz? — deb u kishidan yana so'radim.

— Ha, inim, — dedi jilmayib, — shu qishloqdanman. Men bu kishidan ellik yosh kichikman, so'rasangiz javob bermaydi. So'rab bilib beradigan tengqurlari ham yo'q. Shuning uchun bo'lsa kerak, hech kim bilmaydi, — dedi.

U kishining so‘zlari meni battar qiziqtirib qo‘ydi. Nima qilib bo‘lsa ham, bu kuyning sirini yechish kerak, degan fikr xayolimdan ketmay qo‘ydi.

Mo‘ysafid kutib turganday:

— Ii, bolam! Qo‘miz chalishni bilasanmi? — dedi qo‘mizining qulog‘ini burab turib.

— Taqdirimga qo‘miz chalish yozilmagan ekan, oqsoqol. Bundan juda ham o‘kinaman. Lekin meni tinglash uchun yaratgan, — dedim.

— Ii, bolam! Hayot shunday. Bo‘laman deganda bo‘lib qolaversa, unda odamlarning hammasi donishmand bo‘lib oladi-ku. O‘shanda g‘am-alam ham bo‘lmasmidi, qiziqlar ham tug‘ilmasdi, — dedi mo‘ysafid chalishga hozirlanib. Mening sabrim tugadi. Chidamim qolmadi.

— Oqsoqol, sizdan bir narsani so‘ragim keladi. Bir xalqniki ikkinchi xalqqa tabarruk emasmi. Bermaydigan bo‘lsangiz, uyat bo‘lib yurmay, — dedim.

— Yo‘q, bolam! Mehmon ulug‘ bo‘ladi. Mehmondan ayagan — Xudodan ayagan bilan barobar. So‘raging kelganini ol — deb, qo‘mizining bilagini ushlab, tovushga zehn solgan burgutday qaqqayib qoldi.

— Elga er qimmat. Erga eli bilan yer qimmat. Yana, sir-sinoati yechilmagan hunar qimmat. Men uchun sizning kuyingiz sir-sinoati yechilmagan savol bo‘lyapti. Siz bunchalik mungli qilib chalgan kuyning tarixi bizga qorong‘i. Mumkin, qancha yillardan beri shunday chalayotgandirsiz? Lekin bu haqida hech kim bilmagani ham qiziq. Malol kelmasa, kuyning sir-sinoatini yechib bersangiz? — dedim.

— Oh, bolam-a, — dedi qariya, — endi aytmasam bo‘lmay qoldi-ku! So‘raganingni ol, deb og‘zimdan chiqib ketdi-da. Bu sir yetmish yildan beri yechilgan emas edi. Bu kuyning boshlanganiga yetmish yetti yil bo‘ldi. Unda men o‘n oltiga endi chiqqan edim. O‘n muchalga yetsam aytaman, deb ont qilgan edim. Nima qilay, ontim buzilganini arvohlar kechirsin. O‘lgan arvohdan qo‘rqib, tirik odamning ko‘nglini og‘ritib qo‘ymay, — deb mo‘ysafid gapirishga hozirlandi.

Gapirishdan oldin qopqoqli nosdonni etigiga qoqishtirib, so‘ng kaftiga nos solarkan:

— Qo‘lingni tut, bolam, — deb nosni menga berdi-da, indamay yerga engashib olib, ancha vaqt jim o‘tirdi. Qachonki men og‘zimdagi nosni tuplaganimdan keyin, mo‘ysafid:

— Bu hikoya aynan shu yurtdan boshlanib, shu yerda nihoyasiga yetgan, — deb so‘z boshladi.

Yaylovning ko‘rkli bo‘lgan mahali, aynan shunday payt edi. Qulunlarni bo‘shatgandan so‘ng, yilqini buloqqacha o‘zim haydab borar edim. Doim o‘zimning yaydoq qo‘ng‘ir yo‘rg‘amni minardim. Bir kuni qalin tuman qoplagan paytda qulunlarni bo‘shatdim. Odatdagiday, yilqini buloqqa olib borib, yo‘rg‘am bilan qayta haydab qaytdim. Oldimdan qizg‘ish rang ot mingan yigit yo‘liqdi-da:

— Bu kimning qishlog‘i? — dedi. Men javob bermasdanoq, kaklik tutib olgan burgutday, yo‘rg‘amni changallab oldi. Men hech narsadan qo‘rqqanim yo‘q. Otamning ko‘p o‘rtoqlari meni shunday qilib erkalatishardi. Men o‘shalarning biri bo‘lsa kerak deb o‘ylagandim. Lekin uning qo‘llari burgutni changallaganday, suyaklarimni og‘ritib yubordi.

— Amaki, kuragim og‘rib ketdi, — dedim. U tanishlardek: — Hech narsa bo‘lmaydi, — deb to‘nining yonini yanada mahkam o‘radi. Uning bu harakati o‘pka-bag‘rimni siqib yubordi.

O‘shandan keyin yuragim bezovtalanib:

— Ota! — deb tipirchilay boshladim.

— Jim yur! — deb choponining ikki yog‘ini taqimiga mahkamroq tortib bukladi-da: — Yig‘laydigan bo‘lsang, o‘ldiraman, ovozingni chiqarma! — dedi. Jag‘im o‘chdi-qoldi. Tutqun bo‘lib qolganligimni endi aniq tushunib yetdim-da:

— Amaki, meni qayoqqa olib ketyapsiz? — deb so‘radim entikkan holda.

— Mendan hech narsa so‘rama. Og‘zingni ochding, o‘lasan, — dedi.

Men boshqa indamadim. Hansirab arang nafas olardim.

Kim olib ketyapti, qayoqqa olib boryapti, menga noma’lum edi. Tun kirganda, dalada to‘xtadi. Xurjundan yegulik olib tamaddi qildi. Menga ham berdi. Lekin og‘iz ochib gapirmadi.

Bir kuni oqshom payti katta qishloqqa duch keldik. O‘sha kuni meni o‘ramadi. Qishloqning boshida tuxumday oppoq katta uy turardi. Yigit uning pastki tomonidagi kichikroq uyga keldi-da, birovni chaqirdi. U odamning ovozi eshitilib, o‘zi uydan chiqmasdanoq:

— Mana, haligi! Olinglar, — deb meni ularga topshirgan bo‘ldi shekilli, o‘zi ketaverdi.

Men tushgan uy taniqli boyning qo‘shnisi bo‘lib chiqdi. Tizzasi og‘ziga tekkan qora kampir nimjon, o‘laksa ko‘zi bilan meni ancha vaqt qarab o‘tirdi-da:

— Bolam, sen ham birovning chirog‘idirsan? Qo‘rqma. Sening ham onang bordir? Onaga boladan qimmat hech narsa bo‘lmaydi. Ona bolasi uchun ham kuyinadi, ham quvonadi. Lekin urf-odatimiz shunday ekan. Yoshligimdan beri odatimiz shunday! — deb boshimni silab, peshanamdan o‘pti-da:

— Ovqat yegin, toychog‘im! — dedi kampir.

O‘sha kundan qullik hayoti boshlandi. Qishloqdagilar meni kelib ko‘rib ketardi. Quyonning bolasidek hurkib o‘tirsam ham, har biri bittadan savol berib yurib, tilga kirgizishdi.

Odamlar tinchiy boshladi. Mendan hech kim gumonsiragani yo‘q. Qochib keta olmasligimga ko‘zlari yetib turardi.

— Hov anovi to‘qimni solib, choponni yopinib yot, bolam, — dedi boyagi kampir. Uyda bundan boshqa to‘shanadigan narsa yo‘q edi. Ilojim qancha, yotdim. Uyquda or bo‘larmidi? Qanchalik xayol daryosida oqqanim bilan uyqu o‘z domiga tortdi.

— Hoy, bola, tur! — degan ovozdan ko‘zimni ochdim. Tong otibdi. Oppoq qiz engashib menga qarab turardi.

— Qayoqdan kelding? Qayerliksan? — dedi qiz jilmayib.

— Bilmayman.

— Necha yoshdasan?

— O‘ndaman.

— Oilada sendan boshqa farzand bormidi?

— Yolg‘izman.

— Yur, unda. Sen men bilan birga bo‘lasan, — dedi qiz. Qizga ergashib kelgan yana ikki qiz ham bir og‘iz bir narsa demadi. Qizning orqasidagi sochlarini ushlashib, o‘zlaricha shivirlashardi.

Men kiyinayotganimda qo'shnining kampiri:

— Qizim, yolg'iz joning bor, xor qilma. Ona suti og'zidan ketmagan birovning yolg'izi ekan. Boladan hamma narsani kutsa bo'ladi. Bola ochilmagan tuxumday gap. Undan qarg'a ham, lochin ham chiqishi mumkin. Er kishi — xalqning rizqi. O'zingga uka qilib ol, qoqindiq, — dedi.

— Buvijon, — dedi qiz jilmayib, — siz aytganday bo'lsin, uka qilib olaman. Oting nima? — deb, yerga qarab tursam, iyagimdan ko'tardi.

— Zorliq.

— Oh, aylanay... Birovning zoriqib yurib ko'rgan yolg'izi ekan-a. Ota-onang Zorlig'ining zorini tortib qolgandir? O'lma, bolam, o'lma, — deb kampir manglayimni silab, peshanamdan o'pdi-da:

— Bora qol, toychog'im. Opang bilan bora qol, — dedi.

Mo'ysafid shu yerga kelganda, o'siq oqish qoshlarini o'ng qo'li bilan silab-silab qo'ydi. Gapirayotgan gapini unutib qo'ydi shekilli, odat bo'lib qolgan kuyni yana chalib yubordi.

— Chol, qo'mizingizni qo'yib, mahtal qilmay gapingizni aytmaysizmi? — dedi mo'ysafidning kampiri.

— Ma'qul, ma'qul! Sening ham eshitging kelyaptimi? — deb mo'ysafid jilmaygan bo'ldi-da, qo'mizini buklog'liq tizzasiga suyab qo'ydi.

— Bu bolam bo'lmaganda, shu gaplarni qabringizga qo'sha olib ketmoqchi ekansiz-da? Ayting endi, — dedi oltmishlarga borib qolgan kampiri.

— Ha-da, boyvuchcham! To'g'ri aytasan, — deb so'zini davom ettirdi:

— Shunday qilib, haligi qizning qo'lida olti yil yurdim. Qizning otasi bir xalqning obro'li boyi bo'lganligidan, uning qarorgohi ham boshqacha edi. Qizida alohida koshonasi bor. Uning qo'l ostida bir uyli qo'shni malayi bor. Ular qizga xizmatkor. Men qizning choychisi bo'lib qoldim.

Malayning ayoli yoshgina kelinchak edi. U so'zamol, uddaburon edi. Shu bilan birga chaqqon va xushchaqchaq. Men unga juda ham o'rganib qoldim.

Biroq mening yotog‘im malayning uyidamas, qiz koshonasining ostonasida edi.

Qiz ostonasida qulning yotishi, u paytlar boshqacha atalar edi. Bu odat hozir qolib bormoqda.

Meni kim, nimaga olib kelganligini o‘sha kelinchakdan bilib tushunganman.

— Sen bu qizning qalini evaziga keltirilgan qulsan. Seni olib kelgan yigit — shu qizning qallig‘i. U — dovyurak, mard, jasur yigit. Uning Qizil burul degan oti, Oq chag‘ir degan miltig‘i bor. Qizning otasi: “Shu ikkovini berasan, bermasang, uchta qul berasan”, — degan. Yigit oti bilan miltig‘ini bermay, uchta qul olib kelib berdi. Shularning uchinchisi — sensan. Ikkalasini oldin olib kelgan edi, o‘ljaga ikki kishi olib ketgan. Sening baxting bor ekan. O‘ljaga ketganingda, qurir eding. Endi seni qiziga qo‘shib beradi, — dedi kelinchak.

Qiz ba’zan erkakcha kiyinib, yigitlar bilan dalaga ovga ketar edi. Kelganda bug‘u, tog‘ echkisi, bo‘ri, ba’zan yo‘lbars ham otib kelishardi. Qaysisini kim otganini birov bilmas, qanday gap bo‘lsa ham ”katta uy”da aytilardi. U uyga borishga oyog‘im tortmasdi. Uning ustiga, sotib olingan qulni odamlar gapiraverishardi. Men haqimda “Falonchining quli ochko‘z emas” deganlaridan quvonib, obro‘yimni tushirgim kelmasdi. Shuning uchun “katta uy”dagi ko‘p gaplardan quruq qolar edim. Ko‘pincha so‘zni qizning o‘zidan eshitar edim. Ermak uchunmi, maqtanish uchunmi, yoki meni ayabmi, uyqusi kelmasa, to‘shagida yotib olib, “katta uy”da bo‘lgan har qanday yangiliklarni aytaverardi.

Uni men “Erka opa” der edim. Sababi u yerdagilarning barchasi qizni “Erka qiz” deb atashardi.

Erka qizning qallig‘i yigitlari bilan tez-tez kelib, mehmon bo‘lib ketardi. Kunlarning birida, ayni saratonda qallig‘i yana keldi. Bu safar u yolg‘iz keldi. Yolg‘iz kelgan bo‘lsa ham, yangalari qizni yigit bilan yo‘liqtirib, gaplashtirib, mehmondorchilik tugagach, kuyov bo‘lmishni boshqa yotoqqa joylab, qizni qayta olib kelishdi.

O‘sha paytdagi yigitlar hozirgidagidek kuchsiz emas edi, bolam. Nimaga bo‘lmasin, ertaroq yotishga harakat qilishardi. Men

o‘zimni uxlaganday ko‘rsatib yotdim. Odamlar uxlamasdan yigit qallig‘ining oldiga yana keldi. Men uni ko‘rgim kelmaydi. Lekin “botir, qahramon” deb odamlarning hammasi uni maqtashadi. Biroq u qanday qahramonlik ko‘rsatganini haligacha bilganim yo‘q. Nafasimni ichimga yutib, ularning gapiga quloq to‘shayman. Bir payt ularning suhbatlari janjalga aylandi.

Qiz baland kelgan sayin menga jon kiradi. “Ishqilib, yigit qizdan ayro bo‘lib qolsa ekan”, deb tilayman. Ularning so‘zlari hozir ham esimda”, — dedi mo‘ysafid.

U qo‘miz tolalarini yuqoriga, pastga bir-ikki tortib qo‘ydi-da, yigitning so‘zlarini ayta boshladi:

— ... Erkam! Qalindan batamom qutuldim. Otang yana chatoq chiqaryapti. Opqochib keta qolay? — dedi u.

— Yo‘q, begim! Otamning yolg‘iz qizi bo‘lsam, to‘y bo‘lmasdan turib, ostona hatlab chiqmayman. Otam nima chatoq chiqaryapti, begim? — dedi qiz.

— Qizil burul yoki Oq chag‘irni bermasa, qizimni bermayman, — debdi.

— Unda ikkovidan birini berib, otamni rozi qilishingizga to‘g‘ri kelarkan. Otam aytganidan qaytmaydigan odam.

— Yo‘q, men otim bilan qurolimdan ayrilib, qiz olmayman, — deb yigit gapning lo‘ndasini aytdi-qo‘ydi.

— Otam ikkovining birini olmaguncha, men sizga turmushga chiqmayman, — deb qiz ham yigitga keskin javob qaytardi.

Shundan so‘ng ikkalasining suhbati ko‘pga cho‘zilmadi:

— Birini bersam, seni olmay, onamni olgan bo‘lay, — dedi yigit. Qizning ham takabburligi tutib ketib, battar kuch oldi.

— Ikkovining birini bermaguningizcha, sizga tegsam, otamga tekkan bo‘lay, — dedi.

Ma’lumki, qirg‘iz xalqida bundan og‘ir qasam yo‘q. Yigit bilan qizning kelishmovchiligi qattiq tus oldi.

— Seni otangning to‘rida qaritaman: o‘zim ham olmayman, erga ham berdirmayman. Birovga beradigan bo‘lsa, qishloqlaringni vayronaga aylantiraman. O‘zingni yaydoq otga mingizib, qul xotin qilaman, — dedi.

Qiz pisand ham qilmadi.

— Uch oyning ichida ikkovining birini berib olmasangiz, men o'zim bilib, qul bo'lsa ham turmushga chiqaman. Haqiqiy erkak bo'lsangiz, alamingizni mendan oling. Men uchun qishloq odamlari gunohkor emas, — dedi qiz pinagini buzmay.

— Uch oyning ichida o'z ixtiyoring bilan bormas ekansan, abadiy qullikda ushlayman, aqlingga kel, — dedi yigit g'azablanib.

— Qul qila olmasangiz, to'shi tukli yer ursin!

— Erga tega olmasang, tepasi ochiq go'r ursin!

Ular ikkinchi gaplashmay qo'yishdi.

Yigit ketgandan so'ng, qiz bir qancha kun tilsiz gung bo'lib yurdi. Mening bo'lsa quvonchim cheksiz. Qiz o'shanga tegmasa ekan, deb yuribman.

Bir kuni qiz to'shagiga yotishdan oldin ipak yostiqlarini qoqayotib:

— Kichkintoyim! — dedi menga jilmayib, — sen to'rga — menga yaqinroq yot. Mana bu ko'rpani solib ol, — deb yumshoq ola ko'rpani to'rga tashladi.

Men uning to'shagiga yaqin yotdim. Ich-ichimdan quvonaman. Lekin tushunolmayman.

Yotishi bilan qiz meni savolga tuta boshladi:

— Sening otang obro'li kishimi? Qaysi tomondan kelganingni bilasanmi? Necha kunlik yo'l? — dedi. Quvonganimdan yuragim hovliqib ketdi. Otamning qadrini o'ta balandga ko'tarib maqtab, bilmaganimni ham "bilaman" deya boshladim.

— Otang birovlarning qarzini qistab, qarzga botganini bilasanmi? — dedi.

— Bilaman. Men sakkiz yosh chog'imda katta urush-janjal bo'lib, bizning elga to'qqiz erning xuni tushgan. Mening otam o'sha to'qqiz erning xunini bermay qo'ygan. Bizning elimiz ko'p va mard bo'lgan. Xun tuhmat qilganlarning o'zlarini jarimaga tushirib, uch to'qqiz (qalinga, mukofotga va jarimaga beriluvchi to'qqiz mol) va bir qizni tuhfa qilishgan, — deb yolg'on aytib yubordim.

Qiz mening yolg'onimga tushundi shekilli, baland ovozda kulib yubordi-da:

— Mening sen bilan qochib ketgim kelyapti. Sen meni sevasanmi? Qutqarib keta olasanmi? — dedi dabdurustdan.

Qul bo'lib yurganimdanmi, yo undan yoshroqligim uchunmi, to'shakda yotib hayajonlanib ketdim. Lekin tezda o'zimni tuta qolib, javob berdim.

— Nima uchun qutqarmayman. Men ham yigitman. Mening ham el-yurtim bor! Men endi bo'ridek kuchli sezdim o'zimni. Elimga quruq ketishni ep ko'rmay yurgan edim, — dedim katta odamlarday.

Qiz shaddodlik bilan yana kuldi. U mening quruq g'ayratimga va ketishga ko'nglim borligiga ochiq-oydin tushungan bo'lsa kerak.

— Sen yoshsan, lekin yuraging mardlarnikiday. Sen kelishgan, zo'r yigit bo'lasan. Senda aql ham bor. Shunday bo'lsa ham sen o'ylamasdan shoshqaloqlik qilyapsan, to'g'rimi, Zorliq? — dedi qiz.

— Yo'q, men o'ylab, to'g'risini aytyapman. Bir qizni qutqarish nima! — dedim.

— Mayli, rost aytganing yo'q, — deb qo'l uzatib, mening boshimdan silab erkalatganday bo'ldi.

Men yigirma yoshli yigitdek to'ladan kelgan va sheryurak edim...

— Men endi senikiman. Lekin elingga yetganda, boshim qutulgandagina sening ixtiyoringga o'taman. Hozircha sening xohishing amalga oshmaydi. Erta bilan turib, molga borib kelgan yo'lingga razm sol. Tuyalarning orasida burniga mis halqa o'tqazilgan besh-olti yoshli kul ranglisi bor. O'shani ushlab minib, sovutishing kerak, — dedi.

— Qaysi? Og'amga yaqinroq bog'lanadigan tuya emasmi?

— Xuddi o'sha. U — tuyalarning eng chopqiri. Otam o'g'ridan qo'rqib, uni o'zining yotog'iga yaqinroq joyga bog'latadilar. Doim uning kavshaganini eshitib yotadilar. Sen o'sha tuyani uch kun bekitiqcha sovut. Uch kun ham yarim kechasi turib, bo'shatib yubor. Lekin arqonini chuvaltirib qo'y, — dedi.

Nima uchun deb so'raganim yo'q. Aytganlarini bajara boshladim. Birinchi kun bo'shatib yuborganimda, tuya biroz nariroqqa

ketishi bilan qizning otasi chiqa solib, qaytarib bog‘lab qo‘ydi. Ikkinchi kun bo‘shatganimda tuya ancha nari ketib qolgan edi. Qizning otasi chiqib qaradi-da, qayta kirib yotib oldi. Uchinchi kuni bo‘shatganimda, qizning otasi chiqmadi ham. Lekin ertasi kuni:

— Tuyaning chopqirini qanday bog‘lamay, yechilib ketadigan bo‘ldi. O, Tangrim O‘ysul ota (tuyalarning qo‘llovchi egasi) qo‘llab yursa kerak-da, — deb o‘ziga o‘zi gapirganini eshitib, jim bo‘ldim.

— Otam tuya to‘g‘risida nima deb gapirsalar, menga aytib tur, — degan edi qiz. Men bu eshitganlarimni darhol qizga aytdim.

— Juda yaxshi, otam aldandilar, — dedi qiz. Endi odamlar tinchishi bilan tuyani qirning nargi yog‘iga olib borib, mana bu gilamlar bilan to‘qimlab qo‘y. Mana bu to‘shakni qo‘shib to‘qimla, — deb hammasini menga ko‘rsata boshladi.

O‘sha oqshom qizning otasinikida mehmonlar bo‘lganligi uchun juda kech tinchishdi va ular tashqariga joylashishdi. Bu hol bizning qochib ketishimizga xalaqit beradigandek bo‘lib ko‘rinardi.

Oy botish arafasida edi. O‘ta to‘yib olgan mehmonlar tezgina xurrak ota boshladilar. Men tuyani olib qirning nargi yog‘iga o‘tdim. Tuyani cho‘kkalatib qo‘yib o‘tovga kelsam, qiz bir narsalarni yig‘ishtirayotgan ekan:

— Tezroq, tong otib qolmasin, — dedi shoshilib. U erkakcha kiyinib, belini mahkam bog‘ladi. Gilam-pilam bilan tuyani to‘qimlab, qayta keldim. Qiz ikkita katta xurjunni zo‘rg‘a sudrab, ostonadan o‘tqaza olmay shoshilardi. Men bittasini ko‘tarmoqchi bo‘lib, qimirlatsam bilq etmadi. Qiz kulib yubordi. Bir amallab tuyaga yetganda:

— Voy, — dedi qiz g‘ashi kelgandek, — yomon to‘qimlanib qolibdi. Tez yech! — dedi.

Men yechib yubordim. Qiz tuyani qayta to‘qimlab, ikki xurjunni yaxshilab joyladi-da:

— Xafa bo‘lmasang, men oldinga o‘tay. Sen tuyaning sirini bilmaysan, — dedi-yu, javobimni kutib o‘tirmay, o‘zi mina boshladi. Sababi qaysi bir qo‘ylar pishqirib, oyoq-qo‘lini kerishni

boshlagan edi. Men darrov tushundim. Qo'yning pishqirishi tong otganidan dalolat beradi.

U minib olarkan, "Tez bo'l" deb arqonning uzangiga o'xshatib bog'langan tomoniga ishora qildi.

— Joylandingmi? — dedi qiz.

— Joylandim.

Mening yuragim xavotirda edi. Qishloqdan chiqmay turib, qo'lga tushadigandek tuyilib ketdi. Lekin "joylandim" degandan boshqa bir og'iz ham gapirmadim.

— Mahkam o'tir. Qo'rqma, — dedi-da, tuyani turg'azib, qamchilaganday bo'ldi. Men irg'ib ketayozdim. Tuyaning oyog'i yerga tegyaptimi yo uchib boryaptimi, unisi bilinmasdi. Yer aylanayotgandek edi. Yo'q, go'yoki yerdan shamol paydo bo'lib, ko'zimdan yoshim quyila boshladi. Tulkini ushlayolmay, qochirib yuborgan burgutning shuvullashiga o'xshagan ovoz eshitilardi. Bu ovoz kimniki ekanligini ham ajrata olmasdim.

— Yaxshi kelyapsanmi? — deb qizning ovozi chiqqanda:

— Ha, — dedim va gurullagan ovoz, urgan shamol bizning labimiz ekanligini angladim.

Tong oppoq bo'lib otdi. Atrofimizda qishloq tugul, mol-hol ham ko'rinmasdi. Qaysi yerda borayotganimizni ham bilganim yo'q. Kun biroz ko'tarila boshlaganda, qiz tuyaning yuganini tortdi. Lekin tuya to'xtay olmay, bir narsani quvayotganday, hurkib ketganday hovliqib, ko'pigini socha boshladi. Kun tepaga kelguncha asta yurdik. Undan so'ng yana qushlarday uchib jo'nadik. Odamlar tinchigan paytda o'zan suvining bo'yiga kelib, tuyani cho'kkalatib, ovqatlana boshladik.

— Botir yetsa, bizga ertaga yetadi, undan boshqa kishi bizni quvmaydi. Qochsak qutulamiz. Lekin qasamni nihoyasiga yetkazish kerak. Qochib ketishga bo'lmaydi. To'g'rimi? — dedi qiz.

Men so'z bilan javob bera olganim yo'q. Boshimni qimirlatib qo'ydim. Qiz jilmayib kuldi-da:

— U ham odam, undagi hunar bizda ham bor. Sen qo'rqma, o'lsak ikkalamiz birga o'lamiz, — dedi.

Mening boshimga kelmagan fikrni qiz o'zi boshlab, sevgining o'tini o'zi tutatsa ham, mening sevgim unikidan kuchliroqday

edi. Men u bilan birga o'lishdan cho'chilaganim yo'q. Qizni mahkam quchib, o'pib qo'ydim. Ertasi soya odam bo'yidan uzunroq bo'lganda, ortimizdan cho'zilgan quyunning changi ko'rindi.

— Hov anovi chang — botirning changi-yov. Qo'rqib yurma, — deb qiz tuyani to'xtatdi-da, tog' echkisining shoxidan tayyorlangan o'qdonini olib, hozirlik ko'ra boshladi. Botir ko'z ochib yumgancha yetib keldi-da, qiyqirib:

— Uyatsiz! Qo'lga tushdingmi! — dedi.

Qiz tuyasini to'g'ri tortib tura qoldi-da:

— Men o'z so'zimning ustidan chiqdim. Otingning boshini nari tort, o'lasan! — deb tuyaning bo'yniga tepkilab, tahdid qila boshladi.

Yigit nishonga olishga to'g'ri kelgan joyda, Oq chag'ir qurolini qo'liga olib, ataylab to'xtab turib:

— O'lmasdan turib, men yoqqa o't! Shuni aytib qo'yayki, kelsang ham qul bo'lasan! Qochsang ham qul qilaman! Ikki qulog'ing bilan yaxshilab eshit! — dedi yigit.

— Gapimga ko'nsang qayt, seni o'ldirishga qo'lim ham bormaydi. Sen mening qo'limdan o'lma. Men qizlik nomusimni saqladim, — dedi qiz eslatib.

Yigit kelishga or qildimi, qattiq ovozda buyruq berdi:

— Yonimga kel! Boshingni eg! Joning omon qoladi, lekin o'la-o'lguncha qulim bo'lasan!

Qiz janjal-to'polonga yaralgandek:

— Qul qila olmasang, onangni ikkinchi marotaba ol! — deb tuyasining boshini bura solib, oldinga intilgandi, yigit o'q tekkan arslondek o'kirib:

— O'lding! O'z uvoling o'zingga! O'lding! — dedi. Shu lahzada uning miltig'i og'zi to'g'ri biz tomonga qaratilgan edi. U o'q yog'dirishga ulgurmay, qiz tuyani epchillik bilan burib yuborib, avvalgi holatiga kela qoldi-da:

— Bejanjal qayt, mening qo'lim bormaydi senga, — deb uchinchi marotaba eslatdi.

— Kel deganda kel! Sen mening abadiy qulimsan! Yengilganingni bo'yningga olasanmi, yo'qmi? Ayt, qanjiq! — deb miltig'i bilan mo'ljalga olib, qizning javobini kutdi.

Yigitning shashtidan qaytmasligiga qizning ko‘zi yetdi. Javob berish o‘rniga o‘q otib yubordi. Otishga tayyor turgan yigitning qo‘li yelkaga yaqin yeridan yarador bo‘ldi.

— Yaxshi qol, gapga kirmading. Abadiy esingda bo‘lsin, — deb qiz yo‘lga tushdi. Tuya odatdagiday uchib jo‘nadi. Yigit o‘ng qo‘lining singaniga ko‘p ham parvo qilmadi shekilli, chap qo‘liga qilichini ola solib, og‘zini ochgancha bo‘riday hujumga o‘tdi.

Qizil burulining oyog‘i yerga tegsa tegib, tegmasa tegmay uchdi. Yigit qilichining orti bilan otini qamchilardi. Qiz ham qo‘l qovushtirib o‘tirmay, qaldirg‘ochning quyrug‘idek o‘tkir o‘qini uchira soldi. Uchib kelayotgan Qizil burulning oldingi tizzadan yuqorisiga tekkanda, zabt bilan kelayotgan ot to‘xtay olmay, bizga yetay deb qolganda munkidi.

Ot umbaloq oshib tushdi, yigit yiqilmay yugurib ketdi. Uning o‘ng qo‘li, oyog‘i sinib, qochgan kiyikdek dovdirab, o‘ng yog‘ini tirayolmay qoldi.

Qiz o‘q-yoyini ushlagancha, o‘rnidan tura qolib:

— Men bergan qasamimning uddasidan chiqdim. Senga qo‘yilgan qasamni sening mardliging uchun kechdim. Oriyat, nomus erkak va ayol uchun birdek ekanligini go‘rga kirguncha unutma, deb yo‘lga tushdi, — dedi bizga hikoya qilib berayotgan mo‘ysafid.

Mo‘ysafid xuddi o‘sha joyga kelganda, chaqmoq yarq etib uchib o‘tdi. O‘sha asnoda uning qo‘li bilan siydam soqolini siypalab o‘tirgan holatiga ko‘zim tushdi.

— Oqsoqol, so‘z xazinasining qopqog‘ini endi ochdingiz. Jala ham esdan chiqdi. Tong otishiga ham oz qoldi. Endi qiz bilan yigitni el-yurtiga keltirishga harakat qiling, — dedim.

Hamrohlarning biri:

— Eh, yigit ham haqiqiy er ekan! Qiz ham ajoyib ekan! Endi nima bo‘lar ekan-a?! — dedi.

Mo‘ysafid tomog‘ini tuzab oldi-da:

— Nima bo‘lsa ham eshitganimni aytib bo‘lganimda ko‘rarsizlar. O‘sha kishining o‘z og‘zidan eshitganlaringda, o‘lguncha unutmas edingiz, — dedi.

— Siz ham o‘zingiz ishtirok etgandek aytyapsiz-ku, — dedi yonidagiga suyanib olib, berilib tinglayotganlarning biri.

Yigit chap qo'li bilan otining boshini quchoqlagancha kimsasiz dalada o'tirib qoldi. Qiz o'qdondan bir o'qni olib sindirdi-da, o'z yo'liga ravona bo'ldi. Dovyurak qizning mardligiga men o'shanda tan berdim.

Cho'zilgan shamol oz-ozdan kuchayib, hayhotdek dalani chang-to'zon qopladi. Kim bilsin, o'sha chang-to'zon yigit yuragidagi og'ir hasratning tasviridir?..

Biz uch kun yo'l yurgandan keyin:

— Razm sol-chi, Zorliqjon! Mana bu tog'lar sizlarning tog'ingizga o'xshaydimi? — dedi qiz.

— Ko'zimga issiq uchrayapti, lekin aniq aytolmayman.

Qiz biroz jilmayib turib:

— Unda sharqqa qarshi o'tib ketibmiz. Hov anovi, bulut qoplagan tog' sizlarniki bo'lsa kerak; — deb tuyani o'sha yoqqa burdi.

Ertasi tushgacha yurib, dovondan oshgan chog'imizda:

— Erkam, suyunchi ber! Bu — bizning yaylov. Mana, dovonning pastrog'ida qalin to'qay, undan pastda qamish bor. O'sha to'qayning boshida bizning ovul bo'lardi. Men xuddi o'sha yerdan tutilib ketganman. Balki, hozir ham o'sha yerdadir, — dedim.

— Suyunchingga o'zimni berdim. Bundan keyin biylik o'lguncha sening qo'lingda, — dedi qiz.

Biz dovonga ko'tarilganda, yoyilgan yashil baxmalga to'nkarilgan oppoq chinnidek uylar ko'rindi. Men quvonganimdan:

— Mana, bizniki! — deb qiyqirib yubordim.

— Rosti bilanmi?

— Rosti bilan!

Mening a'zoyi badanim titrab ketdi. U yarqillab menga qaradi-da:

— Shoshilma, jonim. Endi ovulga qosh qorayganda boraylik, — dedi. Men rozi bo'ldim.

Ovulning beryog'idagi suv oladigan joyimizga to'xtab, tuyani cho'ktirib qo'yib, suvda yuvina boshladik. O'ynayotgan bolalarning ovozlari eshitilib turdi. Onasidan adashgan qo'zilar biridan biri o'tib ma'rashib, kechki tinchlik-osudalikni buzib turishardi. Mening ko'nglim bo'shab, o'pkam ichimga sig'may, yuragim hapriqardi.

— Mana, endi men to'liq senikiman, sadag'am! — deb tepa sochini ortiga tushirib, menga tayyorlagan kiyimlarni berdi-da, o'zi ham qimmatbaho liboslar bilan yasandi. Sutday oyning yorug'ida uning qaddi-qomati ko'zimga shunchalik ajoyib bo'lib ko'rinardi-ki!..

Men undan oldin kiyinib bo'ldim-da, uning tip-tiniq yuzlaridan o'pib-o'pib oldim. Uning xushbo'y ifori haligacha dimog'imdan ketmaydi...

Tinglab o'tirgan kampiri uning so'zini qo'pollik bilan buzgani yo'q. Lekin jag'ini burib, lablarini cho'chchaytirib:

— Endi aljiramasangiz-chi, — dedi. Mo'ysafid uning so'zini eshitgani ham yo'q. Gapini davom ettiraverdi.

— Biz yasanib bo'lgunimizcha, qo'y-qo'zilarning ham, bolalarning ham shovqin-suronlari tinchidi...

— Endi, sadag'ang ketay, sen borib, eson-omonliklarini bilgin. Ota-onang hayot bo'lishsa, ularning sog'inchini qondir. Keyin kelib, meni olib ketinglar. Yengimni shimarib, sen bilan kirib borganim urf-odatimizga to'g'ri kelmaydi, — dedi qiz.

Men oyog'imni qo'limga olib, qishlog'imga yaqinlashganimda, itlar suron solib vovullab oldimdan chiqdi. Qo'ychivonlar qiyqirib, itlarning ortidan kelib, men bilan uchrashishdi.

— Sen kimsan?

— Yo'lovchiman.

— Qayoqqa boryapsan?

— Cho'ro'nikiga. U kishi eson-omon bormi?

— Cho'kem bor. Ko'zi ko'rmaydi, — dedi qo'ychi.

— Kampiri bormi?

— Bor, to'shakdan turmaydi. Yolg'iz bolasining g'am-hasratidan g'arib bo'lib qolishdi, — dedi ikkinchi qo'ychi.

— Unda, og'aynilar, meni o'sha yoqqa boshlanglar, men ularning yo'qolgan yolg'iziman.

— Suyunchi, Cho'ke! Suyunchi! Zorlig'ingiz keldi, — deb, qo'ychilar qiyqirishib, meni uyga qarab sudrashdi. Ichkaridagi kishilar yugurib chiqishib, atrofimni o'rab, quchoqlagan alpozda uyga olib kirishdi.

Tayog‘ini qo‘liga olib, qiltillab zo‘rg‘a yurayotgan otam bilan quchoqlashib ko‘rishdim. Bosh-oyog‘imga osilib chuvullagan odamlarning hisobi yo‘q...

— O, toychog‘im... — degan onamning majolsiz g‘ing‘illagan ovozi eshitildi va rangida qoni qolmagan yuzi men tomonga zo‘rg‘a-bazo‘r burildi. Men “Oyijon!” deb termilib yugurganimda, suyagi chiqqan oriq qo‘llari qimirlagani ham yo‘q, ovozi ham ichiga tushib ketgandek bo‘ldi... Oyimning issig‘i tarqamagan ko‘kragiga bosh qo‘yib, issiq yoshimni to‘kdim... Otam qaltiragan alpozda:

— Oying rozi... Oying ovozingni eshitdi, bolam! — dedi.

Bir yoqdan quvonch, bir yoqdan to‘polonlar mening esimni og‘dirgandi.

Oqshomda chiqqan oy tepaga kelganda:

— Qani, bolam, qanday qilib kelding? Qayoqlarda yurganding? — dedi otam. Qiz mening yodimga o‘shanda tushdi.

— Otajon, bu haqida bafurja aytib beray. Sizlarga kelin olib kelganman. Suv oladigan joyimizda kutib qolgan, — dedim. Odamlar meni o‘rab olib, suvga qarab yugurishdi. Mening boshimga suv aylantirib sochgan kampir, idishga suv quya solib, bizga qo‘shilib jo‘nadi.

Suvga kelsak, ne ko‘z bilan ko‘raylikki, qiz ham, tuya ham yo‘q.

— Qani? — dedi birov o‘zicha.

— Uyga yaqin borib turgandir, qo‘rqqan shekilli, — dedi ikkinchisi menga qarab.

— Ana u yerda! — dedi uchinchi kishi qo‘li bilan ko‘rsatib, u ishora qilgan yoqda bir narsa bilinar-bilinmas qimirlardi. Qarilar to‘xtab qolishdi. Biz shoshib yugurdik.

Bizdan oldinroq yugurgan birov:

— O, esiz! Ish chatoq-ku! — deb jim bo‘ldi-da: — Esiz! Yo‘lbars yorib tashlabdi! — deb baqirdi...

Qizning qo‘li o‘zining boshini quchoqlagan bo‘ydan harakatsiz yotgan holati ko‘rina qoldi. Tuya chala jon bo‘lib, uzun bo‘ynini yerga urg‘ilab, oyoqlarini tipirchilatib yotibdi. Men qizni quchoqlab yiqildim.

— Mana, bolam, bu hasratli kuy o‘shandan beri hamroh bo‘lib kelmoqda. Bu kuy o‘zim bilan birga tinadi. O‘zim bilan birga go‘rga kiradi. Kuyning siri, shu, bolam, — dedi.

Ertasiga mo‘ysafid meni ergashtirib kelib, qizning qabrini ko‘rsatdi-da:

— Mana, bolam! Qiz shu yerda yotibdi. Uning xurjunlarini ochtirmasdan, shundayicha ko‘mdirganman. Xurjunda nima bor ekanligini qabrdan boshqa hech kim bilmaydi... Qara, bolam! Buni hech kim qabr deb ham o‘ylamaydi. Do‘ppaygangina yam-yashil chim. Yaqinda tep-tekis yer bo‘lib ketadi... Men yuz uch yoshdaman. Men ham yaqinlab boryapman, — deb chala bilingan yashil qabrga suyanib o‘tirib qoldi.

Men o‘sha kishini hali ham ko‘rganday bo‘lib turaman. Qandaydir, qo‘mizi bilan mahzun kuyni chalib, tirik yurgandek. Menimcha, qiz bilan allaqachon gaplashgandir... Haligi botir bilan ham uchrashgandir? — deb mo‘ysafid so‘zini nihoyasiga yetkazdi.

Mo‘ysafid bu hikoyasini yakunlagancha, jala tinib, tong otdi. Kiyimlarimizni oftobga yoyib qo‘yib, mo‘ysafidning ikkinchi hikoyasini tinglashga boshladik.

MUQAY ELEBOYEV

(1906–1944)

Tup rayonidagi Cho'ngtosh ovulida tug'ilgan. Qishloq xo'jalik texnikumida, so'ng pedagogika bilim yurtida tahsil olgan. Dastlabki she'rlari 1924-yildan matbuotda e'lon qilingan. "Uzoq yo'l" (1936) avtobiografik romani muallifi.

1943-yili urushga safarbar etilib, 1944-yil jangda halok bo'lgan. Bir necha she'riy va nasriy kitoblari nashr etilgan. Rus adiblari A. Pushkin, N. Gogol, L. Tolstoy, M. Gorkiy asarlarini qirg'iz tiliga tarjima qilgan.

ZORLIQ

(Hikoya)

1

Sarg'ish tusga kirgan cheksiz biyobondagi yolg'izoyoq yo'lda atrofga alanglab bir bola ketib boradi. Bu joylarda na ovul, na buloq bor — bepoyon sayhonlik. Bu qadimdan el-ulus qaroqchizor deb ataydigan Tasma cho'li.

Yolg'iz bola tongda yo'lga chiqqan bo'lsa ham, ko'zlagan manziliga bugun yetib borishiga ko'zi yetmaydi. Shom kirib, tevarak qorong'ilashib bormoqda. Shu bois, toliqqaniga qaramay, tez-tez odimlaydi.

O'z xayollari bilan andarmon bo'lgan bola yo'l qorayib turgan baland qirg'oqqa kelib taqalganini sezmay qoldi. Cheksiz cho'l tugaganga o'xshadi. Bola shu yerda biroz to'xtab, atrofga nazar tashladi-da, yiroqda yaltirab yotgan daryo sohilida yalt-yult etib o'chib-yonayotgan gulxanni ko'rdi. Katta qoyaning o'ng tomonida it hurganday bo'ldi. Bolaning kutib turishga fursati yo'q edi,

shu bois tegrasiga bir qarab oldi-da, it ovozi eshitilgan tomonni mo'ljallab pastlikka tushib bordi.

O'ylaganiday, o'sha yerda bir kulba bor ekan. Bordi. Lekin uning niyatini tushunganday, uy ichidan o'rta yoshli bir ayol shoshilib chiqib keldi. "Yalangoyoq qochoq nima qilib yuribdi bu yerda...", degan xayolga borgan ayol baland ovozda:

— Bolam, bu yerda tunashning imkoni yo'q. Erkagimiz uyda emas edi, — dedi.

Eshik oldidagi eski egar-jabduqning ustida g'amgin qiyofali bir yigit boshini quyi solib o'tirardi.

— Ena, ostonangizda bir kecha yotib ketishdan o'zga ilojim yo'q. Mening yomon o'y-xayolim yo'q, bizga ziyoni tegadi, deb o'ylamang, — dedi bola biroz nafasini rostlab.

Ayolning rangi o'zgardi:

— O'sha aytganim. Boradigan yeringga barvaqt yetib ol.

— Boradigan joyim bo'lsa, bu yerga kelarmidim, ena?

— Bo'tam, nega men bilan tortishyapsan?! — deb dag'al ovozda javob qaytardi ayol.

Bola so'nggi marta iltimos qilib ko'rmoqchi bo'lib so'z qotdi:

— Hech bo'lmasa, daryodan o'tkazib qo'ymaysizlarmi?

— Bu yerda jonidan to'ygan odam yo'q, bu sharqirab oqayotgan daryodan ot tugul, tuya ham...

Bola ayolning so'zlarini oxirigacha eshitmay, kulbadan yiroqlashdi. Qulog'iga kimningdir gapi chalindi:

— Shu ishni bekor qildingiz... Musofirga o'xshaydi.

Osmon ochiq bo'lishiga qaramay, atrof qorong'i edi. Ana, ro'parada sarg'ish tusli bir yulduz yarqirab turibdi. Bola qayerga borishini bilmay, botqoqlik yonidan aylanib o'tib borayotib, sayhonlikda o'tlab yurgan bir ho'kizga duch keldi. Xayoliga kelgan fikrdan xursand bo'lib, ko'zlarini qisib, ho'kizga yaqinlashdi. Bolaning sharpasidan hurkkan ho'kiz pishqirib nari qochdi. Bola qarshisidan chiqib, ho'kizni jarga taqamoqchi edi, lekin uddasidan chiqmadi. Ho'kiz bor kuchi bilan yugurib uni suzmoqchi bo'ldi, lekin botqoqlikda toyib yonboshi bilan yiqildi. O'rnidan turib o'zini o'nglab olgach, shoxidan ushlab olgan bolani ancha joygacha sudrab borib to'xtadi.

Ho‘kizning no‘xtasi yo‘q edi. Bola belidagi arqonni yechib, uning shoxiga soldi-da, irg‘ib minib oldi. Uning maqsadi ho‘kizni minib daryodan o‘tgach, ortiga qaytarib haydab yuborish edi. Bu ishini birov ko‘rsa, nima deb o‘ylaydi, degan fikr bolaning xayoliga kelmadi.

Chindan ham asov daryoning suvi ko‘payib, qop-qora tusga kirgan edi. Bola tavakkal qildi. Kechuv shu joyda bo‘lsa kerak, deb tusmollab daryoning sayozroq joyiga yetgach, ho‘kizni qattiqroq qamchiladi. Qirg‘oq yiroqda edi. Daryo ichiga ikki sarjin kirgan paytida bolaning sonlariga muzday suv tegdi. Endi ho‘kizning shoxi arang ko‘rinib borardi.

II

Zorliq qaysi bir yilning kuzida Irdikda bir boyvachcha dunganning xizmatidan ketib, Ahmatjon ismli yettio‘g‘izlik tatarning uyida yashadi. Ahmatjon boy-badavlat odam, uni el-ulus, yaqin atrofdagi ovullar ahli yaxshi biladi. Og‘ilida sakson bosh ho‘kizi bor.

O‘shanda Zorliq katta yoshli bir xizmatkor bilan kechgacha tinim bilmay o‘tin kesardi. Ikkisining kunlik taomi — qaynatilgan suv va qora non. Xizmatkorlar issiq ovqatni ko‘rmay, och-nahor, ozib-to‘zib yurgan paytda xo‘jayin qo‘zi go‘shtini maydalab, juni yaltiroq itlariga berardi...

Ochlik tufayli haddan oshgan qiynoqlar oxiri Zorliqni bu yerdan ham ketishga majbur qildi. Qish o‘rtasi bo‘lishiga qaramay, xo‘jayin uning egnidagi eski ko‘ylakni ham yechtirib oldi.

Zorliq birovlarning eshigida yurib, bu joylarda kuni o‘tmasligiga ko‘zi yetgach, Tupga ham borib ko‘rayin, degan xayol bilan yolg‘iz o‘zi Bo‘ribosh yaqinidagi katta yo‘lga tushdi. Kun botishi bilan sovuq ham, bolaning qo‘rquvi ham kuchaydi. Bunday havoda dalada tunagan odam to‘ngib, o‘lib qolishi hech gap emas edi.

Bu, odam bolasining boshiga tushgan qiyin kunlar edi. O‘n oltinchi yilgi qo‘zg‘olon oqibatida qiyinchilik kuchayib, Xitoydan kelgan qochoqlarning son-sanoqsiz azob-uqubatga duchor bo‘lib,

ochlikdan shishib, bir boshdan qirilib ketayotgan mahal. Buning ustiga, podsho jallodlari keng adirning bo'risiday bo'lib, hayot va mamot orasidagi ulusning boshida qilich o'ynatib turgan paytlari edi. Shunchaki ko'ngilchog'lik uchun ham bir og'iz so'roq qilmasdan odamlarni qamoqqa tashlash odat tusiga kirgandi. O'limni bo'yniga olib, ba'zi jonidan kechganlar bo'lmasa, boshqalarning emin-erkin yurishi mushkul edi.

Yurtning ahvoli shunday og'ir bo'lib turgan paytda boylarning hosili omborga sig'may chirib ketardi... Birgina Ahmatjonning o'zi bu yil kuzda qirqta qo'sh, yuzta ketmonchi chiqarib, Tasma dalasini butunlay egallab oldi.

Zorliq uzoq yo'l yurib, qirga chiqayotgan paytda yarim chaqirim narida kelayotgan qo'sh otli arava ko'rindi. Ustida to'rt-besh odam o'tiribdi.

Bolani ko'rib arava sekinlaganday bo'ldi. Aravadagilardan biri qo'l silkiganday bo'ldi. Zorliq qo'rqib yo'lning teskari tomoniga burilib, qadamini tezlatdi.

Uning ro'parasiga kelganda aravadan uchta odam sakrab tushdi. Bola nimanidir sezganday, yo'ldan chiqib, ortiga qaramay qocha boshladi. Qor tizzadan keladi. Zorliqning oyog'ida kigiz etigi bor edi, uyidan ketayotganda uning qo'njini ham xo'jayini kesib olgandi. Yo'g'on tayoq ko'targan baland bo'yli odamning katta-katta qadam tashlab kelayotganini ko'rgach, qo'rquvdan o'zini yo'qotgan Zorliq etigiga qor to'lib, oyog'idan tushib qolganiga qaramay, to'xtamasdan qocha boshladi.

Ta'qib etuvchilar yana biroz yugurganda unga yetib olishlari mumkin edi. Ehtimol, ular bolaning qorni ochligi tufayli og'zi qurib, holdan toyganini sezishganda ortga qaytishmasdi.

Zorliq cho'l o'rtasida madorsizlanib yotib qoldi. Birozdan keyin boshini ko'tarib, aravaning ancha yiroqlab ketganini ko'rdi. Arava ustidagilar ortga qarab-qarab qo'yishmoqda edi.

Ko'p o'tmay bolaning ortidan yolg'iz ot qo'shilgan arava yetib keldi. Zorliqning hadiksirab turganini ko'rgan aravakash muloyimlik bilan uni o'zining yoniga chaqirdi.

— Ular seni o'ldirmoqchi bo'lishgan... Hammasi mast, shaytonlar... Eh, boyóqish...

Aravakash Jirg'alan ko'prigi ustida katta-kichik bo'lib to'planib atrofni kuzatib turgan odamlarni qamchisi bilan ko'rsatib:

— Anovilarni ko'rdingmi? Yo'lingni poylab turishibdi... — dedi.

Ko'prik ancha yiroqda edi. Aravakash Zorliqning eski tanishi bo'lib chiqdi. Bola uzundan uzoq yo'l bosib, ko'z ochib-yumguncha mana shu aravaning ro'parasidan chiqdi. Aravakash bolani aravaga ortilgan somon ichiga yashirib, ustiga eski-tuskilarni tashlab qo'ydi-da, otiga qamchi bosdi...

Arava ko'prikka yetib kelgach, u yerda turganlar aravakashni so'roqqa tutishdi:

— Bola qani?

— Uni bizga topib ber...

Aravakashning so'zlariga ishonmagan ko'prik yonidagilar somon ichiga tayoq suqib ko'rishdi. Tayoq uchi bolaning biqini, qorniga tegsa ham, u ovozini chiqarmadi.

Aravakash sariko'llik ekan. Uning uyiga shom mahali kirib kelishdi. Mezbon topgan-tutganini dasturxonga qo'ydi.

— Birdaniga ko'p taom yema, yomon bo'ladi, — dedi o'sha kuni.

Bu odam Zorliqni qishdan eson-omon chiqazish niyatida olib kelgandi. Lekin bola uch kundan ortiq turmadi. Aravakash ayoli bilan tez-tez janjallashib turgani tufayli uning oromi buzildi. Uy sohibining bir oti, bir sigiri, ikki cho'chqasi, yigirma pud doni bor edi. Ayoli va uch nafar kichik farzandlari ham uning qo'liga qarab turishadi. Yumushga yaraydigani oila boshlig'i, xolos.

Zorliq ketadigan kuni aravakash xizmatkor kerakmasmi, deb o'zi yashaydigan ovulni aylanib chiqdi-da, horiganiga qaramay, tushga yaqin bolani aravasiga mindirib ancha nariga eltib, kuzatib qo'ydi.

Tupga yetib kelgan Zorliq birovning uyida turdi. Bola qo'lidagi tayog'i bilan ko'cha aylanib ish izlab yurganida past bo'yli, qorni katta sariq soqolli kishi uning kuch-quvvati, qanday yumushlarni bajara olishini erinmay so'rab-surishtirib, o'ylanib qoldi.

— Shunday... Ish haqi o‘rniga ovqat bersam...

Zorliq uning barcha savollariga “roziman” deb javob beraverdi.

Bola yoz boshlanishi bilan dalaga chiqib ketdi-da, qo‘sh bilan yer haydash vaqti nihoyasiga yetganiga qadar xo‘jayinning uyini ko‘rmadi. Qishda uy yumushini bajarib yurishi bundan ancha yengil ko‘rindi.

Bola qo‘sh oldidagi to‘rt ho‘kizni haydar edi. Bir-ikki soat uxlab, tun yarmida uyg‘onadigan bolani uyqu bosib yurgan yo‘lida qalqib ketsa, ortidan:

— Ey! — degan yoqimsiz baland ovoz eshitilganda, uning ko‘zlari yarq etib ochilib ketardi.

Yer haydalib bo‘lgandan keyin bir oyga yetmay xo‘jayin Zorliqni haydab yubordi.

Endi kelib o‘rnashgan joyi Sazanovka. Bu yerga yoz o‘rtasida keldi. Qishloqning podasini boqdi. Tup bilan bu qishloqning orasida joylashgan Qurmonli, Kudurgi, Oytal, O‘rtao‘rikli, Cho‘ngo‘rikli nomli qishloqlarni bir hafta davomida kezib chiqdi, lekin Sazanovkada ham uzoq vaqt qolmadi.

Birovga ergashib Olmaotaga jo‘nadi. O‘rta yashar bir o‘ris o‘sha yerlik ekan. Bir kuni Zorliq kechqurun podani haydab qishloqqa kirib kelayotganida u bilan gaplashib qoldi.

— Ust-boshing but, qorning to‘q bo‘ladi. Kerak bo‘lsa, ish haqingni ham beraman, men bilan yuraver, — dedi o‘sha odam.

Olmaotagacha biror kun ham kunduzi yo‘l yurishmadi. O‘ris otini o‘tga qo‘yib, kechgacha uxlaydi-da, qorong‘i tushganda yo‘lga chiqadi. Zorliq buning sababini bilmay hayron bo‘lardi. Keyin o‘ylab ko‘rsa, yangi xo‘jayini uning yo‘lni eslab qolmasligi uchun shunday qilgan ekan.

Zorliq Olmaotada qishlab qoldi. O‘risning uyi shahar chetida ekan.

Yozga yaqin xo‘jayinining mol-mulki davlat ixtiyoriga o‘tib ketdi. Bu vaqtda sho‘ro hukumati o‘rnatilgan edi. Zorliqning ish haqi evaziga davlatga o‘tkazilgan qo‘ylardan ikki boshi tegdi, lekin ularni o‘g‘irlatib qo‘yib, yana yo‘lga otlandi.

Ko‘pincha kunduzi yuradi.

Bir kuni tunda ovuldan ancha olisda uxlash uchun joy izlab borayotib oyog'ini bo'yinturuqqa ilib oldi. Keng yer. Qarasa, ot-arava bilan qo'sh turibdi. Cho'chib tushdi. Aravadagilardan birortasi uni sezib qolsa, uni o'ldirishi aniq edi.

Olmaotadan chiqqanidan so'ng yo'l-yo'lakay yumush topilgan joyda bir-ikki kun qolib, bekor qolganida ovullarni oralab o'n sakkiz kun deganda yana Sazanovkaga qaytib keldi.

Endi kunlar tez o'ta boshladi. Qurmontuda, Sariqtologoyda bo'ldi, Pokrovskga kelib guvala quydi, keyin Darxon degan yerdan bir boyvachchaning molini haydashib borib, Andijon yo'lidan qaytdi.

Uch yil davomida to'g'ri kelgan ishni bajarib yurib, o'n bir joyga ko'chdi.

Oxirgi marta Issiqbuloqda bo'ldi. Bu paytga kelib yurt ancha o'nglanib qolgan edi.

O'sha yili joy-joylarda "Yangi tartib" o'quv kursi yoyilgan edi.

"Yangi tartib"ni umrida birinchi marta eshitganlar ko'p edi. Bu haqda xalq orasida ne-ne so'zlar aytilmadi: "Ilgari haftiyak, Qur'on o'qiydi, deyishardi. Tiz cho'kib o'tirishardi. Endi qiziq, "Muallim... kosa, tovoq, qozon... birinchi, ikkinchi..."

Bir kuni Zorliq ham Issiqbuloqdagi ana shunday bir "Yangi tartib"da o'qiyman deb kelsa, kech qolding, deb qabul qilishmadi.

— Qish yarmidan o'tib ketdi. Sen o'qib, qachon bolalarga yetib olasan? — dedi cho'qqi soqolli, biroz ezma, qop-qora odam.

O'sha kunlari Zorliq bir qarindoshining uyida yashardi. Uy egasi "Yangi tartib" o'qishini yomonlab, har kuni unga "nasihat" qilardi. Biroq Zorliq qarindoshim bu gaplarni o'zining yumushini bajarib yurishim uchun aytyapti, degan xayolga bormasdi.

Issiqbuloqqa to'rt-besh marta borib, nihoyat, muallimlar hurmat qiladigan bir bolani oraga solib, "Yangi tartib"da o'qiydigan bo'ldi. Derazalari eski-tuski, yirtiq qog'ozlar bilan bekitilgan, umrida o't yoqilmagan sovuq xonada yerga qoqib qo'yilgan egri-bugri skameykalarda qo'llarini kuhlab, rang-ro'yi ko'karib o'tirgan bolalar...

"O'quv"ga kirib ketganidan keyin qarindoshi Zorliqni uyidan haydab yubordi. Har kuni biror bolaga ergashib borib, uning uyida

tunaydigan bo'ldi. O'qishdan qolmaslik uchun hamma azoblarga chidadi.

Bu yerda har kuni bir mahal "askar-askar" o'yini bo'lardi. Har bir bolaning yelkasida yog'ochdan yasalgan miltiq va qilich. "Komandir" — choponining yoqasiga bir qarichdan qo'y po'sti bostirilgan oq to'n kiygan qizil yuzli Sog'imboy ismli bola.

— Sola a dun! Sola a dun!

Sog'imboy hammani tang qoldirib turk tilida komanda berib, yengilganlarni quvib qamchi bilan savalardi. Bolalar unga qarshilik ko'rsatishmasdi.

Shu yerda o'qiydigan Japarqul ismli o'n sakkiz yoshlardagi oriq, qorachadan kelgan bola muallimlar bilan har hafta tez-tez Qorako'lga qatnab yurardi. Boyning bolasi bo'lgani uchun uning kiyim-boshi ancha yaxshi edi. U har safar borib kelganidan keyin bolalarni to'plab, shahardagi yangiliklarni aytib berardi. Hikoya mavzusi ko'proq Qorako'ldagi "g'aznalik" o'quvidagi bolalar haqida bo'lar edi.

Japarqulning so'zlarini diqqat bilan tinglab, Zorliqning ko'z o'ngida iliq-issiq, keng uyda bir xil kiyingan "g'aznalik" bolalarning o'zlariga yarashgan sochlarini silkitib, bir xil qadam tashlab o'ynab yurgani gavdalanardi. Bu bolalarning hayoti Zorliq uchun hatto ertaklardan ham topib bo'lmaydigan "jannat"ni eslatardi. "G'aznalik o'quv" haqida yana boshqa birovdan ham eshitgandi. O'shandan buyon yotsa ham, tursa ham eshitganlari yodidan chiqmasdi.

Issiqbuloqdagi "Yangi tartib" ko'p o'tmay, qo'sh chiqar mahali tarqab ketib, Zorliq armonda qoldi. Endi ko'zlagan manzili — Qorako'l. "Xazinalik o'quv!" Shunday niyat qilib o'ylanib yurganida, bir kuni haligi qarindoshi uni ro'parasiga o'tirg'izib, odatdagiday "aql" o'rgatdi.

— Inim, endi o'qishni esingdan chiqar. Bir-birimizga beparvolik qilmay, ahil bo'lib tirikchilik qilaylik. Eldan ajralganning oqibati yaxshi bo'lmaydi. Ko'ringanning ortidan yugurmasdan ketmonni yaxshi chopib, nonni katta-katta tishlab tinchgina yurgandan yaxshi ish bormi? "Esing borida etagingni yop", degan gap bor. Mendan boshqa hech kim seni bir kun ham uyiga kiritmay-

di. To‘g‘ri, o‘tgan yillarda senga qaramoq tugul “o‘lma, jonim, o‘lma”, deb o‘z jonimizni arang saqlab qoldik. Endi, mana...

O‘sha suhbatdan keyin yana bir kuni shunday dedi:

— Qo‘y, deganimga qaramay, o‘zing yalinib turib olding, endi o‘zing bilasan. Qanchalik nodon bo‘lsam ham, senga gapiraverib tilim teshilganday bo‘ldi-ku. Anovining qarindoshi mana shunday tentirab yuribdi, deb gapirishyapti... Bir necha yil elga qo‘shilmay yurib shoxing chiqdimi? Sening hayotingga menday qiziqqan yana biror kimsa bormi? Senga kuyganimdan gapiraman...

Qanchalik kuyib-pishgani bilan uning biror so‘zi Zorliqning qulog‘iga kirmadi. Qolaversa, qarindoshining “fe’l-atvori”ni birinchi marta ko‘rib turgani yo‘q-ku..

Kunlarning birida hech kimga ko‘rinmay yo‘lga tushdi.

Shom arafasida Tasma cho‘lida kelayotgani shundan edi.

Yoshlikdagi bor umidi, maqsadi — kelajak.

III

Uchqo‘shgan bozorida odamlar ozaygan payt. Ko‘chadagi teraklar boshi egilib, yaproqlari ohista tebranadi. Uzun binoning oxiridagi qizil do‘konning o‘ng tomonida militsiya formasidagi oriq, oq yuzli yigit Zorliq bilan gaplashib turibdi. Militsionerning egnida qayish bilan bog‘langan qayirma yoqali ko‘k ko‘ylak. Oyog‘ida katta qora botinkasi bor.

— Shunday qilib, o‘qish topilmay qoldi, degin. Bu yerga qachon kelding? — dedi anchadan keyin, yo‘ldan o‘tib borayotgan kimnidir kuzatib.

— O‘n besh kuncha bo‘ldi.

— O‘shandan buyon nima ish qilib yurding?

— Ancha narida bir ovul bor ekan... Bir necha kun shaharda odamlarning kunlik yumushlarini bajardim. O‘tin kesdim. Ikki kundan buyon yana...

— Militsiyaga ham seni ishga olishmaydi, — dedi va iyagi bilan imladi, — anovi yuqori tomonda bir pochta bor, xat tashiganga odam kerak, deb yurishgandi.

— Unga ham borib ko'rdim.

— Qo'shchilar ittifoqiga bordingmi?

Zorliq juda ko'p joylarda bo'lib, Qorako'lda ko'rgani o'sha edi.

— Endi nima qilmoqchisan? — deb so'radi yigit.

— Shahardan chiqib ketsam kerak.

— Kech kirib qolmadimi? — dedi va biroz o'ylanib qo'shib qo'ydi, — men bilan yur, kazarmaga borib ko'raylik. Men ham yaqinda keldim. Nega oqsayapsan?

Zorliq yigitga ergashdi.

— Anovi qizil uy sizlarnikimi? — dedi Zorliq pastdagi ko'chaga burilayotgan joyda.

Arava yuraverganidan yomg'irda loy bo'lib ketgan o'nqir-cho'nqir ko'chadan yurib kazarmaga kelishdi. Bu yerda qirg'iz yigitlari yotar ekan. Zorliqni boshlab kelgan yigit uni birovga tayinlab, o'zi shoshilib tungi qorovullikka chiqib ketdi.

Zorliq qo'liga tekkan palosni taxta bilan ajratilgan joyda o'ngters bo'lib uxlayotgan militsionerlar qatorining oxiridagi burchakka solib yotdi.

Kazarmada ertalabgacha osoyishtalik bo'lmadi. Qayerdandir kelib yarog'ini shaldiratib gapirib yurganlar, kimnidir shoshirib uyg'otib, qayergadir otlanayotganlar... "Qayerdasan?" deb tanishini izlaganlar... Qisqa javoblar, baland ovozlar... Tapir-tupurlar biroz tinadi-da, endi ko'z yumilganda yana boshlanadi. Zorliq tunda yaxshi uxlay olmasdan, ana shunday shovqin ichida uzun-qisqa so'zlarni eshitib yotdi:

— Navbatchi?

— Turmadan qochdi...

— Ikkinchi smena...

— Tezroq jo'nanglar...

— Boshliq!

— Tuf, shayton...

— Mahbus keldi...

Zorliqni ergashtirib borgan yigit ertasi peshingacha ko'rinmadi. Nonushtadan keyin shu yerdagilardan biri tor shimining cho'ntagidan qo'lini chiqarmasdan: "Da, avvallari — poliysa, endi

miliysa" deb, o'ylanib u yoqdan bu yoqqa borib-keldi-da, birdaniga to'xtab Zorliqqa qaradi.

— Inim, endi o'zingga boshqa joy top. O'zing ko'rib turibsan. Buni boshliq bilib qolsa...

Zorliq tashqariga chiqsa, past bo'yli, qorachadan kelgan militsioner to'rt kishini oldiga solib kelayotgan ekan. Ortida bir kishi shovqin solib kelyapti:

— Kolonizator!.. Kontroband!..

Ikki kun o'tgandan so'ng Zorliq birga ishlab yurib, keyin ajralib ketgan bir bolani tasodifan bozorda uchratib qoldi.

— Ey, sen hali ham yuribsanmi? — dedi u Zorliqni ko'rgan zahoti. — Seni allaqachon bir tomonlarga ketib qolgandir, deb o'ylagandim...

— Senga o'xshab boradigan joyim bo'lsa...

— O'shandan buyon nima qilib yurding?

Uning savoliga javob qaytarmay:

— Yur, tag'in bir izlab ko'raylik, — dedi Zorliq, — endi ish topilmayapti. Men juda qiynaldim.

Bola o'zining kalishiga bir qarab qo'yib, uzoq yo'lga otlangan kishidek belbog'ini yechib, qaytadan mahkamroq qilib bog'ladi. U qayerga borish kerakligini so'ramasdan, Zorliqdan ajralib ketganidan buyon ko'rganini, o'zining bu yerda yaraydigan hech nimasi yo'qligini, bir paytlar qashqarlik odamga tegib ketgan onasini topib olib, o'shanikida yashab yurganini, "otasi" itfe'l ekanligini, o'zi yilqi zavodida teri oshlab zo'rg'a kun ko'rayotgan bir bechora ekanligini uzoq gapirdi.

Zorliq bir paytlar o'qishning foydasi haqida gapirib, unga boshqa ishlarning foydasiz ekanligini rosa uqtirgan edi. Hozir ham o'qishni eslatdi. Bola o'ylanib qoldi.

Bu paytga kelib yer-suv, chorvachilik, madaniy-oqartuv masalasida yurgan har bir odam o'zi istagan idoraga bemalol kiribchiqa olardi. Idoradagilarning hech biri bu masala borasida falonchiga bor, bu o'shaning ishi, deb aytmas edi. Arizaning ustiga darrov rezolutsiya qo'yib berishardi. Idoraning vazifasi nimadan iborat ekanligi o'sha yerni boshqarib turgan odamlarning o'zlari uchun ham, idoraga ishi tushganlar uchun ham qorong'i va tushu-

narsiz edi. O‘z vazifasi bo‘lsa ham qaysarlik qilib falon joyga bor deb, ilojsiz kishilarni duch kelgan joyga jo‘natib yuborishardi. Bir-biriga yuboraverganidan qog‘ozning qo‘l qo‘yadigan bo‘sh joyi qolmasdi.

Zorliq tanish bola bilan ishni Qo‘shchilar ittifoqidan boshladi. Bu idora cherkovning ro‘parasida, azaldan eshigi oldidagi temirga ot bog‘lanadigan yog‘och uyda joylashgandi. Lekin kerakli kishi yo‘q ekan. Bir choy qaynaydigan vaqtgacha kutib o‘tirib, keyin ortga qaytishdi.

Avvalroq imkoni bo‘lmay, faqat ikki kundan keyin astoydil bel bog‘lab boshqa bir idoraga borishdi. Eshik oldida taqachilarnikiga o‘xshagan qator ustunlarga bog‘lanib turgan otlar, yaltiragan egar-jabduq, egar ustiga solinadigan to‘shakchalar turibdi. Tashqarida qamchisini qo‘ltig‘iga qistirib, ikki-uch kishidan bo‘lib chordona qurib, o‘zaro suhbatlashib o‘tirganlar ham bor.

— Nega alanglaysan, yur! — dedi Zorliq ortiga o‘girilib.

Idoraga tinmay kirib-chiqib turishibdi. Ichkarida qora mo‘ylovli, gavdali yigitning qarshisida to‘rt-besh odam o‘tiribdi. Shu payt narigi xonadan moviy ko‘zlari tiniq, qirra burunli suluv bir ayol bir-bir qadam bosib shipillab kirib kelib, o‘rischa yozilgan ikki betli qog‘ozni xo‘jayinining oldiga yoyib qo‘ydi-da, yozuv mashinkasini chiqillatganday tez va qisqa gapirib, qog‘ozga qo‘l qo‘ydirib chiqib ketdi.

Odamlarning kamayishini kutib o‘tirib, anchadan keyin to‘rtinchi odam ham chiqib ketgach, Zorliq fursatdan foydalanib, endi gapirmoqchi bo‘lgan edi, tegadigan tayoqdan qo‘rqqanday, idora boshlig‘i unga e’tibor bermay, o‘ng tomonida o‘tirgan suvsar telpakli kishi bilan so‘zlasha boshladi. Zorliq o‘zini kamsitilganday his qildi.

Hamma ketib, idora yopiladigan vaqt yaqinlashdi. Zorliq endi bizga ham navbat kelgandir deb o‘ylab turganda, haligi kishi beparvo holda stol ustidagi qog‘ozni ko‘zdan kechira boshladi. Shu payt Zorliq sherigini bu yoqqa o‘tib tur, deganday turtib, o‘zi oldinga o‘tdi:

— Biz anchadan beri sizni kutib turibmiz, — dedi past ovozda.

— Iye, nima xizmat? — dedi qora mo'ylovchi kishi ko'zini chaqchaytirib.

— Nima bo'lardi, o'qish...

— "O'qish yo'q" deb tunov kuni aytdim-ku! Nima? Ko'chada qolsanglar, men nima qilay? Ishlanglar!

— Sizdan eshitganimiz shu bo'lsa, rosa nasihat qiladigan kishini topib kelgan ekanmiz!.. "Ishlanglar!" O'n yildan beri qiynalganimiz yetmaganiday, yana boylarning tezagini tozalab yuraveringlar, deysizmi? "Yetim-yesir" deyishingiz qayerda qoldi? — dedi Zorliq alamidan achchiq so'zlarni aytib.

Boshliq bolaning og'zidan bunday gaplar chiqishini o'ylab ham ko'rmagan bo'lsa kerak. U ko'zi qonga to'lib, ikki qo'li bilan stolga tayanib o'rnidan turmoqchi bo'ldi-da, qaytib o'rniga o'tirdi. Suhbat ustiga kelib qolgan bir odam Zorliqqa qarab "unday dema" deganday, sezdirmay labini tishlab qo'ydi. Zorliq "o'ylamasdan gapirib qo'ydim, shekilli" degan xayolga borgan bo'lsa-da, ko'nglidagi gapni aytib bo'lgach, endi nima bo'lsa, bo'lar, deb indamay turaverdi.

Boshliq masxaraomuz tarzda "piq" etib kulib qo'ydi-da:

— Senlarga o'xshagan yetim-yesirning hammasini yig'aversak, xazina yetadimi? — deb qog'ozlarini yig'ishtirib ketishga hozirlana boshladi.

Zorliqning "xuddi o'zing xazinani to'ldirib yurganga o'xshaysan", degisi keldi-yu, endi bir ish chiqmasligiga ko'zib yetib, o'sha zahoti xonadan chiqib ketdi.

Ikki kundan keyin sherigi bilan yana uchrashadigan bo'ldi.

— Endi ko'zim yetdi, bu yerda bekorga yo'q bo'lib ketasan. Biror tanishing bo'lmasa...

Sherigi Zorliqni ham birga ketishga unday boshladi.

— O'zing o'ylab ko'r, sen ketsang hech nima bo'lmaydi: uy-joying bor, qarashib turadigan og'alaring bor. Men kimnikiga boraman? Menga qayer bo'lsa ham baribir emasmi? Bir kunlik tashvishim uchun nega meni ovora qilasan?

Zorliqning so'zlaridan so'ng sherigi o'z xatosini tushunib yetganday indamay qoldi. Peshin mahali. Ikkisi ko'chaning boshigacha yurib kelganidan so'ng Zorliq yangasining urishib: "taom

bo‘lsa, darhol ichib olib, foyda keltirmay ketaverasan”, degan gapini eslab, qadamini tezlatdi.

IV

Bir kuni Zorliq o‘zi uchun uxlash qulay deb o‘ylagan bozor etagidagi katta do‘konning burchagida tunab qoldi. Yarim kechasi kimningdir:

— Ey, kimsan? Tur! — degan ovozidan uyg‘onib ketib, o‘zidan ikki sarjin yiroqda turgan gavdali notanish bir o‘zbek odamni ko‘rdi.

Zorliq uyquli ko‘zlarini uqalab, o‘rnidan qo‘zg‘alayotganida:

— To‘xta! — dedi haligi odam bir-ikki qadam bosib.

— Men qochmayman.

Uni uyg‘otgan odam bu orada baqirib kimnidir chaqirdi. U ham qorovul bo‘lsa kerak. Ikkisi bir bo‘lib “gunohkor”ni tergay boshlashdi.

— Yarim kechasi bu yerda nima ish qilib yuribsan?

— Ko‘rib turibsan-ku...

Qorovullarning biri timirskilanib cho‘ntagidan gugurt topolmadi. Tun unchalik qorong‘i emas edi. Shundan keyin birinchi qorovul yaqinroq kelib, Zorliqning boshidan mahkam tutib, yuziga qaradi.

— Uying qayerda?

— Uyi bo‘lsa ham, bu yerni yaxshi ko‘rib kelgan, deb o‘ylaysanmi?

Qorovul shundan so‘ng “bu yoqqa yur” deb, so‘qir kishi qo‘lidan yetaklagandek sudrab borib, nariroqda to‘xtadi:

— Seni o‘ldiramiz! — dedi birinchisi.

— Meni o‘ldirishdan maqsadingiz shu bo‘lsa, o‘zim yechib beraman, — dedi Zorliq ikki qo‘lini ko‘ylagining yoqasiga olib borib.

— Bo‘lmasa, to‘g‘risini ayt.

— To‘g‘risi shu, o‘g‘ri emasman. Savdogarlarning do‘konini buzib kiradigan holim bormi? O‘lsam ham, bu ishni qilmayman...

— Birorta qiz bilan uchrashuvga borib qaytayotganda uxlab qolgan bo'lsang kerak! — deya nariroqqa borib sherigi bilan gaplashdi-da, qaytib keldi:

— Unday bo'lsa, bor. Yana ko'zimga ko'rinadigan bo'lsang!..

V

Bozorning markaziy ko'chasidan kun botishga qarab ketgan yo'l yoqasida tomi tunukali, devori qizil tusga bo'yalgan yolg'iz baland bino bor. Bu Otdnarob[1]. Boshqa mahkamalardan olisda joylashgan. Zorliq bu binoni birinchi marta ko'rib turibdi.

U yuqori qavatga chiqib, odamlardan so'rab-surishtirib bir xonaga kirib borsa, panjarali derazą yonida baland bo'yli odam o'tirgan ekan. Zorliq sekin yurib kelib, stolga yaqinlashgan paytda u "qulog'im senda" deganday bir qarab qo'ydi-da, vazminlik bilan yoniga burilib, odamning yuragini teshib o'tadigan aqlli ko'k ko'zi bilan uning oyog'idan boshiga qadar bir sidra qarab chiqdi.

Uning xayolidan nimalar o'tayotganini payqagan Zorliq ham uzoq kuttirmadi. Haligi kishi qirg'iz tilida tez gapira olmasa ham, yaxshigina tushunardi. Zorliq bu yerga kelganiga bir oydan ko'p bo'lganini, shuncha paytdan beri biror joyga o'rnasha olmaganini, boshidan kechirganlari-yu yetimligini va dilidagi orzu-armonlarini so'zlab, oxirida:

— Shunday qilib, sizdan biror yordam bo'lar, degan umidda keldim. Taqdirim sizga bog'liq bo'lib qoldi, — dedi...

Qorako'ldagi "g'aznalik o'quv" deb ataladigan internat Zorliqning orzusi edi. Undan boshqa kurslar ham ochilgan edi, lekin ular ma'qul emas. Bola bor gapini aytib bo'lganiga qadar haligi kishi ochiq yuz bilan mehrli ko'zlarini undan uzmay jim qarab o'tirdi.

Bola so'zini tugatgach, uning ahvolini endi anglab yetganday bo'lib, qalam tutgan qo'lini iyagidan olib, bir og'iz gapirmasdan oldidagi qog'ozini to'g'rilab nimadir yozmoqchi bo'ldi-da, o'ylanib qoldi:

— Bir oydan keyin kel. Seni...

[1] Otdnarob (otdel narodnogo obrazovaniya) — Xalq ta'limi bo'limi.

— Ungacha o'lib qolaman-ku, sadag'ang ketay! — Zorliq javdirab unga tikildi.

Idora xodimi yana o'ylanib qoldi.

— Unday bo'lsa, bir joyga tayinlab qo'yaman. O'sha yerda yurib turasan.

Bir ayolni tashqariga jo'natib, u qaytib kelganidan keyin Zorliqqa:

— Kutib tur. Bir odamga qo'shib yuboraman, — dedi.

Uning aytgan odami idora yopiladigan vaqtda keldi. Yuzida sepkili bor, burnining uchi qisib qo'ygandek ingichka, sarg'ish soqolli, kengfe'l kishi ekan. U ham qayerdadir xizmatchi ekan.

Zorliqni uning qo'liga topshirgan idora xodimi ham ular ketgach, idoradan chiqib ketdi.

Zorliq ergashgan xizmatchining uyi Otdnarobdan besh ko'cha narida, aniqrog'i, shahar chetida ekan. Oilasi katta emas, ayoli, 15–16 yoshli qizi bor ekan. O'zi bilan uch nafar kishi. Ayolining yoshi kattaga o'xshaydi. Og'ilida uch-to'rt bosh sigiri, ikki oti, cho'chqasi bor ekan.

Kelganiga bir hafta bo'lmay, Zorliqning ishini, arava qo'shganini — hammasini yoqtirib:

— Sen o'rislarga malay bo'lib ko'p yurgansan, shekilli, — dedi bir kuni.

— Yurganman.

— Ko'rinib turibdi. Hamma ishni uddalaysan. Kuching ham ko'p...

Biroq Zorliq bir xil yumushdan zerikadi. Har kuni ertalab turib, sigir-buzoqlarni podaga qo'shib qaytganidan keyin molxonani tozalaydi. Samovarni o'zlari qo'yishadi. Nonushtadan keyin o'tin kesib keladi.

Kechga borib otlarga daladan o't o'rib qaytadi. Kun bo'yi tinmay ishlagan paytlari oz bo'ladi. Xo'jayinning ayoli bir marta arava haydatib, Qizilsuvga ham borib keldi.

Zorliq juda zerikkan kunlari bozor tomonga borib keladi. Otdnarob shu ko'chada joylashgan. Uning yonidan u yoq-bu yoqqa o'tgani sayin bino ko'ziga issiq ko'rinadi. Yursa-tursa ham xayoli o'shanda.

Ko'pincha eshik oldidagi ko'prikka soya solib turgan katta terakka suyanib, ko'chadan o'tganlarni tomosha qiladi. Bor ko'ngil ochari shu.

— Eh, yolg'izlik!

Kechasi bilan ko'ziga uyqu ilinmagan Zorliq dushanba kuni ertalab Otdnarobga keldi, lekin izlagan odami yo'q ekan. Ko'pchilik tashqaridagi zinada kutib o'tiribdi. Tog' usti bo'zarib, sezilar-sezilmas shabada esmoqda.

Boshqa joydagi yumushidan kechroq bo'shadi, shekilli, Zorliq kutgan kishi tush paytida ishga keldi.

— Ancha ilgari oldingizga kelgandim. O'shanda siz... — deb gap boshlashi bilan u "bilaman" deganday boshini silkib qo'ydi.

— Yoshing nechada?

— O'n yettida.

Idora boshlig'i biroz o'ylanib turdi-da, odatdagiday Zorliqni bor bo'yicha kuzatib chiqib, allaqanday qog'ozni yirtib, qo'liga qalam oldi. Zorliq o'zining taqdiri mana shu bir-ikki daqiqada bir yoqli bo'ladiganday, shu odam "g'aznalik o'quv"larning biriga "buyruq" yozib bersa, bugundan tortib hayoti yaxshilanib ketadiganday ko'rinib, haligi odam xat yozib bitganiga qadar zo'rg'a chidab turdi. Umrida unga bag'ishlab begona kishining qalam tutgani shu. Boshliq xatni yozib bo'lganidan so'ng:

— Ma, buni internatga olib bor. U bozorning yuqori tomonida... — deya gap boshlashi bilan Zorliq cho'chib uyg'ongan odamday seskanib, uning so'zini oxiriga qadar eshitmay:

— Bilaman, — deb uzatilgan qog'ozni darrov qo'liga oldi.

Zorliq shoshib borar ekan, bozor yo'lini to'ldirgan odamlarning kimligi ham, qanday mollar sotilayotgani ham ko'ziga ko'rinmasdi. Uchib-qo'nib, o'n daqiqa ichida internatga yetib bordi.

Zorliq internet direktorini sirtdan taniydi. Direktor yoshi qirqlardan o'tgan, soqolini qirdirib yuradigan, avvalgi generallarnikiday buralgan mo'ylovi papiros chekaverganidan sarg'ayib ketgan, chag'ir ko'zli, bo'yi qoziqday tik, oriqdan kelgan odam. Ismi Shinelin.

Internatga yetib borsa, direktorning o'zi Zorliqning ro'parasidan chiqdi. Uni ko'rgan zahoti Zorliq shoshib borib qo'lidagi

qog‘ozni uzatdi. Shinelin qog‘ozga bir qur ko‘z yugurtirib, qaytib berdi.

— Joy yo‘q!

Bundan ortiq gap aytmadi. Zorliq olib borgan “buyrug‘i”ning ma’nisini tushuntirib, o‘zining hol-ahvolini aytib, ancha joygacha ergashib bordi. Uning qayta eshitgan javobi ham yuqoridagiday bo‘ldi.

Zorliq Otdnarobga qaytib bordi. Internatga yuborgan kishi bolaga qaramay:

— Chaqirib kel o‘shani, — dedi.

Bu gapni eshitishi bilan Zorliq yana internatga qarab yugurib ketdi. Bu gal kelganida Shinelin aravani qo‘shtirib qayergadir jo‘namoqchi bo‘lib turgan ekan. Uni chaqirishayotganini aytdi.

— Hozir o‘sha yerga boramiz, sen ketaver, — dedi direktor.

Zorliq ortiga qaytib, ertalab kelib o‘tirgan zinada kutib turdi. Peshin yaqinlashib qolgandi. Ikki ko‘zi Shinelin keladigan ko‘chada bo‘ldi. Anchadan keyin katta ko‘prikning narigi tomonida tanish bo‘z ot ko‘rindi.

Shinelin Otdnarobning yoniga kelgach, otning jilovini tortib to‘xtatdi-da, aravadan tushib, tizginni o‘zi bilan kelgan bolaga tutqazdi. Zorliq o‘rnidan turib, uning ortidan ergashib ichkariga kirdi. Shinelin kirib borgan zahoti idora boshlig‘i bilan so‘zlasha boshladi. Zorliq rus tilini bilmasa ham, ularning gapi orasidagi “rabota”, “sirota” kabi bir-ikki so‘z unga tanish edi. Otdnarobdagi kishining yengib chiqishini istab, chidamsizlik bilan xavotir olib o‘tirdi. Suhbat besh daqiqa ham cho‘zilmadi.

— Qani, yur! — deya Shinelin burilib Zorliqqa qaradi.

Hovliga chiqqandan keyin “o‘tir” deganday qilib aravani ko‘rsatdi. Chelpak ovulida bir paytlar bolaning o‘zi o‘tin kesgan joyga borishayotgan edi. Bolalarning hammasi o‘sha yerda ekan. Zorliq qattiq quvongani uchun aravaga nari-beri tashlangan panshaxa-xaskashlarning ustida muloyim to‘shakda o‘tirib borayotganday edi...

MUNDARIJA

So‘zboshi *(Zuhriddin Isomiddinov)* 3

Qalig‘ul
Nasihat she’r *(Shavkat Umrzoqov)* 10

Mo‘lda Niyoz Ernazar o‘g‘li
Egam bilar hisobin. *Zuhriddin Isomiddinov tarjimasi*.....16

Arstanbek Buylash o‘g‘li
Tor zamon. *Shavkat Umrzoqov tarjimasi*.....20

Nurmo‘lda
She’rlar va aytishuvlar. *Tursunboy Adashboyev tarjimalari*.....26

Tuyoq Ernazar o‘g‘li
She’rlar. *Shavkat Umrzoqov tarjimalari*.....67

To‘g‘aloq Mo‘lda
Terma.....77
Eshak bilan bulbul *(masal)*. *Zuhriddin Isomiddinov tarjimasi*.....78

Jengijo‘q Ko‘ko‘ o‘g‘li
Terma she’rlar. *Shavkat Umrzoqov tarjimalari*.....82

To‘qtag‘ul
She’rlar. *Zuhriddin Isomiddinov tarjimalari*.....114

Mo'lda Qilich
She'rlar va doston. *Muhammad Siddiq Rahmatov tarjimasi* 233

Barpi Aliqulov
She'rlar. *Qurbon Sattor, Zuhriddin Isomiddinov tarjimalari* 246

Atay O'g'o'nbayev
Kuydim cho'g'. *Shavkat Umrzoqov tarjimasi* 273

Qosim Tinistanov
She'r. *Muhammad Siddiq Rahmatov tarjimasi* 274
"Jang'il mirza" dostoni 275

Qosimali Boyalinov
Hojar. Qissa. *Ilyos Muslim tarjimasi*.....297

Aali To'qamboyev
She'rlar. *Sh. Umrzoqov, Z. Isomiddinov, B. G'oziboyev tarjimalari*.....316
Kuyning siri. *Gulnora Xolmatova tarjimasi*.....321

Muqay Eleboyev
Zorliq. *Avliyoxon Eshon tarjimasi* 340

S 32 Sarchashma [Matn]: nasr / to'plovchi va nashrga tayyorlovchi Zuhriddin Isomiddinov. – Toshkent: "O'zbekiston nashriyoti", 2022. – 360 b.
ISBN 978-9943-8570-9-4

UO'K 821.512.154-3
KBK 84(5Qir)

TURKIY ADABIYOT DURDONALARI

SARCHASHMA

82-jild

Adabiy-badiiy nashr

Muharrir *Anvar Zulpixarov*
Badiiy muharrir *Shuhrat Mirfayozov*
Dizayner *Bobur Tuxtarov*
Texnik muharrir *Yelena Tolochko*
Kichik muharrir *Zilola Mahkamova*
Musahhih *Munisa Ismoilova*
Sahifalovchilar: *Shahlo Buriyeva, Islom Azamatov*

Tasdiqnoma raqami № 4642. 22.07.2020-y.
Bosishga 18-oktabr 2022-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x90 $^{1}/_{16}$.
Ofset qog'ozi. "PT Astra Serif" garniturasida ofset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'i 22,5. Nashriyot-hisob tabog'i 19,01.
Adadi 1 185 nusxa. Shartnoma № 148-1/22 Buyurtma raqami № 22-365

Original maket O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining "O'zbekiston" nashriyotida tayyorlandi.
100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.
Telefon: (71) 244-34-38, (71) 244-24-91.

"O'zbekiston" NMIU MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: 100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.



TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

SARCHASHMA